

R. HASANOV, SH. O'LJAYEVA,
O. MUSAYEV

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI**

R. HASANOV, SH. O‘LJAYEVA, O. MUSAYEV

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan 2021-yil 25-dekabr 538-sonli buyrug‘i asosida o‘quv
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2022

UO'K: 94(575.1)
KBK: 63.3(50'zb)
O' 69

O' 69

R. Hasanov, Sh. O'ljayeva, O. Musayev. O'zbekistonning eng yangi tarixi. //O'quv qo'llanma//. -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022. 424 b.

ISBN 978-9943-7435-3-3

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonning eng yangi tarixi, ya'ni O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab vaziyat, respublika mustaqilligining e'lon qilinishi, mustaqillik-yillarida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi islohotlar va ularning bosqichlarini, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar tashqi siyosat kabi masalalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida O'zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o'rganish yosh mutaxassislarning bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o'rini, davr qahramonlarini, ayniqsa, o'zining ham shu jarayon ishtirokchisi ekanligini to'g'ri va to'liq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallashi bayon etilgan.

В этом учебном пособии освещается новейшая история Узбекистана, непростая ситуация накануне обретения Узбекистаном независимости, провозглашение независимости, проводимые реформы в социально-политической, экономической и духовной сферах за годы независимости, всесторонняя интеграция Узбекистана в мировое сообщество. Раскрыта научная и практическая значимость таких вопросов, как отношения, безопасность, межнациональное согласие и религиозная терпимость, миролюбивая внешняя политика. Также было отмечено, что глубокое изучение новейшей истории Узбекистана в сфере высшего образования играет важную роль в развитии общества, так как молодые специалисты имеют правильное и полное представление о современной политике, своем месте в мировом сообществе.

This textbook covers the recent history of Uzbekistan, the difficult situation on the eve of Uzbekistan's independence, the declaration of independence, the ongoing reforms in the socio-political, economic and spiritual spheres over the years of independence, the comprehensive integration of Uzbekistan into the world community. The scientific and practical significance of such issues as relations, security, interethnic harmony and religious tolerance, and a peaceful foreign policy is revealed. It was also noted that a deep study of the modern history of Uzbekistan in the field of higher education plays an important role in the development of society, since young specialists have a correct and complete understanding of modern politics, their place in the world community.

UO'K: 94(575.1)
KBK: 63.3(50'zb)

Mas'ul muharrirlar:

N. Jo'rayev – siyosiy fanlar doktori, professor;
H. Hamidov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

V. Qo'chqorov – siyosiy fanlar doktori, professor (O'zXIA);
A. Doniyorov – tarix fanlari doktori, professor (TDSHU);
F. Ernazarov – tarix fanlari doktori, professor (TDIU);
G. Abdullaxo'jayev – yuridik fanlar nomzodi, dots. (MRDI).

ISBN 978-9943-7435-3-3

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan vaqt ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishini isloh qilish bo'yicha o'ziga xos tajriba to'plandi. Ma'lumki, mustabid sovet tuzumida boshlangan inqiroz O'zbekistonda sovet tuzumi markazlashgan rejalashtirish-taqsimlash mexanizmining barbod bo'lishida, aholi genofondining qisqarishida, ekologik holatning buzilishida namoyon bo'ldi. O'zbekiston ulkan tabiiy, mineral-xom ashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lgani holda sobiq Sovet Ittifoqida aholi turmush darajasi, ijtimoiy va iqtisodiy soha rivoji bo'yicha eng oxirgi o'rinlardan birini egallab turardi.

O'n-yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar birinchi navbatda, yoshlar o'rtasida radikal kayfiyatlarning o'sishiga, millatlararo, qarama-qarshiliklarning kuchayishiga, ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash tizimining susayishiga, huquqiy bo'shliq holatining paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning qat'iy sa'y-harakatlari tufayli mamlakatimiz tarixidagi bu murakkab vaziyat engib o'tildi.

O'zbekistonning keyingi taraqqiyoti, bozor iqtisodiyotiga o'tishning beshta tamoyiliga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, taraqqiyotning "o'zbek modeli"ni yaratish, xalqimiz madaniy va ma'naviy hayotidagi tub o'zgarishlar, tarixiy xotira va tarixiy-madaniy merosning tiklanishi – bularning barchasi o'z mohiyatiga ko'ra mamlakat tarixida "eng yangi davr" deb nomlanishga asos bo'ladigan alohida bir davrni boshlab berdi.

Eng yangi davrning o'ziga xos jihatlari mamlakatimizda yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlarning ko'lami va shiddati bilan, ularning xalqimiz, har bir shaxs hayotiga bevosita ta'siri bilan belgilanadi. Bundan tashqari, eng yangi tarix zamonaviylik bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun uning zamirida kelajak bilan bog'liq g'oyalarni ko'rish imkonini beruvchi istiqbolli kuch yotadi. Shu sababli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'sib kelayotgan yosh avlod istiqbolimiz tarixini chuqur o'rganishi, bunday kunlarga osonlik bilan erishilmaganini tushunib, anglab etishi zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanning nisbatan yangi yo'nalishidir. Shu bois, u hali institutsional xarakterga ega emas, ya'ni o'z metodologiyasiga, mustaqil tadqiqot obyektiga va o'quv-metodik ta'minotiga ega emas.

O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o'rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o'rni va rolini ko'rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan vazifalarni bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'l orqali ro'yobga chiqarish lozim. Birinchi yo'l – yangi avlod ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo'l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ'ib etish va o'qitish.

Shuni ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitlarida O'zbekiston yoshlari turli mafkuraviy oqimlar ta'sirida qolib ketmoqda, bu mafkuralardan ba'zilari mustaqil O'zbekiston va uning siyosatini ogli ravishda parokanda qilishga yo'naltirilgan.

Shu bois, O'zbekistonning eng yangi tarixi ilmiy va o'quv fani hamda axborot xavfsizligi tizimining bir qismi sifatida qarshi targ'ibotni o'z ichiga olishi shart. Bundan tashqari, O'zbekistonning eng yangi tarixi – bu nafaqat akademik bilim yoki o'qitish, balki konstruktiv tarixiy xotira, vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi vosita hamdir.

O'zbekistonning eng yangi tarixini bilish yosh avlodga butunjahon tarixi ko'lamida Vatan tarixining XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi muhim voqealarini, davlatimiz taraqqiyotining o'ta muhim yo'nalishlarini anglab etish, mamlakat rahbariyatining yangi strategik davrida O'zbekistonning zamonaviy dunyodagi o'rni va roli hamda ichki va tashqi siyosatning ustuvor vazifalari haqida tasavvur hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

Yoshlar o'zlari qaysi dunyo va qanday davlatda yashayotganlarini, uning rivojlanishidagi dolzarb masalalarni anglab, tushunib yetishlari hammamiz uchun juda muhim. O'zbekiston jamiyatida tarix fani bo'yicha zamonaviy talablarga javob bera oladigan hamda jamiyat kelajagiga mos, o'zining konseptual va mazmuniy xususiyatlariga ko'ra yangi qo'llanmalar ishlab chiqish zarurligiga ishonch shakllandi.

Yangi fan sifatida oliy o'quv yurtlariga kirib kelayotgan ushbu fanga "O'zbekistonning eng yangi tarixi" nomli o'quv qo'llanma matni ishlab chiqildi. Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlanishida mustaqillik davri bo'yicha mavjud adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari, ma'ruzalari va hozirgi davlat rahbarimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari, 2017-2020-yillardagi Oliy Majlisga Murojaatnomalari, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi, "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi" va boshqa ko'plab qabul qilingan qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, OAV ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

Yangi bosqichda O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish – dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

«Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda «Yangi O'zbekiston» iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi-yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofidir.

1-MAVZU: "O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" O'QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

1.1. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

1.2. Yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'mi.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy etuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'mi va saboqlari to'g'risidagi fikrlari.

Tayanch tushunchalar: tarix, eng yangi tarix, O'zbekiston, davrlashtirish, akademik A.Asqarov, sovet tuzumi, mustaqillik, Faning predmeti, obyekt, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Yangilanayotgan O'zbekiston».

1.1. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Birinchi masala bayoni. Xalqimizning boy tarixi, ma'naviy merosi va madaniyatiga bugungi kunda yangicha tafakkur va dunyoqarash asosida munosabat bildirilmoqda. Ular xususida kitoblar, monografiya va o'quv qo'llanmalari chop etish, yoshlar, umuman keng xalq ommasiga etkazish yo'lida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mustaqillik-yillarida amalga oshirilgan tub iqtisodiy-siyosiy islohotlar bilan bir qatorda, fan va ta'lim sohalarida ham asrlarga tatigulik chuqur, keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yangilanishlar va islohotlar davrida xalqimizning boy tarixi, moddiy va ma'naviy merosini o'rganish hamda kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, mustaqillik-yillarida xalqimizning o'tmishi, milliy urf-odatlari, qadriyatlari o'ziga qaytarildi. Sovet tuzumi-yillarida oyoq osti qilingan ma'naviyatimiz mustaqillik sharofati bilan tiklanib, uni boyitish yo'lida qator hayrli ishlar qilindi. Darhaqiqat, tarixni to'g'ri davrlashtirish asosida fanga oid bilimlarni yoshlar ongiga mukammal yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixni to'g'ri davrlashtirmasdan turib, uni xolis o'rganib bo'lmaydi.

Jumladan, mamlakatimiz tarixini yagona nazariy konsepsiya asosida davrlashtirish masalasi ancha-yillar talay bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Ammo keyingi-yillarda O'zbekiston tarixi fanida boy o'tmishimizni davrlashtirish masalasi o'z yechimini topdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, har bir xalq va millat tarixi ma'lum mahalliy shart sharoitlar va qonuniyatlar asosida rivojlanadi va shu asosda davrlashtiriladi. Chunki, insoniyat tarixi dunyoning turli mintaqalarida turli tarixiy davrlarda turlicha kechgan bo'lib, biron bir mintaqadagi tarixiy jarayonlar ikkinchi mintaqadagi tarixiy jarayonlardan tubdan farq qilishi mumkin.

Aynan O'zbekiston tarixini yangicha davrlashtirish borasida o'zining nazariy konsepsiyasini ilgari surgan akademik A. Asqarov bu borada to'g'ri ta'kidlab, o'ziga xos ilmiy tavsiyalarini ilgari surib, quyidagilarni qayd etadi: "Sho'rolar davri tarix fanida kishilik jamiyati tarixini 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy farmasiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, kuldorlik, feodalizm, kapitalizm va sosializm)ga bo'lib o'rganish an'anaga aylangan edi. Sobiq SSSR parchalanib, kommunistik g'oya va sotsializm sistemasi barbod bo'lgandan so'ng, jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy qonunlari o'zgardi.

Shu boisdan bugungi kunda hayot tarixga, jamiyat taraqqiyotining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishda obyektiv, aniq va birlamchi manbalar asosida yondashishni taqozo etmoqda. **Zero, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini 5 ta formatsiyalarga bo'lib o'rganishlik endilikda zamon talabiga to'g'ri kelmay qoldi.** Chunki, O'rta Osiyo xalqlari tarixi misolida oladigan bo'lsak, quldorlik tuzumi maxsus ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya sifatida bizda bo'lmagan. Sotsialistik jamiyat esa tarix taqozo etmagan hayoliy bir o'ydirma bo'lib chiqdi. O'rta Osiyo sharoitida ana shu 5 ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning faqat uchtasigina (ibtidoiy jamoa tuzumi,

feodal jamiyati va kapitalistik munosabatlarning dastlabki bosqichlari) yuz berganligini ta'qiqlash mumkin. Sovet davri jamiyati esa davlat monopolistik kapitalizmi shaklida rivojlandi.

O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasida sovet davrida mutlaqo boshqacha yondoshuvlar mavjud edi. Bunday tarixiy davrlashtirishdan farqli ravishda mintaqamizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib akademik A. Asqarov tomonidan taklif etilgan nazariya ham e'tiborga molikdir. Olim O'zbekiston tarixini davrlashtirishda quyidagi yettita asosiy davrni ko'rsatib o'tadi:

- 1) *Ibtidoiy to'lda davri (2,5 mln.-40 ming-yilliklar)*
- 2) *Urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri (40 ming-yillikdan milodiy V asrlargacha)*
- 3) *Ilk O'rta asrlar davri (IV asr oxirlari - V asrdan - IX asr o'rtalarigacha)*
- 4) *O'rta asrlar davri (IX asr o'rtalaridan-XIX asrning birinchi yarmiga qadar)*
- 5) *Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri. (XIX asr o'rtalaridan - 1917-yilgacha)*
- 6) *Sovetlardavri (1917-1991-yillar)*
- 7) *Milliy mustaqillikka erishish, demokratik va fuqarolik jamiyati qurish davri.*

Shu o'rinda tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma'naviy boy, ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qilishini qayd etish zarur. Ularni talabalarga yetkazishda quyidagi omillar muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, talabalarda tarixni anglash orqali hayotni anglash, o'zligini anglash qobiliyati shakllanadi, ularda istiqbolini belgilash tuyg'usi kuchayadi.

Ikkinchidan, talabalar tarixiy tafakkur orqali o'tmish va bugungi hayotni solishtirish, taqqoslash va zarur xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'tmish va bugungi kun mazmuni chuqurroq anglash falsafasi yuzaga keladi. Bu har bir insonning o'ziga xos tafakkur tarzini shakllantirish orqali shaxs sifatidagi fe'l-atvorining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, yoshlar tarixni o'rganish orqali turli qirg'inbarotlar iskanjasida o'zligini yo'qotgan, o'z qadru-qimmatini unutgan fuqaroni

uyg'onishga, o'zligini anglashga, o'z haq-huquqini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga da'vat etadi.

To'rtinchidan, ajdodlari buyuk, jahon taraqqiyoti va tamadduniga katta hissa qo'shgan madaniyatga daxldor xalq qalbida o'tmishini o'rganish milliy g'uruming uyg'onishi katta ijtimoiy-ma'naviy qudrat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayon insonning o'zini-o'zi yangilashiga yordam beradi.

Beshinchidan, jamiyatda insonning ma'naviy-ruhiy quvvatini yuksaltirish orqali jamiyatni yangilash, inson turmush tarzini o'zgartirish kabi chuqur, keng miqyosli islohot amalga oshiriladi. Bu bugungi Yangilanayotgan O'zbekistondagi keng qamrovli islohotlar davrida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarix fanini o'rganishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy g'oya va nazariyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular tarix fanining mazmun va mohiyatini chuqurroq anglashga, shuningdek, fanni o'rganishning maqsad va vazifalarini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda tarix fanini o'rganishda ma'lum ilmiy, metodik tamoyillarga tayanish ham muhimdir. Shuningdek, etnografiya, arxeologiya, antropologiya fanlarida qabul qilingan moddiy va yozma ma'lumotlarga tayangan holda ish yuritish ham fanni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarix fani insoniyatning o'tmishi, aholining turmush tarzi, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga oid sodir bo'lgan voqea va hodisalarni, insoniyat jamiyatining barcha tadrijiy (evolyutsion) rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. Vatanimiz tarixi jahon tarixining ajralmas qismi bo'lib, u ajdodlarimizning bosib o'tgan tarixiy yo'li, turmush tarziga oid ma'lumotlarni ma'lum izchillikda va ketma-ketlikda o'rganadi. O'zbekiston tarixi fanini o'rganish orqali biz ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi xususida tushunchalarga ega bo'lish barobarida, ularning jahon xalqlari tarixiy taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Eng yangi tarix fani xususida xolis ma'lumotlarga ega bo'lish uchun fanning predmeti va obyektini to'g'ri belgilab olish muhim

ahamiyatga ega. Zero, hozirgi kunda tarixchilar oldida turgan muhim masalalardan biri bu, o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixini fanning predmeti va uni o'rganish obyektidan kelib chiqib, ma'lum nazariy-metodologik tamoyillarga suyangan holda haqqoniylik, xolislik asosida yoritishdan iboratdir.

Eng yangi tarix fani ham boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi mustaqil fan hisoblanadi. U barcha fanlar qatori alohida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lib, ijtimoiy-gumanitar va boshqa ayrim fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. *Birinchi*dan, u o'z xususiyatiga ko'ra, o'tmish haqida saboq beradi, insonlarni sodir bo'lgan voqea va hodisalar haqida kerakli xulosalar chiqarishga undaydi, kishilarni ajdodlarimizning o'tmishdagi hayot tarzini, ular yaratgan moddiy va ma'naviy merosini qadrlashga undaydi.

*Ikkinchi*dan, tarix fanini o'rganishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun xos barcha shakl va uslublarga tayaniladi, hatto uni o'rganishda matematik usuldan ham foydalanilishi bejiz emas. Chunki tarixiy voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlikda, xronologik asosda o'rganiladi. Ularni o'rganishda tarixiy hujjat va dallilarning haqiqiy ekanligi, ular qachon, qaerda, qanday tarixiy muhit va sharoitda yaratilganligiga ham ahamiyat bermoq lozim. O'zbekiston tarixi fani o'tmishdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni, ularning rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o'rganadi, kishilarni ulardan kelajak uchun saboq va xulosalar chiqarishga undaydi. Bu esa bo'lg'usi avlodlar kamolotida katta ahamiyatga ega.

Fanning predmeti mustaqillik-yillarida O'zbekistonda sodir bo'lgan jamiki voqea va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarixiy hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning barcha tarixiy faoliyat jarayonlarini o'rganishdir.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganish obyekti. O'zbekiston eng yangi tarixida sodir bo'lgan barcha voqea va hodisalaridir.

Tarix fanining **obyekt** (makon)iga nisbatan fanning maqsadi, vazifasi, yo'nalishini belgilash mumkin. Ya'ni, ma'lum bir ma'noda obyekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'mi va vazifasi bilan farqlanadilar.

Obyekt, aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik va umumiy mintaqaviy chegaralar, ma'lum xalqlar, mamlakatlar tarixi bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, ular voqea va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda qamrab oladi. Shu boisdan ijtimoiy gumanitar fanlarning obyekti, aniq reallikda sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, o'zgarishlar, voqea va hodisalardir. Predmet esa mana shu obyekt ichidagi aniq tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'lgan aniq voqea va hodisalarni o'rganishdir.

Fanni o'qitishning maqsadi – mustaqillik-yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabaniing o'rini, o'zligini anglatishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari – mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik-yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'urumi shakllantirishdan iborat.

Yuqorida tarix fani bir qator fanlar, xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqada o'rganiladi, dedik. Shuni ham aytish lozimki, tarix va boshqa aksariyat *ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish obyekti inson, davlat va jamiyatdir*. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga hissa qo'shadi, tarixiy haqiqat ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Tarix faninini ya'ni, Vatan tarixini xolis o'rganish xalqimiz o'tmishi haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishda muhim o'rin tutadi, xalqimiz kelajak taqdirini ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega.

Zero, o'zbek xalqi va O'rta Osiyo mintaqasida azaldan birga istiqomat qilib kelayotgan xalqlar tarixi o'zaro mushtarak bo'lib, ular insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Fanni o'qitishdan asosiy maqsad, vatanimiz tarixining qadimgi davridan hozirgi kungacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini holisona o'rganish orqali fuqarolar, ayniqsa, yoshlar ongida tarixiy xotira, ular

qalbida vatanparvarlik, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalar fanni o'rganish jarayonida mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik-yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar xususida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Endi barcha fanlarning asosiy nazariy jihatini tashkil qiluvchi "metodologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi haqida. Umuman, ushbu so'z grekcha «metodos» va «logos» kabi ikki so'zlar birikmasidan iborat bo'lib, metod, ya'ni usul tadqiqot olib borish usuli (yo'li), logos" esa fan ma'nolarini anglatadi. Demak, metodologiya ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy-nazariy o'rganishning qulay usullari, to'g'ri va mukammal g'oyasi, nazariyasi va ta'limotlari ma'nosini anglatuvchi tushunchadir. Boshqa ma'noda esa metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandir. Uni o'rganishda quyidagi ikki yo'nalishni keltirish maqsadga muvofiq.

Avvalambor, tarix fanini o'qitishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy hamda g'oyaviy asoslarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- *birinchidan, tarixga xalqning milliy va umumbashariy qadriyati hamda muqaddas ma'naviy merosi sifatida qarash lozim;*

- *ikkinchidan, tarix haqqoniy bo'lishi uchun, unga umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish muhim;*

- *uchinchidan, tarix jamiyat va davlatlar hamda insoniyat taraqqiyotining ma'lum dialektik hamda sinergetik qomuniyatlari asosida rivojlanishini to'g'ri anglash zarur;*

- *to'rtinchidan, tarix insonlar ongida tarixiy xotira tuyg'usini shakllantiruvchi moddiy va ma'naviy merosni vujudga keltiruvchi muhim manba, xalqni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan jipslashtiruvchi asos ekanligini tushunish muhim.*

- *beshinchidan, tarixiy haqiqat ro'yobga chiqishi uchun, u obyektiv va xolis o'rganilishi, har qanday g'oyaviy va mafkuraviy*

tazyiqlardan xoli bo'lishi zarur. U ma'lum bir siyosiy, diniy uyushmalar yoki davlatlar manfaatiga emas, balki xalq uchun xizmat qilishi lozim.

Afsuski, so'nggi-yillarda o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi xususida mutaxassisligi tarixdan yiroq yoki endigina tarix faniga kirib kelib, unga to'liq kirib ulgurmagan, fan borasida zuvalasi qotmagan, uning nazariy jihatlarini tushunib etmagan, ayrim ziyolilar yoki tarixchilar darslik va o'quv qo'llanmalar chiqarishga qo'l urishlari natijasida, turli chalkashliklar kelib chiqmoqdaki, bu ba'zan fan mazmuni va obro'siga putur yetkazib, yosh avlodni fanga bo'lgan munosabatini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bunday "xilma xilliklar" yoki chalkashliklar fanning asl mohiyatiga soya solmoqda.

O'zbekistonning **eng yangi tarix davrini** o'rganishning ahamiyati shundaki, bunda biz nafaqat mustaqillik-yillarida amalga oshirilgan islohot va o'zgarishlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz yoki o'rganamiz, balki buyuk kelajak bilan bog'liq istiqboldagi strategik maqsadlarimizni ham teran anglaymiz.

Avvalombor biz bugungi tinch osoyishta kunlarning qadriga yetishimiz, mustaqilligimizni mustahkamlash, o'sib kelayotgan yosh avlod yaqin tariximizni chuqur o'rganishi, bunday kunlarga osonlik bilan erishmaganimizni tushunib, anglab yetmog'imiz zarur. O'zbekistonning eng yangi tarixi – bu tarix fanining yangi yo'nalishidir. Shu bois, u o'z institutsional xarakteriga, o'z tadqiqot metodologiyasi, tadqiqot izlanishlariga va o'quv-metodik ta'minotiga ega bo'lgan fan sifatida shakllanganligi bejiz emas.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz tarixidagi voqealar ko'lami va o'sish sur'ati fan va ta'lim oldiga ularni tizimli ravishda o'rganish vazifasini qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi huzurida **O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik Kengashini tuzish to'g'risidagi**" Qarorining qabul qilinishi hamda Kengashning ishchi organi bo'lgan Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning tashkil etilishi bunday tizimli anglashning naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Kengashning vazifalariga O'zbekistonning yangi tarixini tizimli o'rganishni tashkil etish, tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga

asoslanib, o'zbek xalqining o'tmishi va bugunini tarixiy baholashda dogmatizm, bir tomonlama yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik, darslik, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr qilish ishlarini muvofiqlashtirishdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixi bo'yicha o'quv-metodik, ilmiy-ommabop, ma'rifiy adabiyotlarni o'rganish, tayyorlash va chop etish borasida ilmiy, madaniy, ta'lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy o'quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish masalalari dolzarb muammo sifatida e'tirof etildi.

Prezident Qarorida **O'zbekistonning eng yangi tarixini** tizimli ravishda tarixiylik va xolislik prinsiplariga asoslangan holda o'rganishni tashkil etish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi oldiga o'quv, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarni tayyorlash va yangi avlod nashrlarini chop etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Ushbu masalaning yana bir jihatini alohida ta'kidlash joiz. Mafkura va milliy g'oya, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha ilmiy maqolalar, nashrlar va televideniedagi ko'rsatuvlar, ma'ruzalar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy hayot (eng yangi tarix) masalalarining, voqealar va jarayonlarning muhokamasi ham muhim hisoblanadi.

Eng yangi tarixni o'rganishda yana bir muhim omil borki, u bugungi kun butunjahon tadqiqotlari tizimida ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Bu "tarixdagi inson" mavzusini tadqiq qilish, boshqacha

aytganda, shaxsning, tarixiy siymoning hamda oddiy insonning uni o'rab turgan dunyodagi rolini o'rganish. Eng muhim vazifa eng yangi tarixni jiddiy metodologik va ilmiy asosga qurishdan iborat. Agarda biz fanning nazariy-metodologik asosni chuqur anglab yetsak, bu bir vaqtning o'zida tarixni qalbakilashtirish va buzib ko'rsatishning oldini oladi.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik-yillarida bosib o'tgan yo'lining mazmun-mohiyatini obyektiv baholash hamda o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, O'zbekistonning eng yangi tarixi davrini bir qator bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

1.2. Yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'rni

Ikkinchi masala bayoni. Bugungi kunda darslarni yangicha o'quv-uslubiy yondashuvlar, yangicha manbalar va materiallarga tayangan holda o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, bu O'zbekistonning umumjahon sivilizatsiyasining qadim o'choqlaridan biri ekanligini, uning jamiyatimiz uchun har tomonlama etuk, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni katta ekanligidan kelib chiqib, eng yangi tarix fani avvalombor, insonlarni g'oyaviy tarbilab, ularda milliy g'urur va iftihorni shakllantirishga katta hissa qo'shishini ta'kidlash o'rinli.

Talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik-yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar xususida ma'lumotlar oladilar.

Tarixning muhim asoslaridan biri bu ilm va ma'rifatga intilishdir. Ma'rifiy va axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan kishilarda ilm – fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, hunar egallashga ishtiyoq bo'lmaydi. Shu sababli, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalab, ularni tarixli qilishga muhim ahamiyat qaratilgan. Tarixparvar alloma Abdulla

Avloniy fikricha: **“Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur”**.

Alloma ilmning nazariy ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmasdan, balki amaliy faoliyat uchun tarixiy zaruriyat ekanligini ham ta’kidlab o‘tadi. “Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur, madaniyat, tarix dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur”.

Tarixga e’tibor jamiyatga e’tibordir. Uning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, undagi uzviylik jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini kengaytirmoqda, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlamoqda.

Tarix insonning umumiy ma’naviy madaniyati saviyasini yuksaltirishga qaratilgan ta’lim va tarbiyadir. Tarixiy bilimlar turli sohalar, uslublar orqali insonlarga singdiriladi. Bular oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari, jamoat tashkilotlari va boshqalardir. Tarix tom ma’noda insonning bugungi va o‘tmish faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Xalqimiz o‘z oldiga bugun **Yangilanayotgan O‘zbekiston kelajagini barpo etish** maqsadini qo‘ydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan jamiyatni barpo etish ehtiyoji tug‘ildi. Buning uchun har tomonlama ma’naviy barkamol insonlarni voyaga yetkazish, ular ongida tarixiy qadriyatlariga nisbatan hurmat, o‘z vataniga nisbatan milliy g‘urur va iftixor hissini shakllantirish lozim.

Ayniqsa, yoshlarga mustaqillik-yillarida tarix fanini o‘rganish borasida, ushbu davrda amalga oshirilgan muhim tarixiy isloholar, xalqimizning urf-odat va an’analari, milliy tarbiya an’analari, tarixiy va ma’naviy qadriyatlarimiz xalqni yagona maqsad sari birlashtiruvchi kuch ekanligini to‘g‘ri anglamog‘imiz lozim.

Ayniqsa, yoshlar qalbida va tafakkurida Yangilanayotgan O'zbekistonning buyuk kelajagini qurishga qodir, yangicha ruhni shakllantirish muhim masala va dolzarb vazifadir. Ana shu ruh qalbida barq urgan yoshlar millat va xalq manfaatini yuqori darajaga ko'tara oladi. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barkamol avlodni voyaga yetkazish, mamlakatimiz strategik taraqqiyotini ta'minlash uchun bugungi kunda maktabgacha ta'lim, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sohalarini isloh qilishning asosiy omillaridan biri, shaxs manfaati, tarbiyasi va ta'lim ustuvorligi, deb belgilandi.

Tarixiy bilimlar orqali fuqarolarda Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi. Yoshlarni tarixiy qadriyatlarimizga hurmat va milliy g'oya ruhida tarbiyalash jarayonida har bir pedagog o'quv yurtining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatini yoshlar jamoasining umumiy tayyorgarliklariga individual yondashgan holda tashkil etishi va amalga oshirishi lozim. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ta'lim-tarbiya sifatini to'g'ri tashkil etish, ta'lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, muammoni hal etishga doir chora-tadbirlar dasturini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi-yillarda tarixchi olimlar uchun Vatanimiz tarixini har qanday mafkura va tazyiqlardan holi tarzda yoritish va holisona o'rganish imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. Shunday bo'lsada, bugungi kunda O'zbekiston milliy davlatchiligi tarixining vujudga kelishi va taraqqiy topishi bo'yicha o'quv-metodik, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va chop etish borasida olim va mutaxassislar bilan birgalikda ish olib borish zarurati tug'ilmoqda. Bunda ilmiy va jamoat muassasalari hamda tashki-lotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari samaradorligini oshirish, yoshlarda mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish masalalari dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Shu boisdan, tayyorlangan ushbu darslik ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Marg'ilon, Qo'qon, Termiz, Shaxrisabz kabi qadimiy shaharlarimizyoki. poytaxt Toshkent shahridagi "Mustaqillik" maydoni, "Shahidlar xotirasi" yodgor-lik maj-muasi,

ikkinchi jahon urushida jonini fido etgan xalqimizning munosib farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan “G'alaba bog'i”, “Shon-sharaf” muzeyi, “Matonat madhiyasi” monumenti, “Xotira maydoni”, sohibqiron Amir Temur xotirasiga bag'ishlab barpo qilingan “Amir Temur xiyoboni” ga uyushtiriladigan har bir tashrif yoshlarlarda mustaqilligimiz, onayurtimizning shon-shuxratiga yuksak hurmat tuyg'ularini yuksaltirishi tabiiy.

Albatta, tarixiy merosimizning bir qancha turlari mavjudki, ular orasida muzeylar faoliyatining ham o'z mi beqiyosdir. Hozirda birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo'yicha 68 ta muzey mavjud bo'lib, bular 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta tabiiy-ilmiy muzeylardir. Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O'zbekmuzey» jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnali ta'sis etilgan. Muzeylar ham yoshlarlarda milliy g'urur va iftixorni, boy madaniy merosimizga mehr muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi

Ta'lim tarbiya sifati bu shaxsning, insonning jamiyatning, davlatning xilma-xil ehtiyojlari, manfaatlariga muvofiqta'lim va tarbiya olayotgan shaxsni har tomonlama rivojlantirish yuzasidan, ularning ehtiyojlarini ta'minlashdir. Bunda ta'lim tarbiya olayotgan shaxsni har tomonlama rivojlanishi uchun ular ehtiyojlarini ta'minlovchi xizmatlarning iste'mol xususiyatlari muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonining har qaysi sub'ekti (pedagog, ta'lim tarbiya oluvchi, ota-ona, ma'muriyat va b.) ta'lim sifatini ta'minlanishdan manfaatdordir.

Hozirgi jadal o'zgarishlar va yangilanishlar sharoitida yoshlar dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tarbiya sifati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda birinchi navbatda yoshlarga tarixiy, ma'naviy, g'oyaviy bilim va tarbiya berish hamda ularda jamiyat manfaatlariga zid zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni tarkib topirish orqali O'zbekistonni buyuk kelajagiga erishish, har tomonlama yetuk, yoshlarni voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'рни va saboqlari to'g'risidagi fikrlari

Uchinchi masala bayoni. Tarix fanini o'rganishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy g'oya va nazariyalarning o'ini va ahamiyati katta. Ular tarix fanining mazmun va mohiyatini chuqurroq anglashga shuningdek fanni o'rganishning maqsad va vazifalarini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan birinchi Prezident Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta'kidlab, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch» nomli asarlarida «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, «Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir» degan so'zlarida tarixiy haqiqatni va ma'naviy o'zlikni angalashga undovchi, teran ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surgan edilar.

Ushbu tamoyillar **Prezident Shavkat Mirziyoyev** tomonidan izchil davom ettirilib, mustaqillik-yillarida haqqoniy tariximizni o'rganish borasida ko'plab ilmiy va nazariy xulosalarni berib kelmoqda. Ayniqsa, uzoq-yillar mobaynida yo'l qo'yilgan ayrim **xato va kamchiliklarni ro'y rost tanqidiy tahlil qilinishi** ham muhim voqea bo'ldi. Bu borada o'z fikr mulohazalarini bildirgan Prezidentimiz quyidagilarni qayd etadi: "Afsuski, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar etarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining **Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.**

Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning beba-ho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Shu maqsadda, O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi tarkibida "O'zbekiston tarixi" kanalini tashkil etib, ilmiy

jamoatchilik, ijodkor ziyolilarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak. Mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to'liq xatlovdan o'tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim"¹.

Qadimgi noyob yodgorliklar, madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy qimmatini, ularni asrab-avaylash, xalqimiz, jumladan, yosh avlod tarbiyasi va ma'naviyatida tutgan o'rni xususida gapirgan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, birgina Axsikent arxeologik yodgorligi misolida qayd etadi. Tarixiy manbalarda, xususan, "Boburnoma"da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo'lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan Axsikent xarobalari Farg'ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jom'e masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o'rganilgan.

Bunday tarixiy yodgorliklar O'zbekiston hududida ko'plab topiladi. Tarix fanini o'rganish ko'p ma'noda tarixiy manbalarga tayanadi. Busiz umuman fanni va uning obyektini tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, bizgacha yetib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan xarakterlidir".

Tarix fani va unga oid bilimlar jamiyat manfaatlariga, insonlarning ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir qilishi, kishilarda tarixiy xotira, ajdodlar merosidan faxrlanish tuyg'usini uyg'ota olishi lozim. Bu borada o'z fikrlarini bayon qilgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada, oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. **Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-**

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 2019. 20-bet.

quvvatlashimiz lozim. O‘tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lishi zarur², degan edi.

Aynan ushbu Murojaatnomada xalqimiz tarixi, moddiy va ma‘naviy madaniyatini keng jamoatchilikka yetkazish hamda jahon miqyosida targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Milliy telera-dio kompaniyasi negizida “O‘zbekiston telekanali” ni tashkil qilish taklifini ilgari surgan edi. Mazkur taklif asosida 2019-yil 1-sentyabrdan boshlab ushbu telekanal o‘z ish faoliyatini boshladi.

Davlat rahbari o‘z chiqishlari va murojaatlarida 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma‘rifat mash‘alini baland ko‘tarib chiqqan alloma va adib Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145-yillik tavallud sanasini keng nishonlanishini bildirib o‘tdi. Xususan, Prezidentimizning ta’kidlashicha, “...biz jadidchilik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma‘naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”.

2020-yilda Oliy Majlisga qilingan Murojaatnomada Prezident Shavkat Mirziyoyev “**bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqimiz.** Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tarixning yangi sahifasini yaratishga qodirmiz. Bu yo‘lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo‘lmasin, barchasini mardona yengib o‘tishga tayyormiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning o‘zi, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari madadkor bo‘ladi, deb ishonaman, deganligi yanada ahamiyatli bo‘ldi³.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 2019. 20-bet.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. T., 2020. 25 yanvar.

Xalqimiz yangi tarixining muhim voqelaridan biri sifatida Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxt Toshkent shahrining Olmazor tumanida ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 75-yilligiga bag'ishlab "G'alaba bog'i", "Shon-sharaf" muzeyi, "Matonat madhiyasi", "Mangu jasorat" monumenti barpo etildi. Mazkur ulug'vor majmuaning barpo etilishi xalqimiz tarixining hamda shonli o'tmishining yorqin namunasi bo'ldi. Chunki o'zbekistonliklar ikkinchi jahon urushining g'alaba bilan yakunlanishida ulkan hissa qo'shdilar. Lekin shu paytgacha bu jasoratni bor ko'lami bilan ko'rsatib beradigan yaxlit majmua hali respublikamizda yo'q edi. Davlatimiz ilmiy-ijodiy jamoatchiligining takliflari, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tez orada alohida badiiy-me'moriy konsepsiya ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya asosida g'alaba sharafiga ulug'vor va betakror majmua bunyod etildi.

Har jihatdan puxta ishlangan loyihlar asosida shakllantirilgan bu erdagi majmua timsolida xalqimizning qonli janglardagi mardligi va front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoiyligi aks ettirildi. **2020-yilning 9-may kuni "Buyuk g'alabaning 75-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni"** ga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali tadbirda davlatimiz rahbari quyidagilarni qayd etdi: "Men avvalgi chiqishlarimda el-yurtimizning buyuk g'alabaga qo'shgan hissasi hali to'liq o'rganilmagani haqida gapirib, jaoatchiligimiz e'tiborini shu masalaga qaratgan edim. Bugun mamnuniyat bilan aytmoqchimanki, keyingi-yillarda shu yo'nalishda juda katta ishlarni amalga oshirdik.

Avvalo, ilgari yopiq bo'lgan arxiv hujjatlarini ilmiy jamoachilik uchun ma'lum bo'lmagan materiallarni o'rganish uchun imkoniyat yaratildi. Bu borada sobiq ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik uchaytirildi.

Ana shunday ilmiy izlanishlar natijasida xalqimizning ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ajdodlarimiz haqida juda muhim yangi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Hozirgi vaqtda ular ommaviy axborot vositalarida, kitob va albomlarda keng yoritilmoqda.

Ikkinchi jahon urushi-yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha

asoslarimiz bor. Masalan, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Yangi topilgan ma'lumotlarga ko'ra, **O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi.** Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming nafar yurtdoshimizning nomlari va taqdiri shunchayillar mobaynida e'tibordan chetda qolib kelganini, albatta, adolatdan deb, bo'lmaydi.

Shuningdek, o'sha davrda quloq sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ma'lum bo'ldi.

Shu borada yana ba'zi raqamlarni keltirmoqchiman. Ilagri 390 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilar edi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan", deya uqdiradi Prezidentimiz ⁴.

Nazorat savollari

1. Fanning predmetini izohlab bering.
2. O'zbekiston tarixi fanini o'rganish obyekti nimalardan iborat?
3. O'zbekiston eng yangi tarixi fanining maqsadi va vazifalarini bayon eting.
4. O'zbekiston tarixini davrlashtirish bosqichlarini sharhlab bering.

Test savollari

I. Akademik A. Asqarov O'zbekiston tarixini necha davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etgan?

- A) 4 ta davrga;
- V) 7 ta davrga;

⁴Ajdodlar jasorati va xotirasiga yuksak ehtirom // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buyuk g'alabaning 75-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. №80. T., 2020-yil. 10-may.

S) 5 ta davrga;

D) 6 ta davrga;

2. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yangilanishlar va islohotlar davrida qanday masalaga katta e'tibor qaratilmoqda.

A) Xalqimizning boy tarixini o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish;

V) moddiy va ma'naviy merosini o'rganish hamda kelajak avlodlarga yetkazish;

S) Tarixni davrlashtirish;

D) xalqimizning boy tarixi, moddiy va ma'naviy merosini o'rganish hamda kelajak avlodlarga yetkazish.

3. Prezident Qarorida O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli ravishda o'rganish uchun qanday vazifalar belgilangan?

A) Tarixiylik va xolislik prinsiplariga asoslangan holda o'rganishni tashkil etish;

V) buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik;

S) O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va min-taqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash;

D) Yuqoridagilarning barchasi

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik Kengashini tuzish to'g'risida"gi Qarori qachon qabul qilingan?

A) 2018-yil 28-dekabrda;

V) 2019-yil 1-sentyabrda;

S) 2012-yil 27-yanvarda;

D) 2017-yil 7-fevralda

5. Ma'lumki, Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalaridan birida xalqimiz tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatini keng jamoatchilikka etkazish hamda jahon miqyosida targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi negizida "O'zbekiston telekanali" ni tashkil qilish taklifini ilgari surgan edi. Mazkur taklif asosida qachondan boshlab ushbu telekanal o'z ish faoliyatini boshladi?

- A) 2019-yil 1-sentyabrdan boshlab;
- V) 2018-yil 1-sentyabrdan boshlab;
- S) 2017-yil 1-sentyabrdan boshlab;
- D) 2020-yil 1-sentyabrdan boshlab

6. "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zero ki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Ushbu ibora muallifini ko'rsating.

- A) Fitrat;
- V) Abdulla Avloniy;
- S) Cho'lpon;
- D) Mahmudxo'ja Behbudiy

7. Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur. Ushbu ibora qachon va qaerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'kidlangan?

- A) 2017-yil 22 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada;
- V) 2018-yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada;
- S) Ajdodlar jasorati va xotirasiga yuksak ehtirom // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buyuk g'alabani 75-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida;
- D) 2020-yilda Oliy Majlisga qilingan Murojaatnomada

8. **“Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqmiz”.** Ushbu ibora qachon va qaerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’kidlangan?

A) 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada;

V) 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada;

S) Ajdodlar jasorati va xotirasiga yuksak ehtirom // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buyuk g‘alabaniing 75-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida;

D) 2020-yilda Oliy Majlisga qilingan Murojaatnomada.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2016.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida/ Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018. – 112 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 2019. 20-bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. T., 2020. 25 yanvar.

5. Ajdodlar jasorati va xotirasiga yuksak ehtirom // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buyuk g‘alabaniing 75-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. №80. T., 2020-yil. 10 may.

6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T.: “Sharq”, 1998.

7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2016.

8. Narzulla Jo'rayev O'zbekiston tarixi :(Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – T.: “Sharq”, 2011. – 736 b.

9. Hasanov R. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ” O'zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida” – nomdi kitobini o'rganish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: MRDI, 2012.

2-MAVZU: MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O'ZBEKISTONDA YUZ BERGAN IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLAR

- 2.1. Mustaqillik arafasidagi siyosiy vaziyat.
- 2.2. Mustaqillik arafasida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
- 2.3. Mustaqillik arafasida «paxta ishi» va uning oqibatlarini bartaraf etish borasidagi harakatlar.
- 2.4. 1990-yil 24-mart kuni bo'lib o'tgan respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi tarixi
- 2.5. Milliy armiya va ichki ishlar tarkibining shakllanishi.

Tayanch tushunchalar: siyosiy vaziyat, Buyuk yo'l boshchilar, Prezident, Plenum, Farg'ona fojiasi, Parkent, Pskent, Bo'ka, Namangan voqeasi, "Mustaqillik Deklarasiyasi, "o'zbek ishi". "paxta ishi", "kadrlar desanti", Gdlyan, Ivanov, GKChP, ijtimoiy himoya, Mustaqillik, Milliy armiya, Ichki ishlar tarkibi

2.1. Mustaqillik arafasidagi siyosiy vaziyat

Birinchi masala bayoni: Dunyodagi xalqlar va millatlarning ozodlik yo'lidagi kurashlar tarixi shundan dalolat beradiki, jamiyat hayotidagi tub burilishlar davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zi buyuk yo'l boshchilarni maydonga chiqaradi. Hindiston tarixida Maxatma Gandi, Amerika Qo'shma Shtatlari tarixida Jorj Vashington, Fransiya tarixida Sharil de-Goll, Turkiya tarixida Mustafo Kamol Otaturk ana shunday tarixiy missiyani o'z zimmasiga olib, ona xalqining milliy ozodlik kurashiga boshchilik qilganini yaxshi bilamiz.

Bizning yurtimiz tarixida ham ana shunday ulug' yo'l boshchilar tarixiy vaziyat taqozosi bilan maydonga chiqib, xalqimizni yovuz bosqinchilar zulmidan ozod etgan, uning sha'ni va g'ururi, insoniy huquqlarini qayta tiklagan. Bu haqda gapirganda, Sohibqiron Amir Temur bobomiz o'n to'rtinchi asrda Turkiston zaminini mo'g'ullar zulmidan ozod etib, ana shunday buyuk missiyani ado etganini

hamisha g'urur-iftihor bilan esga olamiz. XX asming 90-yillariga kelib esa Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov ana shunday o'ta og'ir va mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga oldi.

Ma'lumki, XX asming 80-yillari oxiriga kelib, xususiyl mulkchilik ta'qiqlangan va ta'qib etilgan, davlat mulkini mutlaqlashtirish natijasida moddiy ta'minot tizimi izdan chiqarilgan, iqtisodiy adolat poymol etilgan, milliy muammolar negizidagi nizolar ko'payib borayotgan sho'ro jamiyatida hukmron doiralar boshqaruvidan norozilik kuchayib bordi, xalq nazarida obro'sizlanib bo'lgan boshqaruv tuzilmalarini, eng avvalo, butun sho'ro siyosiy tizimining yadrosi bo'lgan kommunistik partiyani yangilash ehtiyoji sezilmoqda edi.

O'sha davrdagi vaziyatga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday baho beradi: «Ijtimoiy-siyosiy sohada ro'y berayotgan jarayonlar hammani tashvishga solmoqda. Qayta qurish tufayli yuzaga kelgan demokratiya va oshkoralik anarxiya va safsatabozlikdan yetarlicha himoya qilingan emas. Intizom va tartib ko'ngildagidek emas, jinoyatchilik ko'paymoqda, odamlarning shaxsiy xavfsizligi, huquqlari va qadr-qimmatlari kafolatlari buzilmoqda»⁵. Ana shunday sharoitda yuqori xo'jalik vazifalarida ishlab kelgan Islom Karimovning, siyosiy ekspertlar ta'biri bilan aytganda, «sog'lom texnokratizmi va pragmatizmi» uni o'sha vaqtda qabul qilingan ko'pgina taomillarni chetlab, partiya piramidasiining cho'qqisiga ko'tardi.

1989-yil 23-iyunda Islom Karimov Qashqadaryodan Toshkentga O'zbekiston Kompartiyasi Markazqo'mining birinchi kotibi vazifasini bajarish uchun qaytib keladi. Qariyb uch-yil davomida Islom Karimov Qashqadaryo viloyatda obro'-e'tibor va ishonch qozongani holda respublikaning o'sha vaqtdagi partiya rahbariyatining no'noq siyosati tufayli O'zbekiston fuqarolar urushi maydoniga aylanib qolishi xavfi ostida qolgan edi. Islom Karimov qisqa muddat ichida respublikadagi portlash xavfi bo'lgan vaziyatni o'nglashi, yuzaga kelayotgan falokatdan davlatni saqlab qolishi lozim edi.

Keyinroq davlatimiz rahbari o'z intervyularidan birida O'zbekiston rahbari etib tayinlanishi tarixini quyidagicha hikoya

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2011. B. 163.

qiladi: «Men qanday qilib O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi bo‘lganman? 1989-yil iyun oyi edi. Dahshatli kunlar edi. Qirg‘inlar, yong‘inlar, Farg‘ona, Qo‘qon, Quvasoy, Guliston, Parkent, Bo‘ka. Go‘yo portlash yuz berib, bug‘ qozonining qopqog‘ini uloqtirib tashlaganga o‘xshaydi. Xo‘rlik-yillarida to‘planib qolgan alam to‘lqinlari butun respublikani qamrab oldi. Boshliqlar vaziyatni boshqara olmay qoldi.

Mana shu beboshliklarning hammasiga barham bera oladigan, respublikani jar yoqasidan qaytara oladigan odamni qidirishmoqda edi. Izlanishlar natijasida mening nomzodimga to‘xtalishdi. Albatta, zimmamga naqadar katta mas‘uliyat olayotganimni tushunar edim. Mening kareram emas, balki hayotimning o‘zi garovga qo‘yilayotganini tushunar edim. Shunchaki chiroyli gap deb o‘ylamang-u, ammo xalq meni tushunishiga va qo‘llab-quvvatlashiga ishonardim. Ana shu narsa menga kuch berdi»⁶.

1989-yil 23-iyunda O‘zbekiston Kompartiyasi Markazqo‘mining Plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenum Islom Karimovni O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi etib sayladi.

Shu vaqtdan e‘tiboran Islom Karimov boshchiligida o‘zbek xalqining qadr-qimmatini tiklash va uni himoya qilish ishlari boshlandi. Islom Karimovning respublika rahbarligiga kelishi va faoliyatining boshlanishi ham mustaqillik yo‘lida qo‘yilgan ilk dadil qadam edi.

U tang vaziyatni barqarorlashtirishga ulkan hissa qo‘shdi. Markazdan yuborilgan «kadrlar desanti» o‘z obro‘sini yo‘qotgan edi, ularning «namoyanda»lari Anishev, Ogarek, Satin va boshqa «kazo-kazolar» respublikadan chiqarib yuborildi.

Kadrlar siyosatida jiddiy ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi, bu masalalarni hal etishda respublika rahbariyati tashabbusni o‘z qo‘liga oldi. Mahalliy kadrlarga bo‘lgan talab va e‘tibor kuchaytirildi. Kadrlar siyosatida Markaz tomonidan belgilangan xodimlarni rahbar etib tayinlashga chek qo‘yildi. Islom Karimovning tashabbusi bilan siyosiy mutelikdan qutulish tomon qadam qo‘yildi. O‘sha davrda

⁶ Gafarli M.S., Kasaev A.I. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. T., 2001. B.12.

bunday harakat ulkan jasorat, «boshni kundaga qo'yish»dek qahramonlik edi⁷.

Ta'kidlash joizki, Islom Karimovning respublika rahbari etib saylanishi mamlakatning juda og'ir – ijtimoiy-iqtisodiy halokat yoqasiga kelib qolgan davriga to'g'ri keldi. Bu haqda L. Levitin shunday yozadi: «Islom Karimov hokimiyat boshqaruvini qo'lga olgan paytda O'zbekiston halokat yoqasiga kelib qolgan edi. Endi hech kim fojiali voqealar oqimini ortga qaytara olmaydiganga o'xshardi. U hokimiyat tepasiga mamlakatni balo-qazolardan saqlab qoluvchi kishi sifatida keldi»⁸.

Islom Karimov o'z rahbarlik faoliyatining dastlabki kunlaridan mamlakatda, millati va dinidan qat'i nazar, odamlar O'zbekistonni o'z Vatanim deb hisoblashlariga nafaqat da'vat etdi, balki buning uchun shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratdi.

O'zbekistonning turli mintaqalarida vujudga kelgan etnik nizolar va ijtimoiy tanglik o'choqlari shaxsan Prezident ishtirokida bartaraf etildi. Uning bosh-boshdoqlik jarayonlarida qo'rqmasdan, tez, qat'iyat bilan dadil harakat qilgan va respublikada ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarayotgan nosog'lom kuchlar ta'siriga qisqa muddatda barham berishga muvaffaq bo'lgan yetakchi ekanligini nafaqat MDH mamlakatlari rahbarlari, balki chet el ekspertlari ham e'tirof etdilar.

2.2. Mustaqillik arafasida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Ikkinchi masala bayoni: Mustaqillikka qadar davlatimiz rahbari eng avval O'zbekistonning hayotiga xalaqit berayotgan xato va kamchiliklarni aniqlab olishga e'tibor qaratdi. Kriminogen vaziyatni keskinlashtirishga sabab bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tuzatish yo'lida amaliy harakat dasturini ishlab chiqish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Chunki O'zbekiston barcha asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha sobiq Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ancha orqada bo'lib, oxirgi o'rinlardan birini egallar edi.

⁷ Qarang: Jo'rayev N. Agar ogoh sen. Portretga chizgilar. Siyosiy esse. T., 1998. B. 17.

⁸ Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T., 2001. B. 36.

Markaz bosim o'tkazayotgan tahlikali sharoitda o'sha davrning og'ir va ayanchli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy manzarasiga to'g'ri va xolis baho bergan inson Islom Karimov bo'ldi. Shu o'rinda Prezidentning 1990-yil 4-iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasining XXII s'ezdida so'zlagan nutqidan parcha keltirish maqsadga muvofiq.

«Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, – deydi Islom Karimov, – respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turibdi. Biz bu raqamlarni ilgari ham necha martalab aytganmiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past.

Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish o'rtacha Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil etadi. Biz daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlardan birida turibmiz.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman, mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi SSSRda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti.

Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganini aytishning o'zi kifoya. Juda o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Buni, avvalo, shundan ko'rsa bo'ladiki, insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda

tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmayapti.

Qishloq xo'jaligining ekstensiv rivojlanishi natijasida ko'plab suv omborlarining qurilishi, umuman, suv isrofgarchiligi tufayli Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolaridan Orol dengiziga quyiladigan suv nihoyatda kamayib ketdi. Oqibatda dengiz 1960-yildagi holatiga nisbatan 1990-yilda 14,5 metrga pasaydi, suvining hajmi 54 foizga qisqardi⁹. Suv qirg'oqdan 70–100 km.ga chekingan joylarda bo'ronlar natijasida-yiliga 50–70 ming tonnagacha tuz atmosferaga ko'tarilgani kuzatilgan¹⁰. Orol bo'yida ekologik ahvolning yomonlashuvi, jumladan, aholining ichimlik suvi bilan ta'minlashning yomonlashuvi, suvdagi minerallashuvning oshishi natijasida qishloq aholisining 87 foizi har xil kasalliklarga chalingani aniqlangan. Masalan, Qoraqalpog'istonda ich terlama yuqumli kasalligi bilan og'riganlar sobiq Ittifoq darajasidan 23 barobar ko'p bo'lgan¹¹ligi mustabid tuzum boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usullari avjiga chiqqan shafqatsiz tus olganligi natijasidir.

Inson taqdiri, uning hayotiga dahldor bo'lgan, uning munosib turmush sharoitiga ega bo'lish bilan bog'liq talablar aynan Islom Karimovning rahbarlik faoliyatining ilk kunlaridan qat'iy qo'yildi.

2.3. Mustaqillik arafasida «paxta ishi» va uning oqibatlarini bartaraf etish borasidagi harakatlar

Uchinchi masala bayoni. O'zbekistonda «paxta ishi» degan soxta kompaniya – qatag'on siyosati ta'sirida nohaqlik va adolatsizlik avjiga chiqqan, partiya, sovet va davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida aynish boshlangan, turli buzg'unchi kuchlar, diniy niqobdagi radikal oqimlar bosh ko'targan, bu ham etmaganidek, hukmron sobiq Markazdagi ikkiyuzlamachi matbuot tomonidan xalqimizning boshiga yog'dirilgan bo'hton va tuhmatlar odamlarimizning ruhi va kayfiyatini tushirgan, xalq o'rtasida ertangi kun ishonchiga jiddiy putur etgan edi. Qo'rquv va vahima keng

⁹ Nayot va iqtisod. 1991. №2. B. 56.

¹⁰ Шалимов А.И. Экология: тревога нарастает. Ленинград, 1989. С. 53.

¹¹ Судба природы – наша судба. М., 1990. С. 223.

tarqalgan o'sha paytda Islom Karimov «o'zbeklar ishi», «paxta ishi» degan soxta ayblov bilan nohaq qamalgan qashqadaryolik va boshqa viloyatlardagi odamlarning xonadoni bilan yaqindan tanishdi. Qat'iy ishonch bilan: «Xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo'ladi, o'g'lingiz, turmush o'rtog'ingiz, otangiz hademay bag'ringizga qaytib keladi»¹² deb, ruhan ezilgan insonlarga taskin berdi. Xalqimizga nisbatan katta nohaqlik bo'layotganligini baralla aytib, tengsiz jasorat bilan kurashdi va xalqparvar rahbar degan nom qozondi. Prezidentimiz: «Bir eslang, sho'ro zamonida, 80-yillarda sobiq markaz «o'zbek ishi», «paxta ishi» degan uydirmalarni bahona qilib, o'zbek millati vakillarini butun dunyoga qanday ko'rsatardi? Sochi taqir qilib olingan, qalpoq kiygan, belini bog'lagan, soqol qo'ygan odamlarni, mana, bularning basharasi, deb, peshonasiga tamg'a qo'yib, matbuot orqali namoyish etardi. Bugun shuni eslashimiz o'rinli, deb bilaman»¹³, degan edi. Islom Karimov davlat rahbari sifatida o'z faoliyatini siyosiy beqarorlik, boshboshdoqlik va bedodlik avj olgan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy vaziyat o'ta qaltis va og'ir davrda boshlaganligini, ayniqsa, bugun ta'kidlash va e'tirof etishimiz lozim.

“Ozodlik havosidan to'yib nafas olgan, o'z taqdiri va kelajagini o'z qo'li bilan qurayotgan xalqimizni endi eski mafkuraga, eski zamonga hech qachon qaytarib bo'lmaydi, butun xalqimiz, jumladan, Qashqadaryo eli, bu vohadagi navqiron yoshlarning bugungi azmu shijoati, orzu-intilishlari, kelajakka bo'lgan mustahkam ishonchi shunday deb aytishga to'la asos beradi... Ana shunday dahshatli qatag'onning qanday keng tus olganini, o'ylaymizki, quyidagi raqamlar yaqqol ko'rsatadi. Birgina «paxta ishi» bo'yicha viloyatda 3 mingdan ziyod odam hibsga olingan, faqat 1985-yilning uch oyida viloyat rahbarining 3 ta muovini, 8 ta bo'lim mudiri, shahar va tuman partiya qo'mitalarining 26 nafar kotibi, viloyat ijroiya qo'mitasi raisi, uning 4 nafar o'rinbosari, mas'ul kotibi, shahar va tuman ijroqo'mlarining 12 nafar raisi, viloyat miqyosidagi yirik tashkilotlarning 27 ta rahbari, kolxoz va sovxozlarning 99 nafar rais va direktorlari, yana qancha-qancha oddiy mehnatkashlar, begunoh

¹² Ravshanov P. Qashqadaryo: istiqlool arafasida. T., 2003. 112–113-betlar.

¹³ Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T. 12. T., 2004. B. 255.

insonlar jinoiy javobgarlikka tortilgan edi. Viloyatning sobiq rahbarlaridan biri o'z joniga qasd qilgan, ikkinchisi esa qamoqqa olingan edi. Hibsga olingan har bir odamning ortida esa 20-30 tadan oila a'zolari, qarindosh-urug'lari, birga ishlagan kishilar tun-kun so'roq berib, ma'muriy idoralarning eshigida sarson bo'lib yurganini Qashqadaryo ahli hech qachon unutmaydi"¹⁴.

Yaqin o'tmishda boshimizdan kechirgan ana shunday mash'um kunlarni eslar ekanmiz, bugungi erkin va ozod hayotimizni asrash, uning qadriga etish, hozirgi o'ta notinch va tahlikali zamonda doimo hushyor, ogoh va sergak bo'lib yashash zarurligini yanada chuqur anglaymiz»¹⁵.

1989-yilning may-iyun oylarida Farg'ona viloyatida fojiali voqealar ro'y berdi. O'sha-yilning 20-may kuni Quvasoyda tub aholi bilan shu erda istiqomat qiladigan mesxeti turklari o'rtasida to'qnashuv sodir bo'ldi (SSSR davlat mudofaa komitetining 1944-yil 31-iyul qarori asosida Gruziyadan deportasiya (quvg'in) qilinib, 1944-yil noyabr oyida 30 ming mesxeti turklari O'zbekistonga majburan ko'chirib keltirilgan)¹⁶. Respublika rahbariyati bu voqealarni o'z vaqtida to'g'ri baholay olmagan tufayli vaziyat yanada keskinlashdi. O'sha-yilning iyun oyida Toshloq va Marg'ionlonda shunday to'qnashuvlar yuz berib, keyinchalik Farg'onaning janubiga ko'chdi. 8-iyun kuni Qo'qon shahrida tinch namoyishchilar sobiq Ittifoq IIVning ichki qo'shinlari tomonidan o'qqa tutildi. Ommaviy tartibsizliklar oqibatida 103 nafar kishi halok bo'ldi¹⁷.

Farg'ona voqealarining bir qancha sabablari bor edi. Bu viloyat rahbariyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tashkilotchilik ishlarida jiddiy xatolarga yo'l qo'yganlari, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga obyektiv baho bera olmaganlari va yoshlarni ish bilan ta'minlashning chora-tadbirlari belgilamaganlari bilan bog'liq edi.

1989-yilning may oyida Farg'ona viloyatida buzg'unchi kuchlar tomonidan tashkil etilgan ommaviy tartibsizliklar iyunning oxiriga kelib, yanada avj olib ketdi.

¹⁴ Xalq so'zi, 2011, 1 декабр.

¹⁵ O'sha joyada.

¹⁶ Qarang: Постановление ГОКО №5279сс от 31 июля, 1944.

¹⁷ O'zbekiston tarixi. / Mas'ul muharrir Q. Usmonov. T., 2005. B. 321.

Kechagina respublika rahbari etib saylangan Islom Karimov ishga kirishgan kunning ertasigayoq, ya'ni 24 iyun kuni O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida katta majlis o'tkazdi va unda nutq so'zladi. Ushbu nutq, mohiyat-e'tiboriga ko'ra, Islom Karimovning O'zbekiston rahbari sifatidagi birinchi nutqi ekanligi bilan ham ahamiyatga ega. Ushbu chiqishda Islom Karimovning siyosiy yetakchiga xos barcha fazilatlarini yaqqol namoyon bo'ldi.

Buni birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" deb nomlangan kitobidagi har bir nutq va ma'ruza, tarixiy hujjat tasdiqlaydi.

Kitobdagi birinchi material – 1989-yil 24 iyunda, respublika rahbari sifatida ish boshlaganining ikkinchi kuni O'zbekiston Ministrlar Sovetida bo'lib o'tgan Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan kengashda so'zlagan nutqidayoq Islom Karimovdagi haqiqiy yo'l boshchilarga xos fazilatlar yorqin namoyon bo'ladi. Avvalo, yangi rahbar boshqalar kabi yonib turgan o'tkir masalalarga, respublikadagi o'ta tang ahvolga beparvo qarolmaydi. Chunki uning qalbi, yuragi xalq dardi bilan, O'zbekiston dardi bilan yonadi. Uning respublikaning yangi rahbari sifatida aytgan quyidagi dastlabki so'zlari shunchaki so'z emas, balki qat'iy talab bo'lib yangraydi. U faqat va faqat respublika manfaatini, mavjud ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirishni rahbar faoliyatidagi bosh mezon deb biladi va boshqalardan ham shuni talab qiladi: "Ishga bo'lgan, o'zimizga topshirilgan vazifaga nisbatan munosabatni, dunyoqarashimizni va umuman, mas'uliyatimizni o'zgartira olsakina ishlarimiz yo'lga tushib ketadi. Aks holda, vaziyatni izdan chiqarishga intiladigan kuchlar yo meni chetga surib qo'yadi yoki juda ko'p rahbarlarni o'zgartirishga to'g'ri keladi"¹⁸.

Holbuki, Islom Karimovga qadar respublikamizni boshqargan rahbarlar faoliyatida o'z xalqining emas, balki faqat mustabid Markazning irodasi, uning manfaatlari bosh mezon bo'lib kelgan edi. Shuning uchun ham ular o'zicha mustaqil hech qanday ish qilolmas, boshqalardan ham ishni talab qilishga ularda qat'iyat yetishmas edi. Buni kitobdan o'rin olgan quyidagi fakt va dalillar isbotlaydi: «KPSS

¹⁸ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011. 33-bet.

Markaziy Komitetining mensimasligi va buyruqbozligi shu darajaga borib etdiki, Markaziy Komitet kotibi yoki viloyat komitetining birinchi kotibi haqida gapirmay qo'yaqolaylik, hatto, obkom kotibini tavsiya qilish uchun kelishib olishga yaqin-yaqingacha majbur bo'lib keldik. Kim bilan kelishardik deng? Qandaydir sektor mudiri yoki yo'riqchi bilan, uning xonasi oldida qabul qilishini kutib navbatda turardik. Barcha darajadagi partiya xodimlarining taqdiri shu kishilarga, KPSS Markaziy Komiteti apparatining oddiy amaldorlariga bog'liq bo'lib qolgandi.

Mogilnichenko, Bessarabov hamda ularning eng faoli Pona-marevni bir eslang. Ularning bu erga kelishi qanday ta'riflangan edi? Bu butun bir voqea bo'lgan edi. Lekin ular o'zlaridan yaxshi xotira qoldirishmadi. Ular birinchi kotib xonasi eshigini chap oyog'i bilan ochib kirishardi. O'shanda plenumlarda qilingan barcha ma'ruzalarni, men shuni ochiq aytishim kerakki, avvaliga Pona-marev, Anishchev, Ogarok va ularning to'dasi tahrir qilardi, so'ng Usmonxo'jaev minbarga chiqib, ana shu tayyor narsalarni o'qishga tushardi. U ko'pincha ma'ruzada gap nima haqda borayotganini bilmagan holda o'qirdi.

Ana shu kishilarning xohish-irodasi bilan qanchadan-qancha odamlarning, shu jumladan, kommunistlarning, qanchadan-qancha rahbarlar va ularning oilalari taqdiri buzildi. O'zbekistonni hech qachon bilmagan, uning tili, madaniyati, bugungi kuni va o'tmishini bilmagan, umrida O'zbekistonni ko'rmagan bu odamlar uning faqat qullarcha ta'zim qilishini xohlashardi. Shunday kishilar siyosat yurgizishardi. Yuqorida o'tirganlarning hammasi ularning amaldorlari tayyorlagan qarorlargagina imzo chekishardi"¹⁹.

Boshqa bir o'rinda bunday holatning sabablari shunday bayon qilinadi: "Bo'sh-bayov, siyosiy irodadan mahrum, o'z xalqining ornomusi va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan kishilarning O'zbekiston kompartiyasi va respublika rahbariyatiga kelib qolishi avvalo, shunga yordam berdi. Ularning aksariyati o'zlarining omon qolishlarini o'ylab, huquq muhofazasi organlari,

¹⁹O'sha manba, 385-386-betlar.

jumladan, Gdlyan va Ivanov guruhi yo'l qo'ygan qonunsizlik va qonun buzilishlarini payqamaslikka obdon urindilar"²⁰.

Ana shunday rahbarlarning bo'sh-bayovligidan foydalanib, sobiq Markaz, O'zbekistonning o'zida ko'plab malakali va salohiyatli kadrlar bo'lishiga qaramasdan, SSSRning turli mintaqalaridan yurtimizga ishni bilmaydigan, faqat bu erdagi imkoniyatlardan foydalanib, davru davron surishni o'ylaydigan odamlarni yubora boshladi. Ular xalqimiz o'rtasida "desantchi"lar deb nom oldi. "Boshqa mintaqalardan yuborilgan kadrlarning ba'zilari respublika ehtiyojlari va kulfatlariga hamdard bo'lish u yoqda tursin, balki partiya, sovet va huquqni muhofaza etish organlari va boshqa organlarda o'zlarining rahbar lavozimlariga tayinlanishlarini o'zboshimchalik qilish uchun berilgan yorliq, deb bildilar.

Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o'lkaning o'ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilishni ham istamagan bu odamlar respublika hayotini bosib-yanchib, qing'ir o'zanga solishga kirishdilar.

Xalqning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini mensimaslik elni juda ranjitdi.

...Xalqning urf-odatlari, an'analari, madaniyati obdon oyoq osti qilindi, ona tilining qo'llanish sohasi sun'iy tarzda cheklab qo'yildi. Hatto, shundoq ham milliy an'analardan ancha olisda bo'lgan ayrim san'at turlari ham kimlargadir ma'qul bo'lmay qoldi va ularni yangilashga urindilar. Hatto milliy libos ham qoralandi. Kezi kelganda odamlar milliy an'analar bo'yicha to'y qilish, qarindosh-urug'larni dafn etishga ham cho'chib qolgan edilar"²¹.

Yuqorida zikr etilgan, respublika rahbari sifatida ishtirok etgan birinchi majlisdayoq Islom Karimov o'n-yillar davomida hal qilib kelinmasdan kelayotgan va ko'pchilik bundan buyon ham shunday davom etaveradi, degan kayfiyat bilan umumiy bir beparvolik bilan qo'llab-quvvatlab kelayotgan masalalarga oydinlik kiritadi. Boshqacha aytganda, o'zining rahbarlik pozitsiyasini ochiq bayon etadi. Bu albatta zaldao'tirgan, eskicha ishlashga ko'nikib qolgan akasariyat katta-kichik rahbarlar uchun go'yo bulutsiz osmonda

²⁰Islom Karimov, "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011. 175-bet.

²¹ O'sha manba, 177-178-betlar.

chaqmoq chaqnagandek ta'sir qiladi. Ayniqsa, sobiq Markazdan, SSSRning boshqa hududlaridan O'zbekistonga yuborilgan, o'zlaricha hech kim bizning mushukimizni "pisht" deya olmaydi, degan kayfiyatda yurgan kimsalar birdaniga hushyor tortadi. Chunki shu paytgacha hech kim ulardan ishni qat'iy turib talab qilmagan va buni xayoliga ham keltira olmas edi.

Tasavvur qiling, o'sha paytda mahalliy yoshlar va mesxeti turklari o'rtasida sobiq Markazdagi yovuz kuchlar tomonidan qora niyatda ataylab tashkil etilgan janjal-to'polonlar tufayli butun Farg'ona vodiysi bamisoli o't-olov ichida qolib ketgan edi. Ishsizlik, qashshoqlik, uy-joy va tomorqa yerlarining yetishmasligi, buning ustiga, bunday janjallarning o'ylab topilganidan xalqning sabr kosasi to'lib ketgan edi. Shuning uchun ham Islom Karimov o'z rahbarligining birinchi ish kunidayoq Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi ahvolni muhokama qilish masalasini hukumat oldiga qat'iy vazifa qilib qo'yadi. Har qaysi viloyatdagi mas'ul shaxslardan aholining ijtimoiy yashash sharoitlari haqida hisobot berishni talab qiladi. Afsuski, bu mas'ul shaxslarning birortasi ham shunday mas'uliyatli majlisga puxta tayyorgarlik bilan kelmaydi. Chunki ular sobiq Markazdan qo'yilgan shaxslar - Farg'ona oblast ijroiya komiteti raisining o'rinbosari Yu.Kalimullin, Namangan oblast ijroiya komitetining birinchi o'rinbosari A.Boguslovskiy, Andijon oblast ijroiya komiteti raisining birinchi o'rinbosari V.Babenko edi. Ular, xuddi I.Usmonxo'jayev va R.Nishonov kabi avvalgi rahbarlar davridagidek, hech kim bizdan ish talab qilolmaydi, degan o'y-xayol bilan majlisda nomiga katnashish uchun kelishgan edi, xolos. Lekin o'zining qanday buyuk missiya bilan respublika rahbari bo'lib ish boshlayotganini, bu boradagi ulkan mas'uliyat va javobgarlikni yurak-yuragidan his qilgan Islom Karimov nafaqat ishga, ayni paytda ming-minglab odamlar taqdiriga bunday mensimasdan munosabatda bo'lishga mutlaqo toqat qilolmaydi. Shuning uchun ham butun majlis ishtirokchilarini ogohlantiradi: **"Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yul qo'ymaydi"**.

Yana bir misol. Respublikamizning sobiq rahbari R.Nishonov Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan qonli to'qnashuvlarni xaspo'shlab,

sobiq mustabid tuzumning eng oliy idorasi bo'lmish SSSR Oliy Soveti sessiyasi minbaridan "Bu – bir tarelka qulupnay ustida bo'lib o'tgan oddiy mojaro", deb butun dunyoni chalg'itgan, eng yomoni, Markazga yaxshi ko'rinish uchun o'z xalqining boshiga tushgan fojiani ataylabdan yashirib, uning manfaatlariga xiyonat qilgan edi.

O'z xalqini bunday og'ir kulfatlardan, ta'nayu malomatlardan xalos etish, uning ozod va mustaqil hayotini ta'minlashni o'zining bosh maqsadi, faoliyatining asosiy ma'no-mazmuni deb bilgan Islom Karimov esa haqiqatni o'z nomi bilan atab, bo'lib o'tgan janjal-to'polonlarning sababini dadillik bilan ochib tashlaydi: *"Barcha voqealarning ildizi – Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog'liq, desam, o'ylaymanki, ko'pchilik bu fikrga qo'shiladi"*. Savol tug'iladi: axir, Farg'ona voqealariga bunday baho berish o'sha paytda butun dunyoga o'z hukmini o'tkazib turgan sovet imperiyasining siyosatiga zid edi-ku? Islom Karimov hukmron siyosatga ochiqdan-ochiq qarshi borishga qanday jur'at etdi? Chunki Yurtboshimiz, yuqorida zikr etilganidek, buyuk bir missiyani – O'zbekistonni, uning jafokash xalqini qariyb 130-yildan buyon davom etib kelayotgan mustamlakachilik zulmidan ozod etish vazifasini o'z zimmasiga olgan edi. Ana shu ulug' maqsad uni doim jasoratga, har lahza, har daqiqada ona xalqining taqdiri va kelajagini o'ylab yashashga da'vat etadi.

Haqiqatan ham, xalq dardi bilan yonib, nafas olgan, o'zini buyuk ishlarga bag'ishlagan mard va jasur insonlar hech qanday xavfu xatardan qo'rqmaydi. Bamisoli butun xalqning ezgu niyatlari ko'rinmas qudratli kuchga aylanib, ularni qo'llab-quvvatlab turadi. Buni "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'qish jarayonida qayta-qayta his etamiz.

Islom Karimov 1989-yilning 25-iyun kuni janjal-to'polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg'onaga yo'l oladi. Lovullab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan, qahr-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan ohu nolalarini tinglab, yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi jarohatlarga malham qo'ygandek bo'ladi, ko'ngillarida

yaxshi kunlarga umid uchqunlarini uygʻotadi. Tartibsizliklar, qon toʻkilishining oldini olish boʻyicha butun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olib, aniq chora-tadbirlar koʻradi.

Islom Karimov lavozimga oʻtirganiga ikki kun boʻlar-boʻlmas ogʻir muammo bilan toʻqnashadi – 1989-yil 25-iyunda Fargʻonada vaziyat keskinlashadi. Oʻzbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisi Gʻ.Qodirov toʻpolon boʻlayotgan joyga desantchilarni tashlash toʻgʻrisida koʻrsatma bergani bois, koʻchalarda BTRlar turgan, avtomatchilar odamlarni tekshirib oʻtkazayotgan bir paytda Islom Karimov oʻsha yerga etib boradi. Bunday sharoitda, avvalo, odamlarni tinchlantirish, buning uchun ular koʻngliga vahima solib turgan qurolli kuchlarni olib ketish zarurligini tushungan Islom Karimov desantchilarni joyiga qaytarish haqida topshiriq beradi. Shu kuni xavfsizlik xizmatining qattiq qarshiligiga qaramay, Qoʻqonga yetib keladi. Yoʻl-yoʻlakay bir-ikki joyda odamlarning roʻy berayotgan voqealar haqidagi fikrini oʻrganadi.

Fargʻona vodiysi viloyatlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, mintaqadagi ijtimoiy muammolar haqida ochiq-oydin va oshkora gapiradi, mavjud keskin ahvoldan chiqish yoʻli sifatida aholining turmushini yaxshilash, jumladan, odamlarni ish bilan, tomorqa va uy-joy uchun yer uchastkalari, chorva mollari bilan taʼminlash masalalarini birinchi bor amaliy nuqtai nazardan jiddiy kun tartibiga qoʻyib, tegishli vazirlik va idoralar, viloyat va tuman rahbarlariga aniq topshiriqlar berdi.

Islom Karimovning bevosita tashabbusi bilan fashizmga qarshi urush-yillarida Vatanidan quvib chiqarilgan qator xalqlarga oʻz yurtiga qaytishlarida yordam berish toʻgʻrisida Deklaratsiya qabul qilindi va SSSR Oliy Kengashiga taqdim etildi. Aytish mumkinki, oʻz vaqtida katta siyosiy va tarixiy ahamiyatga ega boʻlgan bunday hujjat (u qanday hal etilganidan qatʼi nazar) faqat Oʻzbekistonda qabul qilindi²². Bu harakat respublika rahbariyatining jonkuyarligi va adolatparvarligidan dalolat berardi.

Oʻzbekiston – shu yurtda yashovchi har bir inson uchun muqaddas diyor. Mana shu muqaddas vatanni asrash va uning taqdiri uchun kurashishni chin dildan istamaganimizda xalqimiz Vatan

²² Qapahr: Joʻraev N. Agar ogoh sen.. Portretga chizgilar. Siyosiy esse. T., 1998. B. 25.

mustaqilligiga erishmagan, Islom Karimovdek buyuk, iqtidorli davlat rahbariga ega bo'lmagan bo'lar edi. Qisqa vaqt ichida Islom Karimov rahbarligida respublikada millatlararo totuvlik, milliy kadrlar tayyorlash kabi dolzarb masalalar hal qilina boshlandi. Farg'ona voqealarida mahalliy idora rahbarlarining xalqdan ajralib qolganligi, voqealarning asl mohiyatidan bexabarligi, xalqning dardu hasratiga beparvoligi, loqaydligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Shundan so'ng, mamlakat rahbariyati tomonidan paxta yakkahokimligiga barham berildi, paxtaga to'lanadigan haq qayta ko'rib chiqildi, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga moddiy yordam berila boshlandi. Ayniqsa, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni kengaytirish maqsadida 720 ming gektarga yaqin unumdor yerlar dehqonlarga muddatsiz topshirilishi²³ kabi tadbirlar respublikada siyosiy-ijtimoiy keskinlikning kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari, respublikamizda shu paytdan boshlab mustaqil rivojlanishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga e'tibor qaratildi.

Agar o'sha-yillar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Farg'ona voqealari haqida shov-shuv ko'targanlar, shunday qonli fojia hisobidan obro' topish, o'z g'arazli manfaatlariga erishish, xalqimizni badnom qilishga uringan kimsalar ko'p bo'lgan. Islom Karimov bu borada kuyib-yonib, asl haqiqatni katta dard va jasorat bilan bayon qiladi, fojia oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqadi va izchil amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov Farg'ona viloyatida ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqargan sabablar haqida quyidagilarni bayon etgan edi: «Boz ustiga, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ko'pgina amaldor shaxslar, jumladan, voqealar o't-olovdek chaqna ketgan Toshloq rayonidagi ana shunday shaxslar qonun-qoidalarni buzishgan, poraxo'rlik qilishgan. Ular, avvalo, o'zlari va qarindosh-urug'lariga yakka tartibda uylar qurish uchun yer uchastkalari ajratib berishgan, ssudalar olishgan, holbuki, yer va qarz olishga muhtoj bo'lgan 400 nafar oddiy mehnatkashga rad javobi berilgan edi.

Sotish uchun 319 ta avtomashina ajratilganida, shulardan 236 tasi rayonda yashamaydigan, jumladan, boshqa respublikalarda

²³ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. T., 1996. B. 341.

yashaydigan kishilarga g'ayriqonuniy tarzda taqsimlangan, uy-joy taqsimlash tartibi qo'pol tarzda buzilgan, gazlashtirish, suv ta'minoti, ishga joylashtirish masalalari necha-yillar mobaynida hal bo'lmay qolavergan»²⁴.

1990-yilning avgust-sentyabr oylarida Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida janjal-to'polonlar bo'lib o'tadi. Islom Karimov ushbu tumanga kelganida ayanchli manzaraning guvohi bo'ladi – yo'l yoqasida mashinalar yonar, junbushga kelgan yoshlar to'polon qilishar edi. Yangi rahbar ularning yoniga borib, o'zini tanishtiradi. Otga minib, xaloyiq orasiga kiradi. Ularga murojaat qilib, «Nima talablaring bo'lsa, menga aytinglar, hammasiga e'tibor bilan qarab, hal qilib berishga harakat qilaman», deydi. Markaz haqida o'zining dangal fikrini aytadi. Yangi rahbardan bunday javobni sira kutmagan xaloyiq bo'shshib qoladi.

Farg'onadagi voqealar tugaganidan so'ng ham har xil mish-mishlar natijasida Toshkent viloyatining Parkent va Bo'ka tumanlarida ba'zi kimsalar tomonidan noxush voqealar uyushtirildi. Masalan, 1990-yil 3-mart kuni Parkentning markazida ommaviy tartibsizliklar tufayli shu yerlik M.Mirtursunov halok bo'ldi. Ushbu holat aholining kayfiyatiga salbiy ta'sir etib, noroziliklarni kuchaytirdi. 1990-yil 2-dekabr kuni Namangan shahrida ichki qo'shinlar harbiy xizmatchilari bilan mahalliy yoshlar o'rtasida kelib chiqqan janjal natijasida 5 nafar harbiy xizmatchi va 3 nafar mahalliy millatga mansub fuqaro halok bo'ldi²⁵.

1991-yilning 9-dekabrda Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olib, O'zbekistonni Islom davlatiga aylantirishni da'vo qilib chiqishadi va respublika rahbari bilan uchrashuvni talab qilishadi. Islom Karimov prezidentlikka nomzod sifatida ertasi kuni tongda Namanganga etib keladi va ongi aqidaparastlik g'oyalari bilan zaharlangan, jazavaga tushgan olomon orasiga soqchi va hamrohlarsiz, bir o'zi, hech ikkilanmasdan, shijoat va shiddat bilan kirib boradi. Respublika rahbarini ko'rishgach, aqidaparastlar bir oz dovdirab qolishadi.

²⁴ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2011. B. 179.

²⁵ Batafsilroq qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2011.

Prezidentimiz vazminlik bilan soʻz boshlaydi va ularning barcha daʼvolarini aniqlik bilan rad etadi.

Shuni aytish kerakki, Islom Karimovning qatʼiyati va jasorati binoni boshiga koʻtarib baqir-chaqir qilayotgan minglab ashaddiy ekstremistlarni ham sarosimaga solib qoʻyadi. Mamlakatimiz rahbari hayajonga berilmasdan, ular talab qilayotgan yoʻl qonunga mutlaqo zid ekani va hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini uqtiradi, salobati va irodasi bilan guvillab yotgan olomonning shashtini soʻndirishga, behuda qon toʻkilishining oldini olishga muvaffaq boʻladi.

Mustaqillik arafasida, yaʼni 1989-yilning 19-oktyabr kuni oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasi muhokamasiga qoʻyilgani ham davlatimiz rahbari Islom Karimov nomi bilan bogʻliq. Oʻsha qaltis siyosiy-ijtimoiy sharoitda oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi keskin va murossasiz bahs va tortishuvlarga sabab boʻlgan. Oʻsha vaqtda ayrim siyosiy guruhlar Oʻzbekiston sharoitiga mutlaqo toʻgʻri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olgʻa surgan, shuning hisobidan oʻziga obroʻ topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda, til bilan bogʻliq muammolar orqali milliy tuygʻularni roʻkach qilib, ulardan gʻarazli maqsadlarda foydalanish mumkin edi. Islom Karimovning oʻsha paytdagi har tomonlama puxta oʻylangan, mulohaza qilib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarning talablarini qondiradigan, eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan vazminlik siyosati orqali yagona toʻgʻri yoʻlni topishga erishildi. Natijada xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri boʻlmish ona tilimiz oʻzining qonuniy maqomi va himoyasiga Mustaqillikka qadar - 1989-yili 21-oktyabrida ega boʻldi.

2.4. 1990-yil 24 mart kuni bo‘lib o‘tgan respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi tarixi

To‘rtinchi masala bayoni: O‘zbekistonning davlat mustaqilligi va milliy istiqbolga erishuvi xalqimizning buyuk tarixiy yutug‘idir. Mustaqillik — ajdodlarimiz bergan mislsiz qurbonlar evaziga qo‘lga kiritilgan ulug‘ ne‘mat. «Mustaqillik bizni mustabid va mafkuralashgan tuzum kishanlaridan ozod qildi, o‘zbek xalqiga o‘z yurtida boshini baland ko‘tarib yurish, o‘z madaniyatini va an‘analarini, qadr-qimmatini, dini va e‘tiqodini, ona tili va ma‘naviyatini qayta tiklash imkonini berdi»²⁶.

Garchi O‘zbekistonning davlat mustaqilligi yuridik tarzda 1991-yil 31-avgustdan e‘tirof qilinsa-da, mustaqillik uchun intilish, kurash ancha avvalroq boshlangan edi.

Jumladan, 1990-yil 24 martda mustaqillik yo‘lidagi juda muhim hamda mas‘uliyatli qadam qo‘yildi. Shu kuni o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining birinchi sessiyasida Ittifoqdagi respublikalar orasida birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimi joriy etildi. Bu tarixiy voqea edi. Shu o‘rinda aytish joizki, bundan o‘n kun oldin, ya‘ni 14 mart kuni SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi s‘ezdida SSSR Prezidenti lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risidagi qonun qabul qilinib, Mixail Sergeevich Gorbachev bu vazifaga saylangan edi.

SSSR tarkibida (hududida) ikkinchi Prezidentning paydo bo‘lishini Markaz va uning rahbariyati qanday qabul qilganliklarini bugun tasavvur qilish qiyin emas, albatta.

1990-yil bahorida birinchi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti gorbachevcha qayta qurish boshi berk ko‘chaga kirib qolganini anglab etdi. O‘sha vaqtda SSSR siyosatchilari orasida bunday odamlar kamdan-kam edi. Rossiya va boshqa ittifoqdosh respublikalarda tobora kuchayib borayotgan tartibsizliklar O‘zbekistonda ham yuz berishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qat‘iy choralar ko‘rish kerak edi. O‘zbekistonda hokimiyatning ozgina bo‘lsa-da zaiflashuvi respublika ichida millatlararo nizolar yangidan boshlanishi, ijtimoiy portlashlarga olib kelishi mumkin edi. Shu

²⁶ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. 5. T., 1997. B. 104.

sababli 1990-yil martida, Gorbachev va uning atrofidagilar norozi bo'lishiga va qarshilik ko'rsatishiga qaramay, O'zbekiston Oliy Soveti respublika Prezidenti lavozimini ta'sis etdi va unga Islom Karimovni sayladi. Mamlakat ahli o'sha vaqtda harakati tobora susayib, cho'kayotgan kemaga o'xshab qolgan KPSSga bundan buyon ko'r-ko'rona ergashmasligini, ko'p millionli xalq kommunistik mafkura tazyiqiga uchramasdan, o'zining mustaqil davlatida yashashni istayotganligini o'z Prezidenti Islom Karimov orqali ochiq-oydin aytdi.

Islom Karimov Kompartiya 1990-yillar boshidagi holatida tarixiy anaxronizmga aylanganini, milliy suverenitetni mustahkamlash yo'lida g'ov bo'lib qolganligini juda yaxshi tushunar edi. Lekin ancha katta hokimiyat kuchi va jamiyatda o'z ta'siriga ega bo'lgan partiya-davlat apparatini birdaniga engish noreal ish ekanligini ham chuqur anglar edi. U O'zbekistonda Kompartiyaning mafkurasi va siyosatini tubdan o'zgartirishga harakat qilib, ayni vaqtda boshqaruv hokimiyat tuzilishini saqlab qolib, partiyaning qayta tashkil etish yo'lidan bordi. Bunda Prezidentimiz xalqning «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma» degan dono naqliga amal qildi.

1991-yil avgustidagi voqealardan keyin Islom Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston Kompartiyasi tubdan isloh qilinib, mafkurasi va siyosati mutlaqo Yangi bo'lgan Xalq demokratik partiyasiga - parlament tipidagi partiyaga aylantirildi. Hokimiyat asta-sekin, ammo og'ishmay partiya mahkamalaridan boshqacha boshqaruv tizimiga: prezident – hukumat – mahalliy ma'muriyat (hokimiyatlar) tizimiga o'ta boshladi.

O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligiga erishish yo'lida qo'yilgan tarixiy qadam bo'lib, chinakam siyosiy va ma'naviy jasorat namunasi edi.

O'zbekiston xalqining manfaatlarini ko'zlab Islom Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan dastlabki tadbirlarning o'ziyoq prezidentlik boshqaruvining o'z vaqtida ta'sis etilganidan dalolat beradi. Xususan, 1990-yil 20-iyunda respublika Oliy Soveti tomonidan Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinadi. Bu mustaqil davlatchilik sari intilishimizning ikkinchi bosqichidir.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida» Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonotiga asoslanib, qabul qilindi. Qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir”. Qonunda O‘zbekiston xalqi davlat hokimiyatining birdan-bir asosi ekani belgilab qo‘yildi. Xususan, unda «O‘zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir U o‘z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi» (2-modda), deyildi.

Davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy bo‘linish prinsipi Qonunda o‘z ifodasini topdi: «O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O‘zbekiston Respublikasi davlat idoralarining tizimi hokimiyatni *qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga* ajratish tartibi asosida quriladi» (5-modda). Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur Qonunga konstitutsiyaviy maqom berilgan²⁷.

1 sentyabr – O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi kuni – umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.

1991-yilning 19-21-avgustida Sovet Ittifoqida davlat to‘ntarishi sodir etildi. Mamlakatda favqulodda holat joriy etilib, hokimiyat GKChP (Favqulodda vaziyatlar davlat qo‘mitasi) qo‘liga o‘tdi. Ana shunday vaziyatda O‘zbekiston rahbariyati vazminlik bilan oqilona yo‘l tutdi. O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining Rayosati, O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti va O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi 1991-yil 21-avgustda qo‘shma majlis o‘tkazib, unda «SSSR GKChPcining O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi va qonunlariga zid hujjatlari O‘zbekiston hududida amal qilmaydi», degan qaror qabul qildi.

1991-yil 12-fevralda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan O‘zbekistonda insoniy qadriyatlarini yanada kamol toptirish, o‘ziga ishonch ruhi va

²⁷Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 11-son. 268-modda.

milliy g'ururni mustahkamlash, do'stlik, birodarlik, hamjihatlik, mehr-shafqatni ulug'lash, madaniy va tarixiy an'analami davom ettirish hamda rivojlantirish, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar va udumlarni e'zozlash maqsadida Navro'z bayramini keng nishonlash haqidagi farmon imzolanib, 21 mart dam olish kuni deb belgilandi. Navro'zni yangichasiga, katta umumxalq bayrami sifatida tantana bilan o'tkazish haqidagi qaror o'sha davrda xalqimizni jipslashtirishda muhim rol o'ynadi.

Respublikamiz Prezidentining «Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish haqida»gi Farmoni mamlakatimizda yagona g'oya — insonni ulug'lash, milliy g'ururni yuksaltirish, hamjihatlik, birodarlik, mehr-shafqat, tinch-totuvlik maqsadlari va g'oyalari bilan yo'g'rilganligini alohida ta'kidlash joiz.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning eng katta yutug'i shundaki, u odamlar bilan yuzma-yuz turib gaplashdi, rost gapirdi, yolg'on va balandparvoz va'dalar bermadi. Xalq esa achchiq bo'lsa-da, rost gapga muhtoj edi. Chunki u-yillar mobaynida hayot haqiqatidan mahrum bo'lib, uydirma va havoyi shiorlar girdobiga g'arq etilgan edi. Hukumat rahbari sifatida Islom Karimov xalq ko'ngliga qarab, hayotning kemtik joyini to'ldirishga kirishdi.

Mamlakat rahbarining xalq bilan ochiq, yuzma-yuz turib gaplashishi jamiyatda ijtimoiy-siyosiy muhitning bir oz barqarorlashishiga olib keldi. 1989-91-yillar, aytish mumkinki, bir necha mingyillik tariximizda shiddat bilan boshlanayotgan Milliy Tiklanish, Milliy Uyg'onish va Milliy Taraqqiyot davrining muqaddimasi bo'ldi. Xuddi ana shu-yillarda Navro'z milliy bayram sifatida keng nishonlandi, bu ommaviy tadbirda birinchi marta hukumat rahbarlari va shaxsan Islom Karimov xalq bilan birga bayramni nishonladi. Bu an'ana bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Bu voqealarni bugun - oradan birmuncha vaqt o'tgach, xotirjam eslash oson. O'sha paytlarda har bir kishining qalbida allaqanday hadik, ifodalab bo'lmas qo'rquv, unga qorishib ketgan sevinch va hayajon bor edi. Bu voqealarni har kim o'zicha tushundi, o'zicha talqin etdi. Biroq, O'zbekiston rahbariyati o'z so'zida sobit turdi.

Turli hiylayu nayranglarni, ig'vo va malomatlarni qat'iyat va amaliy ish bilan engdi.

Mustabid tuzum davrida xalqimizning haqiqiy tarixi, boy madaniy merosi, urf-odat va an'analari, Navro'z bayrami, Ramazon va Qurbon hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'qiqlab qo'yilgan edi. Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband va boshqa aziz avliyolarimiz, Amir Temur, Bobur singari ulug' ajdodlarimiz merosiga nisbatan adolatsizlik hukm surdi.

Ayrim mahalliy rahbarlar ham hukmron mafkuraga sajda qilgan holda amal pillapoyasidan ko'tarilish ilinjida o'z ajdodlari merosi va milliy qadriyatlarni rad etishgacha borishdi. Xalqimizning urf-odat va an'analari, madaniyati oyoqosti qilindi, davlat idoralarida o'zbek tilida hujjat ishlarini yuritish sun'iy tarzda cheklab qo'yildi. Hatto, shundoq ham milliy an'analardan ancha olisda bo'lgan ayrim san'at turlari ham kimlargadir maqbul bo'lmay qoldi va ularni yangilashga urindilar. Hatto milliy libosda sahnaga chiqish ham qoralandi. Bu ishlarning bari xalq ruhini cho'ktirib, uning kelajakka bo'lgan ishonchini so'ndira boshladi. Mana shunday sharoitda I.Karimov bunday biryoqlama, kaltabin siyosat mamlakatni tanazzulga olib kelganligini teran anglab, milliy qadriyatlar va tarixiy merosni tiklash, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqparvarlik tamoyillarini hayotga joriy etish zarurligiga e'tibor qaratdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov siyosati va ish uslubining o'ziga xosligini o'zbekiston xalqlari uchun qadriyat sanalgan islom diniga munosabat masalasida ko'rish mumkin. Davlatimiz rahbari mustaqillikka qadar va mustaqillik-yillarida islom madaniyati va ma'rifatini keng targ'ib qilishga katta ahamiyat berdi. Markaziy Osiyo tarixida birinchi marta Qur'oni karim va hadislar, qolaversa, bir qator boshqa diniy kitoblar o'zbek tilida chop etildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning diniy meros, diniy tashkilotlar va vijdon erkinligi masalasidagi faoliyatining g'oyat insonparvar mazmuni va novatorlik kuchi shundaki, u mamlakat aholisi turli tabaqa-larining – turli din va aqidalarga daxldor bo'lgan kishilarning kommunistik mafkura

ta'sirida cheklanib, biqinib qolgan ongini keskin o'zgartirib yubordi. Ularning tafakkurida burilish yasadi. Har bir tirik jonga qandaydir aziz bo'lgan, u muhtoj va chanqoq bo'lgan eng nozik, eng hayotbaxsh, eng lazzatli histuyg'ularni hadya etdi.

Islom dini, nafaqat inson odobi va uning turmush tarzi, balki davlat va jamiyat, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar, yurt peshvosining ma'naviy qiyofasi, jamiyatdagi o'rni, siyosatdagi adolat mezoni, so'z va fikr erkinligi kabi murakkab ijtimoiy masalalar xususida ham saboqlar beradi. Shu bois ham bu o'lmas qadriyatlar, hayotiy tajribalar bugungi yangi davlatchiligimiz qurilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Agar biz bosib o'tilgan istiqbol yo'limizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, uning ilk-yillaridanoq dinga munosabat, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilganligiga amin bo'lamiz. Shuning uchun ham bugun ko'pmillatli mamlakatimizda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi Qonun asosida bosiq-vazmin, uzoqni ko'zlagan siyosat amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov siyosiy vaziyat nihoyatda qaltis va nozik bir paytda otashin nutq va ma'ruzalari bilan odamlarning nozik tuyg'ulariga ta'sir etdi, ularni uzoq-yillik karaxtlik va g'aflatdan uyg'otdi, fikrlashga, o'z taqdiri va farzandlari istiqboli haqida qayg'urishga da'vat etdi. Bu bilan u, birinchidan, mamlakat aholisini ruhiy-ma'naviy poklanishiga erishdi. Ikkinchidan, mamlakatdagi tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikka o'ziga xos zamin yaratdi.

Kremlning asabiy jazavalariga qaramay, yurtimiz hali sovetlar iskanjasida turgan og'ir kunlarda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov xalq xohish-irodasiga quloq tutib, unutilmas bir tarixiy hujjatga imzo chekdi. 1990-yil 2-mayda qabul qilingan Farmonga ko'ra, musulmonlar hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayitlari dam olish kunlari deb e'lon qilindi. Bu farmon aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi. El-ulus o'zining yangi yetakchisi amalga oshirayotgan xalqparvar siyosatni qo'llab-quvvatlay boshladi. Bu Farmon yurtdoshlarimiz ruhiyatida ulkan

ijobiy o'zgarish yasadi. Bu farmon mazlum xalqning "ko'ksiga shamol tegajagidan" bir nishona bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ana shunday murakkab va og'ir sharoitda o'z xalqining dardiga quloq solish, uning muammolarini hal qilish orqaligina mamlakatni tanglik va bo'hronidan olib chiqish mumkinligini anglab etdi va bu mushkul vazifani ado etishga zo'r qat'iyat va shijoat bilan kirishdi.

Jamiyat a'zolarining vijdon erkinligini ta'minlash, ularning o'z diniy marosim va urf-odatlarini emin-erkin ado etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Yangidan-yangi masjid va madrasalar qurish, eskilarini tiklash-ta'mirlash bo'yicha ulkan tadbirlar amalga oshirildi, bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda 2 ming 50 dan ziyod masjid rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan holda faoliyat ko'rsatmoqda.

Diniy asarlarni nashr etish keskin sur'atda oshdi. 1990-yilgacha Movarounnahr musulmonlari idorasining «Sovet Sharqi musulmonlari» jurnali 5 tilda nashr qilar edi. Uning ham mazmun-mundariyasi o'sha davr talablariga mos edi, albatta. Mustaqillik sharofati bilan «Islom nuri» haftanomasi va "Hidoyat" jurnali dunyoga keldi, ko'plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Jumladan, Imom al-Buxoriyning to'rt jildidan iborat, Imom at-Termiziyning bir jildli hadis kitoblari, boshqa allomalaming qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimai va izohi" sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bundan tashqari, hadis va shar'iy ilmlarga doir ko'pgina asarlar ona tilimizga o'girildi va ming-minglab nusxalarda chop etildi.

Ayni paytda mamlakatimizning har bir viloyatida kamida bittadan o'rta maxsus diniy bilim yurti bor. Toshkent shahrida esa Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Hadichai Kubro nomidagi xotin-qizlar diniy bilim yurti, Ko'kaldosh madrasalari ishlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-maydagi qarori bilan Toshkent shahrida Islom ta'limoti va falsafasini, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur o'rganish maqsadida Xalqaro Islom tadqiqot markazi tashkil etildi. Mazkur

markazning asosiy vazifasi diyorimiz musulmonlariga milliy qadriyatlarimizni, haqiqiy Islom ta'limotini etkazish, mavjud Islomiy osori atiqalar tarixini o'rganish, nodir qo'lyozma asarlarni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo'llanmalar, lug'atlar tayyorlash va nashr qilishdan iborat. 1999-yili Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Bu kabi ilm va ma'naviyat maskanlari islom dini asoslarini targ'ib etish bilan birga, diniy ekstremizm va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyili bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirmoqda.

2.5. Milliy armiya va ichki ishlar tarkibining shakllanishi

Beshinchi masala bayoni. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston hali mustaqillikka erishmasdan burunroq milliy armiyani shakllantirish masalasiga muhim e'tibor bera boshlagan edi. Mustaqillik e'lon qilingan bo'lsa-da, SSSR Mudofaa vazirligi va uning qurolli kuchlari saqlanib turgan bir paytda bunday kuchga qarshi tik borish og'ir oqibatlariga olib kelishini yaxshi tushungan Prezidentimiz harbiy sohada ishni bosqichma-bosqich hal etish yo'lidan bordi. 1991-yil 6-sentyabrda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida»gi Prezident farmoni bu yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Bu yangilikni «hazm qila olmagan» Kreml O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tazyiq o'tkazishga urinib ko'rdi.

O'sha vaqtda SSSR Mudofaa ishlari vazirligi va unga bo'y-sunuvchi Turkiston harbiy okrugi har qanday vaziyatda respublika Mudofaa ishlari vazirligini tan olmasligini ko'rsatishga harakat qildi. Bu paytda Turkiston harbiy okrugi qo'mondonlik tarkibining faqat ikki-uch foizigina o'zbekistonlik bo'lib, qolganlari chetdan kelgan edi. Shuning uchun ham yangi tashkil topgan, hali o'z qo'shini, o'z qurolli kuchlari, o'z harbiy texnikasi va qurol-aslahasiga ega bo'lmagan respublika Mudofaa vazirligi Turkiston harbiy okrugi bilan o'z munosabatlarini ehtiyotkorlik bilan olib borishi lozim edi. Prezident Mudofaa vazirini o'z huzuriga chaqirib, respublikada osoyishtalikni saqlab qolgan holda, mudofaa qudratini oshirishning

chuqur o'ylangan yo'lini ko'rsatib beradi. Bu ishlarni ortiqcha hissiyotga berilmasdan, bosiqlik bilan amalga oshirish zarurligini uqtiradi. Mamlakatimiz daxlsizligini ta'minlash uchun birinchi galda quyidagi ishlarni bajarish vazifasini topshiradi:

1) Harbiy komissariatlarni respublika ixtiyoriga o'tkazib, sobiq Ittifoq armiyasiga askar yuborishni to'xtatish;

2) Ittifoqning turli hududlarida xizmat qilayotgan o'zbekistonlik askar va zobitlarni respublikaga qaytarib olib kelish;

3) O'zbekiston hududida joylashgan barcha harbiy garnizon va qismlarni respublika tasarrufiga o'tkazish.

Shundan so'ng faqat o'zbeklargina emas, o'zlarini O'zbekiston fuqarosi, O'zbekistonni Vatanim deb bilgan turli millat vakillari bo'lgan ofitser va praporshchiklar ham O'zbekistonda xizmat qilish istagini bildirib boshladi.

Harbiy xizmatchilarning o'z yurtiga qaytishi, bir qarashda oson ishdek tuyulishi mumkin, aslida ularning ijtimoiy himoyasi, uy-joy bilan ta'minlanishi kabi murakkab masalalarni ham hal qilish zarur edi. Ortga surib bo'lmaydigan bu vazifa yuzasidan Islom Karimovning aniq ko'rsatmasi asosida harbiy xizmatchilar, ularning oilalarini ijtimoiy himoyalash huquqiy ta'minlanadi²⁸.

Ma'lumki, har bir davlatning mustaqilligi, xavfsizligi, chegaralari daxlsizligini, avvalo, uning armiyasi, Qurolli Kuchlari himoya qilishi zarur. Shu bois ham istiqloqlarning ilk-yillaridanoq mamlakatimiz mudofaasini kuchaytirish masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Dastlab 1991-yil 25-oktyabrdagi qarorga binoan, uning huquqiy maqomi, tarkibiy tuzilishi va nizomlari tasdiqlandi. Shuningdek, Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi va boshqarmalari tuzildi. O'sha vaqtdagi eng jiddiy muammo — armiyadagi kadrlar masalasi bo'lib, harbiylar safida mahalliy kadrlar juda oz edi. Buni 1991-yilda mahalliy ofitserlar yurtimizdagi harbiy kadrlarning atigi 0,6 foizini tashkil etgani ham tasdiqlaydi. Ushbu masalani hal etish uchun Prezidentimiz g'oyalari asosida yangi harbiy o'quv mussasalari, Qurolli Kuchlar akademiyasi barpo etilib, ularda harbiy ishga salohiyati bor O'zbekiston farzandlarini tayyorlashga kirishildi.

²⁸ Qarang: Azizxo'jaev A. Chin o'zbek ishi. T., 2011. 156-159-betlar.

1992-yil 14-yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim voqea yuz berdi – mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy tuzilmalarni O‘zbekiston tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tashabbusi bilan e‘lon qilingan ushbu hujjat tufayli mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan va kelib chiqayotgan xavf-xatarlarni har tomonlama tahlil etish asosida armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqilishiga yo‘l ochildi. 14-yanvar yurtimizda «Vatan himoyachilari kuni» deb e‘lon qilindi.

O‘tgan davr mobaynida hayotga tatbiq etilgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qaratilgan har qanday tajovuz hamda g‘arazli urinishlarning oldini olishga qodir bo‘lgan ixcham, tezkor, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlangan, yuksak tayyorgarlikka ega milliy armiyamiz shakllantirildi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining quyidagi harbiy okruglari tashkil topdi:

1. Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyati);

2. Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug (Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari);

3. Markaziy harbiy okrug (Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari);

4. Toshkent harbiy okrugi (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);

5. Sharqiy harbiy okrug (Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari).

O‘tgan asming saksoninchi-yillari ohirida O‘zbekistonga sobiq Ittifoqning turli mintaqalaridan yuborilgan kadrlar kelib, turli nufuzli avozimlarni egalladi. Ammo ularning aksariyati respublika ahliga ramdard bo‘lish u yoqda tursin, balki partiya, sovet va huquqni nuhofaza etish organlarida o‘zlarining rahbar lavozimlariga ayinlanishlarini o‘zboshimchalik qilish uchun berilgan yorliq debildilar.

O‘zbek shoiri Muqimiyning (1850-1903) “Tanobchilar” hajiyasidagi tanobchilar xalqqa qarata “O‘t qo‘yubon kuydiradugon

o'zim, Hokimingu o'lduradurgon o'zim" degan so'zlarini aynan yangi davr "tanobchilari" ham takrorlab qolishgan edilar.

Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o'lkaning o'ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilishni ham istamagan bu odamlar respublika hayotini bosib-yanchib, qing'ir o'zanga solishga kirishdilar. Prezidentning bevosita ko'rsatmasi bilan respublika IIVning mas'ul lavozimlariga malakali mahalliy kadrlar qo'yildi. Tizim rahbarligi xalq taqdiriga befarq bo'lmagan, uning orzu-armonlari bilan yashaydigan kishilar qo'liga o'tgach, ishda jiddiy ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Uyushgan jinoyatchilik, bosqinchilik, avtomashinalarni olib qochish singari o'nlab jinoyatlarning payi qirildi. Sobiq Ittifoqda avj olgan avtomashina o'g'irligini oladigan bo'lsak, agar 1990–1991-yillarda bir kunda o'rtacha 154 ta jinoyat rasmiy ro'yxatga olingan bo'lsa (ro'yxatga tushmagan jinoyatlarning esa sanog'i yo'q edi!), ayni masalada Prezidentimiz ko'rsatgan qat'iyat tufayli 1992-yilga kelib bir-yilning ichida bunday bemazagarchiliklarga chek qo'yildi. Ikki-yil ichida 6 mingga yaqin jinoyatchi guruhlar, shu jumladan 500 uyushgan jinoyatchilik guruhi fosh etildi²⁹.

1990-yil 31-oktyabrida Prezident imzolagan «Milisiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston SSRning qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining IIV to'g'risida»gi 270-son qarori bu tadbirlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi. Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi bilan IIV faoliyatiga doir eng muhim masalalar o'z echimini topdi. Ularda ichki ishlar xodimlarining asosiy vazifalari, huquq va burchlari aniq ko'rsatib berildi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal etish choralari belgilandi. Har bir mansabdor shaxsning huquq va mas'uliyati alohida ko'rsatilib, vazirlikning yangi strukturasi tasdiqlandi. Eng muhimi – bu tizim faoliyatini moliyalash, xodimlarga unvonlar berish va lavozimlarga tayinlash respublika ixtiyoriga olindi. Shu tariqa yurtimiz ichki ishlar tizimi o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi.

²⁹ Qarang: Ijtimoiy – siyosiy nazariya ocherklari. T., 1991. 121-122-betlar.

1984-1989-yillarda «O‘zbekistonda sotsialistik qonunchilikni tiklash» shiori ostida respublika barcha huquq-tartibot idoralariga Markazdan minglab odamlar jo‘natilgan. Bu idoralar orasida shaxsiy tarkibi, harakatlanish hududi va ta’sir kuchi nuqtai nazaridan eng yirigi hisoblangan O‘zbekiston SSR IIVga sobiq Sovetlar mamlakatidan 150 ta xodim keldi. Yillar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, 1984-yilda 5 ta, 1985-yilda 33 ta, 1986-yilda 86 ta, 1987-yilda 27 ta, 1988-yilda 2 ta, 1989-yilda 3 ta «osoyishtalik posboni», birovdan so‘rab-so‘ramay, O‘zbekistonga «tashrif buyurgan». Bu «kutilmagan mehmonlar»ning asosiy maqsadi – sotsialistik mulkni himoya qilish va sotsialistik qonunchilikni ta’minlash emas, balki o‘zbek xalqini tahqirlash evaziga xizmat pillapoyalariidan ko‘tarilish edi³⁰.

O‘zbekiston SSR IIV tarkibida ishlagan shovinistik kayfiyatdagi bu kimsalar o‘zlari kabi prokuratura va sud tizimiga tushirilgan «desantchi»lar bilan til biriktirib, siyosat yuritishgan. Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi «desant» amalga oshirgan qonli tergovlar qancha-qancha insonlar, butun-butun oilalar boshiga cheksiz xo‘rluk, kulfatlar keltirdi.

Xulosa chiqarib shuni aytish lozimki, o‘rganilayotgan davr g‘oyat suronli, tahlikali va ayni paytda mustaqillikka intilayotgan yurtimiz uchun buyuk o‘zgarishlar debochasi davri ediki, bu tarix Islom Karimov yaratgan “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli kitobida³¹ o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Kitobda yurtimizdagi g‘oyat qaltis va nosog‘lom vaziyat, ozgina uchqun chiqsa butun respublika lovvullab yonib ketadigan, to‘g‘ri yo‘lni topish g‘oyat murakkab va xatarli bo‘lgan bir sharoitda inqirozdan chiqish, O‘zbekistonning taqdiri va kelajagini hal etadigan eng muhim masalalar bo‘yicha ulkan donishmandlik va jasorat bilan bayon etilgan konseptual yondashuvlar, amaliy fikr-mulohazalar, xulosa va takliflarga alohida e’tibor qaratilganki, ular nafaqat kelajak avlodga yaqin o‘tmishimizni xolis o‘rgatish, ayni paytda, ularni hayot sinovlariga chidamli, mustahkam irodali, o‘z yurti va xalqi manfaatlarini himoya qilish yo‘lida har qanday sinovlarga tayyor

³⁰ Azizxo‘jaev A. Chin o‘zbek ishi. T., 2011. 266-277-betlar.

³¹ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2012. B. 432.

bo'lgan yuksak vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari

1. Mustaqillikka erishish ostonasida O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining holati qanday bo'lgan?

2. 1989-yil o'rtalarida yurtimizda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izohlang.

3. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" kabi "jinoniy ishlar" nimani anglatar edi?

4. 1990-yil 24-martda O'zbekiston tarixida birinchi bor prezidentlik lavozimini joriy etilishi va uning ahamiyati.

5. Mustabid tizim inqirozining ijtimoiy siyosiy sabablari va ularni bartaraf etish xususiyatlarini tahlil eting.

6. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida istiqloq arafasida hukm surgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat tahlili haqida gapirib bering.

7. O'zbekistonning mustaqillik sari dastlabki qadamlari nimalarda namoyon bo'ldi?

8. 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasida milliy armiya, davlat hududi chegarasi daxlsizligi kabi ijtimoiy-siyosiy masalalarning qo'yilishi.

9. Gdlyan, Ivanov boshchiligidagi "desantchilar" tomonidan amalga oshirilgan qonxo'rliklarni bartaraf etishda O'zbekiston rahbarining jasorati.

10. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan uchta tarixiy hujjatning qabul qilinishi va ularning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati.

Test savollari

1. O'tgan asrning 80-yillari oxirida O'zbekistonda yuzaga kelgan o'ta jiddiy muammolar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a. Respublikada ishsizlar sonining ko'pligi, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanganligi

b. Respublika iqtisodiyotining nomaqbul ixtisoslashtirilishi, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ulushining yuqoriligi

c. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning samarali joylashuvi, sanoat obyektlarining yetarli emasligi

d. Respublikadagi ijtimoiy ahvolning qoniqarsizligi, demografik vaziyatning murakkabligi

2. Quyidagi qaysi javobda respublikadagi og'ir ahvolning vujudga kelish sabablari noto'g'ri ko'rsatilgan?

a. Respublika tabiiy va iqtisodiy resurslarining yetarli emasligi

b. Respublikaga asosan xom ashyo bazasi, sanoat vazirliklari va idoralarining mo'may xom ashyo manbai sifatida qarab kelinishi

c. O'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmagan, ba'zan esa bu xususiyatlarning pisanand ham qilinmagan

d. Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonning mavqei va o'rini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmagan

3. O'tgan asrning 80-yillari oxirida O'zbekiston qishloqlarida yeri yo'q oilalar soni qanchani tashkil etgan?

a. 10,5 ming nafar

b. 240 ming nafar

c. 350 ming nafar

d. 1,5 million nafar

4. 1989-yil 17-avgustda qabul qilingan "Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida"gi qarorda qishloqda yashovchi har bir kishiga qancha yer ajratish ko'zda tutilgan edi?

a. O'rtacha 6 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 15 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi

b. O'rtacha 4,5 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 10 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi

c. O'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi

d. O'rtacha 20 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi

5. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi barcha asosiy fondlarning qancha qismi sobiq Ittifoq tasarrufida edi?

- a. 70 foizi
- b. 60 foizi
- c. 40 foizi
- d. 30 foizi

6. Qayta ishlanmasdan, respublika tashqarisiga chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi qanchani tashkil etar edi?

- a. 80 foizdan ko‘proq
- b. 60 foizdan ko‘proq
- c. 50 foizdan ko‘proq
- d. 20 foizdan ko‘proq

7. «Qishlokda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta‘minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida»gi qaror qachon qabul qilindi?

- a. 1989-yil 17-avgustda
- b. 1989-yil 21-oktyabrda
- c. 1990-yil 24-martda
- d. 1990-yil 22-iyunda

8. O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi qachon joriy etildi?

- a. 1989-yil 17-avgustda
- b. 1989-yil 21-oktyabrda
- c. 1990-yil 24-martda
- d. 1990-yil 22-iyunda

9. Mamlakatimiz daxlsizligini ta‘minlash uchun birinchi galda qaysi ishlarning bajarilishi belgilangan edi?

a. Harbiy komissariatlarni respublika ixtiyoriga o‘tkazib, sobiq Ittifoq armiyasiga askar yuborish

b. O‘zbekiston hududida joylashgan barcha harbiy garnizon va harbiy qismlarni respublika tasarrufiga o‘tkazish

c. Ittifoq hududida xizmat qilayotgan O‘zbekistonlik askar va zobitlarni respublikaga qaytarish

d. Faqat a va b javoblar to'g'ri.

10.1991-yil 31 avgustda qanday tarixiy hujjat qabul qilindi?

a. Mustaqillik deklaratsiyasi.

b. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida to'g'risida"gi qonun.

c. "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi qonun.

d. "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida"gi qonun.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O'zbekiston", 2016.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: "O'zbekiston", 2017.

3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 1992.

4. Karimov I.A. Hozirgi davrda demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning dolzarb vazifalari. – T.: "O'zbekiston", 1997.

5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: "Sharq", 1998.

6. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. –T.: "O'zbekiston", 2005.

7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2016.

8. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – T.: "Sharq", 2001.

9. Ziyoyev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T.: "Sharq", 2001.

10. Jo'rayev N. Agar ogoh sen.. Portretga chizgilar. Siyosiy esse. T., 1998.

11. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). –T.: "Sharq", 2002.

13. Usmonov Q.va boshqalar O‘zbekiston tarixi. (Darslik). – T.: “Iqtisod moliya”, 2006.

14. Xujamberdiev Yo. O‘zbeklar ishi. –T.: “Yozuvchi”, 1990.

15. Hasanov R. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ” O‘zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida” – nomdi kitobini o‘rganish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: MRDI, 2012.

16. O‘zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida: 100 savolga 100 javob//tuzuvchi: dos. Rahmonali Hasanov. – T.: MRDI, 2012.

3-MAVZU: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

3.1. Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati

3.2. Mustaqillik arafasidagi murakkab siyosiy jarayonlar

3.3. Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati

Tayanch tushunchalar: O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi, Prezident, Mustaqillikka qo‘yilgan ilk qadam, Mustaqillik kuni, referendum, „Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g‘risida shartnoma“, „Sovet rahbariyatining Bayonoti“, siyosiy jarayonlar.

3.1. Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati

Birinchi masala bayoni. 1990-yil 18-iyun kuni XII chaqiriq respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O‘zbekistonning Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik deklaratsiyasi matni sessiyada qizg‘in muhokama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi. Mustaqillik deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo‘lib, ularda xalqimizning xohish-irodasiga to‘la mos keladigan quyidagi muhim tartib-qoidalar belgilab qo‘yildi:

„O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi:

— o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an‘analari.

— har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta‘minlashdan iborat oliy maqsad haqi.

— har bir kishining farovon hayot kechirishini ta‘minlashni oliy maqsad deb bilgan holda.

— O‘zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda.

— xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qiladi”.

O‘zbekiston SSR ning davlat mustaqilligi:

• O‘zbekiston SSR demokratik davlatining o‘z hududida, barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir.

• O‘zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib, o‘zgartirilishi mumkin emas.

SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O‘zbekiston hududida kuchga ega bo‘ladi. O‘zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O‘zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi. O‘zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi, hurmat qiladi va hokazo. Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi mamlakatimizning tom ma‘nodagi, haqiqiy mustaqillikka erishish yo‘lida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shundan e‘tiboran mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal etila boshlandi. O‘zbekistonning mustaqillik sari intilayotgani uning yangi Ittifoq shartnomasini ishlab chiqish jarayoniga respublika manfaati nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, qat‘iylik bilan yondashayotganida yaqqol namoyon bo‘ldi. Sobiq Ittifoqqa kiruvchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsa-da, amalda qaram edilar. Ular o‘z yerlari, suvlari, o‘rmonlari va yerosti boyliklariga, ko‘pdan ko‘p korxonalariga o‘zlari egalik qilolmas edilar.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning so‘z boshisida “O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonotga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi ushbu Qonunni qabul qiladi” – deya ta’kidlab o‘tilgan.

Ushbu qonuning 2-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o‘z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi” deyilgan bo‘lsa, 3-moddada O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi”–deb bu davlatning mustaqil, suveren maqomga ega ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Bu Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmas bo‘lib, uning xalqi o‘z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o‘zgartirilishi mumkin emas”. Shuningdek, 5-moddada O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O‘zbekiston Respublikasi davlat idoralarning tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega. Suveren O‘zbekiston Respublikasi hududida SSSR Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir. Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma’naviy boyliklari O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi.

Davlat mulki obyektlari, shuningdek, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining, shu jumladan, Ittifoq qaramog‘ida bo‘lib kelgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mol-mulki, ularning asosiy ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va oborot yoki boshqa fondlari hamda o‘zga mol-mulki, ichki kommunikatsiya, transport, aloqa va energetika tizimlari, respublika kartografiyasi va geodeziyasi O‘zbekiston Respublikasining mulkidir.

O‘zbekiston Respublikasining mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish respublika qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Respublika hududida joylashgan, Ittifoq qaramog‘ida bo‘lib kelgan davlat korxonalarini aksiyali jamiyatlarga

aylantirish, ularni mulkning boshqa shakllariga o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan shartlar asosida va tartibda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o'z oltin zaxirasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi SSSRning oltin zaxirasida, olmos va valyuta jang'armalarida o'z ulushiga ega.

O'zbekiston Respublikasi o'z pul birligi — milliy valyutasini joriy etishga, jami pul oboroti, pul va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi hajmlarini mustaqil belgilashga haqli. O'zbekiston Respublikasi mustaqil moliya va kredit siyosatini amalga oshiradi. Respublika hududida olinadigan soliqlar va yig'imlar O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va mahalliy byudjetlarga tushadi. O'zbekiston Respublikasi chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa aloqalar o'rnatadi, ular bilan muxtor vakillar ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mustaqil subyekti bo'lib, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlarini, investorlarning huquqlarini belgilaydi, o'zining konversiya qilinadigan valyuta jang'armasini yaratadi, oltin va boshqa zaxiralarini, ayirboshlanadigan valyutani sotadi va sotib oladi. O'zbekiston Respublikasi hududida Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan, elatidan, ijtimoiy chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar, respublika Konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari respublikadan tashqarida ham O'zbekiston Respublikasining himoyasida bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir va ularni har qanday tahqirlash qonun bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududiy butunligini va mustaqilligini e‘tirof etadi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar teng huquqlilik asosida, ular o‘rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar vositasida quriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida erkin chiqish huquqini saqlab qoladi (**“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun**)dan.

3.2. Mustaqillik arafasidagi murakkab siyosiy jarayonlar

Ikkinchi masala bayoni. 80--yillarning oxirlari, 90--yillarning boshlarida ko‘pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o‘zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar. O‘zbekiston Respublikasining rahbari O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov 1989-yil 20-sentyabrda Moskvada bo‘lib o‘tgan KPSS MQ sining plenumida so‘zlagan nutqida respublikalar bilan Ittifoq o‘rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo‘yishni ko‘zda tutadigan yangi shartnoma ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risida o‘z fikrini bildirib: „ Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o‘zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo‘yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz“, — degan edi. Biroq markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berish haqidagi talab-takliflarni e‘tiborga olishni istamas, to‘g‘rirog‘i ularga erkinlik berishni xohlamas edi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoatchiligining ta’siri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi. 1990-yil bahorida Boltiqbo‘yidagi Latviya, Litva, Estoniya Respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon Respublikalari Ittifoq tarkibidan chiqqanligini e‘lon qildilar. Ittifoq bo‘yicha o‘z milliy davlat tuzilmalaridan tashqarida yashayotgan 60 milliondan ortiq aholi milliy-etnik muammolar, mojarolarga duchor bo‘ldi. Rossiya,

Ukraina, Belarus parlamentlari davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya qabul qildilar. Ittifoqdosh respublikalar ketidan RSFSR ga kiruvchi muxtor respublikalar ham suverenitet haqida deklaratsiyalar qabul qilishdi. Markazda va joylarda SSSR Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi yoki respublika Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi, degan masalada bahs va munozaralar kuchaydi. Markazdagilar „Kuchli markaz — kuchli respublikalar“ desa, joylardagilar „Kuchli respublikalar — kuchli markaz“ der edilar. Markaziy hokimiyat jamoatchilikning talabi ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini e'tirof etishga majbur bo'ldi. SSSR Oliy Soveti mazkur masala bilan shug'ullanuvchi maxsus delegatsiya tuzdi va uning tarkibini tasdiqladi. 1990-yil iyulda Moskvada markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari yangi shartnoma matnini tayyorlashga kirishdilar. 1990-yil avgust oyida Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi. Dasturda respublikalar o'z hududlaridagi butun milliy boyliklarga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan edi. Ammo shartnomaga bunday yondashuv markazdagilarga yoqmad. SSSR Oliy Soveti mazkur dasturni qabul qilmadi. SSSR Oliy Soveti respublikalarning istak va manfaatlarini batamom inkor etgan yangicha shartnoma loyihasini tuzib, respublikalarga tarqatdi. Respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston, markaz loyihasini qabul qilmadi. Shu tariqa, shartnoma loyihasini tuzish harakatining birinchi bosqichi natijasiz tugadi. 1991-yil fevral — mart oylarida Ittifoq shartnomasi loyihasi ustida ishlashning ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Boltiqbo'yi respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadi, Ozarbayjon kuzatuvchi bo'lib qatnashdi. Bu bosqichda Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qo'yishga harakat qilindi. Nihoyat, Ittifoq va respublikalar vakolatlari belgilab qo'yilgan yangi shartnoma loyihasi matbuotda e'lon qilindi. Respublikalarda mazkur loyiha muhokama qilindi. Respublikalar, jumladan, O'zbekiston, markaziy idoralar hali o'zining eskicha hukmron mavqeini saqlash ruhi singdirilgan bu hujjatdan qanoatlanmaganliklarini bildirdilar. SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o'zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida xalqning

fikrini bilish maqsadida 1991-yil 17-mart kuni Butunittifoq referendumini o'tkazishga qaror qildi. 1991-yil 20-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati ham referendum o'tkazishni ma'qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga yana bitta qo'shimcha byulletenni ovozga qo'yishga qaror qildi. Qo'shimcha byulletenga „Siz O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federasiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?“ degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 foizi bu savolga „Ha“ deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatini mustaqil davlat sifatida Federativ Ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergan edilar.

O'zbekiston rahbariyati referendum natijalariga asoslanib, respublikalarga to'la mustaqillik berishni ko'zlamaydigan shartnoma loyihagini rad etdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1991-yil 12-martda bo'lgan IV plenumida so'zlagan nutqida: „Ittifoq shartnomasini imzolash uchun eng qulay payt qo'ldan boy berib qo'yildi. Ikki-yil muqaddam bu masalani ko'targan kishilarning ovozigacha hech kim quloq solmadi“, — degan edi. Bu fikrning to'g'riligini hayot to'la isbotladi.

1991--yil aprelda Kievda Ukraina, Rossiya, Belarus, O'zbekiston, Qozog'iston Respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo'ldi. 1991-yil aprelda Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyovning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan „Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida qo'shma Bayonot“ imzolandi. Bu hujjat „9+1“ (9 respublika + markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni markazning yon berganini, Kievda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rsatadi. 1991-yil 3-

iyunda Novo-Ogoryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'ldi. Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to'g'risida keskin munozara bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov mavjud Ittifoq, uning tuzilmasi, markaz bilan respublikalar o'rtasida vakolatlar taqsimoti hech kimni qoniqtirmasligini keskin qilib qo'ydi, markazchilik nuqtai nazarini o'tkazishga urinuvchilarni qattiq tanqid qildi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosan inobatga olingan „Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma“ loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Kengashlariga muhokama uchun jo'natildi. Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Oliy Kengashida 1991-yil 14-iyunda muhokama qilindi. Kengash Federasiya tamoyillari asosida Mustaqil davlatlar ittifoqini tuzish tarafdori ekanligini bildirdi. Shu bilan birga respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi. 1991-yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun markaz vakillari va respublika rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan „Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma“ loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lgani holda „Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risidagi shartnoma“ni imzolash 1991-yil 20-avgust kuniga qoldirildi. SSSR Prezidenti M. S. Gorbachyov Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi. Markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillikni bermaslik payida yurganlar uchun qandaydir bir «imkoniyat» vujudga kelgan edi. Moskvada markaziy hokimiyatni saqlab qolishga, respublikalar jilovini o'z qo'lida ushlab qolishga urinuvchilar tomonidan fitna tayyorlandi. Fitnachilar 1991-yil 18-avgust kuni tayyorlangan va 19-avgustda matbuotda e'lon qilingan „Sovet rahbariyatining Bayonoti“da M. S. Gorbachyovning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo'q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vise-prezident G. I. Yanaevga o'tkazilganligi e'lon qilindi. Aslida esa Prezident M. S. Gorbachyov sog'-salomat edi, ammo o'zini himoya qila olmadi. Fitnachilar uni mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha

aloqa vositalarini uzib, 72 soat qamal qilib qo‘ygan edi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun quyidagi tarkibda sobiq Ittifoqda favqulodda holat davlat qo‘mitasi (FHDQ) tuzildi: O. D. Baklanov — SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o‘rinbosari, V. A. Kryuchkov — SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasining raisi, V. S. Pavlov — SSSR Bosh vaziri, B. K. Pugo — SSSR ichki ishlar vaziri, V. A. Starodubsev — SSSR dehqonlar uyushmasi raisi, I. Tizyakov — SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasining Prezidenti, D. T. Yazov — SSSR mudofaa vaziri, G. I. Yanayev — SSSR Prezidenti vazifasini bajaruvchi. Shu tariqa fitnachilar M.S.Gorbachyovni noqonuniy yo‘l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o‘zlari hokimiyatni egallab oldilar. Mazkur qo‘mita sovet rahbariyatining Bayonoti, sovet xalqiga murojaatnoma, davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e‘lon qildi. Butunittifoq doirasida mo‘rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar. Qaltis vaziyatda 1991-yil 19-avgustda O‘zbekiston Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda Prezident O‘zbekistonning nuqtai nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo‘qligi, O‘zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko‘rsatmalar bajarilmasligini qat‘iy ta‘kidladi. 1991-yil 20-avgust kuni Toshkentda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib Bayonot qabul qildi. Bayonotda O‘zbekiston Respublikasi tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta‘kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig‘vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtirolarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O‘zbekiston Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi

deklaratsiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi, deb ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov 1991-yil 20-avgust kuni respublika aholisiga o'zining murojaatini e'lon qildi: „Hozircha mamlakatning hokimiyat doiralari qanday yo'l bilan, nimalar orqali, qanday siyosat orqali bumaqsadlarga erishish mumkinligi haqida to'liq, hozircha batafsil ma'lumot berganicha yo'q.

Bu ma'lumotlar bilan chuqur tanishganimizdan keyingina bo'layotgan o'zgarishlarga o'zimizning munosabatimizni albatta bildiramiz“. Prezident xalqqa: „Biz birovning gapiga kirib ish tutmaymiz, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q. Ishonamanki, bu og'ir sinovlardan ham eson-omon o'tamiz“, — deb murojaat qildi. Xalqni og'ir sinovlardan o'tayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo'lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jipslashishga chaqirdi. Islom Karimovning Respublika aholisiga murojaatidan. („Sovet O'zbekistoni“ gazetasi, 1991-yil, 21- avgust soni).

1991-yil 21- avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so'zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo'ydi. Farmonda SSSR da favqulodda holat davlat qo'mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo'yildi.

3.3. Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati

Fitnachilarning qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991-yil 19–21-avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnani uyushtiruvchilar qamoqqa olindi. M.S.Gorbachyov Prezidentlik

lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib qoldi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov Favqulodda holat davlat qo'mitasi faoliyatiga o'z munosabatini bildirmagan, qo'rqoq va prinsipsiz mavqeda turgan KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosi va Kotibiyati yuz minglab kommu-nistlarning sha'ni va qadr-qimmatini zarba ostiga qo'yganini qoraladi. Buning ustiga respublika kommunistlarini chalg'itishga va davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlashga majbur qilishga urinish bo'lganini oshkora aytdi. I. A. Karimov bundan keyin KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosining tarkibida qola olmasligi to'g'risida bayonot berdi. Mazkur Bayonotni O'zbekiston Kompartiyasi MQ byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi Rayosati ma'qulladi.

1991-yil 25-avgustda O'zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi.

Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi. Respublika Oliy Kengashining Rayosati 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida farmoyish chiqardi. 1991-yil 28-avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati „Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasini 1991-yil 31-avgust kuni chaqirish haqida qaror“ qabul qildi va sessiyada O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi masalani muhokama qilish belgilab qo'yildi. 1991-yil 28-avgust kuni

O'zbekiston Kompartiyasi MQ va Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda I. A. Karimovning mamlakatda 19–21-avgust kunlari sodir bo'lgan voqealar va respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika Kompartiyasini KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga antikonstitutsiyaviy urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz taqdiriga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi.

I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.

Sessiyada „O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti“ qabul qilindi.

O'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib, — xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, — O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab, — shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatini bayon etib, — millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib, — Mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat — O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonotidan.

O'zbekiston Respublikasi, — deb ta'kidlanadi Bayonotda, — to'la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo'ymagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi. Oliy Kengash sessiyasi „O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida“ Qaror qabul qilib, O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonotini tasdiqladi va respublikani bundan keyin O'zbekiston Respublikasi deb atashni belgilab qo'ydi.

1-sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Qaroridan. Oliy Kengash „O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida“ Qonun qabul qildi. Bu qonun 17 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Qonunning birinchi moddasida: „O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir“, — deb qonunlashtirib qo'yildi. Qonunda O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va respublikada davlat hokimiyatining birdan bir sohibidir. U o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi, deb belgilab qo'yildi. Mustaqillik asoslari to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, davlat chegarasi, hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas, deb qat'iy qonunlashtirib qo'yildi. Mazkur qonunda respublika hududidagi yer, yerosti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb belgilab berildi. O'zbekiston

Respublikasi o'z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o'z oltin zaxirasini yaratadi, deyiladi bu qonunda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasi 1991-yil 30-sentyabr kuni „O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida“gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qildi. Qarorda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalarini „O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida“gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo'yildi.

Nazorat savollar

1. SSSRni turg'unlik holatiga olib kelgan sabablarni ayting.
2. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon qanday yo'l tutdi?
3. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishiga nima sabab bo'ldi?
4. O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligi qachon va qay tarzda e'lon qilindi?

Test savollari

1. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi qaysi sanada bo'lib o'tgan KPSS MQ sinning plenumida so'zlagan nutqida respublikalar bilan Ittifoq o'rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo'yishni ko'zda tutadigan yangi shartnoma ishlab chiqish zarurligi to'g'risida o'z fikrini bildirdi?

- A) 1989-yil 20-sentyabr
- B) 1989-yil 21-oktyabr
- V) 1990-yil 24-mart
- G) 1990-yil 25-avgust

2. SSSRning parchalanishi bilan Ittifoq bo'yicha o'z milliy davlat tuzilmalaridan tashqarida yashayotgan qancha aholi milliy-etnik muammolarga duchor bo'ldi?

- A) 15 mln.
- B) 20 mln.
- V) 50 mln.
- G) 60 mln.

3. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami – bu...

A) 1989-yil 21-oktyabrda “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi bo'ldi.

B) 1990-yil 24-martda I.A.Karimovning O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylanishi bo'ldi.

V) 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ning qabul qilinishi bo'ldi.

G) 1990-yilda muqobillik asosida o'tkazilgan saylovlar edi.

4. O'zbekiston Respublikasining “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qachon qabul qilingan?

- A) 1990-yil 18-iyun
- B) 1990-yil 20-iyun
- V) 1991-yil 17-mart
- G) 1991-yil 31-avgust

5. O'zbekistonning “Mustaqillik Deklaratsiyasi” nechta moddadan iborat?

- A) 12
- B) 13
- V) 14
- G) 15

6. Qachondan boshlab mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Farmoniga ko'ra, 21 mart – “Navro'z” umumxalq milliy bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi?

- A) 1990-yildan
- B) 1991-yildan
- V) 1992-yildan
- G) 1993-yildan

7. 1991-yil 3-iyunda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv qaerda bo'lib o'tgan?

- A) Belovejskaya Pushcha
- B) Moskva
- V) Almati
- G) Novo-Ogoryovo

8. "Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma" loyihasi qachon O'zbekiston Oliy Kengashida muhokama qilindi?

- A) 1991-yil 3-iyun
- B) 1991-yil 14-iyun
- V) 1991-yil 18-iyun
- G) 1991-yil 21-avgust

9. "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1991-yil 1-iyunda
- B) 1991-yil 30-iyulda
- V) 1991-yil 31-avgustda
- G) 1991-yil 1-sentyabrda

10. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun nechta moddadan iborat?

- A) 12 ta
- B) 14 ta
- V) 17 ta
- G) 19 ta

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2019.

2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.: "O'zbekiston", 1996.

3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: "O'zbekiston", 1996.

4. Karimov I.A. O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 1992.

5. Karimov I.A. Parlament-jamiyat ko'zgusi. // Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2005.

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.

7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.

8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

9. Usmonov Q., G‘aniyev D. O‘zbekiston : mustaqillik odimlari. – T.: “Sharq”, 1995.

10. Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T.: “O‘zbekiston”, 2001.

11. O‘zbekiston tarixi. (Qisqacha ma'lumotnoma). –T.: “Sharq”, 2000.

12. Jo‘rayev M., Nurullin R., va boshqalar. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. –T.: “Sharq”, 2000.

4-MAVZU: O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LI

4.1. Istiqlolning dastlabki kunlari va sinovlari

4.2. Jamiyatning bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tishidagi muammolar va uning yechimlarida shaxsning roli

4.3. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki-yillaridagi parlament islohotlari

Tayanch tushunchalar: *mustaqillik, istiqlol, parlament, ikki palatali parlament, Prezident, Senat, Qonunchilik palatasi, deputat, mulkchilik, mulkchilik turlari, “bashoratlar”, tamoyil, ustuvor yo‘nalishlar.*

4.1. Istiqlolning dastlabki kunlari va sinovlari

Birinchi masala bayoni. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq Sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi, Mulkchilik, mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi.

Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo‘lgan tayyor andozalari hech qachon bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma‘rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an‘analari mavjud bo‘lgan O‘zbekistonday qadimiv makonda o‘ziga xos yo‘l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Biroq, vaqtni boy bermay, tezkorlik bilan ish tutish lozim edi. Shuning uchun ham «Mustaqil O‘zbekiston tug‘ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o‘zi yurishga majbur edi».

Yana shuni ta'kidlash darkorki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Hatto sobiq markazdagi ayrim «bashorat»lar O'zbekistonga nisbatan «O'zlaringni Mustaqil boshqarishga, Mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram xalqsizlar», «Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, sizlar esa bajarasizlar, xolos» deb shovinistlarcha g'arazgo'ylik qilsa, mamlakat ichkarisidagi ayrim toifalar o'rtasida «Endi O'zbekiston qanday yo'ldan boradi? Qanday jamiyat quradi? Markazsiz yashay oladimi? Respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanadimi?» qabilidagi savollar paydo bo'lgan edi. Unga har kim o'zicha javob qidirar edi.

Tabiiyki, ana shunday ziddiyatli va murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andozasini ishlab chiqish g'oyat dolzarb va ahamiyatli edi. O'z navbatida bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqozo etardi. Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali tomonlarini o'zlashtirish bilan birga O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'analriga ham tayanish lozim edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq, «jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi».

Albatta, mamlakat hayot-mamot bosqichida turgan bir paytda uning yangi jamiyatga o'tishi bilan bog'liq vazifalarni bajarish davlat rahbaridan yangi sharoitga mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy asosini vujudga keltirishni taqozo qiladi. Aholining barcha toifalarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g'oyalar tizimini yaratishni talab etardi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li ana shu tarzda shakllandi. Mamlakat mustaqilligining

tashabbuskori va rahnamosi sifatida Prezident xuddi ana shunday paytda o'zining qat'iy, ilmiy jihatdan asosli, hayotiy jihatdan yashovchan xulosalarini o'rtaga tashladi.

Hali sobiq ittifoq mavjud bo'lgan davrda I. Karimov respublika rahbarligiga kelgan vaqtdan boshlab respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy ravishda yangilanishni, tub o'zgarishlarni boshlab yuborgan edi.

1990-yil mart oyidayoq sobiq ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda Prezidentiik boshqaruvining tashkil etilishi, g'oyaviy qarashlari, siyosati yangilanayotgan jamiyatga mos bo'lmayotgan O'zbekiston Kompartiyasini Xalq demokratik partiyasiga aylantirilishi, hokimiyatning asta-sekin va izchillik bilan partiya idoralaridan Prezident, hukumat, mahalliy idoralar qo'liga o'tishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, milliy qadriyatlar tiklana boshlagani O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li shakllanayotganini ko'rsatar edi.

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, I. Karimovning respublika rahbari sifatida xalq oldidagi mas'uliyati yana ham oshdi. U endi markazga bog'liq bo'lmagan holda, butun muammolarni o'zi hal qilishga, har qanday ziddiyatlarga yuzma-yuz turib, faoliyat ko'rsatishga majbur edi. Ana shunday qarama-qarshiliklar qurshovida uning katta siyosatchi sifatidagi rahbarlik mahorati kun sayin shakllanib, yangi mazmun kasb eta bordi.

Islom Abdug'anievich Karimov umumxalq ovoz berish yo'li bilan mamlakat Prezidenti etib saylanganidanoq o'zining butun amaliy faoliyatida xalq va vatan manfaatini nazarda tutib faoliyat ko'rsatdi. U Oliy Kengashning 1992-yil 4-yanvarda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari IX sessiyasida shunday degan edi: «Menga qanday yuksak mas'uliyat yuklanganini his qilgan holda xalqning munosib turmush kechirishi uchun qanday yo'llar tanlaganimiz haqida ba'zi fikrlar bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Xalq iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun qat'iy harakatlar qilishni kutyapti. O'tmish qoldiqlari xalq yelkasiga og'ir yuk bo'lib qolgan. Eng muhim vazifalardan biri xalqning baxtli hayotini ta'minlashdir. Prezident shiddat bilan kirib kelayotgan bozor zarbalariga bardosh beruvchi, yordamga muhtoj kishilarni o'z

homiyligiga olishi kerak. Bularko'p bolali, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar...

Bundan keyin ham biz uchun shu tamoyil qat'iy bo'lib qolaveradi».

Prezident Oliy Kengashning mazkur sessiyasida Dastur ahamiyatiga molik bo'lgan davlat siyosatining strategiyasini aniq-ravshan ko'rsatib berdi. Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, fuqarolarga erkinlik berish, jamiyatda ma'naviy yangilanish uchun barcha sharoitlar yaratish lozimligini, yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berish kerakligini, huquqiy davlatda qonun ustuvor bo'lishini alohida ta'kidladi.

Tabiiyki, ushbu qoidalar O'zbekiston istiqloli va taraqqiyotining asosiy yo'llarini belgilab berish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Masalaga ana shunday yondashish mustaqillikning ilk kunlaridanoq aniq tartib-intizomga rioya qilish, qonun ustuvorligiga intilish mamlakatda eng murakkab paytlarda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Davlat O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, o'tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan tajribadan saboq chiqardi. Ayni chog'da 90-yillar boshlarida, ya'ni mustaqil taraqqiyotning dastlabki-yilida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqur tahlil qildi. Shu asosda soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va ijtimoiy larzalarsiz, evolutsion yo'l bilan dinamik taraqqiyot yo'liga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmun va mohiyatidir, degan xulosaga keldi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan jamoa bo'lib, uyushib yashashga odatlangan, to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda bir-biriga ko'maklashgan. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatish, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik, o'zgalarga yordam tuyg'usi o'zbek xalqiga tarixan xosdir.

Shuning uchun ham I. Karimov 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida «Istiqloq yo'llari va muammolari» mavzusida nutq so'zlar ekan, «Biz ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o'z yo'limiz bor, deb e'lon qildik. Bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmusii tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini,

an'analarimizni, kishilarning fikriash tarzini hisobga olamiz», dedi va tub islohotlarni amalga oshirish borasida dastlabki tamoyilini belgilab berdi.

Ikkinchidan, respublikadagi o'ziga xos ma'naviy-ruhiy vaziyatdan kelib chiqib ish tutildi. Chunki O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari-yildan-yilga o'sib boruvchi mintaqa hisoblanadi. Ushbu omilning ahamiyatiga e'tibor berar ekan, Prezident shunday dedi: «Xalqimizning 60 va hatto, undan ko'proq foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi va ularning asosiy qismi dehqonchilik sohasida ishlaydi. O'zbek zoti borki, o'tirgan joyini sovitgisi kelmaydi. Bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishga xushi yo'q. Mehnat resurslari va ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda xuddi shu vaziyatni ham e'tiborda tutish kerak.

Xulosa shuki, qishloq joyda va rayon markazlarida mavjud bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini shaharga olib kelish shart emas, balki yangi, ixcham, zamonaviy korxonalarni qishloq joylariga, rayon markazlariga olib borib qurishimiz zarur. Sodda qilib aytganda. Odamlarni ishxonaga emas, ishxonani odamlarga yaqinlashtirish lozim».

Uchinchidan, O'zbekiston taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda respublikaning qulay jug'rofiy-siyosiy imkoniyati hisobga olindi.

Darhaqiqat, tarixan O'zbekistonning hozirgi hududi juda ko'hna savdo yo'li Buyuk ipak yo'li tutashgan, mag'rib-u mashriqni birbiriga bog'lab turgan, turli qarashlardagi xalqlarni yaqinlashtirgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni kechgan hududdir. Ana shu boy, tarix sinovlaridan o'tgan tajribalarni davom ettirish, undan samarali foydalanish yo'li tutildi. Demakki, mintaqalararo aloqalar, dunyoviy integrasiyani yo'lga qo'yishga kirishildi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya masalasini hisobga olish lozimligi ham ko'rsatib berildi.

Chunki, sho'rolar davrida kishilar ongida ijtimoiy tenglik tushunchasi, ya'ni yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan fikr shakllanib, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan, mulkka egalik tuyg'usidan uzoqlashgan edi. Bu, albatta, kishilarning mehnatga intilishini so'ndirar, ish natijasi uchun

mas'uliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Ularda boqimandalik, tekin-xo'rlik illatlarini chuqurlashtirar edi. Shuning uchun, bozor munosabatlariga o'tishda odamlardagi mana shu kayfiyatni e'tiborga olish kerak, deb hisoblandi. Islohotlar davrida xususiylashtirish jarayonining chuqurlashishi, mamlakatda mulkdorlar sinfini shakllantirish sari dadil qadamlar qo'yilishi mana shu omildan kelib chiqqan xulosadir.

Beshinchidan, hukumat mustaqil O'zbekiston siyosatini belgilashda islom diniga munosabatni tubdan o'zgartirish lozimligini qayta-qayta uqtirdi. Chunki din turmush tarzimizga o'chmas muhrini bosgan. Dinga nisbatan ijobiy munosabat tashqi siyosatimizda, ayniqsa, musulmon davlatlari bilan o'zaro aloqalarimizni kengaytirishda katta ahamiyatga ega, deb ko'rsatadi.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini himoya qilish va ta'minlash imkonini beradigan boy moddiy-ma'naviy hamda ishlab chiqarish potensialiga va kadrlar qudratiga ega mamlakat ekanligidir. Endi hamma gap ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanishda edi.

Ushbu xulosalar I. Karimov tomonidan muntazam to'ldirilib, qadam-baqadam yangi qoida va yo'l-yo'riqlar bilan boyitib borildi. Xususan, 1992-yil avgust oyi oxirida O'zbekiston Mustaqilligining bir-yilligi tantanalari arafasida Prezidentning «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» nomli O'zbekiston mustaqilligining nazariy asoslari chuqur tahlil etilgan asari nashrdan chiqdi. Ushbu risola keng jamoatchilik tomonidan ma'naviy hayotdagi yangilik va muhim qo'llanma sifatida kutib olindi. Unda O'zbekiston istiqloqlining ham nazariy, ham amaliy muammolari ilmiy jihatdan o'rganilib, jamiyat siyosiy rivojining, iqtisodiy taraqqiyotining, ma'naviy poklanishining asosiy yo'l-yo'riqlari yangicha mushohada va yondashuv bilan ko'rsatib berildi.

4.2. Jamiyatning bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishidagi muammolar va uning yechimlarida shaxsning roli

Ikkinchi masala bayoni. Ma'lumki, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida jamiyatning bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish jarayoni bir necha muhim ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'liq.

Bular:

- davlatning islohotlarni o'tkazishdagi rahnamolik roli;
- jamiyatning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy imkoniyatlarini safarbar etish;
- o'rta hol sinfni shakllantirish;
- xalqaro hamkorlikni yanada takomillashtirish masalalaridir.

Ta'bir joiz bo'lsa, bu omillarning bosqichma-bosqichligi, ularning ahamiyati, shuningdek, ulardan alohida, har birining va barchasi bir butun bo'lgan holatda beradigan samaradorligi har xil sabablarga bog'liq.

Lekin, o'tish davrining eng muhim omili, bu kuchli davlatni barpo etishdir. Bunday davlatsiz mavjud ijtimoiy imkoniyatlarni safarbar etish ham, o'rta hoi sinfhi shakllantirish ham, xalqaro munosabatlarda muvaffaqiyatlarga erishish ham mumkin emas.

I. Karimov O'zbekistonning o'z istiqlovl va taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga e'tibor berdi va uning fikricha, O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha «izm»lardan va u qanday nomlanishidan qat'i nazar adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim edi.

Shuning uchun ham, respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. «Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish bosh vazifadir, deb uqtiradi Prezident. Bu boradagi fikrini davom ettirib u «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir», degan qoidani ilgari surdi. Bu Mustaqillikning bir-yilligi arafasidayoq qat'iy qilib o'rta taga tashlangan davlat siyosati edi. Shuningdek, yangilangan jamiyat har bir a'zosining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo'llarni ham ko'rsatib berdi. **Jumladan,**

siyosiy sohada bu:

- xalq, ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq ishtirok etishi lozimligini;

- hokimiyat bo'linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;

- jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni;

- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta'minlashni;

- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

- demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni shakllantirishni;

- O'zbekistonda tug'ilib, uning zaminida yashayotgan, mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e'tiqodidan qat'i nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo'lishga erishishni bildiradi.

Iqtisodiy sohada esa bu:

- milliy boylikning ko'payishini ta'minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;

- ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichmabosqich shakllantirishni;

- mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;

- iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmasdan korxonalar va tashkilotlarning Mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni;

ijtimoiy va ma'naviy sohada bu:

- insonparvarlik g'oyalari sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishini;

- ma'naviyatni qayta tiklashni;

- o'zbek tilini rivojlantirishni;

- hurfiylik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni;

- ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlashni;

- odamlarning iste'dod qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilishni bildiradi, deb ta'kidlandi «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli kitobda.

I. Karimovning O'zbekistonni huquqiy demokratik davlat sifatida qaror toptirishning yuqoridagidek dasturiy qoidalari, mamlakatning bozor munosabatlariga o'tishi, ichki va tashqi siyosatni shakllantirish tamoyillari, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlari jahon tajribasini yanada rivojlantirdi va ularni yangi qoidalar bilan boyitdi.

Prezident yangilanayotgan jamiyat mazmun-mohiyatini ko'rsatish bilan birga dolzarb vazifa qilib, eng avvalo ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiga o'tish masalasini qo'ydi. Faqat iqtisodiy baquwat davlatgina kuchli bo'ladi va u har qanday islohotlarga qodir bo'ladi, degan g'oyani ilgari surdi.

Shuning uchun ham I. Karimov «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida (1993-yil.) «O'zbekiston o'zi uchun tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.

Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin», deb qat'iy ko'rsatib bergan edi.

I.A. Karimov mamlakatning dastlabki-yillardagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy qoidani o'rta tashladi:

Birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas.

Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish kerak.

Ikkinchidan, o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi shart.

Uchinchidan, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish.

Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlar talablarini hisobga olgan holda, yaqin o'tmishimizdagi «inqilobiy sakrash»larsiz, ya'ni evolyusion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Ana shu muhim qoidalar O'zbekistonning Mustaqil rivojlanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olindi, yangi jamiyatga o'tish davrining negizini tashkil etdi. O'tgan davr mobaynida bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minladi.

O'zbekiston hukumatining bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish haqidagi tamoyili vaqt o'tgani sayin o'zining hayotiy qiymatini, siyosiy kuchini ko'rsatdi, Binobarin, bular yetakchi tamoyillar sifatida tan olindi. Chunki ular iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanish yo'lini va xarakterini belgilab berdi.

Darhaqiqat, O'zbekistonning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi bir tomondan, avvaldan meros bo'lib qolgan barcha ijobiy tajribalarni chuqur o'zlashtirish imkonini berdi,

ikkinchi tomondan esa isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratib berdi. Bu bosqichlarning har biri uchun konkret maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishga sharoit yaratdi. Ani qrogʻi, bu tamoyil «yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik» haqidagi xalqning dono fikriga asoslanganini koʻrsatadi.

Xususan, jahon jamoatchiligi tomonidan atroflicha oʻrganilayotgan «Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida» kitobida iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga doir beshta tamoyil ahamiyatiga yana bir bor toʻxtaladi. Xususan, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich oʻtishning Oʻzbekiston uchun naqadar afzalliklariga alohida urgʻu beradi. Jumladan, «Bir bosqichni tamomlagandan keyingina, zarur shart-sharoitlarni yaratib, yangi bosqichga oʻtish mumkin, deydi I. A. Karimov. Har bir bosqichda tafakkurimizni oʻstirib, erishilgan real natijalar bilan odamlarni yangi tuzumning afzalligiga ishontiribgina islohotlarni oxirigacha amalga oshira olarniz. Iqtisodiy strukturasi rivojlangan, samarali ijtimoiy munosabatlarga ega boʻlgan jamiyatni qura olarniz.

Hozir biz kerakli yondashuvlarni, zarur ish maromini topdik, muayyan foydali tajriba orttirdik.

Dastlabki yakunlarni chiqarish, navbatdagi bosqichning vazifalari va ustuvor yoʻnalishlarini belgilash zarur». Shuning uchun I. Karimov ushbu kitobning ikkinchi qismida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, ijtimoiy kafolatlari kuchli boʻlgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalarini belgilab beradi.

Jumladan, uning fikricha, mazkur masalaning ustuvor yoʻnalishlari quyidagicha boʻlmogʻi lozim:

birinchidan, iqtisodiy siyosatda dehqonchilikka, umuman qishloq hayotiga etakchi tarmoq sifatida qarash;

ikkinchidan, milliy valyutani joriy qilish, uning qadrini muttasil oshirib borish;

uchinchidan, mulkchilikning barcha shakllariga erk berish, shaxsiy tashabbus va ishbilarmonlikka yoʻl ochish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash;

to'rtinchidan, iqtisodni jonlashtirish uchun korxonalarni xususiylashtirish, bu jarayonni tobora chuqurlashtirish;

beshinchidan, o'tish madaniyati va qadriyatlarini tiklash ishlarini yo'lga qo'yish va bu borada izchil tadbirlarni amalga oshirish. Mustaqil O'zbekistonda davlat Mustaqilligini amalga oshirishning jamiyat rivojining hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlaridir.

O'zbekiston davlat rahbari tomonidan ishlab chiqilgan yosh milliy Mustaqil davlatlar taraqqiyotiga doir ham nazariy, ham amaliy yo'nalishlar, ilmiy qoidalar, yo'l-yo'riqlar O'zbekiston Mustaqil rivojlanishining o'n besh-yili davomida hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, mustaqillikka erishilgandan keyingi-yillarda amalga oshirilgan islohotlar izchillik bilan o'z samarasini bermoqda. Buni jahon siyosatchilari va davlat arboblari ham tan olmoqdalar. Jumladan, AQSh Prezidentining milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchisi taniqli siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy O'zbekistonda bo'ldi va mamlakatimiz aholisi bilan yaqindan tanishdi. U garchi 90-yillar boshida yozgan maqolalaridan birida «Keyingi 10-15-yil ichida O'zbekiston rivojlanishi qanday bo'ladi bilib bo'lmaydi, deb «bashorat» qilgan bo'lsa-da, qariyb 12-yildan keyin O'zbekistonda bo'lib yurtimizda amalga oshirilgan ishlarni yuqori baholadi va O'zbekistonning mintaqamizda muhim o'rin tutishini ta'kidlab, O'zbekiston bilan hamkorlik AQSh manfaatlarini uchun muhim ahamiyatga egaligini asoslab berdi.

«Islom Karimov yangi O'zbekiston Prezidenti» deb nomlangan teran tahlil va mazmunga ega kitob mualliflari doktor Levitin va doktor Karlayl ko'p-yillar Markaziy Osiyo respublikalarida bo'lgan, mintaqadagi siyosiy vaziyat va iqtisodiy islohotlarning borishiga guvoh bo'lgan, mintaqaning o'ziga xos jihatlarni atroflicha o'rgangan kishilar sifatida o'z asarlarida O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samarasiga yuksak baho beradilar.

«Tasavvurimcha, deb yozadi L.Levitin dunyoda O'zbekiston misolida alohida sivilizatsiyaviy qiyofa kuchayishi bilan, o'ziga xos sivilizatsiyaviy o'z-o'zini anglashning o'sishi bilan ish ko'rayotir».

Ko‘rinib turibdiki, Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni chuqur tadqiq etib, har ikki xorijiy muallif «Islom Karimov o‘tish davrining obyektiv omillarini inobatga olib, o‘zbek xalqi sivilizatsiyasi xususiyatlaridan kelib chiqib ish tutdi, islohotlar o‘zining ijobiy samarasini bera boshladi. Oqibatda bu holni mustaqil davlatlar taraqqiyoti uchun xos bo‘lgan rivojlanishning «o‘zbek modeli» degan jahon tan olgan yo‘lga olib keldi», deb baholaydi.

Darhaqiqat, mustaqillik-yillarida O‘zbekistonda jamiyatni rivojlantirish va uni ijtimoiy taraqqiy ettirishning o‘tgan davriga nazar tashlar ekanmiz, bu davr mobaynida erishilgan har bir natija va yutuq haqli ravishda «buguni va kelajagini o‘z qo‘li bilan bunyod etayotgan millionlab vatandoshlarimizning irodasi, aql-zakovati va fidokorona mehnati» bilan bog‘lash mumkin. Jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, hududiy daxlsizlik va milliy xavfsizlik, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyatlar hamda an‘analarning tiklanishi, iqtisodiy taraqqiyot, shaharsozlik sohasidagi olamshumul o‘zgarishlar, siyosiy hayotning erkinlashuvi, mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasidagi amaliy qadamlar islohotlardagi izchillik samarasi deyish mumkin. Ushbu fikrning tasdig‘i sifatida Prezident I. Karimovning 2003-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004-yil iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisida qilgan ma‘ruzasidagi quyidagi xulosani keltirish o‘rinlidir: «O‘tgan-yil yakunlarining asosiy ko‘rsatkichlarini chuqur va atroflicha tahlil qilar ekanmiz, quyidagi mulohaza va xulosalarni chiqarishimiz zarur, deb o‘ylayman.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining izchilligi ta‘minlanmoqda. Keyingi olti-yil davomida yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlari har-yili muntazam ravishda 4 foizdan ko‘proq oshmoqda.

O‘tgan-yili bu ko‘rsatkich 4,4 foizni tashkil etdi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari orasida 2001-yildayoq islohotlar boshlangan 1990-yilga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishga erishgan yagona mamlakatdir».

Ma'lumki, har qanday jamiyat hayotida ro'y beradigan tub o'zgarishlar eng avvalo, uning iqtisodiy jabhalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki iqtisodiy munosabatlar jamiyatdagi siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy jarayonlar va voqeliklarning uzviyligini, aloqadorligini ta'minlaydi. Tom ma'nodagi iqtisodiy taraqqiyotga erishish pirovardda jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikning shakllanishiga olib keladi. Shu ma'noda ham O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moddiy farovonlikka erishish masalalari har doim ustuvor jabha sifatida qaralib kelinmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi davrida iqtisodiy barqarorlikka erishish, mamlakat iste'mol bozorlarini to'ldirish, milliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilib kelingan bo'lsa, 1995-2000-yillarga kelib import o'zini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish, xorijiy investitsiyalarini keng jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo qilish bilan bog'liq tadbirlar asosiy o'rinni egalladi.

2000-2006-yillarda esa iqtisodiyotdagi umumiy holatning keskin o'zgariganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Chunonchi, endi asosiy e'tibor milliy eksport salohiyatini oshirish, mahalliy resurslarga tayangan holda ishlab chiqarish pirovardini tashqi va ichki bozorlarga yo'naltirish kabilarga qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, kichik va o'rta biznes tuzilmalari iqtisodiyotning eng harakatchan, faol, shu bilan birga istiqbolli qatlamlari sifatida e'tirof etilmoqda. Ayni paytda O'zbekiston taraqqiyotining asosi bo'lmish xususiy va milliy investitsiya oqimlarining vujudga kelishi kichik va o'rta biznes tuzilmalarining bundan keyingi faoliyatiga bevosita bog'liq sanaladi. Shu jihatdan ham Prezident I. Karimov 2006-yil yakuniga bag'ishlangan ma'ruzasida muhim ustuvor yo'nalish sifatida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, uni erkinlashtirish, xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, xorijiy sarmoyalarning faol ishtirokini ta'minlash, kichik va o'rta biznesga aholi farovonligi va daromadlari o'sishining, mamlakatda ishsizlik muammosini kamaytirishning yechimi sifatida qarash, boshlangan islohotlarni rivojlantirish, ularni mantiqiy davom ettirish ekanligiga alohida e'tibor berdi.

Chunonchi, Prezident I. Karimovning 1999-yil birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasidagi «O'zbekiston XX asrga intilmoqda» nomli tarixiy ma'ruzasida yigirma birinchi asr arafasi va uning dastlabki davrida mamlakat rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi oltita muhim va dolzarb xarakterga ega bo'lgan yangi yo'nalish va vazifalarni ilgari surdi. Chunonchi, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish bilan bog'liq bo'lib, bunda siyosiy sohani erkinlashtirish tushunchasini aholining siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi siyosiy qatlamlar manfaatlari va qarashlari o'rtasidagi muvozanatni shakllantiruvchi izchil mexanizmlarni barpo qilish, barcha turdagi saylovlarda ko'ppartiyaviylik tamoyillarini takomillashtirishga qaratilgan muhim siyosiy-ijtimoiy tadbirlar bilan izohlash mumkin.

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish bilan bog'liq ko'zda tutilgan vazifalar pirovardini davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari va tuzilmalarini (qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati), qolaversa, munitsipal hokimiyat tuzilmalarini demokratlashtirish, ularning bir-biridan mustaqil holda ish tutishi tamoyillarini yanada takomillashtirish, davlat hokimiyati vakolatlarini bosqichma-bosqich munitsipal organlarga va nodavlat hamda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish tuzilmalariga o'tkazib borish kabilar tashkil qiladi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyatini barpo qilish g'oyasi Prezident tomonidan O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilingan dastlabki-yillardanoq rivojlantirilib kelinganligini aytish joiz. Xususan, Yurtboshimiz o'zining birinchi chaqiriq Oliy Majlisning 1-sessiyasidagi «Demokratiya bosh yo'limiz» nomli ma'ruzalarida bu masalaga keng urg'u berib, «Bugun biz qanday davlat qurayapmiz? Uning siyosiy va ijtimoiy negizi, uning qiyofasi qanday bo'lishi kerak? Yangi demokratik jamiyat shakllanishida uning ta'siri qanday bo'ladi?» degan savollarga javob topish, bu xususda atroflicha fikr yuritish fursati etdi» deya alohida ta'kidlagan edilar. Va ayni chog'da bu savollarni mushohada qilishni davom ettirib, jamiyatimiz kelajagini quyidagicha bayon qildilar: «Biz fuqarolik jamiyati

qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir».

Shu o'rinda jamiyat siyosiy hayotini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo qilish vazifasining Prezident tomonidan keyingi 3-4-yil davomida ilgari surilgan ustuvor vazifalardan keng o'rin egallashi kishini chuqurroq mulohaza yuritishga undaydi. Darhaqiqat, ushbu ustuvor yo'nalish Yurtboshimizning 1999-yildagi o'n to'rtinchi sessiyadagi ma'ruzalarida ham, 2000-yil yanvar oyidagi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida ham, qolaversa, 2002-yildagi 9-sessiyadagi ma'ruzalarida ham eng asosiy vazifa sifatida e'tirof etildi. Bu o'rinda Prezident quyidagilarga asoslandi:

Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyat hayotini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish g'oyasi bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Balki, bu g'oyaning vujudga kelishi mustaqillikning ilk g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, shu jihatdan ham adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish g'oyasini O'zbekistonning davlat mustaqilligi bilan bir xil siyosiy ma'no kasb etadi, deb qarash mumkin. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatini qurish, uning siyosiy hayotini erkinlashtirish O'zbekiston kabi yosh mustaqil mamlakatlar uchun bir yoki bir necha-yillik jarayon emas. Lekin shu o'rinda tarixan qisqa davr mobaynida O'zbekistonning misli ko'rilmagan taraqqiyot darajasiga erishganligi nafaqat vatandoshlarimizda faxr hissini, balki jahonning ko'plab siyosiy doiralarda O'zbekistonga nisbatan katta qiziqishni ham uyg'ota olganligini alohida ta'kidlash adolatdan bo'lur edi.

Ikkinchidan. O'zbekistonda jamiyat hayotini isloh qilish tamoyillaridan biri bu islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iboratligini e'tiborga olgan holda ta'kidlash lozimki, siyosiy hayotni erkinlashtirish va jamiyatning turli qatlamlari siyosiy-ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog'liq erishilgan natijalar bosh maqsad yo'lidagi muhim qadam, bosqich sifatida baholanib kelinadi. Bu haqda Prezident I. Karimov 1999-yildayoq: «Biz bugungi erkinlashtirish jarayonlariga, jamiyatimizni demokratiyalashtirish

natijalariga bu yoʻlda erishilgan dastlabki bosqich sifatida qaraymiz», degan fikri ilgari surgan edi.

Shu maʼnoda ham agar eʼtibor berilsa, 14-sessiyada ilgari surilgan ustuvor vazifaga mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish sifatida qaralgan boʻlsa, 2000-yildagi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida belgilangan vazifa mohiyatan ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi demokratlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, yangicha maʼno-mazmun bilan boyitish, bu boradagi qoʻllanilayotgan tadbirlarning izchilligini, samaradorligini oshirish bilan bogʻliq. Prezident I. Karimovning 2002-yil avgust sessiyasidagi maʼruzasida esa bu jabhaga yanada kengroq va chuqurroq eʼtibor qaratilib, bu masalalar bir yoʻla uchta: yaʼni, birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarining, soʻz va matbuot erkinligining, bir soʻz bilan aytganda, demokratik tamoyillarning realligini taʼminlash; ikkinchidan, nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyatiga fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosi sifatida qaralishi; uchinchidan, markaziy va yuqori davlat boshqaruv organlari vakolatlarini asta-sekinlik bilan quyi tuzilmalarga, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish tuzilmalariga berib borish bilan bogʻliq boʻlgan ustuvor yoʻnalishlarda oʻz aksini topgan.

Qolaversa, bu ustuvor jihat Oʻzbekiston davlat siyosatida izchillik va uzluksizlik mohiyatiga egaki, bu mamlakatni modernizatsiyalash, jamiyatni yangilash jarayonini bir meʼyorda tashkil etish imkonini beradi.

2002-yili boʻlib oʻtgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasida Prezident I. Karimov ayni ana shu koʻp qirrali islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillarini oʻrtaga tashladi. «Oʻzbekistonda demokratik oʻzgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari» deb atalgan ushbu maʼruzasi, aytish mumkinki, katta konseptual ahamiyatga ega boʻldi. Unda islohotlarga doir yettita masala ustuvor yoʻnalish belgilab berildi. Chunonchi:

Birinchi ustuvor yoʻnalish mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash. Uni har bir fuqaro qadr-u qimmatini, shaxsiyati, oriyati darajasida anglash.

Ikkinchi ustuvor yoʻnalish mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlash, davlatimizni hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimiz tinchligi va osoyishtaligini taʼminlash.

Uchinchi ustuvor yoʻnalish bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti boʻlgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish.

Toʻrtinchi ustuvor yoʻnalish inson huquqlari va erkinliklarini, soʻz va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqligini taʼminlaydigan demokratik tamoyillarni amalga joriy etish.

Beshinchi ustuvor yoʻnalish jamiyat hayotida nodavlat va notijorat tashkilotlarining oʻmi va rolini oshirish, ularning faoliyat doirasini kengaytirish orqali fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini chuqurlashtirish, «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» tamoyilini amalga oshirish.

Oltinchi ustuvor yoʻnalish sud-huquq sohasini isloh qilish, sud-huquq idoralarining mustaqilligi va taʼsirchan faoliyatini taʼminlash, qonun ustuvorligini, inson haq-huquqlarini, erkinliklarini himoya qilish, huquq organlarini «jazolovchi» organlardan fuqaro manfaatini himoya qiladigan, uni erkin yashashiga kafolat beradigan organlarga aylantirish.

Yettinchi ustuvor yoʻnalish islohotlarning samaradorligini belgilab beradigan asosiy tayanch inson omilini kuchaytirish demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olib kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, ijtimoiy infratuzilmani, taʼlim va sogʻliqni saqlash sohasini yanada rivojlantirish, nafaqa bilan taʼminlash tizimini takomillashtirish, ekologik va boshqa xavf-xatarlardan himoya qilish.

Bular jamiyatni yalpi yangilash ijtimoiy hayotni tubdan isloh qilish butunlay yangi tafakkurdagi mustaqillik davri fuqarosini shakllantirish kabi uzoq muddatli, izchil davom etadigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va maʼnaviy-maʼrifiy hodisadir.

4.3. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki-yillaridagi parlament islohotlari

Uchinchi masala bayoni. O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning izchil mexanizmi yaratildi. Buyuk kelajakka qaratilgan yalpi yangilanishlar konsepsiyasi vaqt o'tgani sayin shakllantirib, rivojlantirib borilmoqda. Buni Prezident I. Karimov 2005-yil 28-yanvar kuni Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» mavzusida ma'ruza qildi. Unda ko'p qirrali islohlarni amalga oshirish tamoyillarini yana ham chuqurlashtirdi. Jumladan, quyidagilarni alohida ta'kidladi:

Birinchidan, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat.

Shu borada:

- Prezident vakolatlarining bir qismini Parlamentning yuqori palatasi Senatga va hukumatga o'tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish;

- Bosh vazir va umuman, mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, mas'uliyatini kuchaytirish;

- sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Biz oldimizga qo'ygan maqsadni soddagina ifodalamoqchi bo'lsak har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo'ladimi bularning barchasi quyidagi talablarga javob berishi shart. Ya'ni, har qaysi o'z vazifasini anglashi, o'z mas'uliyatini his qilishi, o'z yukini ko'tarishi va ta'bir joiz bo'lsa, o'z aravasini mustaqil ravishda tortishi darkor.

Ikki palatali parlamentni barpo etishdan maqsad:

parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish;

- Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish;

- Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishish;

- aholining mamlakat ij'timoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ularni yanada kengaytirish.

Ikkinchidan, Biz hokimiyatning uchinchi tarmog'i sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirishga alohida ahamiyat beramiz.

Sud odil sudlovning oliy nuqtasi va uning rolini oshirish huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi qonuniy jarayon. Shu munosabat bilan prokuratura vakolatlarining bir qismini sudlarga o'tkazish hozirgi zamonning mantiqiy talabidir. Va bu, eng avvalo, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, daxlsizligini cheklash bilan aloqador masalalarga tegishlidir.

Bugungi kunda jinoiy va prosessual qonunchiligimizning dastlabki tergov va sudgacha bo'lgan jarayon ustidan sud nazoratini kuchaytirish bilan bog'liq ayrim qoidalarni qaytadan ko'rib chiqish zarurati vujudga keldi.

Boshqa demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak, deb o'ylayman.

Biroq ushbu jarayon tashkiliy huquqiy masalalarini puxta va jiddiy tarzda ishlab chiqishni hamda sud tizimida va u bilan bog'liq boshqa huquq-tartibot va prokuratura organlarining ushbu o'zgartirishlarni kiritish uchun zarur tayyorgarlikka ega bo'lishini taqozo etadi.

Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir.

Bu o'rinda gap, ayrim mamlakatlarda bo'lganidek, o'lim jazosiga moratoriy qo'llash, ya'ni mahkum-yillar davomida ushbu jazo chorasi qachon ijro etilishini kutib yotishi to'g'risida emas, balki uni butunlay bekor qilish haqida bormoqda.

Biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ushbu masalani hal qilish ustida ish olib bormoqdamiz. O'tgan o'n-yildan ortiqroq vaqt mobaynida o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar tarkibi 33 tadan 2 tagacha qisqartirildi.

Endilikda faqat terrorchilik va og'irlashtiruvchi vaziyatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchungina o'lim jazosi berilishi ko'zda tutilgan. Ayni vaqtda qonunchiligimiz o'lim jazosining xotinqizlarga, voyaga yetmaganlar va oltmish yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishini man etadi.

Uchinchidan, O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir.

Bu boradagi asosiy vazifa mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat.

Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruv tuzilmalari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo'lidan ilgari borishimizga to'siq bo'lib turgan nuqsonlar, hayotdagi dolzarb muammolar xususida oshkor, professi'onal tahliliy materiallarni kutadi.

Shuni tan olish kerakki, biz mustabid tuzum merosi va aqidalaridan, uning mafkurasi, ma'muriy nazorati va senzurasidan juda katta qiyinchilik bilan xalos bo'lyapmiz.

Haligacha jumalistlar faoliyatida o'z-o'zini senzura qilish, yuqoridan buyruq kutish kayfiyatlari sezilib turibdi.

Ayni paytda shuni ham qayd etish zarurki, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikri va

g'oyalarni, sodir bo'layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to'g'risida so'z yuritib bo'lmaydi, degan tushuncha jamoatchiligimiz o'rtasida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda.

To'rtinchidan: navbatdagi o'ta muhim masala davlat tashqi siyosati ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish.

O'zbekiston tarixan qisqa davr 1991-2009-yillar ichida dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'mini egalladi, uning faol sub'ektiga aylandi.

O'zbekistonning jahondagi obro'-e'tibori yuksalib borayotgani eng avvalo:

- yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo'lmoqda;

- bu davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasida o'z ifodasini topmoqda;

- va nihoyat, bu mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o'ylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston bugun keyingi-yillar uchun mo'ljallangan tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda dunyoda va mintaqamizda vujudga kelayotgan murakkab va ziddiyatli vaziyatni inobatga olib, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan milliy manfaatlarimiz va mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan yondashmoqda.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonda istiqloqlning dastlabki vaqtlaridagi muam-molar.
2. Iqtisodiy bo‘xron nima?
3. O‘zbekistonda parlament qanday shakllantirildi?
4. Jamiyat muammolarini hal etishda shaxsning roli qanday?

Test savollari

1. “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida”gi qarorga ko‘ra 1-sentyabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi. Ushbu qarorda qachondan 1-sentyabrni bayram qilinishi aytilgan?

- A) 1991-yil 1-sentyabrdan
- B) 1991-yil 2-sentyabrdan
- V) 1992-yil 1-sentyabrdan
- G) Konstitutsiya qabul qilingan-yildan

2. O‘zbekiston Respublikasining boshqaruvga ko‘ra shakli....

- A) Respublika
- B) Monarxiya
- V) Konstitutsion monarxiya
- G) Parlamentar Respublika

3. Quyidagi davlatlardan qaysi biri O‘zbekistonning mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan?

- A) AQSh
- B) Turkiya
- V) Eron
- G) Xitoy

4. 1992-yilning 8-dekabrigacha Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining vaqtinchalik Konstitutsiyasi vazifasini bajargan hujjatni aniqlang.

- A) “O‘zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi”
- B) “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni

V) “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Oliy Kengash bayonoti

G) “O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi VIII sessiyasida qaysi qonun qabul qilingan?

A) “Davlat gerbi to‘g‘risida”

B) “Davlat madhiyasi to‘g‘risida”

V) “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”

D) “Milliy pul birligi to‘g‘risida”

6. O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘idagi 12 ta yulduz tasviri bu...

A) O‘zbekistonning ma‘muriy bo‘linishiga ishora

B) Mukammallik, barkamollik timsoli

V) 12 muchalning timsoli

G) Musaffo osmon va tinchlikning ifodasidir

7. O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘idagi moviy rang nimaning ramzidir?

A) Tinchlik va poklik

B) mangu osmon va musaffo suv

V) Har bir tirik jonning qon tomiri, unda jo‘sh urib turgan hayotiy kuch

G) Tiriklik ramzi

8. O‘zbekiston Respublikasida Vise-Prezident lavozimi qachon tugatildi?

A) 1991-yil 18-noyabr

B) 1991-yil 29-dekabr

V) 1992-yil 4-yanvar

G) 1992-yil 8-dekabr

9. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1992-yil 2-iyul

B) 1992-yil 2-iyun

V) 1992-yil 20-iyul

G) 1992-yil 20-iyun

10. O‘zbekiston Respublikasining “Bayram kunlari haqida” gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1992-yil 1-iyun
- B) 1992-yil 2-iyun
- V) 1993-yil 1-iyun
- G) 1993-yil 2-iyul

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: “O‘zbekiston”,1996.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: “O‘zbekiston”,1996.
4. Karimov I.A. O‘zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T.: “O‘zbekiston”,1992.
5. Karimov I.A. Parlament-jamiyat ko‘zgusi. // Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2005.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
9. Usmonov Q., G‘aniyev D. O‘zbekiston : mustaqillik odimlari. – T.: “Sharq”, 1995.
10. Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T.: “O‘zbekiston”, 2001.
11. O‘zbekiston tarixi. (Qisqacha ma’lumotnoma). –T.: “Sharq”, 2000.
12. Jo‘rayev M., Nurullin R., va boshqalar. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. –T.: “Sharq”, 2000.

5-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR

5.1. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. Ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.

5.2. Sud hokimiyati va huquq tartibot organlari fuqarolar haq-huquqlarini ta‘minlashning muhim omili

5.3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari

Tayanch tushunchalar: mustaqillik, hokimiyatlar bo‘linishi, Prezidentlik boshqaruvi, Oliy majlis, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, Qonunchilik palatasi, Senat, siyosiy partiyalar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat va notijorat tashkilotlari, Xalq qabulxonalari, Virtual qabulxona.

5.1. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. Ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.

Birinchi masala bayoni. Jamiyatdagi muhim ijtimoiy siyosiy islohotlarni amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hokimiyatning o‘rni katta. Ushbu tamoyilga ko‘ra davlat hokimiyatining bo‘linish tamoyilida parlament taraqqiyoti muhim o‘rin tutadi. Mustaqil taraqqiyot yo‘lining shakllanishi O‘zbekistonda qonunchilik tizimini shakllantrishda yangi bosqichni boshlab berdi. Hokimiyatning bo‘linish tamoyili Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq qonun chiqaruvchi, ijro hokimiyati va sud hokimiyatidan tashkil topgan. O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatni Parlament ya‘ni, **Oliy majlis** amalga oshiradi.

Shu o‘rinda parlament so‘zi, uning lug‘aviy ma‘nosi hamda mohiyati xususida. Parlament – (fransuzcha “parler” so‘zlashmoq, gapirmoq ma‘nolarini anglatadi) ilk bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, keyingi asrlarda boshqa mamlakatlarga yoyilgan.

Parlament barcha demokratik mamlakatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo'lib, hududiy saylov okruglari bo'yicha, odatda, ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to'lgan fuqarolardan saylanadi. Parlament turli davlatlarda turlicha nomlanadi. Rossiyada-Davlat Dumasi, Ukrainada-Rada, Serbiyada-Skupshina, Shvesiyada-Rikstag, AQShda-Kongress, Isroilda-Knesset, Mo'g'ulistonda-Xalq Xurali, Afg'onistonda-Xalq Jirg'asi, Ozarbayjonda Milliy Majlis, O'zbekistonda esa Oliy Majlis (1925-1989-yillarda Oliy Sovet, 1990-1994-yillarda Oliy Kengash deb yuritilgan) deb yuritiladi.

Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi hisoblanadi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida joriy etilgan va unga birinchi saylov 1994-yil 25-dekabrda bo'lib o'tgan. Ungacha bu vakolatni Oliy Kengash amalga oshirgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan- **Qonunchilik palatasi** va **Senat**dan iborat. Ularning vakolat muddati 5-yil.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 150 deputatdan iborat. Oliy Majlis Senati a'zolari 100 nafar bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlisida deputatlar orasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda, 6 kishidan saylanadi. Senatning qolgan 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining mutlaq vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 5-bo'limi «**Davlat hokimiyatining tashkil etilishi**» deb nomlangan bo'lib, unda birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi haqidagi asosiy masala joy

olgan. Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Konstitutsiyada Oliy Majlisning ana shu ikkala palatasi bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'z ifodasini topgan.

2002-yil 12-13 dekabrda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning 10 sessiyasi xalqimizning xohish-irodasi bilan " O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida " va " O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar hamda ularning amalga oshirish to'g'risida qarorlarni qabul qildi. Bu qonunlar qabul qilingach 2003-yil 24 aprelda " O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ayrim o'zgartirishlar kiritildi.

Ularning vakolat doiralari va mas'uliyati Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaat-nomasida ham o'z ifodasini topgan.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati 5-yil. Ushbu palatani tuzish g'oyasi birinchi Prezident I.A Karimov tamonidan 2000-yil 25-may 2-sessiyasida ko'tarilgan edi. Shundan so'ng ikki palatali parlamentni tuzish to'g'risida referendum 2002-yil 27-yanvarda o'tkazildi. Demak, ana shu Qonunchilik palatasi mamlakat aholisi vakilligini ta'min etadi, ularning manfaatlari inobatga oladi.

Oliy majlisga nomzodlarni ko'rsatish tamoyili quyidagicha. Bevosita saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan hamda kamida 5-yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarasi Qonunchilik palatasining deputati etib saylanishi mumkin. Qonunchilik palatasi deputatlari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'illanishlari mumkin emas. Unda qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni ko'rib chiqish uchun qumitalar va komissiyalar tuziladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Oliy Majlis yuqori palatasi Senat hududiy vakillik palatasi bo'lib Senat a'zolaridan iborat bo'ladi. Senat a'zolari Qaraqalpog'iston Jo'qorig'i Kengesi viloyatlar, tumanlar va shaharlar, davlat hokimiyati vakillik organlari

deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan 6 kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasidagi obro'li fuqarolari orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Yuqori palata Senatga ham 25 yoshga etgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga ega.

2004-yil 26-dekabrda Oliy Majlisning quyi Qonunchilik palasiga va Mahalliy hokimiyat organlariga (viloyat, tuman, shahar kengashlariga) saylovlar bo'lib o'tdi, qayta saylov esa 2005-yil 9-yanvarda o'tkazildi. O'zbekistonda 2005-yildan boshlab, uning davlat qurilishi siyosiy hayotida yangi davr boshlandi. Ikki palatali parlament shakllantirildi. 2005-yil yanvarida Senat a'zolari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko'rsatildi va aniqlandi.

Umuman, O'zbekistonda saylov qonunchiligi, ya'ni parlament taroqqiyoti 4 bosqichni bosib o'tdi: Birinchi bosqich Konstitutsiyamiz qabul qilungunga qadar davr bo'lib, bu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va Referendum to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Ikkinchi bosqich Konstitutsiyamiz qabul qilingandan to 1997-yilgacha davom etdi. Bu davrda "saylov tizimi" shakllantirildi. Uchinchi bosqich 1997-yildan – 2003-yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. To'rtinchi bosqich 2003-yildan keyinga davr, bu davrda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog'liq saylov qonunlariga o'zgartirishlar kiritildi va 2004-yil 26-dekabrda Oliy Majlis qo'yi qonunchilik palatasiga saylov o'tkazildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25-yilligimunosabati bilan "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasida Qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatlarida, davlat va jamiyat qurilish sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda talay o'zgarishlar bo'lganligini qayd etadi.

Ijro etuvchi hokimiyat. Vazirlar mahkamasi – ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasi Bosh

vazir, uning o‘rinbosari, vazirlar, Davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat. Qoraqolpog‘iston Respublikasi hukumati boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Prezident taqdimiga ko‘ra Oliy Majlis palatalari tomonidan ko‘rib chiqilib tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi a‘zolari Bosh vazir taqdimiga ko‘ra Prezident tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, Oliy Majlis qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoishlari ijrosini ta‘minlaydi. Demak, Vazirlar Mahkamasi ijroiya hokimiyat bo‘lib, u davlat hokimiyati bo‘linish prinsipiga ko‘ra ikkinchi hukumat tizimidir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” da belgilangan yo‘nalishlar orasida Ijro etuvchi hokimiyat vakolatlari tizimidagi islohotlar uning faoliyat yo‘nalishida muhim qadam bo‘ldi.

Shu bilan birga bugungi kunda jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni samarali yechish, keng ko‘lamli islohotlarni izchil davom ettirish zarurati davlat boshqaruvi sohasida mutlaqo yangi tizim yaratishni taqozo etmoqda. Buning uchun **“Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish** vaqti kelganligi Prezident shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasida qayd etilganidek “...muhim masalalar qatorida davlat xizmatchilari mehnatiga haq to‘lash va ularning munosib ijtimoiy ta‘minot tizimini yaratish, ayni vaqtda mansabdor shaxslar javobgarligini oshirishni ham ko‘zda tutish maqsadga muvofiqdir. Biz boshqaruv sohasida birinchi navbatda ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishimiz zarur”.

Ijro hokimiyati organlari zimmasidagi vazifalarni amalga oshirish tartibini, ularning mas‘uliyat doirasini aniq belgilash

lozim. Iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirlarni qisqartirish va bozor mexanizmlaridan keng foydalanish kerak. Ya'ni davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarini tashkil etishni cheklash, bu borada bozorga xos mexanizmlarni ishlab chiqish, davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish darkor.

Hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirib, o'ta markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish lozim. Davlat xizmatlarini bevosita quyi bo'g'inlarda ko'rsatish, mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Bu borada mavjud tartib-taomillarni optimallashtirish va soddalashtirish, boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish lozim.

Davlat xizmati institutini isloh qilish, korrupsiyaga qarshi ta'sirchan kurash mexanizmlarini joriy etish kerak. Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda. Yuqorida zikr etilgan vazifalarni bajarish uchun **O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini og'ishmay amalga oshirish.**

Prezidentlik boshqaruvi – Prezident so'zi lotincha "oldinda o'tiruvchi" ma'nosini bildiradi. Respublika boshqaruvi shaklidagi davlatlarda davlat va hukumat rahbari. Odatda Prezident ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanib, davlatning ichki va tashqi siyosatida xalq nomidan ish yuritadi. Jahonda birinchi Prezidentlik boshqaruvi XVIII asr oxirida AQShda joriy qilingan.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi O'zbekiston SSR Oliy Kengashning 1990-yil 24-martida bo'lib o'tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risidagi qarori asosida joriy qilingan. 1989-yilning 23-iyunida Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi, 1990-yilning martidan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti sifatida o'z faoliyatini boshlaydi.

1991-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Prezidenti saylovi tug'risida"gi qonun qabul qilingan edi. Bu qonunga 1997-yil 26-dekabr va

1999-yil avgustda hamda 2004-yil 24-aprellarda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mustaqillik-yillarida tom ma'noda prezidentlik instituti to'la shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 19-bobiga ko'ra Prezident O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Prezidentlik lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan davlat tilini yaxshi biladigan bevosita saylovgacha kamida 10-yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

Birinchi Prezident Islom Karimov suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlash ishiga ulkan hissa qo'shdi.

2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan Prezident saylovlarida Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining yangi Prezidenti etib saylandi. Ushbu siyosiy voqea davlatimiz tarixida yangi davmi boshlab berdi. Demokratik, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning yangicha shakli sifatida Prezidentimiz o'z rahbarlik faoliyatini xalq bilan muloqot qilishdan boshladi. 2017-yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari-yili", deb e'lon qilindi. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya kundalik ish mezonimizga aylandi.

Prezidentimiz "Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o'tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug'ullanishi zarur. Shu ma'noda 2017-yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo'yicha yangi tizim yaratilgan-yil bo'ldi, deya qayd etdi. Bu tizimning asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi** fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o'ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o'zini oqlamoqda.

Qisqa muddatda ana shu qabulxonalarga bir yarim milliondan ziyod fuqaro murojaat qilganva qancha-qancha odamlarning-yillar davomida hal etilmagan muammolari ijobiy echilgan. Bu esa O'zbekistonda xalq hokimiyati nomiga emas, amalda joriy etilayotganini

ko'rsatmoqda. Joylarda rahbarlarning yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tezlik bilan bartaraf etish yuzasidan shaxsiy javobgarligi kuchaygani mazkur tizimning muhim natijasi bo'ldi.

Mahalliy davlat hokimiyati asoslari – bugungi kunda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda tashkil etilgan, halq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqoralarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoriga qo'yidagilar kiradi: 1) qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqoralarning xavfsizligini ta'minlash; 2) hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; 3) mahalliy byudjetlarni shakllantirish; 4) mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; 5) fuqarolik holati aktlarini qayd etish va h.k. Bulardan tashqari shaharcha, qishloq va ovullarda mahallalarda fuqoralarning o'zini-o'zi boshqaradigan organlari ham mavjud bo'lib, ular demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda roli yanada ortib bormoqda.

Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy harakatlar ham jamiyatda demokratik islohotlar jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishida Siyosiy partiyalarning takomillashuvida 1996-yil 25-dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilgan «**Siyosiy partiyalar to'g'risida**»gi qonun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qonun 17-moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qonunlar asosida faoliyat yuritishlari uchun etakchi va ilg'or mamlakatlar mezonlari talablaridagi huquqiy asoslar yaratildi. Masalan, qonunning 12-moddasida siyosiy partiyalarning huquqlari aniq va ravshan ko'rsatib berilgan.

Ushbu qonunda siyosiy partiyalarni tuzish, ularning faoliyat ko'rsatishi, partiya a'zolik, partiya faolitiyaning kafolatlari, uning ustavi, ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha huquqiy moqomlarning mujassamlashgani O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini qaror topshirishning kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Ayni paytda O'zbekistonda beshta siyosiy partiya, va bitta ijtimoiy-siyosiy harakat faoliyat ko'rsatmoqda.

1. O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi (XDP). 2. "Adolat" sosial-demokratik partiyasi. 3. Milliy tiklanish demokratik partiyasi. 4. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasi. 5. O‘zbekiston Ekologik siyosiy partiyasi.

“Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish kerak. Bu jarayonda ham raqamlar ketidan quvish amaliyotidan voz kechish lozim. Qog‘ozda yuzlab masalalarni hal qilgandan ko‘ra, amalda bir nechta muammoni hal qilib bersangiz, odamlar sizlardan rozi bo‘ladi.

Eng muhimi, hayotdagi o‘zgarishlarni xalqimiz bilishi, davlat hokimiyati tizimida haqiqatda ham o‘z vakili borligini sezishi kerak. Bo‘lmasa, barcha ishlarimiz, tadbirlarimiz zoe ketadi.

Partiyalararo raqobatni ta‘minlash, barcha siyosiy sub‘ektlar uchun teng sharoitlar yaratish parlament rolini kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi”, degan edi Prezidentimiz Murojaatnomada.

Siyosiy madaniyat taraqqiyoti huquqiy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, bu faqat qonunlarni bilish, huquqiy saviyadagina iborat bo‘lmay, qonunlarga amal qilish va ularga bo‘ysunish madaniyati demakdir. Umuman, huquqiy madaniyat – huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, huquqiy faollikning birlikda namoyon bo‘luvchi qadriyatlar tizimidir.

Ayniqsa, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **Harakatlar strategiyasining** birinchi ustuvor yo‘nalishi aynan davlat va jamiyat boshqaruv tizimini, Oliy Majlis va siyosiy partiyalar faoliyatini isloh qilishga yo‘naltirilgandir. Demokratik davlatda siyosiy partiyalarni tashkil qilishda, ularning faoliyatida, mamlakat fuqarolari ishtirok etadilar. Fuqarolarning siyosiy partiyalarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo‘li bilan kafolatlanadi va ularning faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Siyosiy partiyalar inson manfaati, qadr-qimmatini, hayotini yaxshilash borasida o‘z dasturlari, rejalari, takliflari, tashabbuslari bilan chiqadilar. Ular fuqarolarning huquq-erkinliklarini ta‘minlash choralari doimiy ravishda nazorat qilishlari lozim.

Xulosa o'zida aytish joizki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida ushbu tizimni nomarkazlashtirish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi rolining oshishi, davlatning vakolatiga kiruvchi ko'plab vazifalarni mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga berilishi fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ilm-ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli jamiyatdagina Qonun ustuvorligi, Qonun oldida barchaning tengligi va shu kabi demokratik tamoyillar qaror topadi va amalga oshadi.

5.2. Sud hokimiyati va huquq tartibot organlari fuqarolar haq-huquqlarini ta'minlashning muhim omili

Ikkinchi masala bayoni. Sud hokimiyati – uchunchi hokimiyat organi tarmog'i bo'lib, u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sud tuzimi 5-yil muddatga saylanadi. Sudlarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Toshkent shahar, tuman, shahar, xo'jalik sudlariga bo'linadi.

Sud-huquq sohasini erkinlashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

2007-yildan boshlab Sud tizimi sohasida quyidagi islohotlar o'tkazilmoqda:

1) Jinoiy jazolarga sanksiya berish huquqi prokuratura organlaridan sud tizimiga o'tkazildi;

2) Advokat, oqlovchilarning mavqei, rolini oshirildi;

3) O'lim jazosi (2008-yil 1-yanvaridan) bekor qilindi.

Bu borada ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tizimni isloh qilish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ayniqsa 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasida** Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Strategiyaga muvofiq sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishning ustuvor vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- sudyalarda va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

- sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud prosessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

- "Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

- sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

- sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim shartidir. Keyingi-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalari asoslangan jinoiyat, jinoiyat-prosessual qonun hujjatlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining samarasini bermogda.

Yutboshimizning 2017-yil 22-dekabrda Oliy majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek "Biz ayrim qilmishlarni jinoiyatlar toifasidan chiqarish va liberallashtirish, jinoiy jazolarni insonparvarlik nuqtai nazaridan o'zgartirishga alohida e'tibor qaratamiz. Shu maqsadda 2018 – 2021-yillarda jinoiyat va jinoiyat-prosessual qonunchilikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilishimiz va amalga oshirishimiz zarur, degan edi.

Xalqimizning kechirimli bo'lish va bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlaridan kelib chiqib, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini qayta ko'rib chiqish lozim, degan edi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan Qonunining 20-

moddasiga muvofiq «Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi».

2017-yildan e‘tiboran davlatimizda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatori prokuratura sohasida ham keng ko‘lamli qayta qurish va islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning faoliyati qaytadan ko‘rib chiqildi, tanqidiy tahlil qilindi. “Biz har qaysi huquqni muhofaza qilish organi bevosita o‘z vakolati doirasidan chiqmaydigan, bir-birining funksiyasini takror etmaydigan tizim shakllantirishimiz shart. Lo‘nda qilib aytganda, ichki ishlar – jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bilan, milliy xavfsizlik – davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan shug‘ullanishi lozim. Prokuratura esa qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borishi zarur”, deya qayd etadi, Yurtboshimiz.

Przident Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda “...endi bironta fuqaro qalbaki dalillar, tuhmat va bo‘htonlar asosida javobgarlikka tortilmasligi shart. Konstitutsiya va qonun normalari so‘zsiz ishlashi uchun ishonchli kafolatlar yaratishimiz zarur”³².

Murojaatnomada sud va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ishiga faqat va faqat xalqimizning o‘zi baho beradi. Ular uchun yagona va eng qattiq talab – bu fuqarolarning qonuniy manfaatlariga xizmat qilish va ularning huquqlarini har qanday holatda ham himoya qilishdan iborat. Eng asosiysi, biz bir idora qo‘lida barcha vakolat va resurslar to‘planib qolishiga, o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati prinsipi buzilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarurligi uqdirildi.

Inson omiliga e‘tibor, ularning huquqlarini ta‘minlash borasida 2017-yilda yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo‘lmagan 1100 dan ortiq shaxsga O‘zbekiston fuqaroligi berildi,

³²Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 2018 yil

mamlakatimizning so‘ngi 26-yillik tarixida ilk bor 2700 ga yaqin fuqarolar Prezidentimiz Farmoniga muvofiq avf etildi.

Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshlagandan so‘ng O‘zbekiston inson huquqlarini ta‘minlash borasida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Xususan, 2017-2020-yillar oralig‘ida **50 mingga yaqin shaxsni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi**, 3187 nafar fuqaroni afv etilishi chuqur insonparvarlik ahamiyatiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qilinishi shuningdek, Samarqand shahrida Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumini o‘tkazilishi xalqaro hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqqanligini tasdiqlaydi.

Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan “Mehr-1” va “Mehr-2” insonparvarlik tadbirlari doirasida Suriyadagi qurolli mojarolar maydonidan va Afg‘onistondan 261 nafar fuqaro, asosan ayollar va bolalar O‘zbekistonga qaytarib olib kelindi. Ularga zarur tibbiy va moddiy yordamlar ko‘rsatildi. So‘nggi-yillarda O‘zbekiston insonparvarlik siyosatining hamda o‘zbek xalqiga xos ezgulik va mehr-oqibat, kechirimlilik kabi milliy mentalitetimizning olijanob fazilatlarining amaliy tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan shaxslarni afv etish to‘g‘risida” bir nechta farmonlari qabul qilinib, 2017-2019-yillarda 4 mingdan ziyod shaxs jazoni o‘tash joylaridan ozod qilindi.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning doimiy e‘tiroziga sabab bo‘lib kelgan “Jasliq” manzilida joylashgan 19-son ixtisoslashtirilgan “Jazoni ijro etish kolloniyasi” tugatildi. Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning doimiy e‘tiroziga sabab bo‘lib kelgan Jasliq qo‘rg‘onida joylashgan mazkur ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish kolloniyasini tugatish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinishi insonparvar siyosatning yana bir amaliy namunasi bo‘ldi.

5.3. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari va o'zini o'zi boshqarish organlari

Uchinchi masala bayoni. O'zbekistonda keyingi-yillarda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib borgan sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchaymoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o'rinlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifat shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat

mafkurasi sifatida o'ratilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsip o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarini tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki ulardan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, mamlakatimizning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi, faoliyati hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Hozirgi vaqtda "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilingan. Bu qonunning maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalardan biri – inson huquq va erkinliklarining samarali ta'minlanishi masalasidir.

Shu munosabat bilan Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish fursati etganini ta'kidlash navbat-dagi taklif sifatida maydonga chiqadi. Ushbu dastur, avvalo, huquq-ni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga alohida mas'uliyat bilan yondashish lozimligini uqtirish bilan birga bu vazifaning qanday tarzda nazoratga olinishini ham ko'rsatib beradi. Bunda tegishli organlarning inson huquqlari sohasida himoyani qanchalik yo'lga qo'ygani aniqlash maqsadida jamoatchilik monitoringining amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Dastur aynan ana shu sohadagi chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli normalar kiritilishi fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shu bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini ko'zda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda: sog'liqni saqlash masalalari; atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari; aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari; ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash masalalari; katta sosial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi faoliyatini amalga oshirishda *ekologik nazorat* muhim o'rin tutadi. Ekologik nazoratni amalga oshirish jamoat tashkilotlari ekologik funksiyasining tarkibiy qismidir. Ekologik-huquqiy mexanizmning ushbu funksiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida jamoat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishning zaruriy elementi sifatida yuzaga kelgan.

Biz fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari,

jumladan, fondlarning ahamiyati ortib boraveradi. So'nggi-yillarda "Jamoat fondlari to'g'risida"gi qonun va "Homiylilik to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil rolini o'tamoqda.

Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunni ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko'plab vazifalar belgilangan edi. Eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy vakillik organlari yangi organlar bo'lmasdan, xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Ma'lumki, sobiq sovetlar davrida amalda bo'lgan mahalliy xalq deputatlari Sovetlari aniq bir hokimiyatga ega bo'lmay, ular huquqsizligining bosh sababi partiya organlari to'g'ridan - to'g'ri ularning ishiga aralashar va ularga saylanadigan deputatlar partiya organlari tomonidan tanlanar edi.

1992-yil 4-yanvarda «O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi. 1992-yil 14-yanvarda ushbu qonunga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Konstitutsiyaviy qonun maqomini berdi. 1992-yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati — hokimiyatlar tuzildi.

1992-yildan O‘zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish sohasida qator normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu hujjatlar orasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, **1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi va «Fuqarolar-ning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonunlar**, 1994-yil 5-mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to‘g‘risida»gi Qonun va boshqalar muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, mavqei, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko‘ra avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomini Kengashlar deb o‘zgartildi. Ularning samarali ishlashini ta‘minlash uchun viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, amaldagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo‘g‘inli tizimi mavjud bo‘lib, ular:

1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) — yuqori bo‘g‘in hisoblanardi.

2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari — o‘rta bo‘g‘in;

3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari — quyi bo‘g‘in;

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo‘g‘inli tizimini mustahkamladi, ya‘ni quyi bo‘g‘in olib tashlandi. Ular

o'miga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi. Bu qoida «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo'lindi.

«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'lmagan deputatlar 5-yil muddatga saylanadi.

Ijroiya hokimiyatiga – hokim va uning ijroiya apparati qiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101 – moddasiga ko'ra hokimlarning vakolat muddati – besh-yil. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102 – moddasiga ko'ra, «Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi».

Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati — hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlarining faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu organlar sud hokimiyati organlari, prokuratura, nazorati speksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Mazkur davlat organlarini ikki toifaga bo'lish mumkin:

1) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo'ysunuvchi organlar: ichki ishlar, nazorat inspeksiyasi va adliya organlari.

2) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo'ysunmaydigan sud, prokuratura organlari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu sohada o'z vakolatlarini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir xil munosabatda faoliyat ko'rsatishi bilan birga ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olingan. Mustaqillik-yillarida jamiyatda boshqaruv tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan, kuchli jamiyatga o'tish borasidagi yo'llar izchil davom ettirib kelinmoqda. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishorganlari to'g'risida"gi Qonunda aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, unda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining vazifalari sifatida quydagilar belgilandi:

- fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqini amalga oshirishda ko'maklashish;

- o'z hududlarida ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal qilish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish;

- davlat hokimiyati organlariga O'zbekiston Respublikasi Qonunlarini, Prezident va hukumat hujjatlarini, xalq deputat-lari kengashlari va hokimliklarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtirish.

Fuqarolik jamiyati qurish sharoitida fuqarolar yig'ining kollegial organ ekanligi ham muhimdir. Ya'ni, mahalla raisi kengashni tegishli xalq deputatlari Kengashi yoki hokim bilan kelishgan holda, zaruratga qarab chaqiradi. Fuqarolar yig'ini, barcha aholini yig'ishning iloji bo'lmagan hollarda, belgilangan vakillik me'yorlari asosida o'tkaziladi. Rais (oqsoqol), uning maslahatchilari fuqarolar yig'inida saylanadi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) doimiy ishlovchi bo'g'in. Rais o'z mahkamasiga ega bo'lib, uning miqdori rais o'z vazifasini bajarishga imkoniyat yaratadigan darajada tuziladi, deyilgan. Bu esa hozirgi fuqarolik jamiyati qurish sharoitida mahalla raislarining faoliyatida demokratiya, ochiqlik va shaffoflik tobora ko'zga tashlanayotganligi anglatmoqda. Bu esa mahallada istiqomat qilayotgan fuqarolar boshqaruvini osonlashtirish, ularni yanada jipslashtirish, mahalla idorasidan uzoq-uzoq hududlarda joylashga xonadonlarni yangi mahallalar va ovullarga birlashtirini taqoza etmoqda

1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda ularning vakolatlari va huquqlari belgilangan bo'lsa, 2013-yil 22-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni va 2017-yil fevraldagi yangi tahrirda "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun ularning vakolatlarini yanada kengaytirdi. Ushbu Qonunga asosan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga, shuningdek, mahalla fuqarolar yig'iniga quyidagi huquqlar berilgan:

- aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan qarorlar qabul qilish;

- Qonun hujjatlarining, shuningdek, o'z qarorlarining ijro etilishi bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish yuzasidan o'z hududida joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish huquqlari berildi.

Fuqarolik jamiyati qurish sharoitida qayd etilgan huquq va vakolatlar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining – fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning

tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odat va an'analardan kelib chiqqan holda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyati ekanligini ko'rsatmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilishi, shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalar fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining hududiy birliklar ekanligi belgilangan. Bu shuni anglatadiki, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining tegishli organlari taklifi, ularning fikrini hisobga olgan holda, Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yuqori organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimidan mustaqil faoliyat olib borishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, ushbu tizim davlat hokimiyati organiga kirmaydi va Qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshira oladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi kerakligi belgilangan.

Fuqarolik jamiyatida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini boshqarayotgan mahalla raislarining salohiyati, ma'lumot darajasi, bilim salohiyati ham muhim rol o'ynaydi. Birgina 2006-yilda mahalla raislari va ularning maslahatchilari saylovi natijalariga ko'ra, qishloq fuqarolar yig'inlari rasilari orasida 2970 nafari pedagog, 1016 tasi iqtisodchi, 2412 nafari muhandis va agronom, 271 tasi shifokor, 291 nafari huquqshunos, 2979 tasi boshqa mutaxassislar ekanligiga amin bo'ldik. Bu esa soha xodimlarini muntaazam ravishda malakasini oshirib borishni taqozo etmoqda. Agar raqamlarga murojaat etilsa, jumladan, 2013-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursini tashkil etish to'g'risida»gi qarori amaliy choralardan biri bo'ldi. Ushbu

qarorga muvofiq har bir hududda tashkil qilingan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish, bu borada mavjud muammolarni hal etishga katta ko'mak bermoqda. 2014-yil mobaynida ushbu o'quv kurslarida, jami o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining 35% ni tashkil etuvchi 13 ming 983 nafar xodimlar malaka oshirganlar.

O'zbekistonda ham demokratik davlatlar kabi fuqarolar yig'inlarining ijtimoiy-siyosiy funksiyalari e'tiborga olinib, ularning davlat va mahalliy boshqaruvdagi ishtiroki, bu borada mahalliy hokimiyat organlarining vazifalari alohida e'tirof etiladi. Masalan, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida xalq deputatlari Kengashi va hokim O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan. Bu esa mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishidir.

Agar ushbu tuzilmaga o'xshash o'zini o'zi boshqarish tizmining g'arb namunasiga e'tibor qaratilsa, Yevropada bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlarda munisipal tuzilmaning aholisi – "hududiy ommaviy jamoa", "hududiy jamoa", "mahalliy hamjamiyat" tushunchalari bilan belgilanadi. V.E. Chirkinning ta'rificha, hududiy ommaviy jamoa – aholini hududiy mansublik belgisi bo'yicha tashkil etishning maxsus shakli va odamlarning fuqaroligi va yoshidan qat'i nazar maxsus uyushmasidir. Hududiy ommaviy jamoa sifatida u davlatni tashkil etgan jamiyatlar, ularning ichida tuzilishi mumkin bo'lgan va tashkil etilayotgan boshqa hududiy ommaviy jamoalar: federatsiya subyektlari, siyosiy avtonomiyalar, munisipal tuzilmalarning aholisi (xalqi)ni ajratadi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining o'ziga xosligidan kelib chiqib, g'arb jamiyatidan farqli ravishda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish,

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2000-yildan keyingi davrda boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini rivojlantirish masalasiga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Mamlakatda demokratik huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida Prezidentning 2000-yil 2-iyundagi "XXI asr konsepsiyasi"ni yaratish to'g'risidagi farmoni muhim rol o'ynadi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi tomonidan "XXI mahallasi konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Konsepsiyaga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi qonun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Konsepsiya qoidalari BMT ning "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish butunjahon Xartiyasi" va "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi" talablariga asoslangan.

Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "...o'zini o'zi boshqarish organlari - bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo'ladi. Biz bugun ana shu asoslarni qurishni boshladik"³³. Ko'pchilik mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming-yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz.

Fuqarolarning uyushganlik darajasi, o'zaro aloqalarining yaqinligi, hududiy jamoalarning turli ko'lamda tashkil etilishiga qarab farqlanishi tabiiy holdir. Aynan ushbu holat turli ko'lamdagi hududiy jamoalarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eng quyi

³³Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. T.: "O'zbekiston", B. 317-318.

qishloq, shaharcha, mahalla jamoalari a'zolari aloqalarining yaqinligi, ularning boshqaruvdagi bevosita ishtiroki tufayli, hududiy hamjamiyatlarni shakllantiradi. Aynan shunday hamjamiyatlar manfaat guruhlarini tashkil etib, hududiy o'zin o'zi boshqaruvchi subyekt hisoblanadi. Bundan har bir hududiy jamoa, uning ko'lamidan qat'i nazar, rivojlangan kommunikatsiyalar tizimiga ega bo'lishi lozim degan xulosa kelib chiqadi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faolligi ular tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Bunday institutlar, xoh ijtimoiy, xoh siyosiy bo'lsin, ijtimoiy guruhlariga siyosat sohasida o'z manfaatlarini tartibli qondirish imkonini beradi. Ular munosabatlarni barqarorlashtirib, individlar va guruhlar yurish-turishini tartibga solib, ularning harakatlarini muvofiqlash-tiradi va integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy institutlar, avvalo, muassasalar tizimi bo'lib, ularda ijtimoiy guruh a'zolari tomonidan tayinlangan yoki saylangan muayyan shaxslar jamiyat va individual manfaatlarini qondirish, shuningdek, guruhning boshqa a'zolari yurish-turishini tartibga solish maqsadida umumiy boshqaruv funksiyalarini bajarish vakolatini oladilar. Fuqarolar yig'inlari bunday institut vazifasini o'taydi.

Fuqarolik jamiyatida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari a'zolarining faolligi ham muhim o'ringa ega. Jumladan, davlat va jamiyat hayotidagi alohida faolligi tufayli Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari faoliyati davlatning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lishiga olib keldi. Ta'kidlash o'rinliki, so'nggi-yillarda mahalla institutini yanada takomillashtirish yuzasida ko'rilgan chora tadbirlar barcha sohalarda ijobiy siljishlarda o'z aksini topmoqda. Jumladan, bu borada mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni o'ziga xosdir.

2018-yil 15-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori qabul

qilinishi muhim qadam bo'ldi³⁴. Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida-yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati qurish sharoitida inson manfaati eng oliy qadriyat hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Eng asosiy ustuvor vazifa – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan olijanob g'oyani izchillik bilan hayotga tadbiq etishdan iborat. Mana shunday imkoniyatlardan samarali foydalanib zamon talabini his etmasdan eskicha ishlashga endi hech birimizning haqqimiz yo'q. Xalqimiz bugun katta orzu umidlar bilan yashayapti. Bu orzu-umidlarni kim amalga oshiradi? avvalo, mana shu zalda o'tirgan rahbarlar, mutasaddi va mutaxassislar, navqiron yoshlarimiz. Buning uchun bizda kuch va imkoniyatimiz, bilim va salohiyat ham qat'iy iroda, intilish va azmu shijoat ham yetrali"³⁵, degan edi.

Fuqarolar yig'inlari 2018-yildan e'tiboran o'z faoliyatining yangi davriga qadam qo'ydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, mahallaning fuqarolik jamiyati qurish sharoitidagi o'rni, shubhasiz uning jamoatchilik tuzilmalari bilan faol hamkorligidir. 2018-yil 15-fevralda Hukumatning "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga ko'ra endilikda mahalla fuqarolari yig'inlari huzuridagi "Yarashtirish komissiyasi" ga O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston mumsulmonlari idorasi, "Ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya" sig a Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Madaniyat vazirligi biriktirildi. Mahalla fuqarolar yig'inlarining "Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash komissiyasi" ga Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni. «Xalq so'zi». T.2017 4 fevral., O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. T., 2018.

³⁵ Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: «O'zbekiston», 2017 yil.

munosabatlari hamda Moliya vazirligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, “Nuroniylar jamg‘armasi”, “Xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi”ga O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiya”ga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, Ichki ishlar va Xalq ta‘limi vazirliklari, jismoniy tarbiya va sport Davlat qo‘mitasi, “Tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo‘yicha komissiyasi” ga Savdo sanoat palatasi, Adliya vazirligi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashi hamda tijorat banklari, “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiyasiga” Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston ekologiya harakati, “Jamoatchilik nazorati va iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha komissiyasi” O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi yaqindan ko‘mak beradi.

Fuqarolar yig‘inlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha maslahat kengashiga Savdo sanoat palatasi, Adliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, “Hunarmand uyushmasi” va tijorat banklari birlashtirilgan. “Ota-onalar universiteti”ga O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, “Nuroniylar jamoatchilik kengashi” ga Respublika “Nuroniylar jamg‘armasi”, “Qaynonalar kengashi” ga O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasiga ichki ishlar vazirligi amaliy ko‘mak berishi belgilangan³⁶.

2020-yil 1-yanvardan e‘tiboran mahalla hududidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan er uchastkalarini olib qo‘yish va bir fermer xo‘jaligidan boshqasiga o‘tkazish hamda jismoniy va yuridik shaxslar egaligida bo‘lgan, ular foydalanadigan, ularning mulki bo‘lgan er uchastkalarini jamoat va davlat ehtiyojlari uchun olib

³⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni. «Xalq so‘zi». T.2017 4 fevral., O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. T., 2018.

qo'yish vakolatlari mahalliy xalq deputatlari kengashlariga beriladigan bo'ldi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda 2020-yilga kelib mahalla taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. O'tgan 2017–2020-yillar oralig'ida aholi muammolarini aniqlash, **“Mahalla–sektor–Xalq qabulxonasi–mahalla”** tamoyili asosida mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi asosiy ishonchli ko'prik bo'lishini amalda ta'minlash, oila va mahalla hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin–qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi Farmoni e'lon qilindi. Ushbu Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”** gi qarori qabul qilindi³⁷.

Mazkur qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkiliy tuzilmasi sifatida quyidagilar belgilandi:

– 99 ta shtat birligidan iborat O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi markaziy apparati tuzilmasi tashkil qilinishi;

– 336 ta shtat birligidan iborat Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalari tashkil qilinishi;

– 1624 shtat birligidan iborat tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari tashkil etilishi belgilandi³⁸.

Nazorat savollari

1. Hokimiyatlar bo'linishi deganda nimani tushunasiz?

³⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”** gi qarori // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 20 fevral, №37.

³⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”** gi qarori // Xalq so'zi, 2020 yil 20 fevral, №37.

2. O'zbekistondagi siyosiy partiyalar faoliyati bilan tanishmisiz?
3. Sud hokimiyati qanday vazifani bajaradi?
4. Nodavlat va notijorat tashkilotlari haqida nimalarni bilasiz?

Test savollari

1. O'zbekistonda davlat hokimiyati ...

- A. ... qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iborat.
- B. ... parlament, Prezident va Oliy sud dan iborat.
- C. ... hokimiyatlar, Oliy Majlis va Sudyalar Oliy kengashidan iborat.
- D. ... sudlar, hokimiyatlar va Qurolli Kuchlardan iborat.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Senatning necha nafar a'zosi tayinlanadi?

- A. 10 nafar
- B. 16 nafar
- C. 20 nafar
- D. 15 nafar

3. O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarishning an'anaviy shakli qaysi?

- A. Mahalla.
- B. Kasaba uyushmalari.
- C. Siyosiy partiyalar.
- D. Jamoat birlashmalari.

4. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalalar soni qanchani tashkil etadi?

- A. 5 mingdan ortiq
- B. 10 mingdan ortiq
- C. 15 mingdan ortiq
- D. 20 mingdan ortiq

5. Tuman va viloyat sudlari sudyalarining lavozimda bo'lish muddati necha-yilga teng?

- A. 3-yilga.

- B. Dastlab 5-yilga, keyin 10-yilga, undan soʻng umrbod.
- C. 5-yilga.
- D. 6-yilga.

6. Oliy sud qanday organ?

- A. U nizoni eng oxirida koʻradi.
- B. Sudlar ichida eng oliysidir.
- C. Fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va maʼmuriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

7. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar kim tomonidan koʻrsatilishi mumkin?

- A. Tashabbukor guruhlar
- B. siyosiy partiyalar
- C. davlat hokimiyati ijro organlari
- D. Barcha javoblar toʻgʻri

8. Davlat hokimiyatining birdan - bir manbai kim?

- A. Prezident.
- B. Xalq.
- C. Deputatlar.
- D. Hokimlar

9. «Demokratiya» soʻzi yunon tilidan olingan boʻlib.....

- A. xalq hokimiyati
- B. xalq va shaxs erkinligi
- C. xalq erkinligi
- D. teng huquqlik

10. Oʻzbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning oʻziga xosligi asosan nimada namoyon boʻladi?

- A. Qonun ustuvorligida
- B. Iqtisodiyot qonunlari ustuvorligida
- C. Siyosiy fikrlar rang-barangligi va erkinligida
- D. Barcha javoblar toʻgʻri

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “Oʻzbekiston”, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni. «Xalq so‘zi». T., 2017. 4 fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. T., 2018.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori.// Xalq so‘zi gazetasi. 2020-yil 20-fevral, №37.

5. Karimov I.A. Parlament-jamiyat ko‘zgusi. // Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2005.

6. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat engilmas kuch. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.

7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.

8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

9. Usmonov Q., G‘aniyev D. O‘zbekiston : mustaqillik odimlari. – T.: “Sharq”, 1995.

10. Jo‘rayev M., Nurullin R., va boshqalar. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. –T.: “Sharq”, 2000.

11. Hasanov R, Utamuradov, Qirg‘izboyev M, Inoyatov Q. Fuqarolik jamiyati: ma‘ruzalar kursi . – T.: “Navro‘z”, 2018. 332 bet.

12. Hasanov R, Utamuradov, Qirg‘izboyev. Fuqarolik jamiyati.//O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiyalar Markazi”, 2019. 400 bet.

6-MAVZU: IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI

- 6.1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning “besh tamoyili”
- 6.2. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi
- 6.3. Avtomobilsozlik sohasidagi islohotlar
- 6.4. Bank-moliya sohasidagi islohotlar va ularning mazmun-mohiyati
- 6.5. Soliq sohasidagi islohotlar
- 6.6. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va unda belgilangan dolzarb vazifalar.

Tayanch tushunchalar: bozor iqtisodiyoti, mulkchilik shakllari, evolyasion rivojlanish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari, tamoyil tushunchasi, milliy valyuta, bank-moliya tizimi, xususiylik, “O‘zbek modeli”, iqtisodiy erkinlik.

6.1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning “besh tamoyili”

Birinchi masala bayoni. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan paytda ayrim xalqaro moliyaviy tashkilotlar rivojlangan davlatlarda qo‘llanilgan bozor mexanizmlarini tatbiq etishni maslahat berdi. Biz ulardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxa ko‘chirmadik. Dunyoda tan olingan modellarning eng yaxshi jihatlari o‘rganib, o‘zimizga mos va o‘zimizga xos taraqqiyot yo‘lini tanladik. Bu yo‘l davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, xalqimizning davlatchilik tarixi, milliy-diniy qadriyatlari hamda jahon tajribasini hisobga olgan holda beshta tamoyil ishlab chiqildi. Tamoyil rus tilidan olingan bo‘lib, prinsip – biron-bir ta’limot, dunyoqarashning asosiy, birlamchi qoidasi, boshqaruvchi g‘oya, faoliyatining asosiy yo‘nalishi. Shuningdek, insonning borliqqa munosabatini, uning xatti-harakati va faoliyati me‘yorlarini belgilovchi ichki omil ham tamoyil hisoblanadi.

Mustaqillikni dastlabki-yillarida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbardigida islohotlar strategiyasi

ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy etgan mamlakatlarning bozor munosabatlarga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi.

Birinchi tamoyil. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkura bo'ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlardan holi bo'lish lozim. Iqtisodning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi. O'zbek modelining tamoyili sifatida nafaqat mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun – mohiyatini aks ettiradi, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg'or tajribalar va oqilona tashkil qilishning omilidir. U obyektiv iqtisodiy qonunlarni tan olishga, mulkchilik shakllariga, taqsimotga nisbatan subyektiv munosabatlardan qutilishga ma'naviy shart-sharoit yaratadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti ta'kidlagani kabi: "Mafkuraviy aqidalarni bartaraf etish xo'jalik yuritishning turli ijtimoiy fikrning, bozor munosabatlariga mos bo'lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishicha ko'maklashadi".

Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma'naviyatning ahamiyati nechog'lik muhim ekanini, uning nozik qirralarini ochib beradi.

Ikkinchi tamoyil. Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirish lozim. Mustabit tuzum asoratlaridan xolos bo'lish jarayonida o'zini-o'zi tartibga soladigan yetuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib qolmaydi. Shu boisdan ma'muriy buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzumi qoldiqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish, bu yo'ldagi turli ziddiyat va qarshiliklarni yengib o'tish yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun o'tish davri kerak. Ziddiyatlarga boy bo'lgan o'tish davri sharoitida iqtisodiyotni, islohotlarni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov, o'zbek modelinnig mazkur tamoyilini ilmiy asoslar ekan,

quyidagilarni ta'kidlaydi: "O'tish davrida davlat xalq xo'jaligining, ayniqsa, uning asosini, tizimini narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek, bevosita yordam berishda imtiyozla yaratishi, bevosita yordam ko'rsatishi yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim". Bu so'zlar davlatning bosh islohotchisi sifatidagi vazifasi nimadan iborat ekanini asoslab beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarning, nodavlat va jamoatchilik tashabbuslari va faoliyatlari cheklanmasligini, aksincha, davlat ularga yordam berishini bildiradi.

Uchinchi tamoyil. Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi, Demokratik yo'l bilan qabul qilingan konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishma rioya etish lozim. Birinchidan, mazkur tamoyil turli mulk shakllarining teng huquqiy asosda rivojlanishini ta'minlaydi. Mulkchilik shakllari va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, raqobat qat'iy huquqiy me'yorlar yordamida tartibga solinadi. Iqtisodiyotning boshqarishda o'zboshimchalik va subyektivizmga, turli iqtisodiy zo'rvonliklarga yo'l qo'ymaslik uchun zurrur huquqiy shart-sharoit vujudga keladi. Ikkinchidan, demokratiya rivojlanadi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi rivoji uchun huquqiy kafolat paydo bo'ladi. Inson huquqlari ta'minlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga chek qo'yiladi. Uchinchidan, alohida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari, ijodiy salohiyati samaraliroq ro'yobga chiqadi. Jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyati-yil sayin ortib boradi, fuqarolik amiyati shakllanadi. Demak, qonunning ustuvorligi tamoyili keng ma'noda, O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyat yangilanishiga inson shaxsining yuksalishiga xizmat qiladi. O'zbek modelinnig mazkur tamoyili o'zidan avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog'liq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik va huquq-targ'ibotning asosiy kafili bo'ladi.

Ushbu tamoyil jamiyat hayotida birdaniga to'qiq qaror topib qolmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayon. Uning to'liq qaror topishi uchun o'zaro mushtarak bo'lgan quyidagi uch omil muhim ahamiyat kasb etadi;

- jamiyatning, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuasining vujudga kelishuvi va doimiy takomillashib borishi;

- jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonligi darajasi va qonunga itoatgo'yligining yuksak bo'lishi;

- mavjud qonunlarni hayotga tadbqiq etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

To'rtinchi tamoyil. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rinishi lozim. Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari ko'p. Ular ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rinlari yaratish, sog'liqni saqlash, xalq - ta'limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va isloh qilishdan tortib jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni ta'minlashgacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi. Kuchli ijtimoiy - siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish o'zbek modelinnig insonparvarlik mohiyatini belgilab beruvchi tamoyillardan biridir.

Beshinchi tamoyil. Bozor iqtisodiyotiga obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrjiiy asosda puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish. Bu ish islohotlarning huquqiy asoslari va kafodatdarini vujudga keltirish, aholini ijtimoiy himoyalash va uning yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirish bilan birga olib boriligi lozim. "Faqat farmonlar, farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lib, tegishli infrostrukturani va huquqiy asosni yaratishgina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqur o'zgarishlari, xo'jalik faoliyati va amaliy munosabatlarni asoslashni ham ko'zda tutadi". O'zbekistonda aynan shunday yo'l tutildi. Bunday siyosat yuritish nafaqat mablag'lardan samarali foydalanish imkonini bermoqda, shuningdek, odamlarning safarbarligini oshirmoqda, ijtimoiy larzalarning oldini olmoqda, mulkchilik ishlarini bosqichma-bosqich rivojlantirmoqda. Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini,

o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Bu modelning barcha sinovdan muvaffaqiyatli o'tishiga sabab bo'lgan omillari ko'p. Ularning eng asosiysi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda turli xil sakrashlarsiz, ya'ni inqilobiy yo'ldan emas, balki tadrjijiy rivojlanish yo'lidan borish tamoyilidir. Islohotlarni amalga oshirishda davlat bosh mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi ana shunday tadrjijiylikning muhim jihatidir. Xalqaro tashkilotlar ham bugun o'tish davri iqtisodiyotida, chuqur islohotlarni amalga oshirishda davlatning roli haqiqatan ham katta ekani, buni O'zbekiston tajribasi amalda isbotlaganini keng tan oldi. Hozirgi vaqtgacha davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli oshayotgani O'zbekistonning bu boradagi yo'li naqadar to'g'ri ekanini ko'rsatdi.

Mamlakatimizda dunyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib Inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirildi. Agar ko'pchilik xorijiy davlatlarda qabul qilingan inqirozga qarshi dasturlar ko'rilgan talofatlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, O'zbekistonning dasturi yaqinlashib kelayotgan xatarning oldini olish hamda iqtisodiyotni yanada mustahkamlash, uning raqobatdoshligini oshirishga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. Ana shunday uzoqni ko'zlab ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli inqiroz avjiga chiqqan eng og'ir-yillarda ham mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik saqlab qolindi, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlandi. O'zbekiston iqtisodiyoti dunyodagi eng kam talofat ko'rgan mamlakatlardan biri bo'ldi.

6.2. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi

Ikkinchi masala bayoni. O'zbekistonning chorak asrlik mustaqil taraqqiyoti davomida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar barcha sohadagi muvaffaqiyatlarimizning tamal toshi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Albatta, bu yutuqlarga yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, millatlararo do'stlik va hamjihatlik, barqaror iqtisodiy o'sish tufayli erishildi. Bugun biz farovon hayotimizga odatiy hol sifatida qaraymiz. Biroq ko'pchilik,

ayniqsa, katta avlod vakillari o'tgan kunlarimizni yaxshi eslashadi, "Kim edigu kim bo'ldik?" degan savolga xolis va asosli javob bera oladilar, ular hozirgi dorilamon kunlarga qanday sa'y-harakatlar evaziga etib kelganimizni teran anglaydilar.

O'tgan davr haqida so'z borganda, uni nafaqat "murakkab" tushunchasi bilan, balki "shiddatkor" iborasi bilan ham ifodalash lozim. Chunki ayni bir avlod ko'z o'ngida asrlarga tatigulik voqealar yuz berdi. Bosib o'tilgan yo'l qanchalik mashaqqatli bo'lganini, nechog'li katta xavf-xatarlarga duch kelinganini takrorlab o'tirishga hojat yo'q. Bu qiyinchiliklarga nafaqat qarshi turish, balki o'tish davrining barcha murakkabliklariga qaramasdan ularni engib o'tish faqatgina Birinchi Prezidentimizning shijoati, oqilona qarorlari, xalqimiz matonati tufayli amalga oshdi. Binobarin, puxta va donishman-dona tahlil bilan qabul qilingan qarorlar zamirida millionlab insonlarning taqdiri uchun ulkan mas'uliyat hissi barq urib turardi. Yosh mustaqil davlatning oyoqqa turib olishi o'zining samaradorligini amalda isbotlagan, xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan demokratik jamiyat qurishning mashhur "o'zbek modeli" bilan bevosita bog'liqdir. Uning birinchi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan beshta tamoyili mustaqil respublika qaysi yo'nalishda o'z taraqqiyoti sari borishi kerakligini belgilab berdi. Aslini olganda, islohotlarning dastlabki bosqichida shakllangan "o'zbek modeli" O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirish uchun uslubiy asos hamda jamiyat rivojiga mutlaqo yangicha nazarning aniq-ravshan ifodasi bo'ldi.

Bugungi tinch va osoyishta, farovon hayotimiz bizni mustaqillik ostonasida ro'y bergan voqea-hodisalar haqida xolis mushohada yuritishga undaydi. Yigirma-yildan sal ko'proq vaqt muqaddam hatto eng mashhur olim va tadqiqotchilar ham o'tish davrining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlari bo'yicha faqatgina yuzaki fikrlarni bildirgan olardi xolos. Chindan ham, o'sha-yillar kelgusida nima yuz berishi mumkinligi xususida hatto taxmin ham qilib bo'lmas darajada murakkab edi.

Mavjud vaziyat tarixiy sharoit sabab tobora keskin tus olgandi. Negaki, respublikamiz va uning jafokash xalqini sobiq markazdagi partiya korchalonlari faqat qimmatbaho tola beruvchi paxta hosili

zarur bo'lib qolgandagina eshlashlari oqibatida o'zimizni boshi berk ko'chaga kiribqolgandek his etardik. Shu bois vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini tezkorlik bilan topish talab etilardi. Yuridik fanlar doktori, huquqnazariyasi bo'yicha mutaxassis Leonid Levitinning tarix va siyosiy fanlar professori, O'rta Osiyoning siyosiy muammolari bo'yicha amerikalik ko'zga ko'ringan olimlardan biri Donald S. Karlayl bilan hamkorlikda yozgan "Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti" nomli kitobida qayd etilganidek, 90-yillar boshida sovet respublikalaridan hech biri O'zbekistonchalik halokat yoqasida emasdi.

— Respublika xalqining taxminan uchdan ikki qismini tashkil etuvchi qishloq aholisi-yillar davomida ekspluatatsiya qilingan. Odamlar paxta yakkahokimligi sharoitida o'ta og'ir va sermashaqqat mehnatga mahkum, yashash uchun zarur mablag'ning yetishmasligi va umuman, adolatsiz ijtimoiy tuzumdan aziyat chekishardi, — deb yozilgandi Avstriya poytaxtida nashr etilgan bu risolada. Yigirmanchi asrning 90-yillari boshida yaqin xorij davlatlarining eng nufuzli gazetalari mamlakatimiz haqida maqolalar "O'zbekiston — qizib turgan samovar", "O'zbekiston — nonsizlar o'lkasi", "Quyosh botishi oldidan" kabi sarlavhalar ostida berilgan. Ko'pgina kuzatuvchilar respublikani nafaqat dahshatli inqiroz kutayotganini, balki bu oqibatini tasavvur etish ham mushkul bo'lgan muqarrar holat ekanini bashorat qilishardi. O'sha paytda ayrim shubhago'ylar malayziyacha, amerikacha, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining modellaridan nusxa ko'chirish tarafdori edilar. Ular boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlarda tatbiq etilgan bo'lsa-da, xalqimiz qadriyatlariga, dunyoqarashiga to'g'ri kelmasdi. Bir necha "tayyor" reseptlar ham bot-bot takrorlanardi. Deylik, "shok terapiyasi" ulardan biri edi.

Ammo uning tamoyillari davlat iqtisodiyotini sog'lomlashtirish va uni inqirozdan chiqarish bahonasida mehnatga layoqatli aholining 40 foizini ishsiz qoldirishi, hayot darajasini pasaytirishi, ijtimoiy tanglikni kuchaytirishi mumkin edi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov bozor munosabatlariga bunday yondashish noto'g'ri, degan qat'iy fikrini ilgari surdi. Boisi, taklif qilinayotgan uslublar butun hayot tarzini, xalqning ruhiyatini butunlay o'zgartirishni talab etardi. Zotan,

bizning asosiy vazifamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga hech qanday yo'qotishlarsiz o'tishdan iborat edi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston faqat o'zigagina xos bo'lgan yo'lni tanladi. Bu yo'l ilg'or mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiy islohotlarning milliy modelini yaratishni ko'zda tutardi. O'sha davrda "o'zbek modeli" samarali o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kuchli turtki bo'ldi hamda misli ko'rilmagan chinakam najot va -yuksak ishonch baxsh etdi.

"O'zbekmodeli"ga ham ohang ravishda istiqbolli vazifalar belgilab olindi. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" asarida qayd etganidek, respublikada iqtisodiy islohotlar va yangilanishlar dasturini amalga oshirishning dastlabki kunlaridan boshlab, asosiy e'tibor iqtisodiyot tuzilmasini muayyan ravishda yaxshilash, uning bir tomonlama, xom ashyo bazasi sifatidagi yo'nalishidan voz kechishga qaratildi va hozir ham shunday qilinmoqda.

Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston totalitar, mustabid tuzumning paxta bazasi hisoblanar va ana shu xom ashyoni boshqa mintaqalarga ham yetkazib berardi. Turmush darajasi esa nihoyatda past edi: 1990-yilda O'zbekistonda umumiy daromadlari yashash minimumidan past bo'lganlar aholining 70 foizini tashkil etardi, boshqa respublikalarda esa bu, ko'rsatkich 30 foizdan ko'p emasdi. Mavjud korxonalar ichki bozor ehtiyojlari uchun emas, balki olib chiqib ketilishi uchun mahsulot ishlab chiqarardi. Shu bilan birgalikda, agar o'sha payt xaritasiga nazar tashlansa, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining 50 foizi faqat Toshkent shahri va Toshkent viloyatining, qolgan 50 foizi esa boshqa viloyatlarning hissasiga to'g'ri kelardi.

Sobiq tuzum shu qadar mafkuralashgan ediki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati iqtisodiyot qonunlariga emas, dogmalarga bo'ysunardi, O'sha paytda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi, bor-yo'g'i, 14 foizga yaqin edi, xolos. Bir vaqtning o'zida sobiq markaz juda katta miqdordagi moliyaviy mablag'larni o'z g'oyalarini Afrika yoki Amerika qit'alaridagi mamlakatlarga singdirish uchun yo'naltirardi. Yangi maktablar qurishga esa mablag' topilmasdi. XX asrning so'nggi o'n-yilliklarida ana shunday sharoitlarda yashagan odamlar ishlab chiqarishda, sog'liqni saqlash

va boshqa sohalarda yuzaga kelgan turg'unlikni ko'rib, kelajakka bo'lgan ishonchni yo'qotgan edilar. Boshqacha aytganda, mafkuraviy dogmalardan xoli shunday yangicha tafakkurni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi, toki u butun jahon tamadduni va har bir alohida mamlakatning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi uchun turli yo'llar mavjudligini ko'rsatib bersin. O'zbekistonda uzoq vaqt davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun tamomila yangi yondashuv ishlab chiqildi. U iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning har bir bosqichida maqsad va ustuvor vazifalarni aniqlashtirish, ularni bajarish uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni yaratish, qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlashni o'z ichiga oldi. Muhimi, bu ishlar ko'zbo'yamachilik, o'z-o'zini aldash va yutuq-lardan esankirashlarsiz, vazminlik bilan olib borildi, aynan shuning uchun ham samarali bo'ldi. Yuqorida nomi keltirilgan L. Levitinning yozishicha, O'zbekiston qulay geografik joylashuvga ega bo'lib, mintaqaning transport, energetika va suv tizimlari markazida joylashgan. U aholi soni jihatidan ham, ilmiy-texnik salohiyati, noyob tabiiy-iqlim sharoitlari, qadimiy dehqonchilik madaniyati va mineral-xom ashyo zaxiralari bilan ham o'z qo'shnilari orasida ustun turadi. Bu esa o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlashga, qishloq xo'jaligi ekinlarining qimmatli texnik turlarini yetishtirish va eksport qilishga imkon yaratadi. Mamlakatda ekologik jihatdan xavfsiz va jahon bozorida raqobatdosh meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun barcha shart-sharoit mavjud.

Mutaxassislar fikricha, bozor iqtisodiyotini totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik asosida shakllantirib bo'lmaydi. Bu ikki tizim umumiy jihatlarga ega emas, shuning uchun ham mustaqillikka erishgan paytda mavjud xo'jalik mexanizmini takomillashtirish emas, balki butunlay yangisini yaratish zarur bo'ldi. "O'zbek modeli" asosida bir holatdan boshqa holatga o'tildi.

Yangi sharoitga o'tish xalqning qo'llab-quvvatlashi tufayli kelgusi taraqqiyot va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratdi. Bu monolitning hayotiyligi keyin ham bir necha bor sinovdan o'tdi. Masalan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida respublikamiz o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar dasturi asosida inqirozni salbiy oqibatlarsiz zengib o'tdi.

Aniq iqtisodiy hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga uning barcha qoidasi va talablarini joriy etgan holda o'tish oson kechmaydi. Lekin mustaqillik ilgari mavjud bo'lmagan astoydil mehnat qilish va buning uchun moddiy rag'bat olish imkoniyatini taqdim etdi.

Bozor munosabatlari sharoitida xalqimiz o'zining tadbirkorlik qobiliyatlarini ishga solgan holda, qo'shimcha daromad manbaini topdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, shuningdek, odamlar ongu tafakkurini o'zgartirish uchun zamin yaratdi. Aholi orasida tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish hissi shakllandi. Negaki, bozor munosabatlari odamlarni yangiliklarga befarq qaramaslikka, fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini dadil joriy etishga, kasbiy mahoratni munosib baholashga, qisqasi, iqtisodiyot ustidan markazlashgan boshqaruv sharoitida erishish mumkin bo'lmagan yutuqlarni qo'lga kiritishga chorlaydi. Bozor iqtisodiyotida madaniy an'analar takomiliga yetkaziladi, ayniqsa, u yoki bu sohada afzallikka ega bo'lgan an'analar rivojlantiriladi. Bozor munosabatlari, bir tomondan, ishlab chiqarish quvvatlarining salohiyatidan samarali foydalanishni, ikkinchi tomondan esa, boqimandalikdan qutulib, tashabbuskorlik va omilkorlikni rivojlantirish, mulkka egalik hissini qayta tiklash va nihoyat, ishlab chiqaruvchining buyruqbozligidan voz kechib, uning iste'molchi manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlaydi.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan boshlab O'zbekistonning har bir sa'y-harakati uzoq va yaqin qo'shnilar tomonidan sinchiklab kuzatildi. Qulay geografik sharoitlar, tabiiy boyliklar va kadrlar salohiyatiga ega yosh davlat bilan aloqalarni o'rnatishga bo'lgan ishtiyok-yildan-yilga kuchayib borardi. Ammo ular har safar hamkorlikni taklif etish oldidan barqarorlikka ishonch hosil qilish uchun mamlakatimizdagi vaziyatni chuqur o'rgandi. Chunki investorga uning qo'yilmalari foyda keltirishi juda muhim: biznes, bu — biznes.

Shunday ekan, statistik hisobotlar, prognoz parametrlari, OAVdagi materiallar va boshqa manbalar juda puxta, ta'bir joiz bo'lsa, lupa orqali tahlil etilardi. Diqqat bilan tanishgandan so'ng esa hamkorlar to'plangan dalillarni qoniqish bilan qayd etardi:

O'zbekiston sobiq sovet respublikalari orasida 1997-yildayoq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1990-yildagiga nisbatan 12,7 foiz oshira olgan yagona mamlakat edi.

Boshqa ko'pgina mustaqil davlatlar bir necha-yil o'tgandan keyin ham bu ko'rsatkichni, hatto 1990 yoki 1991-yil darajasiga yaqinlashtira olmagan edilar.

Bunday natijalarga iqtisodiy islohotlarni asosiy maqsad qilib qo'ymagan holda erishildi. Bu islohotlar dastlabki davrda, avvalo, odamlarga, ularning eng zarur kundalik ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirildi. Keyinchalik esa ularning o'z qobiliyatlarini namoyon etishi uchun sharoit yaratishga qaratildi. Buni teran anglagan dono xalqimiz mustaqil davlatning har bir qadamini mamnuniyat bilan qarshi oldi.

“O'zbek modeli” asosida past va o'rta daromadli aholi qatlamlarining turmush darajasini ko'tarish bo'yicha puxta o'ylangan siyosatni amalga oshirish asnosida jamiyatda keskin tabaqalanishga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rildi. Yurtimizda 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz etarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi tafovut, ya'ni “desil koeffisienti” deb ataluvchi ko'rsatkich 2015-yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Xalqaro e'tirof etilgan Jini indeksi, ya'ni aholining tabaqalanishi ko'rsatkichi 0,280 ni tashkil etdi va bu ko'pgina rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarnikidan ancha past edi.

Shu ma'noda, quyidagi raqamlar e'tiborni tortadi: 2016-yilda aholining real daromadlari 11 foiz o'sdi, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 15 foiz, pensiya va ijtimoiy nafaqalar — 12,1 foiz oshirildi. Bu raqamlar jahonda davom etayotgan moliyaviy inqiroz sababli qator davlatlarda ijtimoiy to'lovlar qisqarib borayotgan bir sharoitda bizning davlatimiz o'z fuqarolariga qanchalik g'amxo'rlik ko'rsatayotganidan dalolat beradi.

Barqarorlik, yuqorida sanab o'tilgan omillar, shuningdek, tobora takomillashayotgan transport sohasi, jozibador investitsiya muhiti, xalqaro reytinglardagi yuqori o'rinlar — bularning hammasi O'zbekiston bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'lgan yangidan-yangi investorlarni jalb etmoqda. Iqtisodiyotimizga, asosan, sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalarini

amalga oshirish uchun kiritilayotgan sarmoyalar faqat 2016-yilda deyarli 10 foiz ortdi va 16,6 milliard dollarni tashkil etdi. Jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashayotgan O‘zbekiston hududida bugun besh mingdan ziyod chet el kapitali ishtirokida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida tuzilgan korxonalar faoliyat yuritmoqda. “O‘zbek modeli” asosida amalga oshirilgan islohotlar ekspertlar tomonidan hamisha yuqori baholanib kelinmoqda. Xususan, Jahon iqtisodiy forumi O‘zbekistonni eng tez rivojlanayotgan beshta davlat qatoriga kiritdi.

6.3. Avtomobilsozlik sohasidagi islohotlar

Uchinchi masala bayoni. Mashinasozlik tarmoqlari orasida mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekistonda avtomobilsozlik faol rivojlanmoqda.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi – O‘rta Osiyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi va MDH mamlakatlari o‘rtasida ikkinchi o‘rinni egallaydi, mahalliy lashtirish ulushi avtomobillarda yuqori (45-55%) bo‘lib, yuk avtomobillari va avtobuslarda 15-30% ni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish faoliyati quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

01.01.2018-y.ga kelib, sohada 24,77 ming kishi mehnat qilmoqda. «O‘zavtosanoat» davlat kompaniyasi orqali turli segmentlarda bir qator jahon brendlari mahalliy lashtirilgan: yengil avtomobillar va LCV (General Motors), yuk mashinalari (MAN, ISUZU) va avtobuslar (ISUZU). Ammo qariyb barcha qo‘shma korxonalarda aksiyalarning nazorat paketi O‘zavtosanoat orqali davlat nazorati ostida qolmoqda – GM Uzbekistan da 75% – MAN QK da 51%, ISUZU QK da 84% va PSA QK da 50%. Yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmi – 140,2 ming dona (2016-yilga nisbatan 159,1%), ISUZU avtobus va yuk mashinalari – 3600 dona (105,3%), MAN yuk mashinalari va avtobuslari – 1200 dona (119,4%), akkumulyator batareyalar – 680,2 ming dona (116,3%), kuchlanishli agregatlar – 91,6 ming dona (2,1 baravar). Jamiyat korxonalari tomonidan 6 686,2 mlrd. so‘mli xalq

iste'moli mollari ishlab chiqarilgan, 2016-yilga nisbatan o'sish sur'ati – 156,4% ni tashkil etdi.

Bugungi kunda ichki bozorda engil avtomobillarga bo'lgan talab 60-70 % ga, yuk avtomobillariga – 50% ga qondirilmoqda. Hozirgi paytda mamlakat hukumati tomonidan raqobatni va sohadagi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun avtomobilsozlik sohasiga mustaqil ishtirokchi sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish bo'yicha faolishlar olib borilmoqda.

Tarmoqning asosiy yo'nalishlari

Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 23 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularda avtomobil va avtobuslar, yuk mashinalari, avtomobillar uchun butlovchi qismlar va uzellar, shuningdek, xalq iste'moli mollari ishlab chiqariladi.

Quyidagi kompaniyalar avtomobil ishlab chiqarish sohasida ishlaydi: «Djeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha tuzilgan «DjiEm O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyati, «O'zAvto» korxonasi, Yaponiya-ni «Isuzu» va «Itochu» kompaniyalari muassisligida o'rtasidagi avtobuslar va yukmashinalari ishlab chiqaradigan «Samarqand Avtomobil Zavodi». O'zAvto va Peugeot Citroen Automobiles o'rtasida qo'shma korxonalar tuzish to'g'risida bitim imzolangan bo'lib, unga muvofiq, shaharda yengil tijorat avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha yangi zavod qurilmoqda. Loyihada Pejo Bokser va Pejo Ekspert avtomobillarining turli konfiguratsiyalarini ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

Osma va tirkama texnikalarini ishlab chiqaradigan UzAuto TRAILER korxonasi tashkil etildi, shuningdek, Rossiya kompaniyasi bilan birga Kamaz yuk mashinalarini yig'ish ishlari amalga oshirilmoqda. Avto qismlarini ishlab chiqarish sohasida «O'zAvto» kompaniyasining qariyb 40 ga yaqin korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati Korea Delfi, Erae, Sungwoo Hitech, Austem, AMS, KM&I singari dunyodagi yetakchi avto qismlar ishlab chiqaruvchilar bilan birga tuzilgan qo'shma korxonalaridir.

Bundan tashqari, avto qismlar yetkazib berilishi 160 dan ortiq kichik va o'rta darajali ta'minotchilar orqali amalga oshiriladi.

Xususan, «Djeneral Motors» va «O'zAvto» kompaniyasi bilan 1,2 va 1,5 litr hajmli dvigatellarni ishlab chiqarish bo'yicha «DjiEmPauerTreyn O'zbekiston» qo'shma korxonasi tashkil etilgan. Zavod «Djeneral Motors» global tarmog'idagi yagona korxonasi hisoblanadi. Alyumin buyumlar quyish, tarkibiy qismlarni mexanik qayta ishlash, tarkibiy qismlarni yig'ishning barcha jarayoni va sinovdan o'tkazish bitta zavodning o'zida amalga oshiriladi.

«O'zAvto» kompaniyasi ishlab chiqarish faoliyati bilan birga xodimlar malakasini oshirishga ham katta e'tibor qaratmoqda. Kompaniya Toshkentdagi Turin politexnika universiteti, universitet qoshidagi akademik litsey, Andijon va Samarqand-dagi mashinasozlik kollejlari singari ta'lim muassasalarining asoschisi hisoblanadi.

O'zAvto» korxonalarining avtomobil qismlarini xorijiy avtomobil ishlab chiqaruvchilar konveyeriga yetkazib berishi ularning mahalliy lashtirishda yuksak salohiyatga egaligining yaqqol dalilidir.

«O'zAvto» korxonalarini dunyoning 5 ta kontingentidagi avto-konveyerlarga bir necha turdagi avtomobil qismlarini yetkazib beradi. Korxonasi xodimlari mahsulotni ishlab chiqish, o'zlashtirish, ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha yetarli malakaga ega. Ishlab chiqarish va sifatni boshqarishga dunyo standartlarining joriy etilishi, qator xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish, shuningdek, korxonalarining zarur laboratoriya tekshiruv uskunalari bilan jihozlanishi jahon standartiga mos mahsulot ishlab chiqarish imkonini bermog'ida. O'zAvto korxonalariga GMS, 5S, Kaizen singari tizimlar joriy etilgan.

Mashinasozlikda qishloq xo'jaligi mashinasozligi eng salohiyatli tarmoq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish muhim strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. 2017-yilda qariyb 8 ming dona qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, ularning qariyb 1,2 mingtasini traktorlar va 0,3

mingtasini kombaynlar tashkil etadi. Bundan tashqari, so'nggi - yillarda tarmoqda ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi.

2018-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi texnikasi parki 150 486 dona, jumladan, 57 822 dona traktor, 58 019 dona osma texnika, 3 608 dona g'alla o'radigan kombayn, 1 224 dona paxta terish mashinasi, 1 738 dona xashak o'radigan texnika, 28 075 dona boshqa qishloq xo'jaligi texnikalarini o'z ichiga oladi.

Yuqorida sanab o'tilgan mavjud qishloq xo'jaligi texnikalaridan 82 921 donasi 11-yil va undan ortiq muddat ishlatilgani bois eski texnikalar hisoblanadi, jumladan, 30 412 dona traktorlar, 28 071 dona osma texnikalar, 1 131 dona g'alla o'radigan kombaynlar, 175 dona paxta terish mashinalari, 919 dona xashak o'rish texnikalari, 19 894 dona yerga ishlov berish texnikalar, 1 445 dona turli xil o'g'it berish va o'simliklarni himoya qilish texnikalari, 2 473 dona qishloq xo'jaligidagi turli texnikalar bo'lib, agrotexnika ishlari bajariladigan qizg'in mavsumda texnika yetishmovchiligini paydo qilyapti.

Qishloq xo'jaligi parki tahlillaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari qo'shimcha 100 670 dona texnikaga muhtoj. Ulardan 26 139 donasi traktorlar, 34 605 donasi osma va tirkama texnikalar, 1 149 donasi g'alla o'radigan kombaynlar, 3 080 donasi paxta terish mashinalari, 9 951 donasi xashak o'rish texnikalari, 22 278 donasi erga ishlov berish texnikalari, 2 968 donasi turli xil o'g'it berish va o'simliklarni himoya qilish texnikalari va 5002 donasi boshqa texnikalardir.

Ayni paytda mavjud texnikaning 55,1% ma'naviy va jismonan eskirgan bo'lib, ular tezkor suratda yangilanashi zarur. Chunki bu ishlov berilayotgan yerlar samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish va albatta, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmini oshirishda o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasida turli xil quvvatdagi traktorlar, g'alla va xashak o'rish kombaynlari, osma, tirkama, yo'l-qurilish va maxsus texnikalar ishlab chiqaradigan "Qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi» AJ, «Texnolog» AJ, «Agregat zavodi» AJ, «Agrixim»

MChJ, «Urganchkormmash» AJ, «Uz CLAAS Agro», «O‘zKeys-Mash» MChJ, «O‘zKeysTraktor» MChJ, «DD-Agrotexmash» MChJ, «Kuhn» MChJ, «UzAgrotex Sanoat Invest» MChJ, «Lemken-Chirchik» MChJ va «Amkodor-Agrotexmash» MChJ singari milliy va jahon brendlarining ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan.

2018-yil 1-yanvardan 2018-yil 30-iyungacha yuqorida ko‘rsatilgan korxonalar tomonidan umumiy qiymati 1 449,5 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan 6 000 donadan ortiq texnika ishlab chiqarilgan. Ayni paytda, qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarish va sotish sur‘atining oshib borishi ushbu texnikaga talab borligidan dalolat beradi.

6.4. Bank-moliya sohasidagi islohotlar va ularning mazmun-mohiyati

To‘rtinchi masala bayoni. O‘zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta’sir eta oluvchi qudratli tizimga aylangunga qadar uzoq evolyutsion rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Bu yo‘lda qator qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘ri keldi.

1991-yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o‘zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish uslublarini o‘zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo‘la bordi. 1991-1992-yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish-yillari bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to‘lov tizimini shakllantirish vazifalari qo‘yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviy tamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

1993–1994-yillarda bank tizimidagi islohotlar davom etdi. 1994-yilning 1 iyulidan e’tiboran milliy valyuta — so‘mning

muomalaga kiritilgani mustaqil bank tizimining, umuman, O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Markaziy bank o'z faoliyatida to'liq mustaqil bo'lganini, kelgusida bozor instrumentlari orqali milliy pul tizimini tartibga solish samarali tashkil etilishiga yordam berishi mumkin ekanini anglatar edi. Aynan shu vaqtdan boshlab Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va keyinchalik samarali to'lov tizimini yaratish bo'yicha faoliyati to'laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

1995-yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo'lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat — "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomi va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. Shu bilan bir qatorda mazkur-yilda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, kredit va depozit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg'armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. Buning samarasi darhol namoyon bo'ldi. Agar 1994-yil boshida aholi jamg'armalarining 98,5 foizi Jamg'arma banki (hozirgi Xalq banki), 1,5 foizi esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, o'sha -yil oxirida boshqa tijorat banklarining hissasi ham ko'payib, bu boradagi ko'rsatkich 12,8 foizga etdi. Bugungi kunga kelib, bu boradagi ko'rsatkich 83,2 foizni tashkil etmoqda.

Ushbu-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi — tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini konkretlashtirdi. Bank tizimiga taalluqli ikki asosiy hujjat — "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ishlab chiqilishida rivojlangan moliya tizimiga ega mamlakatlar tajribasi inobatga olinganini alohida ta'kidlash joiz.

Mazkur qonunlar, shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun nodavlat banklarning xususiy va aksiyadorlik-tijorat shaklida tashkil etilishiga qulay huquqiy sharoit yaratdi. Bu davrda bank tizimi rivojiga alohida ta‘sir etganikki omilni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchisi, olib borilgan islohotlar natijasida 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar boshqaruv va bank nazoratining to‘la huquqli organi bo‘ldi. Ikkinchisi, O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi – tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniq-puxta belgilab berdi. Unda bank aktivlarini diversifikatsiyalash va xorijiy kapital jalb qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirish prinsiplari mustahkamlangan.

Bu davrda iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat ko‘rsatuvchi kredit-moliya tashkilotlari tashkil etildi. Bunday ixtisoslashuv qishloq xo‘jaligi, avtomobil sanoati, aviasozlik kabi xalq xo‘jaligining muayyan soha va tarmoqlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog‘liq edi. Kelgusida ixtisoslashgan banklar o‘z operatsiyalari va mijozlari doirasini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi darajasi va biznes-muhit talablariga ko‘ra kengaytira boradi. 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking bank sektorini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida shakllanish jarayonlari davom etdi. Bank tizimiga taalluqli qonunchilik bazasi sifat jihatidan yangilanib, xalqaro bank amaliyoti bilan muvofiqlashtirildi. 1997-yilda islohotlarning strategik yo‘nalishlaridan biri bank sektorida xususiy kapital oqimini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ldi.

Mazkur jarayon 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilinganidan so‘ng jadallashdi. Unda jismoniy shaxslarning 50 foizdan kam bo‘lmagan ulushi bilan banklar ochish uchun imtiyozlar taqdim etish ko‘zda tutilgan edi. 1997-yil bank tizimining rivojlanish tarixida bank faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish boshlangani bilan ahamiyatlidir. Ma‘lumki, o‘sha vaqtgacha respublika hududida amaldagi barcha hisob-kitoblar kun bo‘yi olib borilar edi. 1997-

ylning mart oyidan yangi dasturiy ta'minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to'lovlarni respublika tashqarisida 15 daqiqa mobaynida, Toshkentdan chekka joylarda atigi 3 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi.

Aynan o'sha vaqtda hisob-kitoblar mexanizmi ishlab chiqildi va banklararo elektron to'lovlarning zamonaviy tizimi joriy etildi. Banklarga o'sha vaqtdagi noyob imkoniyat — kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari xarid qilish va departamentlarni ular bilan jihozlash imkoniyati berildi. Ular mablag'larni o'z faoliyati uchun zarur uskuna-anjomlarni modernizatsiya qilishga yo'naltirishi hisobga olinib, qator soliq to'lovlaridan ozod qilindi.

Shu tariqa, moliyaviy va iqtisodiy axborotning sifat jihatidan yangi iste'molchilari – mahalliy va xorijiy investorlar paydo bo'ldi.

1998-yilda respublika banklari Bazal tavsiyalariga muvofiq holda faoliyat ko'rsatish uchun zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Bank nazorati va xalqaro amaliyoti bo'yicha Bazal qo'mitasining tavsiyalaridan kelib chiqib, tijorat banklari faoliyatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari doirasida tartibga soluvchi kompleks me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ular balansida mavjud muammolarni oldindan aniqlash hamda bank likvidligi pasayishi va kapital tugashi yuzaga kelishidan oldin ogohlantiruv choralarini ko'rish tamoyillaridan foydalanildi. 1999-2000-yillarda valyuta siyosati yanada liberallashtirilgan holda, birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi mexanizmi amalga kiritildi.

Mazkur mexanizm vakolatli banklarning xorijiy valyutada talab va taklifdan kelib chiqib, o'z mijozlaridan shartnoma asosida erkin kurs bo'yicha valyutalarni sotib olishini ko'zda tutadi.

2000-2010-yillarda O'zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Aynan shu-yillarda zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimini tashkil etish bilan bog'liq ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni doirasida

Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat-tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan o'zaro sheriklik munosabatlari O'zbekiston banklari faoliyatida asosiy prinsiplarga aylana bordi. Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zaminida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

Mamlakatimizda liberallashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida bank tizimini rivojlantirish davri. Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo'yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi lozim edi. Korxonalarni aksiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o'zgartirish jarayonlari jadallashdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o'z rivojlanish konsepsiyasiga rioya etgan holda strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashuv darajasini oshirish o'z faoliyatini diversifikatsiyalash, yangi aksiyadorlarning mablag'larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi. Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 2003-yilning 15 oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala

yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertasiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2006-2007-yillar- ipotekaviy kreditlashning rivojlanish davri. Bank xizmatlarining mazkur yangi shakli mahalliy aholi tomonidan darhol ijobiy baholandi. Aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy himoyalashni ko'zda tutuvchi ushbu manba O'zbekiston Respublikasi "Iste'mol krediti to'g'risida"gi va "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunlari orqali mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi Qonuni iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur qonun turar-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash borasida aholining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, binobarin, banklarda iste'mol kreditlash hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi. 2006-yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulkni xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamlagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 16 fevraldagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida uy-joylar qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi.

Bu davrda, shuningdek, banklarning strategiyalari naqd pul muomalasini mustahkamlashga, har bir filialda naqd pul zahiralarini shakllantirishga va o'z faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratildi. "2005-2007-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh

qilish va rivojlantirish dasturi”da belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi banklar kapitallashuv darajasi va ko’rsatkichlarining barqaror o’sishini ta’minlagan holda, bank tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirishda muhim omil bo’ldi. Bu borada pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish, banklarda aholi omonatlarini ko’paytirishni rag’batlantirishga ustuvor yo’nalishlar sifatida e’tibor qaratildi. Rivojlanish sari doimiy ravishda intilayotgan tijorat banklariga mamlakatimiz hukumati tomonidan o’z vaqtida taqdim etilgan imtiyozlar kredit muassasalari o’z yangi instrumentlarini ishlab chiqadigan va taklif qiladigan bank-moliya bozorining shakllanishini oldindan belgilab berdi. 2008-2009-yillarda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo’nalishiga aylandi.

Mazkur yo’nalishda banklar o’z faoliyatini dunyoviy amaliyotning “oltin” prinsipidan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya’ni, aholiga ko’rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan “Iste’mol krediti to’g’risida”gi va “Ipoteka to’g’risida”gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

2020-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va inflyasiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifaga aylandi.

2020-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va inflyasiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifaga aylandi.

Shu-yildan boshlab inflyasiyaviy targetlash tizimini joriy qilishga o’tdik. Bu borada Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi iqtisodiy o’sish bilan inflyatsiya o’rtasida muvozanatni ta’minlashi, tashqi xavf-xatarlarni hisobga olishi zarur.

Davlat tomonidan 37 turdagi mahsulot va xizmatlar narxining tartibga solinayotgani erkin raqobatga salbiy ta’sir qilmoqda. Shuni hisobga olib, endi asosiy e’tiborni narxlarni belgilashga emas, balki

korxonalar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali narxlarni pasaytirishga va sifatni oshirishga qaratishimiz kerak.

Xalqaro tajribani o'rganib, raqobatni olib kirish mumkin bo'lgan monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yo'l ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim. Bu borada tabiiy monopoliya va raqobat to'g'risidagi qonunlarni yangilash hamda Iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi.

Iste'mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini ta'minlashning yagona yo'li – meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish hajmini ko'paytirish hamda “daladan do'kongacha” bo'lgan uzluksiz zanjirni yaratishdir. Hukumat barcha darajadagi hokimliklar bilan ushbu vazifa ijrosini to'liq ta'minlashi kerak.

Byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish zarur. Joriy-yilda davlat tashqi qarzining yuqori chegarasini belgiladik. Bundan buyon xalqaro moliya tashkilotlaridan olinadigan mablag'larni qaytarish imkoniyati va ularning natijadorligiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Vazirlar Mahkamasi “Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida” va “Davlat qarzi to'g'risida”gi qonunlar loyihalarini ishlab chiqdi. Islohotlarimizga jiddiy to'sqinlik qilayotgan “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investisiya muhiti ham shakllanmaydi. Vazirlar Mahkamasi xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, “yashirin iqtisodiyot”ning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqdi.

Shuningdek, “yashirin iqtisodiyot” ulushi yuqori bo'lgan alkogol va tamaki bozorini tartibga solish uchun tovarlarni raqamli markirovka qilish tizimini joriy etish ishlari boshlandi. Bu tizim kelgusida farmasevtika mahsulotlari uchun ham qo'llaniladi. Vazirlar Mahkamasi qiymati 200 million dollar bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar hisobidan amalga oshirilayotgan ushbu “raqamli markirovka va onlayn kassa” loyihasini alohida nazoratga olgan.

6.5. Soliq sohasidagi islohotlar

Beshinchi masala bayoni. Vatanimiz mustaqillikka erishgan ilkyillardan boshlab rejali iqtisodiy tizimdan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish yo'nalishida keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Jumladan, makroiqtisodiy siyosatning muhim bo'g'ini hisoblanadigan soliq siyosati, soliq qonunchiligi va soliq ma'murchiligi asoslari yaratildi va rivojlantirildi. Amalga oshirilgan islohotlar, birinchidan, davlat xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlay oladigan daromad bazasini yaratgan bo'lsa, ikkinchidan, iqtisodiyotning muhim sohalarini rivojlantirishga qulay sharoit yaratib beradigan soliq tizimini vujudga keltirdi. Keyingi o'n ikki-yilda respublikamiz yalpi ichki mahsuloti (YalM) hajmi o'rtachayiliga 8 foizdan ortiq o'sdi. Soliq siyosatining respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, mahalliy lashtirish va xizmat ko'rsatish sohalarini, shuningdek, eksport salohiyatini yuksaltirishdagi rolini tahlil qilsak, buning yaqqol tasdig'ini ko'ramiz. Soliq yukining kamayishi yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Soliq islohotlarining ustuvor yo'nalishi sifatida soliq yukining bosqichma-bosqich pasaytirilishi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishda muhim omil bo'ldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tishning O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan belgilab berilgan «O'zbek modeli» asosiy tamoyillaridan biri iqtisodiy islohotlar jarayonida davlatning etakchilik rolidir. Odatda, makroiqtisodiy siyosatni olib borishda ushbu rol davlatning fiskal siyosati orqali amalga oshiriladi. Fiskal siyosat orqali davlat nafaqat umumlashgan talabni, ishlab chiqarishni va daromadlarni boshqarib turadi, balki institutsional va tuzilmaviy islohotlar rivojiga ham aktiv ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi Prezident I. Karimov iqtisodiy islohotlar va investisiyalar bo'yicha Idoralararo Muvofiqlashtiruvchi Kengashda so'zlagan nutqida fiskal siyosatni yuritishga alohida e'tibor qaratib, bu siyosatni iqtisodiyotning har tomonlama tahlili natijalariga asoslanib olib borish kerakligini ta'kidladi. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29-dekabrda «Vazirlar Mahkamasining Umumiy iqtisodiy kompleksi tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralar ishining

samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 517-son qarorida ham iqtisodiyotni erkinlashtirish va uni boshqarishda davlatning bevosita aralashuvini kamaytirish jarayonlarida makroiqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni oshirish zarurligi uqtirilgan.

Soliqlar aslida davlatning mustahkam byudjetini shakllantirishga qaratilgan tushumlar manbai hisoblanib, hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga qayta yo'naltirilishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois har bir fuqaro o'zi tasarruf etgan mulki yoki daromadining belgilangan ulushini mamlakat rivoji uchun ajratishi bu iqtisodiy jarayonning barqarorligini ta'minlaydi.

Mustaqil O'zbekistonimizda har bir islohot inson hamda uning manfaatlari uchun amalga oshirilayotganini joriy-yil avvalidan Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona 12 foizga tushirilgani, konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida soliq va bojxona sohasidagi imtiyozlarni tartibga solish borasida huquqiy asosning ishlab chiqilgani, yanada e'tiborlisi, tadbirkorlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 20 foizdan 15 foizga, yagona ijtimoiy to'lov stavkasining esa 25 dan 12 foizga pasaytirilganida ham ko'rish mumkin.

Darhaqiqat, soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar avvalo, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy faoliyat ortidan halol daromad orttirishiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimizning 2019-yil 26-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishdagi nomutanosibliklarni qisqartirishda muhim dasturilamal bo'lmoqda. Bu bilan qo'shilgan qiymat solig'ining uzluksiz "zanjiri"ni shakllantirish, iste'mol bozorining barqarorligini ta'minlash hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish uchun munosib sharoit yaratish maqsadida joriy-yilning 1-oktyabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi 20 foizdan 15 foizgacha pasaytirildi. 2020-yil 1-yanvardan soddalashtirilgan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i hisoblash rejimining bekor bo'lishi adolat

va tenglik, mahsulot tannarxining arzonlashishi, soliq to'lovchilar daromadining oshishi va qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarning soliq yuki bixillashishiga olib keladi. 2020-yil 1-yanvardan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi.

Bugungi shiddatli iqtisodiy raqobat muhitida tadbirkorlarga keng imtiyozlar berish, zarur qulayliklarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz soliq siyosatida ana shunday zamonaviy tamoyillarni inobatga olib, ayrim hollarda oddiygina hisobotlarni topshirish muddatlaridagi kechikish yoki ba'zi tushunmovchiliklar yuzaga kelgan vaziyatlarda tadbirkorlarning banklardagi hisob raqamlarini vaqtincha yopib qo'yish holatlari kuzatilar edi. Endilikda bu tartibdan voz kechilib, tadbirkorga zarur maslahat va ko'mak berish, qo'llab-quvvatlash maqsadida shaffof tizim yaratildi.

Prezidentimizning 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan tadbirkorlik sub'ektlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olib, davlat soliq xizmati organlarining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kun muddatda ichida moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to'lasa, tadbirkorlik subyektlari mazkur huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan jinoiy va ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi. Shuningdek, mazkur qaror bilan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor unga nisbatan qo'llanilgan moliyaviy jarimalar to'g'risidagi qarorni olgan kundan boshlab, qo'llanilgan moliyaviy jarimalar miqdorining 50 foizini o'n kun davomida ixtiyoriy ravishda to'laganda, uni jarima summasining qolgan qismini to'lashdan ozod etish bo'yicha moliyaviy jarimalarni undirishning soddalashtirilgan tartibini joriy etildi.

6.6. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va unda belgilangan dolzarb vazifalar

Oltinchi masala bayoni. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 28-maydagi "O'zbekiston Respub-

likasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy islohotlarga katta g'ov hisoblanmish korrupsiyaga yana bir bora qattiq zarba beradigan hujjat bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, 2016-yilning oktyabr oyida davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi saylovoldi ma'ruzasida mahalliychilik va urug'-aymoqchilik kabi illatlar barobarida O'zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug'dirayotgan tahdidlar orasida aynan davlat hokimiyatini obro'sizlantirib, iqtisodiyotning o'sishi va tadbirkorlik rivojiga jiddiy to'siq bo'lib kelayotgan korrupsiya masalasiga barchamizning e'tiborini qaratdi. Aynan shu davrdan boshlab mamlakatimizda bu salbiy illat bilan murosasiz kurash olib borish borasida barqaror qadamlar qo'yildi. Darhaqiqat, ko'p vaqt o'tmay, ya'ni 2016-yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qasbul qilindi. Mazkur qonun hujjatining samaradorligini ta'minlash maqsadida 2017-yil 2-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham qabul qilindi. Kuni kecha e'lon qilingan Farmon ana shu tizimli ishlarning mantiqiy davomi bo'lib, unda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yaratilgan mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ushbu illatni batamom bartaraf etish choralari ochib berilgan. Eng muhimi, ushbu Farmonning aynan "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish-yili" Davlat dasturi doirasida e'lon qilinishi diqqatga sazovordir. Aynan shuning uchun ham mazkur hujjatda iqtisodiyotni yanada ravnaq toptirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish

bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini ta'minlash alohida ko'rsatib o'tilgan.

Farmonning asl mazmun-mohiyati shundan iboratki, korrupsiyaga qarshi kurashish bu nafaqat davlatning vazifasi, balki jamiyat ham davlat bilan hamkorlikda bu salbiy illatga barham berishda faol ishtirok etishi lozim. Shuning uchun ham hujjatda aynan siyosiy partiyalarning bu boradagi rolini yanada kuchaytirish alohida ko'rsatib o'tilgan. Darhaqiqat, partiyamizning saylovoldi dasturida ham aynan korrupsiya va uning har qanday ko'rinishi bilan murosasiz kurash olib borish asosiy o'rinni egallagan. Chunki, mazkur salbiy illatga barham berilmas ekan, iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakatda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, chet el investisiyalarini mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish hamda davlatimizda o'rta sinfni shakllantirish nihoyatda og'ir kechadi. Korrupsiyaning yana bir salbiy tomoni shundaki, u mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijiga, reytingiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida mamlakatning investisiya jozibadorligiga putur etishi mumkin.

Shuning uchun ham partiyamiz va uning Qonunchilik palatasi-dagi fraksiyasi mazkur Farmondan kelib chiqadigan vazifalarning ijrosini ta'minlash hamda bu borada tegishli nazoratni amalga oshirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishni maqsad qilgan. Xususan, o'z elektorat manfaatini himoya qilgan holda, davlat organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ishlab chiqiladigan tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish, "Davlat xaridlari to'g'risida" hamda "Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida tegishli davlat organlari tomonidan mazkur qonun hujjatlarini bajarish borasida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni monitoringini o'tkazish, lozim bo'lsa, parlament eshituvi darajasida mazkur masalalarini o'rganishni ko'zda tutmoqda. Shuningdek, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun doirasida mamlakat hududlarida tadbirkorlik sub'ektlarining manfaatlarini himoya qilish borasida o'z faoliyatini yuritib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar vakillarini jalb etgan holda, davlat organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida

amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etishga ko'maklashishni ko'zlamoqda. Farmonga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish tashkil etiladigan komissiyalar tarkibiga tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qilish borasida o'z faoliyatini yuritib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar vakillarini kiritish choralari ko'rish, har chorakda tadbirkorlik subyektlaridan kelib tushadigan va korrupsiya holatlari bilan bog'liq murojaatlar tahlilini o'tkazib, tegishli choralari ko'rish ham maqsadga muvofiq deb hisobaymiz.

Bundan tashqari, "Men korrupsiyaga qarshiman" shiori ostida endi faoliyatini boshlagan yosh tadbirkorlar ishtirokida seminarlar, davr suhbatlari va boshqa ommaviy tadbirlarni o'tkazish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Umuman, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashda natija beradigan har qanday chorani ko'rish, eng muhimi, parlament nazoratining ta'sirchan usullaridan foydalanish davlatimiz uchun ham, jamiyatimiz uchun ham birdek naf keltiradi.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyili va ularning maqsadi haqida gapiring.
2. 2015-yil "detsil koeffitsiyenti" necha foizni tashkil etgan?
3. Bank-moliya sohasidagi islohotlar va ularning mazmun-mohiyati.
4. Kaysi qonun doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi?
5. Keyingi o'n ikki-yilda respublikamiz yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi o'rtacha-yiliga necha foizga o'sdi?
6. Qachon O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi?

Test savollari

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai" asari qachon nashr etilgan?

- A) 1998-yilda
- B) 1997-yilda
- V) 1999-yilda
- G) 2000-yilda

2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" kitobi qachon nashr etilgan?

- A) 1992-yilda
- B) 1993-yilda
- V) 1994-yilda
- G) 1995-yilda

3. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" asari qachon nashr etilgan?

- A) 1996-yil
- B) 1997-yil
- V) 1998-yil
- G) 1999-yil

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga O'zbekiston hududida saylovgacha kamida necha-yil yashagan kishi saylanishi mumkin?

- A) 5-yil
- B) 8-yil
- V) 10-yil
- G) 15-yil

5. "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li"ga o'tishda qanday omillar asos qilib olindi?

- A) Iqtisodning siyosatdan ustuvorligi va kuchli ijtimoiy himoya
- B) Qonunning ustuvorligi va davlatning bosh islohotchiligi
- V) Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish
- G) Xalqaro tajriba va xo'jalik imkoniyatlari *

6. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar nechta yo'nalishda olib boriladi?

- A) 4
- B) 5
- V) 6
- G) 7

7. Qaysi qo'mita 1994-yildan Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga aylantirilgan?

- A) Mulk qo'mitasi
- B) Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish qo'mitasi
- V) Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish davlat qo'mitasi
- G) Davlat mulkini asrash va uni hisobga olish qo'mitasi

8. Bugungi kunda O'zbekiston ...?

- A) Agrar industrial davlat
- B) Industrial agrar davlat
- V) To'la agrar davlat
- G) To'la industrial davlat

9. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekistonda qanday kreditlar uchun sharoitlar yaratish kerakligi ta'kidlangan edi?

- A) Kam foizli
- B) Spekulyativ
- V) Uzoq muddatli
- G) Kreditlarni olmaslik ta'kidlangan

10. O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'm qachon muomalaga kiritildi?

- A) 1993-yil 21-mart
- B) 1993-yil 18-noyabr
- V) 1994-yil 1-oktyabr
- G) 1994-yil 1-iyul

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2019.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: “O'zbekiston”, 1992.
3. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 1993.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston”, 1997.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
6. Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. –T.: “O'zbekiston”, 2002.
7. Mirzyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. . –T.: “O'zbekiston”, 2017.
8. Mirzyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: “O'zbekiston”, 2017.
9. Usmonov Q., Sharipov Sh. va boshqalar. O'zbekiston – siyosiy va huquqiy islohatlar sari. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
10. Karimov Sh., Tursunov I., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. –T.: “Sharq”, 1997.
11. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. –T.: G'afur G'ulom, 2017.
12. Hasanov R, Utamuradov, Qirg'izboyev M, Inoyatov Q. Fuqarolik jamiyati: ma'ruzalar kursi . – T.: “Navro'z”, 2018 , 332 bet.
13. Hasanov R, Utamuradov, Qirg'izboyev. Fuqarolik jamiyati. //O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiyalar Markazi“, 2019. 400 bet.

7-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOYIY O‘ZGARISHLAR

7.1. Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat.

7.2. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ijtimoiy himoya.

7.3. Hozirgi bosqichda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va uning o‘ziga xosligi.

Tayanch tushunchalar: 1989-1991-yy. Farg‘ona, Bo‘ka, Parkent, ijtimoiy keskinlik ,1989-yil 21 oktyabr, 1989-y. 17-avgust, Ijtimoiy infratuzilma “Bandlik” davlat dastur, 1991-yil 16-noyabr, 1993-yil 12-noyabr, 1993-yil 22-noyabr, 1994-yil 23-avgust. Farmon va Qarorlar, birinchi bosqich, ikkinchi bosqich, uchinchi bosqich, ijtimoiy siyosat, maoshlarni indeksasiyalash, ijtimoiy himoya.

7.1. Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat

Birinchi masala bayoni. XX asrda 70-yildan ko‘proq vaqt hukmron bo‘lgan, dunyo xaritasida “Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi” degan nom bilan katta hududni egallagan, soxta kommunistik mafkuraga, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan yirik mamlakatdagi to‘g‘ri bo‘lmagan, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 1980-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O‘zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og‘irlashtirib, uni ko‘plab muammolar iskanjasiga solib qo‘ydi (*1-shaklga qarang*).



1-shakl

Bu muammolarning barchasi 1980-yillarning oxiri, 1990-yillarning boshlarida O'zbekistonda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Xususan:

- respublikada demografik vaziyatning murakkablashdi. Statistik ma'lumotlar tahlili aholi ro'yxatga olingan davr oralig'ida, ya'ni 1979-1989-yillar davomida respublikada jami aholi soni 15379,4 ming kishidan 19810,0 ming kishiga yoki 28,8 foizga ko'payganini ko'rsatadi. Bu davrda aholining o'rtacha-yillik o'sish sur'ati 2,8 foizni tashkil qilgan. 1991-yilga kelib mamlakatda aholi soni 20,7 million kishidan ortib, 1990-yilga nisbatan 386,0 ming kishiga o'sgan. Bu esa O'zbekistonda aholining o'sish sur'atlari Ittifoq sur'atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, aholining bunday o'sishi uzoq-yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining og'irlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi;

- respublika iqtisodiyotining biryoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xom ashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo, xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi. Qishloq xo'jaligi xom ashyosining talaygina hajmi (paxta tolasi, xom ipak va boshqa ko'pgina xom ashyo mahsulotlari) respublikadan olib ketilgan bir vaqtda aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 milliard so'mlikka yaqin tayyor mahsulot chetdan olib kelingan. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi elektronika, asbobsozlik, radiotexnika, murakkab ro'zg'or texnikasi ishlab chiqarish kabi va boshqa ko'pgina ilg'or tarmoqlar qoniqarli rivojlantirilmagan. Aksincha, respublikada suv ko'p sarflanadigan va zararli ishlab chiqarishlar asossiz ravishda rivojlantirildi;

- ishlab chiqaruvchi kuchlar va avvalo, sanoat obyektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog'i, buyruqbozlik bilan qabul qilingan

qarorlar asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarning tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylash-tirilgan. Bu esa respublika iqtisodiyoti hamda aholi punktlarining ekologiyasiga salbiy ta'sir o'tkazib, aholining hayot ta'minotiga, odamlarning yashashi va uyg'un kamol topishi uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini bermagan;

- respublikadagi ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suv bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat obyektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar O'zbekiston aholisi daromadlari va turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi.

Bu davrda respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi, o'z navbatida, aholining turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatib, yashash sharoitlarining og'irlashuviga sabab bo'ldi. O'sha davrda kun kechirish uchun oyiga o'rta hisobda kamida 85 so'm zarur bo'lgani holda, 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi Ittifoq bo'yicha 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, O'zbekistonda bu

ko'rsatgich 45 foizga etgan, ya'ni 8 million 800 ming kishini tashkil etgan.

Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolda bo'lib, maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan. Bu esa o'sha davrda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmaganini ko'rsatadi.

Markazning respublikada paxtachilikni rivojlantirish siyosati oqibatida mineral o'g'itlar va pestisidlardan keng foydalanishga olib keldi va u-yildan-yilga ortib bordi. Jumladan, respublikada 1951-yilda 0,9 mln. tonna mineral o'g'it ishlatilgan bo'lsa, 1980-yilda uning miqdori 5 mln. tonnadan oshib ketdi. G'oz barglarini to'kish va zararkurandalarga qarshi kurashda zaharli ximikatlar (butifos, merkaptafos va boshq.) dan foydalanildi. Dunyo bo'yicha pestisidlar har bir kishiga 300 gr. dan, AQSh da 800 gr. dan to'g'ri kelgan bo'lsa, 1989-yil respublikaning paxta ekiladigan hududlarida har bir kishiga 25-45 kg. dan to'g'ri keldi. O'ta zaharli bu ximikatlar respublikaning aholisi sog'ligiga jiddiy zarar etkazdi.

Qishloq xo'jaligining ekstensiv yo'ldan rivojlantirilishi, totalitar rejimning sug'orish texnologiyasiga qo'pol aralashuvi og'ir ekologik oqibatga olib keldi. Suv zaxirasini o'ylamay yangi erlarning o'zlashtirilishi dunyodagi eng katta ko'llardan biri – Orol dengizining qurishiga olib keldi. Orol dengizining qurishi 1960-70-yillarda-yiliga 18 sm, 1971-1980-yillarda 53 sm, 1981-1985-yillarda 78 sm, 1985-yilga kelib esa 87 sm. ga etdi. 1961-yildan 1991-yilgacha dengiz hajmi 3 baravar qisqardi, dengiz o'z qirg'og'ida 75-80, ba'zi joylarda 100 km ga chekindi. 1980-yillarning boshida Orol dengiziga suv kelishi deyarli butunlay to'xtab, nodir suv makoni quriy boshladi. Natijada tuz va qumdan iborat 2 mln. gektar maydon ochilib qoldi.

Hukmron partiya va sovet davlatining respublikada shakllangan demografik vaziyatni hisobga olmagan natijasida respublikada bandlik muammosi dolzarblashdi. Ma'lumki, sho'rolar davrida ishsizlik faqat kapitalizmga xos illat sifatida qarab kelindi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari e'tiborga

olinmay, respublikamizga xos demografik jarayonlar chuqurroq tahlil qilinmadi. Natijada 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab mazkur muammo ko'zga tashlana boshladi. Bir tomondan mehnat resurslari sonining o'sishi tezlashdi, ikkinchi tomondan, yangi ish joylari tashkil qilish deyarli to'xtab qoldi.³⁹ Binobarin, respublikada mehnatga layoqatli bo'lgan 1.680 ming kishi xalq xo'jaligiga jalb qilinmadi. Ulardan 780 ming mehnatga layoqatli bo'lgan aholi ortiqcha ishchi kuchi sifatida ishlab chiqarishdan chetda qoldi.⁴⁰ Ayniqsa, aholi o'ta zich joylashgan Farg'ona vodiysida ishsizlik masalasi yanada o'tkir muammoga aylandi. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, faqatgina Farg'ona vodiysining o'zidagina 1,5 mln. kishi normal ish bilan ta'minlanmagan edi.⁴¹ Mana shunday qiyin sharoitda markaz respublikadagi ijtimoiy-demografik holatni hisobga olmagan holda va uni markazga qaramligini yanada mustahkamlash maqsadida, tashqaridan (asosan RSFSRdan) 125 mingga yaqin ishchi va mutaxassislar O'zbekistonga olib kelindi.⁴²

Umuman olganda, ta'kidlash zarurki, ayrim respublikalar va avtonom tuzilmalarning ham, ayrim muammoli mintaqalarning (jumladan, Farg'ona vodiysining) ham ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish ehtiyojlarini etarlicha hisobga olmaslik ijtimoiy norozilik darajasining oshishiga, ba'zan mojarolar xususiyatiga ega bo'lishiga olib keldi. 1989-yilda Farg'ona viloyatida, 1990-yilda Bo'ka, Parkent, Andijonda bo'lgan voqealar ana shundan dalolat beradi.

1989-yil iyun oyi oxirida respublika rahbariyatiga Islom Karimov kelishi bilan yuzaga chiqqan tizim tanazzuli va ijtimoiy hayotdagi chuqur inqiroz bilan bog'liq destruktiv muammolar va ziddiyatlarni hal qilish uchun amaliy choralar ko'rildi. Respublikaning yangi rahbariyati nafaqat voqealarning borishini o'zgartira oldi (masalan, Farg'ona viloyatidagi millatlararo mojarolar keng yoyilishining oldi olindi), balki diniy-ekstremistik tashkilotlar faollashuvidan kelayotgan tahdidlarni ham bartaraf etdi.

³⁹Sodiqov A. Mehnat bozori: muammo va yechimlar // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. - 1999. - №8. - B.8.

⁴⁰Qarant: Рабич. Р.Г. Научная конференция на тему «Вопросы социального развития Узбекистана в процессе перестройки» // Общественные науки в Узбекистане. 1989. - №1. - С.52.

⁴¹Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. - T: «Sharq», 1999. - B.108.

⁴²O'sha joyda. - B.106.

Respublikada shakllangan vaziyat iqtisodiy tanazzulning oldini olish, ijtimoiy sohadagi ziddiyatlarni yumshatish va eng asosiysi – ijtimoiy mojarolarni bartaraf etish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rishni talab qilardi. Bevosita Islom Karimov rahbarligida respublikada tartibsizliklarning oldini olish, huquqiy tartibotni saqlab qolish hamda aholining eng asosiy va hal etilishini kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlarini ta‘minlashga qaratilgan preventiv choralar ko‘rildi. Islom Karimov tashabbusi bilan 1989-yil 17-avgustda “Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa er bilan ta‘minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida”⁴³ qaror qabul qilindi. Shu-yilning o‘zidayoq aholiga 350 ming gektar yer berish masalasi hal qilindi.

Ushbu inqirozli-yillarda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni tovar xo‘jaligining mustaqil elementi sifatida qonunlashtirish va ularda ishlovchilarni esa ijtimoiy foydali mehnat bilan band kishilar deb e‘tirof etish, shubhasiz, aholining tovarlar va oziq-ovqatga bo‘lgan asosiy ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida respublikada iqtisodiy bazani rivojlantirish yo‘lida tashlangan eng muhim qadamlardan bo‘ldi. Ma‘lumki, “sovetlar mamlakati” mavjud bo‘lgan turli davrlarda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar jamoat xo‘jaligiga qo‘shimcha hisoblangan, ammo har doim uning tugatib bo‘lmas xususiy mulkchilik xarakteri tufayli ma‘muriy jihatdan cheklab kelingan. Ayrim tadqiqotchilar uni “o‘lib borayotgan”, “o‘tish davri” shakli ekanligini isbotlashga harakat qilganlar. Amalda esa shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar nafaqat “qo‘shimcha” edi, balki sovet davri jamiyatining iste‘mol savatini to‘ldirishda salmoqli hissa qo‘shardi.

Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, O‘zbekiston 1980-yillar oxirida ushbu xo‘jaliklar ekin maydonlarining 3% ni egallagani holda, yalpi mahsulotning 25% gacha va qishloq xo‘jaligida yaratilgan milliy daromadning 33% gacha, go‘shning 50% ni, sutning 64% ni, sabzavotlarning 44% ni ishlab chiqargan va h.k.⁴⁴ O‘tish davrining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqealari davrida bu xo‘jaliklar respublika oziq-ovqat bazasini to‘ldirishning etakchi

⁴³Sovet O‘zbekistoni, 1989 yil, 18-avgust.

⁴⁴Правда Востока. 1988. 19 ноябр.

manbalaridan biriga aylandi, bu esa, o'z navbatida, ularning keskin ijtimoiy muammolarini hal qilishdagi rolini oshirardi.

Buni inobatga olgan respublika rahbariyati keyingi-yillarda ham shaxsiy yordamchi xo'jaliklardagi yer maydonlarini kengaytirish siyosatini yuritdi. Natijada 1992-yilga kelib 2,5 mln. ta oila yo ilk bor er maydoni oldi, yo o'z maydonlarini kengaytirish imkoniga ega bo'ldi, ularning umumiy maydoni esa 550 ming gektardan oshib ketdi, tomorqaning o'rtacha maydoni esa 20 sotixdan oshdi⁴⁵. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda band bo'lgan aholi soni 1,3 mln. kishiga etdi, uning xalq xo'jaligiga jalb etilgan mehnat resurslari tarkibidagi ulushi esa 14,2% ga etdi⁴⁶. Umuman mustaqillik arafasi va uning dastlabki-yillarida uy-joy qurish va dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun 2,5 million oilaga 700 ming gektar sug'oriladigan yer tomorqa uchun ajratib berildi. Bu eng og'ir o'tish davrida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ayniqsa, qishloq aholisi turmush darajasi tushib ketishining oldini olish imkonini berdi.

Prezident farmonlari, qonunlar hamda Oliy Kengash va respublika hukumatining qarorlari shaklidagi chora-tadbirlar majmui 1980–90-yillar chegarasida eng muhim xalq xo'jaligi masalalarini mustaqil ravishda hal qilish, ijtimoiy barqarorlikni, siyosiy suverenitetni, iqtisodiy mustaqillikni va milliy tiklanishni ta'minlashga qaratildi. Respublikada o'sib borayotgan ishsizlikni to'xtatishga qaratilgan "Bandlik" davlat dasturining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi ushbu jarayonlarning aniq ifodasi bo'ldi. 1989-yil iyul oyida Prezidentning qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risidagi farmoni chiqdi.

Shunday qilib, XX asrning 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlarida Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlili bu erdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat – tarixiy meros, iqtisodiy-demografik jarayonlarning ikki yoqlama (dual)ligi, ishlab chiqarishning agrar sohaga ixtisoslashuvi, qishloq aholisining ko'pchilikni tashkil etishi bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatdi. Asosiy

⁴⁵ Каримов И. А. Узбекистан: Свой путь обновления и прогресса. Т., 1992. С. 50.

⁴⁶ Правовое государство – независимость, нация, экономика, идеология, политика / Под ред. С. Жураева. Т.Т.Т., 1994. С. 80.

muammo borgan sari oshib borayotgan ijtimoiy-demografik omilning ijtimoiy infratuzilmaning notekis rivojlanishi bilan nomuvofiqligida edi. Ittifoq rahbariyatining milliy siyosati mintaqa aholisining o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga qo'shilib, ijtimoiy-siyosiy va millatlararo vaziyatning izdan chiqishiga olib keldi.

Ana shunday natijalar bilan respublikamiz 1990-yillarga etib keldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki-yillarida sovet mustabid tuzumidan qolgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tanglik o'z aks-sadosini bera boshladi. Bu ayniqsa o'tish davriga kelib, yangi yosh davlatimiz kelajagi va taraqqiyotiga xavf soluvchi omilga aylanishi, mamlakatdagi milliy xavfsizlik va barqarorlik masalalariga, fuqarolarning tinch osoyishta kun kechirishiga tahdid solishi tabiiy edi.

Jahon amaliyoti shunday dalolat beradiki, har bir jamiyat o'z tarixiy taraqqiyoti davomida sifat jihatidan yangi holatga o'tishida bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Eskilik va yangilik o'rtasida murosasiz kurash, oldingi tizim sarqitlarining boshlab yuborilgan islohotlarga to'g'anoq bo'lishi, o'tish davrining, ayniqsa, dastlabki-yillarida sobiq tizim davridan meros bo'lib qolgan va yangi voqeliklar ta'sirida vujudga kelgan muammolarning ziddiyatli tus olishi, va oxir-oqibatda ziddiyatlar to'planib barqarorlikning izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Bularning barchasi salbiy jihatlari bilan aholi yelkasiga tushadi, ayniqsa, aholining muhtoj tabaqalarini mushkul ahvolga solib qo'yadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchayishiga sabab bo'ladi.

SSSR parchalanib, uning hududida paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatlar bosib o'tgan qisqa davr tarixiy jarayonlarining tahlili yuqorida qayd etilgan fikrlarni tasdiqlamoqda. Chunonchi, bir qator mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan yangi davlatlar bozor munosabatlariga o'tish jarayonini uzoq, davomli jarayon sifatida tan olmadilar, yangi jamiyatni qisqa muddat ichida barpo qilish yo'lidan borib, ko'pol xatolarga yo'l qo'ydilar.

7.2. Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy himoya

Ikkinchi masala bayoni. Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov shularni e'tiborga olib, «milliy davlatchilikni shakllantirish demokratik islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazish hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor berish zarur»⁴⁷, deb ta'kidlagan edi.

Shu sababli, jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan, tarixiy taraqqiyotimizdan olingan jamiyki foydali tajribalarni rad etmagan holda O'zbekiston bozor iqtisodiyotini qurishda o'ziga xos yo'ldan borib, ijtimoiy sohaga kuchli e'tibor qaratdi. O'zbekistonning o'z yangilanish va tarakqiyot yo'liga asos qilib olingan etakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich - 1991-1994-yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, unda sobiq tuzumdan meros bo'lgan ijtimoiy tizim bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirilib, dastlabki-yillardagi ijtimoiy sohadagi muammo va qiyinchiliklarni yumshatishga, ularni hal etishga qodir bo'lgan mutlaqo yangi ijtimoiy tizimga asos solindi. Iqtisodiy islohotlar chuqurlashgani sari ijtimoiy tizim ham takomillashib bordi hamda aholini ijtimoiy himoyalashga qara-tilgan xarajatlar va o'z muddatini o'tab bo'lgan ijtimoiy himoya choralari muvofiqlashtirilib yoki bartaraf qilib borildi.

Bundan asosiy maqsad, narxlarni erkinlashtirish sharoitida aholi daromadlari va birinchi navbatda eng kerakli iste'mol mahsulotlarini iste'mol qilishning pasayib ketishining oldini olish edi.

Ikkinchi bosqich - 1995-yildan boshlandi. Bunda ommaviy ijtimoiy himoya tizimidan butunlay o'zgacha, maqsadli va adresli xarakterga ega bo'lgan himoya tizimiga o'tish amalga oshirila bordi. Bu davrda iqtisodiy o'sish boshlanishi bilan aholining yangi erkin bozor iqtisodiyotiga ko'nikma hosil qilishi va unda bevosita ishtirok etishi kuzatildi. Shuning uchun aholining yashash darajasi, uning

⁴⁷Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997. B.211.

uchun shart-sharoitlar yaratilishi va barqarorlashishi bu davrning o'ziga xos xususiyatlariga aylanib bordi.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki davridan respublika hukumati va Prezidenti tomonidan bir qator huquqiy xujjatlar qabul qilindi. Mustaqillikning dastlabki-yillarida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, davlat pensiya ta'minoti, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash haqida va boshqa shu kabi respublika Qonunlari, hukumat qarorlari va Prezident Farmonlari qabul qilindi. Masalan, Respublika Prezidentining aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalarni oshirish to'g'risida, ko'p farzandli oilalarga moddiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi bir qator Farmonlari qabul qilindi.

1992-1996-yillar mobaynida faqatgina ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni oshirishga qaratilgan 10 dan ortiq Prezident Farmonlari va 5 ta respublika hukumati qarori qabul qilindi⁴⁸. Masalan, 1992-1994-yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi, ularning miqdorlari bu davrda tegishli ravishda 428 baravar va 1230 baravar ko'paytirildi⁴⁹. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 26-dekabrda «1993-yil 1 yanvardan boshlab mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini joriy etish to'g'risida»gi⁵⁰ qarorining joriy etilishi hamda davlat tomonidan belgilangan ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdoridan soliq olinmasligining joriy qilinishi aholini ijtimoiy himoyalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Umuman, qabul qilingan bu qonuniy hujjatlar o'tish davrining eng og'ir sanalgan dastlabki-yillarida Respublika Prezidenti va hukumati kuchli ijtimoiy siyosat yurgizganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Respublika Prezidentining 1991-yil 29-dekabrda «Erkin narx belgilash munosabati bilan aholini ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlar to'g'risida»gi Farmonining⁵¹ qabul qilinishi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida narx-navoning erkinlashtirilishi

⁴⁸ Акрамов Е. А., Таиров А. Е. Экономические реформы Республики Узбекистан. - М.: ТОО «Люксерт», 1998. -С.61.

⁴⁹ Karimov I.A. Vatan sajdagohi kabi muqaddasdir. T.Z. T., 1996. B.262.

⁵⁰ O'zR Vazirlar Mahkamasining qarorlari 1992 yil dekabr. T., 1992. B. 49-52.

⁵¹ O'zR Oliy Kengashining axborotnomasi. T., 1992. №2. B.89-90.

munosabati bilan aholini ijtimoiy himoya qilish, uni eng kerakli mahsulotlar bilan ta'minlash va ana shu eng zarur ehtiyoj mollari narxlarini davlat tomonidan belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, 1992-1994-yillarda non va un mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, kir sovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun davlat dotasiyalari qisman saqlab turildi.

Shu narsa e'tiborga loyiqki, respublika xalq xo'jaligi asosan xom ashyo etishtirishga mo'ljallanganligi va aksariyat mahsulotlar chetdan keltirilishiga qaramasdan aholiga ana shu iste'mol mollari arzon narxda sotildi. Masalan, 1992-yilda respublikamizda ishlab chiqarilgan 100 ming t., chetdan keltirilgan 350 ming t. go'shtning har bir kilosi aholiga 400 so'mdan sotildi. Vaholanki, uning haqiqiy xarid narxi 750 so'mni tashkil etgan edi. Bundan tashqari olib kelingan shakarning har bir kilosi 315 so'mdan tushgani holda, 200 so'mga sotildi. Bug'doyning har bir kilosi 105 so'm bo'lgani holda 1 kg un 30 so'mga sotildi. 1 kg choy 650 so'mga olinib, aholiga 250 so'mga sotildi⁵². O'rtadagi tafovut davlat tomonidan qoplanib borildi va bu aholiga ijtimoiy jihatdan katta yordam bo'ldi.

Ayni vaqtda qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlarning butun bir majmui: boshlang'ich sinflar o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, ikki yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, barcha maktab o'quvchilari va studentlar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar amal qilib turdi. Ko'pgina toifadagi fuqarolarga turar-joyi shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to'lashda engilliklar joriy etildi va hokazo.

Ammo, O'zbekiston Respublikasi bu davrda o'z valyutasiga ega emasligi, muomalada esa 1961-1992-yillarda chiqarilgan rublning bo'lganligi, ayrim oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga o'zining tannarxiga qaraganda arzon narx belgilanganligi uchun ularni respublikadan tashqariga olib chiqib ketish avj ola boshladi va mamlakatimizda aholini asosiy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi.

⁵² Рахматуллаев Ш.М. Социально-экономические преобразования в городах Ферганской долины в условиях независимости. (1991 -1996 гг.) Автореф. дисс...канд.ист.наук. Т., 2000. С.23.

Shuning uchun bunday kamchiliklarga barham berish maqsadida 1991-yil 16-noyabrda «Respublikaning davlat ta'minotidagi aholini turmush darajasiga madad berish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident Farmoni⁵³, shuningdek, 1993-yil 12-noyabrda «O'zbekiston Respublikasi hududida baravar to'lov vositasi sifatida «so'm-kuponlar»ni muomalaga kiritish to'g'risida»⁵⁴, 1993-yil 22-noyabrda «Respublika iste'mol bozorini himoya qilish va pul muomalasini mustahkamlash borasidagi qo'shimcha choralar to'g'risida»⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Bundan tashqari, iste'mol molarini sotib olish uchun mo'ljallangan «bir martalik va ko'p martalik» kuponlarning muomalaga kiritilishi ichki bozorni himoya qilib, barcha zarur oziq-ovqat mahsulotlari va kundalik xarid mollarini savdo tarmog'iga chiqarib turishni ta'minladi va ularni iste'mol qilish hajmlarini kamaytirmaslik imkonini berdi.

Umuman olganda, ijtimoiy sohada o'tkazilgan islohotlarning dastlabki bosqichi o'zini oqladi, ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat o'z oldiga qo'yilgan barcha vazifalarni to'la-to'kis bajardi. «Shu bilan birga ijtimoiy himoyalashning mavjud tizimi (ya'ni birinchi bosqich) chuqur tahlil etilganda uning kamchiliklari, isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilganligi va ijtimoiy samarasi yetarli emasligi ayon bo'lib qoldi»⁵⁶. Chunki turli hil dotasiyalar, nafaqalar va imtiyozlardan aholining muhtoj qismi bilan birga, o'ziga to'q fuqarolar ham bab-baravar foydalanar edi.

Bundan tashqari, respublika byudjetidan aholini ijtimoiy himoyalashga sarflanayotgan mablag'lardan joylarda to'g'ri foydalana bilmasligi natijasida nafaqalar va imtiyozlar hamda me'yorlashtirilgan iste'mol mahsulotlari doimo o'z egasini topmadi. Eng muhimi yana shundaki, «Butun aholini qamrab olishga urinadigan, haqiqiy ijtimoiy samarasi past, tekischilik usulidagi taqsimlash vositasiga ega bo'lgan juda beso'naqay tizim»⁵⁷ning vujudga kelishi aholining ko'pchilik

⁵³ O'zR Oliy Kengashining axborotnomasi. T., 1991. №1. B.13.

⁵⁴ O'zR Vazirlar Mahkamasining qarorlari. 1993 yil noyabr. T., 1993. B.24-27.

⁵⁵ O'sha joyda: B.48-49.

⁵⁶ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., 1996. B.266.

⁵⁷ O'sha joyda: B.267.

qismi ongiga singib ketgan boqimandalik kayfiyatini butunlay o'zgartirish g'oyasiga ham zid edi. Ammo shunga qaramay, kuchli ijtimoiy siyosatning dastlabki bosqichining shu yo'nalishda borishi davr taqazosi edi, bundan o'zga chora ham yo'q edi.

Dastlabki bosqichning kamchiliklariga islohotlarning ikkinchi bosqichida barham berildi. Chunki, milliy valyutamizni kiritilishi natijasida 1995-yildan boshlab oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechildi va erkin narxlarga o'tildi. Bunda islohotlarning birinchi bosqichida to'plangan tajriba va keyingi bosqichga o'tish uchun shart-sharoit yaratilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Ijtimoiy sohada islohotlarning ikkinchi bosqichi O'zR Prezidentining 1994-yil 23-avgustda qabul qilgan «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni⁵⁸ bilan boshlandi. Farmonga asosan 1994-yil 1-oktyabridan aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi - kam ta'minlangan oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam turi joriy etildi.

Uning yangiligi yana shundaki, kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan beriladigan moddiy yordam, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hisoblangan mahalla qo'mitalari orqali amalga oshirish ko'zda tutildi. Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga moddiy yordam tayinlash mahalla yig'inlariga yuklatildi. Bu vazifa ijtimoiy adolat va insonparvarlik qoidalari asosida olib borilishiga asos bo'ldi. Beriladigan moddiy yordamning hajmi eng kam ish haqining bir yarimdan - uch baravarigacha miqdorda qilib belgilandi.

Shuningdek, O'zR Prezidentining 1995-yil 20-noyabrda «Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni aholining zaif qatlamiga moddiy yordam ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Farmonda 1996-yilning 1-yanvaridan boshlab 16 yoshgacha bolalari bo'lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko'paytirilib, bu nafaqalar bolalarning soniga qarab quyidagi miqdorda belgilandi: bir bolali oilalarga - eng kam ish haqining 30%; ikki bolali oilalarga - eng kam ish haqining 60%; uch

⁵⁸ O'zR Oliy Kengashining axborotnomasi. T., 1994. №8-9. B.10-12.

bolali oilalarga - eng kam ish haqining 80%; to'rt bolali oilalarga - eng kam ish haqining 100%; besh va undan ko'proq bolali oilalarga - eng kam ish haqining 120%.

Bu Farmonning joriy qilinishi natijasida 1996-yili respublika-mizning 15% oilalari davlat tomonidan belgilangan moddiy yordam turidan foydalandi⁵⁹. Prezidentning ushbu Farmoni yurtimizda bolalar kelajagi, yosh oilalar barkamolligi haqida ko'rsatilayotgan izchil ijtimoiy siyosatning uzviy davomi bo'ldi.

Umuman, ushbu Farmonlarning yana bir muhim ahamiyati shundaki, ular o'z-o'zini boshqarish organlarining davlat tizimidagi mavqeini yanada mustahkamlab, jamiyatimizni demokratiyalash jarayonini jadallashtirdi va aholini ijtimoiy himoyalash uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadli, yanada samarali foydalanishga erishish imkoniyatini yaratdi. Davlat nafaqalarini aholining eng himoyalangan qatlamlariga maqsadli taqsimlashda mahalla tajribasining samaradorligini baholash maqsadida, Farg'ona viloyatida o'tkazilgan uy xo'jaliklarini tekshirish natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1995-yilda viloyatda eng kam daromadli 25% oilaning 12%i bolalar nafaqasini olgan bo'lsa, qiyos uchun 1999-yilda bu nafaqani ularning 40% oldi⁶⁰.

Yana shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, jahon davlatchilik amaliyoti, xususan, BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, AQSh, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Evropa mintaqa byurosi, MDH davlatlari elchixonalari O'zbekistonda qaror topayotgan mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning milliy, an'anaviy mahalla tizimiga, «Mahalla» jang'armasi faoliyatiga katta qiziqish bilan qaramoqda va bunday o'ziga xos usulning O'zbekiston sharoitida afzalliklarini tan olmoqda. Mahalla tizimi dunyoga tanilmoqda. Xususan, Respublika Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi TESIS dasturi asosida bo'lib o'tgan xalqaro seminarda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish va rivojlangan davlatlardagi jamiyat boshqaruvida uchinchi sektor deb atalishi nohukumat jamoat tashkilotlari bilan O'zbekistondagi mahalla boshqaruvi tizimi

⁵⁹ Акрамов Е.А., Таиров А.Е. Экономические реформы Республики Узбекистан. М., 1998. С.62.

⁶⁰ Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. O'zbekiston, 1999. B.29.

tajribalari muhokama qilindi. Xorijiy ekspert va mutaxassislar mahalla - davlat bilan xalqni bog'lab turuvchi asosiy vosita ekanligini tan olib, uning nomarkazlashtirishdagi o'rimga, aholini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan olib borayotgan ishlariga yuksak boho berdilar.

Berilgan ushbu yuqori baho shu bilan tasdiqlanadiki, «Mahalla» jamg'armasi har-yili AQShda o'tadigan «Sog'lom jamiyat» mavzusidagi forumning MDH davlatlari ichida hozirda yagona a'zosi bo'ldi.

Hozirgi kunga kelib respublikada ushbu jamg'armaning bo'lim va bo'linmalari keng tarmog'i tashkil etilgan, joylarda, ya'ni respublikaning viloyat, shahar va tumanlarida 10133 ta o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 8392 tasi mahallalardir. Ushbu organlarning joylarda aholini maishiy turmush darajasini oshirishga va obodonlashtirishga doir tadbirlari va davlatning katta ko'magi natijasida respublika bo'yicha mahallalarning 78,5% toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan, 72,2% gazlashtirilgan, qariyb 80% mahallalarning ko'chalari asfaltlangan.

Faqatgina 1999-yilning o'zidayoq jamg'armaning bo'lim va bo'linmalari tomonidan ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga, huquqiy bilim va madaniyatni oshirishga qaratilgan va boshqa muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan 18 mingdan ortiq tadbirlar tadbirlar o'tkazildi. Bundan tashqari, 30 mingga yaqin oilalarga, shu jumladan, 11792 nogironlarga xayriya yordami ko'rsatildi.

Biroq «mahalla» mexanizmining amal qilish tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniqlandiki, bu tizim ba'zida sub'ektiv omillar ta'siriga tushib qolib, ijtimoiy yordam ko'rsatishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Masalan, 1996-yilda Moliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijasida respublika bo'yicha 26 mahallada 262 ming so'm mablag' boshqa maqsadlarga o'zlashtirilgani aniqlangan.

Shuningdek, 1998-yilda oilalarni tekshirish shu narsani ko'rsatdiki, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga nafaqa belgilash va to'lash tizimida quyidagi kamchiliklar eng ko'p uchradi: haqiqatan ham muhtoj oilalarga moddiy yordam ko'rsatishni asossiz rad etish va, aksincha, nafaqa olishga asosi bo'lmagan oilalarga

qarindoshlik belgisi, fuqarolar o'z-o'zini boshqarish yig'inlarida egallagan mansabi yoki boshqa sabablarga ko'ra nafaqa belgilash va to'lashda lavozimini suiiste'mol qilish (bu ko'rsatkich respublika bo'yicha 0,3-1,4% darajasida tebranadi); muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun ajratilgan mablag'larning ko'zda tutilmagan maqsadlarda (talabalar stipendiyasi, sug'urta to'lovlari, hatto jamoat binolarining qurilishiga) ishlatilishi va hokazolar⁶¹.

Keltirilgan misollar aholini ijtimoiy himoyalashning mavjud tizimi mexanizmini yanada mustahkamlash, avvalo, uning maqsadli yo'nalishini kuchaytirish zaruratidan dalolat beradi. Bundan tashqari, yosh avlodni tarbiyalashda, uning barkamol bo'lib voyaga etishida, voqea-hodisalarga ongli munosabatini rivojlantirishda ushbu tizimning joylardagi bo'limlaridan unumli foydalanilmayapti. Natijada yoshlar turi xil ekstremistik ruhiyatidagi oqimlar ta'sir doirasiga tushib qolmoqda.

Umuman olganda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga keng imkoniyatlarning ochilishi, ular zimmasiga mas'uliyatli vazifalarning yuklatilishi oqibatida mustaqillik-yillarida ushbu tizimning mustahkamlanishiga va respublikada demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatga o'tishni jadallashtirdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi uchun eng og'ir sanalgan mustaqillikning dastlabki-yillarida aholini o'tish davrida ijtimoiy himoyalashga qaratilgan huquqiy hujjatlar yetarlicha qabul qilinib, amalda tadbiq etilishi respublikada tub islohotlar davrini kuchli ijtimoiy silkinishlarisiz o'tishini ta'minladi.

Iqtisodiy islohotlar chuqurlashib, kengayib borgani sari iqtisodiyotda ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi va u albatta birinchi navbatda ijtimoiy sohada o'z aksini topdi. Davlatimizning iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlari mustahkamlanib, dadil oyoqqa turganidan so'ng Prezidentimiz tomonidan xalq faravonligini oshirishga qaratilgan yana bir muhim hujjat, ya'ni 1995-yil 20-dekabrda «Aholining omonatlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksasiya qilish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi⁶². Bu Farmon bilan aholining allaqachon yo'qotilgan jamg'armalarini indeksatsiya

⁶¹ Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. O'zbekiston, 1999. B.36.

⁶² Farg'ona haqiqati. 1996. 18 iyul.

qilib to'lashni davlat o'z gardaniga oldi. 1992-yil yanvariga qadar jamg'arma bankiga qo'yilgan millionlab fuqarolarning mablag'lari qayta ko'rib chiqildi va qadri 4000 martaga ko'paytirilib⁶³, shahar va tuman bank bo'limlari tomonidan aholiga berildi. Umuman olganda, respublika bo'yicha 5 milliondan ortiq omonatchilar o'z pullarini qaytarib olishdi. Demak, davlatimizning xalqchil siyosati amalda yana bir bor o'z ifodasini topdi va respublika hukumati tomonidan olib borilayotgan aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tizimi yanada mustahkamlandi.

Yuqorida qayd etilgan kuchli ijtimoiy tadbirlarning keng joriy etilishi va bosqima bosqich amalga oshirilishi tufayli O'zbekistonda favqulotda tengsizlik yuzaga kelishi va avj olishi omillariga barham berildi. Lekin iqtisodiy taraqqiyot darajasidan qat'i nazar, aksariyat aholining farovonligi ortib borishi bilan birga davlat yordamisiz, mustaqil ravishda o'zining moddiy ahvolini yaxshilay olmaydigan aholining bir qismi har doim mavjud bo'ladi. Shu bilan birga, respublika aholisi tarkibida tengsizlik darajasi qisqarib borishi kuzatilmoqda. Masalan, 1991-yilda ekspert baholariga ko'ra, aholining 75%i jon boshiga o'rta hisobda minimal iste'mol savati narxidan past daromadga ega edilar, 1994-yilda 20 ming oilani tekshirish davomida ularning 44,5% jon boshiga o'rta hisobda eng kam ish haqidan oz daromad olinganligi aniqlandi. 1996-yilda sotsiologik tadqiqotlar natijasida to'qchilik darajasi bo'yicha farqlanuvchi aholi toifalari aniqlandi, ularga ko'ra respublika aholisining juda muhtoj va muhtoj guruhlari hissasi 27,6%ni tashkil qildi⁶⁴.

Keng ijtimoiy tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalda tadbir etilishi natijasida O'zbekistonda aholining umr ko'rish darajasi uzaydi, va u 1990-yildagi 69,3 yoshdan 1998-yilga kelib 70,3 yoshga etdi⁶⁵. Sog'liqni saqlash tizimida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu tizimning mablag' bilan ta'minlanish darajasi chegaralanganligiga qaramay, O'zbekistonda 1990-yil bilan 1998-yil orali-gida bolalar o'limi 40%ga, onalarning qariyb 3,5 barobar kamaydi⁶⁶.

⁶³ Akramov E.A., Tairov A.E. Ko'rsatib o'tilgan asar. B.68.

⁶⁴ Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. O'zbekiston, 1999. B.35.

⁶⁵ O'sha joyda. B.89.

⁶⁶ O'sha joyda. 1999. B.19-20.

Kuchli ijtimoiy siyosat g'oyasi asosida o'tkazilayotgan islohotlar tufayli erishilgan ijobiy tajribani mustahkamlash va aholini ijtimoiy ximoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash zarurati yuzaga kelganligi sababli, hamda mamlakatda mavjud makroiqtisodiy vaziyatga va iqtisodiyotning amaldagi yuksalishini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» deb nomlangan asarida ijtimoiy islohotlarning navbatdagi, uchinchi bosqichining asosiy vazifalari belgilab berdi. Xalq moddiy farovonligini oshirish va aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilandi: aholining xarid quvvatini oshirish; ichki bozorni O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to'lg'azish strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan bo'lsa, 2000-2005-yillar davrida minimal ish haqini 3,5 marotabaga oshirish; aholi jon boshiga o'rtacha daromadni 1,8 - 2 marotaba oshirish; inflyasiyani-yiliga 6-8% darajasigacha pasaytirish; sanoat ishlab chiqarishning umumiy hajmida iste'mol mollari hissasini 50% gacha oshirish yaqin-yillarning asosiy vazifalari qilib belgilandi.

Aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar quydagi yo'nalishlardan iborat: ijtimoiy yordamning maqsadli yo'nalishi, bunda asosiy e'tiborni yolg'iz pensionerlar, nogironlar va nogiron bolalarga qaratish; mehnat bozorini shakllantirish, ish joylarini yaratish bo'yicha faol siyosat yurg'izish; aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha Davlat dasturini bajarish (2005-yilga qadar qishloq aholisini ichimlik sui bilan ta'minlash 85%ga, tabiiy gaz bilan ta'minlash 82%ga etkazilishi kerak).

Shunday qilib, o'tgan qisqa, ammo amalga oshirilgan ishlar ko'lamini jihatidan asrlarga tatigulik mustaqillikning dastlabki 10-yili mobaynida aholini ijtimoiy himoya qilishning mohiyatan yangi mexanizmi yaratildi. Bunda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning roli beqiyos bo'ldi. Chunki u kishining sa'i-harakatlari va bergan g'oyalari asosida jamiyatni isloh qilishning turli bosqichlarida ijtimoiy siyosat borasida o'z konsepsiyamizga ega bo'ldik. Unda davlatimizning o'ziga xos xususiyatlari, milliy va an'anaviy qadriyatlari hamda jahon tajribasi har tomonlama hisobga olingan.

Xulosa qilib aytganda, kuchli ijtimoiy siyosatning qo‘llanilishi quyidagi natijalarni berdi:

- aholining hayot darajasi keskin pasayishi, O‘zbekistonda favqulotda tengsizlikning yuzaga kelishining oldi olindi;

- maqsadli va adresli xarakterga ega bo‘lgan ijtimoiy himoyalash tizimi vujudga keltirildi;

- aholi asta-sekin bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashib bormoqda;

- har bir kishining manfaatlari va intilishlarining ro‘yobga chiqishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi natijasida aholining iqtisodiy faolligi oshib bormoqda, tadbirkorlik va ishbilarmonlik rivojlanmoqda.

Eng muhimi, «Oldindan ko‘rilgan ijtimoiy chora-tadbirlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash imkonini berdi, aholida amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘liga ishonch paydo bo‘ldi»⁶⁷.

Tub o‘zgarishlarning ***boshlang‘ich bosqichi 1991-1995-yillarda*** asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollarni iste‘mol qilish keskin kamayishi, ommaviy ishsizlik paydo bo‘lishining oldini olish, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ijtimoiy sohalar - sog‘liqni saqlash, ta‘lim, fan va madaniyat tarmoqlari doimiy ishlashini ta‘minlashga muvaffaq bo‘lindi.

Islohotlarning bu bosqichida O‘zbekiston ijtimoiy himoya siyosatining asosiy vazifasi – imkon qadar yalpi ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslik hamda narxlarning erkinlashtirilishi natijasida aholi daromadlaridagi “yo‘qotishlar”ni kamaytirish bo‘ldi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda, iste‘mol bozorlari himoyasi va davlatning iste‘mol xavfsizligiga asos solindi. Asosiy oziq-ovqat va iste‘mol mollarning keskin kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun chegaralangan mahsulotlarning normalashtirilgan tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, himoya chorasi sifatida iste‘molchilarga subsidiyalar berish tizimi va iste‘mol bozoridagi asosiy oziq-ovqat tovarlarini mamlakatdan tashqariga chiqib ketishidan

⁶⁷ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bocsag‘asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997. B.219.

himoyalashning turli shakllaridan keng foydalanildi. Narxlarni erkinlashtirish sharoitida aholining xarid qobiliyatini himoya qilish uchun bu choralar muhim ahamiyat kasb etdi.

Hukumat tomonidan qishloq aholisiga hususiy tomorqalarning ajratilishi, shuningdek, aholi asosiy qismining real maoshi kamayishini kompensasiya qilish maqsadida tadbirkorlik faoliyati qo'llab-quvvatlandi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bu-yillar ichida qishloq aholisi xususiy tasarrufidagi er hajmi ikki barobarga oshdi, natijada, har bir oila tasarrufidagi tomorqalar 1990-yildagi 12 sotixdan 30 sotixga etdi. Bu chora-tadbirlar bozor tipidagi yuqori samarali tomorqa xo'jaliklarini tashkil etish imkonini yaratdi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida ishlashga moslashmagan ta'lim hamda sog'likni saqlash tizimi ham islohotlarning dastlabki bosqichida tub o'zgarishlarni talab qilardi. Bunda aholining sog'lig'i va ta'lim darajasini bir butun tizim sifatida saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi.

*Bu siyosat o'tish davrining eng murakkab – boshlang'ich davrlarida ijtimoiy sohadagi asosiy maqsad va vazifalarni amalga oshirishga ko'mak berdi. Shunday yondashuv tufayli islohotlar arafasida eng noqulay boshlang'ich shart-sharoitlarga va sezilarli ijtimoiy ziddiyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston ijtimoiy mojarolarni chetlab o'tishga muvaffaq bo'ldi.*⁶⁸

Bu davr ichida O'zbekiston Respublikasi aholisining ijtimoiy ta'minoti hamda himoyasining huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" (20.11.1991), "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" (13.01.1992), «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida» (02.07.1992), "Ta'lim to'g'risida" (02.07.1992), "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" (06.05.1993), "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida" (07.05.1993), "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" (03.09.1993) kabi bir qator ijtimoiy muhim qonunlar qabul qilindi.

⁶⁸Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики", РАН, 2001

Ikkinchi bosqichda (1996 - 2003-yillar) makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish, iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgartirishlar, iste'mol bozorini to'yintirish orqali aholi turmush darajasini tadrijiy ko'tarish uchun shart-sharoitlar yaratildi. 1996-yildan boshlangan iqtisodiy o'sish aholi daromadlari o'sishining tabiiy manbaiga aylandi. 1997-2003-yillarda aholining real pul daromadlari-yillik o'rtacha 22 foizdan o'sdi.

Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari aholining umumiy ijtimoiy himoyasi o'rniaga ijtimoiy himoyaning manzilli shakllariga almashindi. Ish bilan ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish, inson kapitali salohiyatini oshirish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga aylandi.

Narxlar o'sishi munosabati bilan ***maoshlarni indeksasiyalash*** soni keskin kamaydi. Indeksatsiya faqatgina byudjet tashkilotlari sohasida qo'llana boshlandi. Iste'mol subsidiyalari kommunal xizmatlarning ayrim turlarigagina saqlab qolindi. Aholi daromadlari tarkibida transfertlar ulushi kamaydi. Davlat aholi o'rtasida tengsizlik kuchayishining xavfini kamaytirish maqsadida, faqatgina, uning ***daromadlari darajasini*** boshqarib turdi.

Qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash maqsadida qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Natijada aholining, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilarning, ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi oshdi. 1997-2003-yillarda aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 36,8 dan 47 foizga, xususan, qishloq joylarda 36,8 dan 47 foizga, tabiiy gaz 69 foizdan 78,3 foizga etdi.

1997-yildan boshlab ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlarida ijtimoiy dasturlar tizimi amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida bu kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'lib, maktablar, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari qurildi, kapital ta'mirlandi. O'quv binolari zamonaviy jihozlar, o'quv qurollari, kompyuter sinflari bilan ta'minlandi. Yangi milliy ta'lim standartlari, darsliklar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi uchun har-yili davlat byudjetining ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan qismining deyarli yarmi sarf bo'ldi.

Bu davrda sog'likni saqlashni isloh qilish Davlat dasturi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi, ushbu dastur asosida tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi qayta ko'rib chiqildi, qishloq joylarda sog'likni saqlashning birlamchi bo'g'ini isloh qilindi, onalik va bolalikni himoya qilish tizimi yaxshilandi.

Ushbu davrda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida-yillik davlat dasturlari amalga oshirildi. Bular qatorida "Inson manfaatlari-yili" (1997), "Oila-yili" (1998), "Ayollar-yili"(1999), "Sog'lom avlod-yili" (2000), "Ona va bola-yili"(2001), "Qariyalarni qadrlash-yili"(2002), "Obod mahalla-yili" (2003)-yillik davlat dasturlari ijtimoiy siyosatning yanada kuchayishida alohida o'rin tutdi.

Uchinchi bosqichda 2004-yildan boshlab bugungi kunga qadar iqtisodiyotda, bank tizimi, soliq-byudjet siyosatida o'tkazilgan institutsional va tuzilmaviy islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish joylarini yaratish hamda aholi daromadlari o'sishiga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, so'ngi sakkiz-yil ichida aholi daromadlarining real o'sishi 20 foizni tashkil etdi.

Ushbu bosqichda mamlakatimiz rivojlanishida 2008-yildan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davri alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida 2009-yili qabul qilingan inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi doirasida bir qator investitsion dasturlar amalga oshirilib, aholi bandligi va daromadlarining o'sishiga, ijtimoiy infrastruktura va xizmatlar sohasining rivojlanishiga, aholining o'z-o'zini boshqarish organlari orqali manzilli ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Bu bosqichda eng asosiy e'tibor ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida barchaga teng imkoniyatlar yaratish, mazkur xizmatlarning sifatini oshirish hamda yoshlarning mehnat bozorida faol ishtirokini ta'minlashga qaratildi.

Shuningdek, ta'lim tizimidagi islohotlar bir qator ixtisoslashtirilgan dasturlar va qarorlar asosida yanada takomillashtirildi. Hususan, "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi", "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi pedagog va muhandis-pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturi”, “2005 - 2009-yillarda umumta’lim maktablari uchun darsliklar va o’quv-metodik qo’llanmalarni nashr etish dasturi”, “Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo’yicha 2009-2014-yillarga mo’ljallangan Davlat dasturi”, “2011-2016-yillarda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash dasturi”, shuningdek, “Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o’tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori ta’lim sohasida tub o’zgarishlarga sabab bo’ldi.

Sog’liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish hamda aholi salomatligini oshirish maqsadida bir qator hukumat qarorlari va davlat dasturining amalga oshirilishi natijasida tashxis qo’yish va tibbiy yordamning barcha turlari sifatini tubdan ko’tarish hamda sohani profilaktik tibbiyotga o’zgartirish bo’yicha keng ishlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog’liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo’nalishlari to’g’risida” gi Farmoni (19.09.2007-y.), Vazirlar Mahkamasining “Sog’liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to’g’risida”gi qarori (24.03.2011-y.), O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog’liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi (28.11.2011-y.) hamda “Ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armasini Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armasi etib qayta tashkil qilish to’g’risida” gi (21.11.2011) qarori tizimni isloh qilishda dasturamal bo’ldi.

– Ijtimoiy siyosatning keyingi davrdagi ustuvor yo’nalishlari: tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratilishi, iqtisodiyotning yuqori texnologiyali sohalarida yuqori

daromadli ish joylari tashkil etish, aholining o'rta tabaqasi shakllanishini kengaytirish;

– ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish;

– ta'lim va tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish, mehnat bozori muvozanatlashuvini ta'minlash maqsadida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

xizmatlar sohasi infratuzilmasini yanada rivojlantirish va aholining yashash standartlarini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish kabi bir qator ustuvor vazifalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida kam ta'minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarga mol berish, chorvachilikni va infratuzilma obyektlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

2006-2010-yillar davrida shaxsiy, yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturi ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq mintaqalar bo'yicha shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida qoramollar sonini ko'paytirish, zooveterinariya punktlari va chorva mollarini sun'iy urchitish punktlari tarmog'ini kengaytirish; zotli mollarni shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga auksionlar orqali sotish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi bilan birgalikda don mahsulotlari korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladigan omuxta emni shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga berishni kengaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilishi, tuman markazlari va yirik aholi punktlarida ixtisoslashtirilgan savdo shoxobchalarini tashkil etish uchun zarur omborxonalarini tayyorlashni ko'zda tutilgan edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi va viloyatlar hokimlari, homiylar va nodavlat hayriya tashkilotlari mablag'i hisobiga kam ta'minlangan oilalarga sigir tarqatish evaziga, faqatgina 2007-yilning o'zidayoq, barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar

soni 6571,4 ming boshdan 7042,5 ming boshga, shu jumladan, dehqon xo'jaliklarida 6061,3 ming boshdan 6537,0 ming boshga hamda fermer xo'jaliklarida 332,3 ming boshdan 374,7 ming boshga ko'paydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda aholi yalpi daromadlari 16 barobar oshdi. Keng ko'lamli ishlarning yakuniy natijasi sifatida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 67 yoshdan 73,2 yoshga etdi. Biz ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyoning rivojlangan davlatlari darajasiga yaqinlashdik.

Mustaqil rivojlanish-yillarida tinchlikni saqlash masalasiga eng ustuvor vazifa sifatida qarab kelinayotgani islohotlar strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qildi. I.Karimov ta'kidlaganidek: "O'zbekistonimiz mustaqil taraqqiyot yo'lida qanday ulkan yutuq va marralarga erishgan bo'lsa, bularning barchasining negizi – yurtimizda tinch va osuda hayot, millatlar va fuqarolararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlikni asrab-avaylab kelayotganimizda"⁶⁹.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan mamlakat sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish, aholi sog'lig'ini himoya qilish tizimidagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish vazifasi yuzaga keldi.

O'zbekistonda asosiy islohotlar 1990-yil o'rtalarida boshlandi. 1996-yilning 29 avgustida "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi Qonun kuchga kirdi, ushbu Qonunda davlat siyosatining sog'liqni saqlash tizimiga yangicha yondashuvi ifodalangan edi.

Mavjud muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1998-yil 10 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dastur"i haqidagi Farmon qabul qilindi.

Ushbu dastur sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, aholini ijtimoiy muhofazasi prinsiplariga to'laqonli amal qilish, tibbiy yordamning kafolatlilik va ommabopligini ta'minlashga qaratilgan edi. Davlat dasturida quyidagi muhim yo'nalishlar o'z aksini topdi:

⁶⁹Xalq so'z. 2014. 10 may.

- sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimini mukammallashtirish;
- tibbiy yordamning dastlabki bosqichini isloh qilish;
- davlat tomonidan kafolatlangan, samarali tez tibbiy yordam tizimini yaratish;
- ona va bolaga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamni takomillashtirish;
- davlatning mustahkam sanitar-epidemiologik tinchligini ta‘minlash.

Shu maqsadlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining maqsadli dasturi hayotga tatbiq etildi, Dastur tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini tubdan modernizatsiya qilish, muhim yo‘nalish bo‘lgan maxsus ambulator-poliklinika va profilaktik medisinani rivojlantirish, shuningdek, qishloq joylarda ona va bola sog‘lig‘ini himoya qilish tizimining sifatini oshirish, tashxis qo‘yish va davolash jarayonida yangi tibbiy texnologiyalardan keng foydalanish, yuqori toifali tibbiyot xodimlari tayyorlash tizimini mukammallashtirishni ko‘zda tutgan edi.

Sog‘liqni saqlash tizimida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar aholi salomatligini yaxshilash samaradorligining jahon tajribasida umumqabul qilingan monitoring ko‘rsatkichlariga asoslandi. Ularning ichida asosiy ko‘rsatkich (indikator) bu – insonning o‘rtacha umr ko‘rish ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich obyektiv va majmuaviy tarzda aholining turmush tarzini aks ettiradi. Shuningdek, ushbu indikator millatning salomatligi holatini xarakterlab, davlat olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, tibbiyot xizmatlari, tashqi muhit muhofazasi, ta‘lim va boshqa omillarga bog‘liq.

O‘zbekistonda mustaqillik-yillarida umr ko‘rish davomiyligi tez sur‘atlarda o‘tdi, (1990-yilda 67,2 yosh, 2012-yilda 72,9 yosh). Ushbu ko‘rsatkichlar erkaklarda-70,7 yosh, ayollarda 75,2 yoshni tashkil etib, bu ko‘rsatkich MDH davlatlarining ko‘rsatkichlariga qaraganda ancha yuqori.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy holatining muhim indikatoridan biri, bu – ona va bola salomatligi ko‘rsatkichidir. O‘zbekistonda ona va bola sog‘lig‘i muhofazasi bo‘yicha xalqaro standartlarni hayotga tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ona va bolaning

reproduktiv salomatligi bo'yicha olib borilayotgan ishlar XSXT hamda BMTning UNISEF va UNFPA agentliklari tomonidan yuqori baholangan. Xalqaro «Save children» (Buyukbritaniya) tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, ayollar uchun yaratilgan shart-sharoitlar borasida O'zbekiston jahondagi 125 ta davlat o'rtasida 19-o'rinni, onalikni himoya qilish bo'yicha esa 27-o'rinni egallaydi.

Davlatimizda maqsadli amalga oshirilayotgan profilaktik va epidemiyalarga qarshi faoliyat samarasi natijasida ko'p kasalliklarning ko'rsatkichlari pasaydi, ayrimlari barham topdi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimi bugun etarli darajada moddiy-texnika bazasi va kadrlar potensialiga ega. Mustaqillik-yillarida tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangi, jahon talablariga javob beradigan Tez tibbiy yordam ko'rsatish markazlari barcha viloyatlar-da o'z filiallariga ega, maxsus tibbiy (kardiologiya, jarrohlik, urologiya, ko'z mikrojarrohligi), ilmiy-amaliy (pediatriya, akusherlik va ginekologiya, terapiya va tibbiy rehabilitasiya, dermatologiya va venerologiya, endokrinologiya, ftiziatriya va pulmonologiya) markazlar tashkil etildi.

Sog'liqni saqlash tizimidagi dastlabki islohotlar kadrlar siyosatiga ham o'zgartirishlar kiritdi. Qishloq joylardagi vrachlik punktlarida feldsherlar o'miga yuqori malakali, oliy ma'lumotli shifokorlar xizmat ko'rsatadi. Hozirda faoliyat yuritayotgan 3 mingdan ortiq QVPlarning yarmi yangi arxitektura loyihalari bo'yicha qurilgan.

O'zbekiston sil kasalligining oldini olish bo'yicha ijobiy o'sishlarga ega davlatdir. Bu yo'nalishda xalqaro DOTS dasturi bo'yicha chora-tadbirlar hayotga samarali tatbiq etib kelinmoqda. 2012-yilda sil bilan kasallanganlar soni har 100 ming aholi soniga 52,6 tani tashkil etdi. XSSTni baholashicha, ushbu ko'rsatkich o'rta daromadli davlatlardagi ko'rsatkichlarga teng.

Sog'lom avlodni tarbiyalash mamlatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikning o'tgan-yillari davomida bolalar sporti millat genofondini sog'lomlashtirishning muhim omili bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonda dunyoning boshqa davlatlaridan farqli o'laroq, bolalar

sportini rivojlantirishga ixtisoslashgan jamg'arma tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma vasiylik kengashining raisi Respublikamiz Prezidenti bo'lib, jamg'arma oldiga qo'yilgan vazifa – yosh avlod ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi uchun bolalar sportini ommalashtirish va rivojlantirish, sog'lom turmush tarzidan iborat.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Sog'lom ona – sog'lom bola” davlat dasturida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu dastur XSST, YuNISEF hamda “O'zbekistonda ona va bola sog'lig'ini himoya qilish milliy modeli: “Sog'lom ona – sog'lom bola” xalqaro Toshkent simpoziumining obro'li ishtirokchilari tomonidan yuqori baholangan. 2010-yilga kelib, mutlaq sog'lom bolalar soni ko'rsatkichi 62,6 foiz ga yetdi.

Ijobiy natijalarni bolalarning xalqaro antropometrik (bo'yi, vazni) standartlari ko'rsatkichlari bo'yicha ham ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik-yillarida bolalarga mo'ljallangan sport inshootlarining soni 1 825tadan 5 980 taga yetdi yoki 3,3 barobar oshdi, sport bilan shug'ullanuvchi bolalar soni 7,4 foizdan 34,3 foizga ko'tarildi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan qurilgan 1 199 ta bolalar sport inshootlari zarur anjom va uskunalar bilan ta'minlandi. Faqatgina 2012-yilning o'zida 96 ta obyektning qurilishi va rekonstruksiyasiga jamg'arma tomonidan 81,6 mlrd. so'm ajratilgan. Fond tashkil topgandan beri 1400 dan ortiq zamonaviy bolalar sporti inshootlari qurib, foydalanishga topshirildi.

2011-yilda mamlakatimiz sportchilari halqaro munosabatlarda 182 ta medalga sazovor bo'lishdi, ulardan 60 tasi oltin.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yil 18 yanvardagi “2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari”ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida aytilganidek, bugungi kunda davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foiz ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi. Uning 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

7.3. Hozirgi bosqichda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va uning o'ziga xosligi

Uchinchi masala bayoni. Istiqlol-yillarida ijtimoiy muhofaza muayyan tizimga aylandi. Muhtoj qatlam va guruhlariga moddiy yordam ko'rsatishning o'ziga xos, ya'ni milliy mexanizmi ishlab chiqildi. Buni adolatli amalga oshirishda qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlarining mas'uliyati oshirildi. Inflyatsiyani inobatga olgan holda har-yili bir necha marotabadan davlat byudjetidan ajratiladigan maoshlar, pensiya va stipendiyalar oshirib borilyapti. Muhtoj qatlam va guruhlariga nodavlat va jamoat tashkilotlari tarafidan moddiy yordam ko'rsatishning ham turli-turli shakllari paydo bo'ldi va bu jarayon tobora takomillashib boryapti.

2017-yilning aynan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar-yili" deb nomlanishi amalda davlat siyosatining izchilligidan dalolat beradi.

Bugunga kelib mamlakatimiz o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga kirdi. Ijtimoiy siyosat borasida istiqloq-yillaridagi katta tajribalarga suyangan, mavjud an'analarni izchil davom ettirgan holda yangi-yangi qadamlar tashlanyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu-yil 22-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida"gi Farmoni bilan 94 nafar shaxs davlatimiz fuqarosi bo'ldi. Undan keyin qabul qilingan bir necha Farmonlar asosida yana qanchadan-qancha kishilar fuqarolikka o'tdi. Bu ham mamlakat tarixida muhim ijtimoiy voqelik sifatida baholanadi albatta.

Harakatlar strategiyasi asosida ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami esa har kanday kishimi mamnun etadi. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoyishida muayyan ma'noda hozirgacha amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.

Jumladan, ijtimoiy sohadagi eng muhim ishlar ham o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, "faqatgina joriy-yilning birinchi yarmida 2,7 ming kilometr avtomobil yo'llari qurildi va ta'mirlandi,

84 ming 300 ta ish o' mi yaratildi. 2017 - 2020-yillarda shaharlarda energiya jihatdan samarador arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturi amalga oshirilmokda, uning doirasida 50 ming 286 ta xonadondan iborat 1 ming 136 ta ko'p qavatli uylarni, bundan tashqari, namunaviy loyiha asosida qishloq joylarida 75 ming turar joylarni qurish mo'ljallangan".

Ijtimoiy sohaga e'tiborning ko'lamini tasavvur qilish uchun, loaqal, shu-yilning o'zida bu borada qabul qilingan qonunosti hujjatlarning muhim-muhimlarini sanash kerak.

Ko'rib o'tilganidek, Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun aynan nimalarni amalga oshirish aniq-tiniq qilib belgilab berilgan.

Agar Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan buyon o'tgan davrga nazar tashlasak, bu borada ana shu qisqa fursat ichida mamlakatimizda qanchalar katta ishlar hayotga tatbiq etilganining guvohi bo'lamiz. Buning uchun ana shu to'rtinchi ustuvor yo'nalish hisoblanmish ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan etti vazifaning ijrosi yuzasidan qilingan ishlarga yana bir karra nazar tashlashga to'g'ri keladi.

Aholi bandligi va real daromadlarni izchil oshirib borishni olib ko'raylik.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtiri va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi (24.05) Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublika Prezidentining "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksni hududiy organlari rahbarlarini shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora tadbirlari to'g'risida" (06.05), "Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun kulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" (24.05), "Madaniyat san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" (14.08), "2018 - 2019-yillar, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha

birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" (16.08) va boshqa Qarorlari chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida kambag'allikka qarshi kurash iqtisodiy rivojlanish siyosatimizda ustuvor vazifa etib belgilandi.

«Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir», deb ta'kidlangan edi, murojaatda.

Iqtisodiyot qonunlariga asosan, «kambag'allik kambag'allikni keltirib chiqaradi». Mazkur jarayon bir necha sabablarga ko'ra sodir bo'ladi.

Birinchidan, daromadlari past mamlakatlar sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash uchun etarlicha pul sarflay olishmaydi, kambag'al aholi esa sifatli ta'lim va tibbiyot xizmatlarga qurbi yetmasligi sababli inson salohiyati pasayib, kambag'allikdan qochib qutula olmaydilar.

Ikkinchidan, kambag'al aholining daromadlari pasayib borgan sari, iste'mol bozorining sig'imi mutanosib ravishda kichrayib boradi va buning natijasida sanoat mollari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ayniqsa, xizmatlarga bo'lgan talab pasayib boradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi, byudjet daromadlarini kamaytiradi va kambag'allarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini kamaytirib yopiq siklik jarayon ko'rinishiga keladi.

Uchinchidan, aksariyat hollarda kambag'allarning dunyoqarashi daromad yuqori bo'lganlardan farq qiladi. Yuqorida aytib o'tilgan sabablarga ko'ra, ular orasidan ijodkor va tadbirkorlik qobiliyatiga ega insonlarning etishib chiqishi ehtimoli kamroq. Shuningdek, odatda kambag'al oila a'zolari orasida jinoyatchilik ko'rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar mamlakatda inson salohiyatini rivojlantirishga, ishlab

chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va aholining iqtisodiy faoliyatiga to'sqinlik qiladi.

O'zbekistonda oxirgi uch-yil mobaynida kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga real jami daromad 43,9 foizga, o'rtacha hisoblangan nominal oylik ish haqi 79,7 foizga yoki 2016-yildagi 1293,8 ming so'mdan 2019-yilda 2324,5 ming so'mga oshdi.

Jahon bankining «O'zbekiston fuqarolarini tinglab» loyihasi doirasida, uy xo'jaliklari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylari uchun o'rtacha kambag'al xonadonning oylik daromadi taxminan 1,5 million so'mni tashkil etib, taqqoslama narxlarda bu ko'rsatkich o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 12 foizga oshgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi kambag'allikni bartaraf etish muammosini strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Mazkur muammoni hal qilishga hukumat tomonidan katta hajmdagi sa'y-harakatlar qaratilgan. Jumladan, mamlakatda kambag'allikka qarshi kurashish uchun zarur institutlar yaratildi. Bu avvalambor Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini belgilab beradi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yaqinda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat organi sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan qatlamlarini aniqlash va manzilli ko'mak berish borasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va qishloq joylarini obodonlashtirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, «Obod qishloq» dasturining amalga oshirilishi tufayli 1,7 mln qishloq aholisining yashash sharoitlari yaxshilandi. Birgina 2019-yilda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish uchun jami 600 million AQSH dollariga teng 6,1 trln so'm ajratildi.

Biroq, erishilgan natijalarga qaramay, hozirgi kunda O'zbekistonda 400 mingdan ortiq oila turmush sharoitlari yaxshilanishiga muhtoj (Jahon banki mezonlariga ko'ra, 2015-yil oktyabridan boshlab Global kambag'allik darajasiga kuniga 1,9 AQSh dollardan kam daromad olganlar kiritilgan). Norasmiy sektorning mehnat bozoridagi ulushi 40-50foizni tashkil etadi. Biroq, kambag'al uy xo'jaliklarining faqat 23 foizigina ijtimoiy nafaqa olishadi.

Pandemiya davrida aholining kambag'al va eng zaif qatlamlariga ijtimoiy va moddiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini isloh qilish zarurati kuchaydi. Shu bois bu muammolarni hal qilish jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Moddiy yordamni taqsimlashda kerakli nazorat, shaffoflik va manzillilikni ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalar asosidagi tizimli yechimlarni joriy qilish asosida avval yetarlicha manzilli bo'lmagan va samarasiz tizimdan yangi tizimga o'tilmoqda.

Mamlakatimizda keyingi-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonini engillashtirish, ortiqcha qog'ozbozlikni yo'qotish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Koronavirus pandemiyasi davrida aholining asosiy qismi karantin talablariga rioya qilib, uyda qolmoqda. Bunday sharoitda ularga davlat xizmatlarini masofadan ko'rsatish, sanitariya talablari jihatidan qog'oz ko'rinishidagi hujjatlar aylanmasini kamaytirish naqadar dolzarb ekani yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mana shunday davlat xizmatlaridan biri bu – 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lashdir. Ushbu ijtimoiy nafaqalarni tayinlash jarayonida rasmiyatchilik, sansalorlik va byurokratiya avj olgan, desak xato qilmaymiz. Bunda yordamga muhtoj bo'lgan oilalarni turli ma'lumotnoma va boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni yig'ishdan ozod etishning allaqachon vaqti kelgan.

Moliya vazirligi tomonidan mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida xorij tajribasi o'rganilganda, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda aholiga pul yoki mahsulot ko'rinishidagi yordamlarni ko'rsatish tizimi avtomatlashtirilgani, muhtoj insonlar va oilalarga shu kabi davlat xizmatlari elektron tizimlar yordamida amalga oshirilayotgani ma'lum bo'ldi. Ushbu o'rganishlar natijasida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi yaratildi. Yagona reestr – boshlang'ich bosqichda ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun inson omilisiz oilaning (fuqaro) muhtojligini o'zi aniqlaydigan, nafaqalarni tayinlab, to'lovlarni amalga oshiradigan va nazorat qiladigan, xarajatlar hisobini yuritadigan avtomatlashgan axborot tizimidir.

Keyingi bosqichlarda bu tizim ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaro va oilalarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan pul yoki mahsulot ko'rinishidagi barcha yordam turlarini (bolalarning bepul bog'chaga qatnashi, o'quvchilarni bepul darsliklar to'plami bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash muassasalarida bepul yoki imtiyozli tibbiyot xizmatlarini ko'rsatish, ipoteka kreditlari uchun boshlang'ich badalni to'lash va boshqa) qamrab oladi.

Yagona reestring afzalligi shundaki, birinchidan, taqdim etiladigan ma'lumotlarga zarurat bo'lmasligi hisobiga ijtimoiy nafaqalarga muhtoj oilalar uchun ariza berish jarayoni keskin engillashadi va ushbu oilalar uchun ma'lumotlarni yig'ish kabi sarsongarchiliklarga barham beriladi.

Ikkinchidan, kam ta'minlanganlikni e'tirof etish hamda ijtimoiy nafaqalarni tayinlash yoki rad etish jarayoni maksimal darajada shaffoflashadi. Nafaqani tayinlash yoki rad etish to'g'risida qaror faqat Yagona reestr axborot tizimi tomonidan (unga kiritilgan mezonlar asosida) qabul qilinadi, bunda hech qanday inson omili mavjud bo'lmaydi.

Uchinchidan esa, hozirgi kunda kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan turli xil yordamlar (bolalarning bepul bog'chaga qatnashi, maktabda bepul darsliklar va qishki kiyim-bosh bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash muassasalarida bepul davolanish va boshqalar) ko'rsatilmoqda. Biroq ushbu yordamlarga muhtoj oilalar-

ni aniqlash tartibi hech qanday qonunchilik hujjatlarida belgilanmagan va davlat tomonidan qaysi oilaga qanday hamda necha pullik yordam ko'rsatilgani to'g'risida ma'lumotlar bazasi mavjud emas. Demak, Yagona reestr mana shunday ma'lumotlar bazasiga aylanadi va ushbu baza orqali avtomatik tarzda barcha ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Mazkur axborot tizimi joriy etilgan taqdirda aholi uchun ijtimoiy nafaqalarni olish jarayonida qanday engilliklar yaratiladi, degan savol mohiyatan o'rinli va barcha uchun qiziq savol. Haqiqatdan ham, tizim ishga tushirilishi natijasida bu borada nimalar o'zgaradi?

Aytaylik, hozirgi kunda ijtimoiy nafaqalarni olish uchun yordamga muhtoj fuqaro oilaning tarkibi va daromadi to'g'risidagi ma'lumot hamda ushbu daromadlarni tasdiqlovchi hujjat, bolali oilalarga nafaqa yoki bola parvarishi bo'yicha nafaqa olish uchun bolalarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalari nusxalari, asosan yashab turgan joyi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam olish uchun doimiy yashash (doimiy propiska) joyi bo'yicha bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlanmaganligi va to'lanmaganligi to'g'risida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan ma'lumotnoma, agar bolalar vasiylikka olingan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining qaroridan ko'chirma kabi ma'lumot va hujjatlarni yig'ib, mahalla fuqarolar yig'iniga topshirishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, moddiy yordamga ehtiyojmandlik to'g'risidagi arizaga ariza beruvchining xohishiga ko'ra, oilaning ehtiyojmandligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin.

Ko'rinib turganidek, ushbu hujjatlarni yig'ish jarayoni ancha vaqt va sabr talab etadi. Buning ustiga, shuncha yugur-yugurdan so'ng mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan "Hujjatlaringni olmayman, kamchiligi bor yoki pul yo'q, keyingi oyda kelgin", deb qaytarib yuborish kabi ko'plab holatlar mavjud va davom etmoqda.

E'tiborli jihati, shundan keyin ham bir qator jarayon amalga oshiriladi. Jumladan, birinchidan, hujjatlar taqdim etilgandan so'ng arizachi va uning oila a'zolarining daromadi hisob-kitob qilinadi.

Ikkinchidan, arizachining uyiga 5 kishilik maxsus komissiya borib, oilaning moddiy va mulkiy holatini o'rganib chiqadi, uning xulosasi mahalla fuqarolar yig'inida tashkil etilgan komissiyaga taqdim etiladi. Uchinchidan, ushbu 15 kishilik komissiya oila daromadi va maxsus komissiyaning xulosasini ko'rib chiqib, oilaga ijtimoiy nafaqani tayinlash yoki tayinlashni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ushbu jarayonda talab darajasidagi shaffoflik bo'lmaydi, ya'ni ijtimoiy nafaqani tayinlash (yoki tayinlamaslik) to'g'risidagi qarorni qabul qilishda inson omilining ta'siri katta bo'ladi.

Yangi tizim – Yagona reestr uchun esa muhtoj oila a'zolarining bor-yo'g'i pasporti, tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma (bolalar uchun) va nikohni qayd etish to'g'risida guvohnoma (mavjud bo'lganda) nusxalari talab etiladi. Ushbu hujjatlar mahalla fuqarolar organlariga taqdim etiladi va bunda ushbu hujjatlarni qabul qilinmasligiga yo'l qo'yilmaydi.

Qabul qilingan hujjatlar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'ar-masining tuman (shahar) bo'limlariga taqdim etilgandan so'ng ariza va uning oila a'zolari shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardagi ma'lumotlar Yagona reestr-ga kiritiladi.

Oilaning muhtojligini aniqlash uchun zarur bo'ladigan boshqa ma'lumotlar (oilalarning daromadlari – ish haqi, pensiya, stipendiya va boshqalar, nomida mavjud ko'chmas mol-mulki, avtotransport vositalari, ishlaganligi yoki ishsiz bo'lganligi, ishsiz bo'lib mehnat organlariga murojaat qilganligi to'g'risida) Yagona reestr orqali soliq, kadastr, ichki ishlar, mehnat va boshqa idoralardan avtomatik ravishda elektron tarzda olinadi.

Qonunchilikda belgilangan mezon va me'yorlardan kelib chiqib, turli idoralardan olingan ma'lumotlar asosida Yagona reestr, hech qanday inson omilisiz, arizachilar oilasiga ijtimoiy nafaqalarni tayinlaydi yoki tayinlashni rad etadi. Bu bo'yicha qabul qilingan qaror arizachi yoki uning oila a'zolariga SMS-xabarlar orqali yetkaziladi.

Yagona reestrni shakllantirish uchun hozirgi kunga qadar Davlat byudjetidan 1 so'm ham mablag' sarflanmagan. Barcha xarajatlar YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi grant mablag'laridan

(2019-2021-yillarga mo'ljallangan 610 ming AQSH dollari) qoplanmoqda.

Shu kunga qadar ushbu mablag'lar hisobidan ("Development Pathways" ixtisoslashtirilgan xalqaro kompaniyasi tomonidan) "Yagona reestr" axborot tizimi yaratildi. Bu tizim orqali 9 vazirlik va idoraning (Davlat xizmatlari agentligi va FHDYo bo'limlari, Moliya vazirligi va Pensiya jamg'armasi, "O'z davgeodezkadastr", Davlat soliq qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat personallashtirish markazi, Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati va AT Xalq banki) ma'lumotlar bazasidan real vaqt rejimida elektron almashuv asosida 20 turdagi ma'lumot olinmoqda.

Ayniqsa, aholi ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ham ko'p ish qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (16.03), "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtiri chora-tadbirlari to'g'risida" (18.04), "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasini tashkil etish to'g'risida" (18.04), "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" (21.04), "Davlat veterinariya xizmati boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (01.06) va boshqa Farmonlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (01.04), "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida" (04.04), "Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" (04.04), "2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirini to'g'risida" (04.04), "2017 - 2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizasiya qilish dasturi to'g'risida" (20.04), "2018-2022-yillarda issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantir dasturi

to'g'risida" (20.04), "2017-2021-yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (24.04), "2017 - 2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" (04.05), "Toshkent shahri aholisiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda uning samaradorligi uchun rahbarlar va mutaxassislarning kasbiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" (06.06), "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (20.06), "Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (17.07) boshqa Qarorlari hamda "Nogironlarni davlat tomonidan ko'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (01.08) Farmoyishi chikdi.

Arzon uy-joylar barpo etish mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning insonparvarligini ko'rsatib turibdi. Uy-joylar arzon narxlarda qurilsa, uni sotib oluvchilar soni ko'payadi. Eng muhimi, bu birinchi galda aholining uy-joyga o'ta muhtoj qatlamining manfaatlarini o'ylagan holda yo'lga qo'yildi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz barcha mintaqalarida ikki sotixli namunali qishloq uylarini, shuningdek, ikki-uch xonali ko'p qavatli uylarni qurish jadal davom ettirilyapti. Bu borada, ayniqsa, imtiyozli kreditlar joriy etilganidan aholi bag'oyat minnatdor.

Bugungi kunda poytaxtimiz katta uy-joy kurilishi maydoniga aylandi. Xususan, Sergeli tumani hududida jadal sur'atlar bilan bunyod etilayotgan har taraflama shinam, zamonaviy qulayliklarga ega arzon ko'p qavatli uylar peshma-pesh bitkazipyapti.

Yo'l-transport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish yo'nalishiga ham jiddiy e'tibor berilyapti.

Sergeli tumanini shaharning asosiy qismi bilan bog'lashga xizmat qilishi mo'ljallangan er usti metrosining qurilayotganiga

hammamiz guvohmiz. Metroga parallel ravishda Sergelini metroning Olmazor bekatini bog'laydigan avtomobil yo'li ham kuruladi. Shuningdek, Sergelini bir tomoni shahar katta Halqa yo'lga bog'laydigan, ikkinchi tomoni esa Bektemir tarafga yo'nalgan yangi magistral yo'lga ulaydigan yo'l qurilishi ham jadallik bilan davom ettirilyapti. Shahrimizning yo'l va ko'chalariga yangidan asfal't yotqizilyapti.

Ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (20.04), "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (03.06), "Ma'daniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" (14.08) va boshqa Qarorlari chiqarilganini alohida kayd etish lozim.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida tub burilish yuz berdi.

2017-yilning 30-iyun kuni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati-ning IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qatnashib, nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari yoshlar siyosatini chuqur tahlil etib, bu borada yangicha ishlash prinsiplarini bayon qilib berdi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Yoshlar ittifoqiga aylantirildi. Bundan buyon 30 iyun Yoshlar kuni sifatida bayram qilinadigan bo'ldi.

Ko'p o'tmay O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (05.07) Farmoni qabul qilindi. Boshqa ko'p qonunosti hujjatlarida ham yoshlarni ijtimoiy faollikka undaydigan, ular hayotini yaxshilashga qaratilgan tartib-qoidalar belgilandi.

Siyosatdagi barqarorlik va izchillik har qanday davlatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston aholisining deyarli yarmi ijtimoiy himoya bilan ta'minlanmagan — xalqaro tashkilotlar hisoboti

149 sahifalik hisobotda aytilishicha. O'zbekiston Sovet Ittifoqidan bandlikni ta'minlash, bolalar parvarishini qo'llab-quvvatlash va qarilikda kafolatli daromadni ta'minlash tamoyillariga asoslangan keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimini meros qilib olgan bo'lsa-da, hozirgi kunga kelib, mamlakatda ijtimoiy himoyaning rasmiy ta'rifi qabul qilinmagan.

Shuningdek, ijtimoiy himoya dasturlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va boshqarish bo'yicha ixtisoslashgan muassasa mavjud emas.

Ijtimoiy himoya funksiyalari turli vazirliklar va muassasalarga taqsimlangan va ushbu vazirliklar va muassasalarning hech biri butun tizimni to'laqonli qamrab olmaydi va shuning uchun ijtimoiy himoya bo'yicha turli dasturlarni o'zaro muvofiqlashtirishga javobgar emas.

Misol uchun, Moliya vazirligi Pensiya jamg'armasi pensiya taqsimoti uchun javobgar va ijtimoiy yordam dasturlari xarajatlarini nazorat qiladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bandlik va mehnat bozorining faollashtirish dasturlari uchun javobgar bo'lib, ijtimoiy himoya sohasida umumiy siyosatni belgilash vakolatiga ega. Sog'liqni saqlash vazirligi sog'liqni saqlash bilan bog'liq dasturlarni amalga oshiradi, keksalar va nogironlarga xizmat ko'rsatadi. Xalq ta'limi vazirligi esa kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini turli buyumlar bilan ta'minlash maqsadida bir necha kichik dasturlarni amalga oshiradi.

Har bir muassasada vertikal tashkiliy tuzilma mavjud bo'lsa-da, ular orasidagi idoralararo hamkorlik sust va buning natijasida turli ijtimoiy himoya dasturlari orasida gorizontaal aloqalar shakllanmagan. Bunday institutsional tarqoqlik natijasida O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini integratsiyalashga karatilgan harakatlarni amalga oshirish ancha mushkuldir.

Bunday holat jiddiy tashvish tug'dirishi tabiiy, chunki xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, alohida bir dasturni kuchaytirish butun tizim yoki ijtimoiy yordam oluvchilar nuqtayi nazaridan optimal bo'lmasligi mumkin va bunda butun tizimni kompleks isloh etish talab etiladi.

Hisobotda mamlakat ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'liq quyidagi muammolar sanab o'tilgan:

– O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy yordam va mehnat bozorini faollashtirish dasturlaridan iborat bo'lgan, nisbatan aniq shakllantirilgan va keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi mavjud, ammo umumiy aholining deyarli yarmi va kam ta'minlangan oilalarning uchdan bir qismi ijtimoiy himoya dasturlari bilan ta'minlanmagan.

– 2018-yilda O'zbekistonda ijtimoiy himoya xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 6 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Evropa hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi ijtimoiy himoya sarmoyalarining o'rtacha darajasidan ancha past.

– Aholining ko'p qismi haligacha ijtimoiy ta'minotga erisha olgani yo'q: band aholining qariyb 60 foizi norasmiy sektorda bo'lib, badal to'lashni nazarda tutuvchi ijtimoiy sug'urta dasturlarida qatnashmaydi.

– Ijtimoiy yordam dasturlari yetarlicha qamrovga ega emas. Masalan, ilgari bolalar nafaqalari barcha bolali oilalarga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda ular faqat kam ta'minlangan oilalarga yo'naltiriladi.

– Kam ta'minlangan oilalarning aksariyati nafaqalarni tayinlashning juda qat'iy talablariga javob bersalar ham, ko'p holatlarda nafaqalarni turli sabablarga ko'ra olish imkoniyatiga ega emas.

– Hozirgi kunda mehnat bozorini faollashtirish dasturlarining aholini qamrash darajasi cheklangan bo'lib, ular asosan jamoatchilik ishlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish va o'qitish dasturlaridan iborat. So'nggi paytda bandlikni qo'llab-quvvatlovchi faol va passiv dasturlar uchun davlat xarajatlari oshgan bo'lsa-da, qamrov sezilarli darajada pastligicha qolmoqda.

Nazorat savollari

1. Istiqbol-yillarida mamlakat demografik jarayonida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

2. Suv zaxirasini o'ylamay yangi yerlarning o'zlashtirilishi qanday oqibatlarga olib keldi?

3. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida-yillarning nomlanishi bo'yicha qanday davlat davlat dasturlari ishlab chiqildi?

4. Sog'liqni saqlash tizimidagi dastlabki islohotlar kadrlar siyosatiga qanday o'zgartirishlar kiritdi?

5. Hozirgi kunda kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan qanday yordamlar ko'rsatilmoqda?

6. Aholini ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha davlatimiz tomonidan qanday ishlar amalga oshirildi?

Test savollari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra mahalla oqsoqoli qancha muddatga saylanar edi?

A) 2-yil

B) 2,5-yil

V) 3-yil

G) 5-yil

2. "Mahalla" so'zi qaysi so'zdan olingan?

A) arabcha "mahallun"

B) forscha "mahallun"

V) turkcha "mehalla"

G) tojikcha "mahal"

3. Mahallalar faoliyatini yorituvchi gazeta qanday nomlanadi?

A) "Xalq so'zi"

B) "Mahalla"

V) "XXI asr"

G) "Toshkent oqshomi"

4. Qaysi-yili "Obod mahalla-yili" deb e'lon qilingan?

A) 2001-yil

B) 2002-yil

V) 2003-yil

G) 2004-yil

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1995-yil 14-avgust
- B) 1996-yil 20-sentyabr
- V) 1997-yil 29-avgust
- G) 1998-yil 16-fevral

6. O‘zbekistonda “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” necha bosqichda amalga oshiriladi?

- A) 3
- B) 4
- V) 5
- G) 6

7. “Ustoz” jamg‘armasi orqali kimlar chet elning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida o‘z malakasini oshirib keladilar?

- A) maktab o‘qituvchilari
- B) litsey va kollej o‘quvchilari
- V) oliy o‘quv yurti talabalari
- G) kollej va litsey o‘qituvchilari

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asari qachon nashr etilgan?

- A) 2015-yilda
- B) 2016-yilda
- V) 2017-yilda
- G) 2018-yilda

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qachon e‘lon qilindi?

- A) 2017-yil 2-fevral
- B) 2017-yil 7-fevral
- V) 2017-yil 17-fevral
- G) 2017-yil 27-fevral

10. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo'nalishdan iborat?

- A) 10 ta
- B) 7 ta
- V) 5 ta
- G) 4 ta

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2019.
2. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: “O'zbekiston”, 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston”, 1997.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
6. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yarata-miz. Asarlar, 7-jild. – T.: “O'zbekiston”, 1999.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
9. Usmonov Q., G'aniyev D. O'zbekiston : mustaqillik odimlari. – T.: “Sharq”, 1995.
10. Bobojonova D. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. –T.: “Fan”, 1995.
11. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. (Darslik). –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2006.
12. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: “Ma'naviyat”, 2017.

8-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

8.1. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi.

8.2. Milliy va diniy qadriyatlarga tayanish demokratik jamiyat qurishning muhim sharti

8.3. Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘rni

Tayanch tushunchalar: mustaqillik, YUNESKO, "Alpomish", Amir Temur, ma’naviy va ma’rifiy hayot. Milliy istiqlol g‘oyasi, mafkura, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an’analari, tarixiy shaharlar, "Islom madaniyati poytaxti" "Ro‘za hayiti, Qurbon hayiti, Milliy sport, Beshta tashabbus.

18.1. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi

Birinchi masala bayoni. Mustaqillik-yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari partiyaviy, sinfiy yondashuvlardan xalos etildi, tarixiy voqealarni xolislik, haqqoniylik, tarixiylik tamoyillari asosida tadqiq qilishga kirishildi. Ibn Sino, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur singari mutafakkirlarning asarlarini nashr etish yo‘lga qo‘yildi. Mustaqillik sharofati bilan Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg‘inoniyning ruhi shod etildi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan siymolarimiz nomi, hurmati o‘z joyiga qo‘yildi, ularning ma’naviy meroslari xalqimizga qaytarildi. YUNESKO qaroriga binoan 1994-yilda Parij, Istanbul va Karochida buyuk falakiyot olimi Ulug‘bek tavalludining 600-yillik yubileyi bayram qilinganligi xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasining e’tirofi etilishi bo‘ldi. Ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan,

shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har kaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz.

1990-yillarga kelib xalq bayramlari kunida «Katta tomoshalar» ko'rsatilib, masxarabozlar, qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar, polvonlar ishtirokida azaliy xalq tomoshalari namoyish etila boshladi. Bu paytda xalq bayramlarida askiyabozlik, mushoira, xalq o'yinlari o'tkazilishi an'anaga aylandi. Sho'rolar davrida xalq marosimlari, an'analari ham yo'qola borgani va bu insonparvarlik an'alarini tiklash zarurligi o'sha davrda ommaviy axborot vositalarida jiddiy ta'kidlana boshlandi.

1989-yil 28-fevralda O'zbekistonda Navro'z bayramini nishonlash to'g'risida qaror imzolandi. 1990-yilda esa 21-mart va umumxalq «Navro'z» bayrami dam olish kuni deb e'lon qilindi. Ushbu voqeani mamlakatimizning butun aholisi chuqur mamnuniyat, ko'tarinki ruh bilan kutib oldi.

Mustaqillik arafasi va uning dastlabki-yillarida o'zbek xalqining bayramlari, milliy urf-odatlari va marosimlarini tiklash jarayoni boshlandi. Tarixiy manbalar asosida qadimiy urf-odatlarni, xalqimizning bayramlarni o'tkazishga doir mavjud tajribalarini o'rganishga kirishildi. Milliy-an'naviy bayramlardan qaysi birlarini tiklash, ularni qanday tashkil qilish haqida xalq fikrlari o'rganilib, ular asosida bayramlarga doir ilmiy-amaliy qo'llanmalar yaratildi. Ajdodlarimizning asrlar davomida asrab-avaylab, e'zozlab avloddan-avlodga o'tkazib kelgan yaxshi an'analari yana sayqal topib, boyib, rivojlanishiga axamiyat berildi. Xalqimizning qadimiy Navro'z, Qovun sayli, Uzum sayli, Hosil bayrami kabi bayram marosimlari ommaviy nishonlana boshlandi.

Mustaqillikning dastlabki-yillaridan boshlab milliy an'analami tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istaklaridan kelib chiqib, xalq bayramlari, urf-odatlarini tiklashga katta e'tibor bera boshladi.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz kommunistik ma'naviyat zug'umlaridan ozod bo'ldi, erkin fikr, milliy tafakkur, milliy tiklanishga keng yo'l ochildi. Milliy tiklanish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, buning uchun xalq dunyoqarashini milliy istiqlol ruhida shakllantirish zarur. Bu, avvalo, ko'p jihatdan ma'naviyatga bog'liq. Shu boisdan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz ma'naviy merosini tiklash ishlari boshlanib ketdi. Xo'sh, ma'naviy meros nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Ma'naviy meros qadimiy zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar - siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi. U jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi.

Ma'naviy hayotdagi diniy bayramlar, hayit kunlarining respublikada umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ham ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishidir. Ma'naviy hayotda islom dinining alohida o'rni bor. Bu ilohiy ta'limot olamni anglash, dunyoviy tafakkur, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni idrok etish borasida beqiyos ahamiyatga ega. Butunjahon ahli diqqatini tortgan boy va rang-barang madaniy-ma'naviy merosimiz ikki qudratli to'lqin - dunyoviy ilmlar va diniy falsafiy tafakkurga tayanadi. Shu boisdanbu o'lmas qadriyatlar bugungi yangi davlatchiligimiz qurilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimiz ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va istiqlol davri bayramlarini xalqimizning qadimiy an'alariga monand holda shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov farmonlari asosida «Navro'z», «Ramazon hayiti», «Qurbon hayiti» va xalqimizning azaliy urf-odatlari, qadriyatlari rasman tiklanib, mamlakatimizda keng nishonlana boshladi.

Mamlakatda islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida I.A.Karimovning 1992-yil 7-martdagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilindi.

Bobomiz Amir Temurning mamlakatimizni jahondagi eng qudratli davlat darajasiga ko'tarish sohasidagi buyuk xizmatlari o'zining haqqoniy bahosini oldi. Amir Temurning nomi tiklandi. 1996-yil mamlakatimizda va jahon miqyosida Amir Temur-yili sifatida keng nishonlandi. YUNESKO qarori bilan 1996-yil aprelda Parijda Amir Temur tavalludining 660-yilligiga bag'ishlangan tantanalar bo'lib o'tdi. T.: Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temurga haykallar qo'yildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, Amir Temur nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi. 1997-yilda Xiva va Buxoro singari qadimiy shaharlarimizning 2500-yillik bayramlari tantanali suratda YUNESKO qaroriga binoan nishonlandi. 1998-yilda ulug' bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy va Ahmad al-Farg'oniyning 1200-yillik to'ylari tantana qilindi.

Respublika ma'naviy xayotida yuz berayotgan o'zgarishlar. Respublika Vazirlar Mahkamasi qoshida Din ishlari bo'yicha maxsus qo'mita tuzildi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida» Qonun qabul qilindi, unda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati o'zining aniq ifodasini topdi. Mustaqillik davrida dinning, eng avvalo, islom dinining milliy va umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqei tiklandi, diniy ulamolarning qadr-qimmatini o'z joyiga qo'yildi.

Navro'z bayrami, Ro'za va Qurbon hayitlarining tiklanishi faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, bu aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum, an'ana va udumlari, qadriyatlarimizning tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

Ma'naviyatni rivojlantirish yo'lida qo'yilgan muhim qadamlardan biri 1994-yilda respublikada «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazining tashkil etilishi bo'ldi. Markazning viloyat, shahar va tumanlarda bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular mahallalar, mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, shahar va qishloklar

aholisini ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ko'proq jalb etmoqda, aholi o'rtasida ilm-ziyo, ma'rifat tarqatmoqda. Markaz tomonidan nashr etilayotgan «Tafakkur» jurnali aholi orasida keng tarqalmoqda, xalqning milliy uyg'onishi, yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilining ahamiyati va o'ni qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'rtinchi sessiyasi 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda «Davlat tili haqida» Qonun qabul qildi. Qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisob-kitob, statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmoqda, Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari, geografik nomlarga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida ifodalandi. Natijada o'zbek xalqining, mustaqil davlatimizning qadr-qimmatini tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning tillari, qadr-qimmatini ham o'z o'rniga qo'yilgan.

1991-1992-yillarda O'zbekiston Oliy sudi 1984- 1989-yillarda to'qib chiqarilgan «paxta ishi»ni qaytadan ko'rib chiqdi. Sobiq SSSR Oliy sudi tomonidan ozodliqdan mahrum etilgan minglab sobiq rahbarlar va xo'jalik xodimlariga qo'yilgan aybnomalarning asossizligi isbotlandi va adolat tiklandi. 1999-yili Toshkentda «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan mustaqillik maydonida «Xotira obidasi» va 2000-yil may oyida «Shaxidlar xotirasi» maydoni majmui yaratildi. Bu mustaqil mamlakatimiz ma'naviy hayotida yuz bergan muhim voqea bo'ldi.

2014-yil 10 fevralida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 573-yilligi nishonlandi.

O'zbekistonning YUNESKOga qabul qilinishi, 1993-yil oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning Fransiyaga safari chog'ida 29 oktyabr kuni YUNESKOning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKOga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600-yilligini

nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktyabrda Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro YUNESKOning jahon madaniy qadriyatlari ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor. Samarqand, Buxoro, Xivaning me'moriy majmualarini qayta tiklash ishlariga YUNESKO eksperti - qayta tiklovchi me'mor Jovanni Bokkardi O'zbekistonga yordamlashdi.

YUNESKO O'rta Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat berdi. «Ipak yo'li- muloqot yo'li» deb nomlangan yirik tadqiqotda Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. Olti jildlik «Markaziy Osiyo ma'rifati tarixi» tayyorlanib nashr etildi. 1992 va 1994-yillarda uning ikki jildi nashr etildi. Mintaqa mamlakatlari mutaxassisleri unda qatnashdi. YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyoni tadqiq qilish xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida institut tantanali ravishda ochildi. YUNESKO Amir Temur tavalludining 660-yillicini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va unga binoan 1996-yil aprelda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500-yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi.

"Alpomish" xalq dostoni yaratilganining 1000-yilligi, "Avesto"ning 2700-yilligi, Shahrissabz shahrining 2700-yillik, Samarqandning 2750, Marg'ilonning 2000 va Toshkent shahrining 2200-yillik yubileyleri YuNESKO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

YUNESKO yurtimizdagi ko'plab madaniy tadbirlarning mehmoni, tashkilotchisi va ishtirokchisidir. «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida ham tashkilot muntazam qatnashib keladi.

YUNESKOning Birlashgan maktablar dasturi tarmog'i ta'lim sohasidagi asosiy dastur hisoblanadi. Dunyodagi olti mingdan ziyod maktab Birlashgan maktablar dasturi a'zosidir. Ushbu dasturning asosiy maqsadi xalqaro hamjihatlik, tinchlik, madaniyatlararo muloqot va barqaror taraqqiyot g'oyalarini targ'ib etish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi mamlakatimizda ushbu tarmoqni

rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda. 1996-yildan buyon mazkur tarmoqqa yurtimizning 45 ta'lim muassasasi a'zo bo'lgan.

YUNESKO tomonidan 2003-yilda "Barqarorlik va taraqqiyot uchun ta'lim 10-yilligi" e'lon qilindi. Ushbu dastur doirasida aholining til o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish, ma'naviyat va ma'rifat yo'nalishlari bo'yicha ta'limni rivojlantirish, fan-texnika yutuqlaridan yanada keng foydalanishni ta'minlash kabi vazifalar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

YUNESKONing fan dasturlari doirasida biologik xilma-xillikni asrash va tabiiy manbalardan oqilona foydalanish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan loyihalar amalga oshirildi.

Madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish va saqlash YUNESKO faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. YUNESKONing Jahon merosi durdonalari ro'yxatiga qadimiy Samarqand va Shahrisabz, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Xivadagi Ichanqal'a majmui kiritilgan bo'lib, tashkilot ularni dunyoga tarannum etishda muhim o'rin tutmoqda.

Jahon xalqlari milliyligini saqlab qolish, uni muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishni ta'minlash maqsadida 2003-yil 17-oktyabrda Parijda YUNESKONing nomoddiy madaniy meros muhofazasi bo'yicha konvensiyasi qabul qilindi. Davlatimiz ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilib, unga a'zo bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markaziga davlat va nodavlat tashkilotlarning nomoddiy madaniy meros masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muassasa maqomi berilib, markaz tarkibida hujjatlashtirish bo'limi tashkil etildi.

Ushbu bo'lim bugungi kunda nomoddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, muhofaza va targ'ib qilish borasida ish olib boryapti. Shu kungacha - «Shashmaqom», Boysun madaniy muhiti, Katta ashula, Navro'z, Askiya singari besh durdona merosimiz insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritildi va «Palov madaniyati va an'analari» hujjatlari representativ ro'yxatga kiritish uchun YUNESKOGa taqdim etildi.

2017-yil 8-sentyabr kuni Toshkenda «O‘zbekim» Milliy qadriyatlar festivali o‘tkazildi. Festivalda O‘zbekistonda 7 tonnadan ortiq eng katta va mazali palov tayyorlandi, hamda Ginnes Rekordlar kitobiga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘mi beqiyosdir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kitobxonlik va kitob mutolaasini ommalashtirishga yo‘naltirilgan bir qator Farmonlari, Qarorlari qabul qilingan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son qarori va boshqalarni misol keltirish mumkin. Zero yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”.

8.2. Milliy va diniy qadriyatlarga tayanish demokratik jamiyat qurishning muhim sharti

Ikkinchi masala bayoni. O‘zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi qadriyatlar ham alohida o‘ringa egadir. Mustaqillik tufayli unga bo‘lgan yangicha yondashuvlar birinchi Prezident I.A.Karimovning milliy va umumbashariy qadriyatlar to‘g‘risidagi metodologik ilmiy

mulohazalari hamda amaliy faoliyatlaridagi ko'rsatmalari, tashabbuslari buning yorqin misolidir. Milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risida bir qator mamlakatimiz olimlarining fikr va mulohazalarini umumlashtirish lozim. Negaki, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga asoslanadi.

Adabiyotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, o'tmishdagi barcha ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta e'tibor berishgan. Agarda qadimgi dunyo ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining mahsuli deb qaralgan bo'lsa, Turondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida jumladan, "Avesto"dagi, uchinchi davr, deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar tarixiy ildizlarni tashkil etadi.

Biron-bir narsa va hodisa, xoh u moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin, qadriyatga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt, davr o'tishi kerak. Demokratiyani milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib o'tgan. o'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat hisoblanavermaydi. Uning milliy qadriyatga aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishda o'tmishimizdagi barcha narsalarimizni to'raligicha ololmaymiz. Negaki u hamma uchun ibratli emas.

Shu o'rinda birinchi Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi «... o'tmish qadriyatlariga, an'alariga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin». Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muholifatning vujudga kelish havfi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muholifat bo'lishi mumkin edi⁷⁰. Ba'zan shunday ham bo'ladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat

⁷⁰ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. -T.: «O'zbekiston», 1998, 126-b.

o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o'zlikni anglashga hizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarning qaror topishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarga "Qoloqlik" yoki "inson erkinligini cheklovchi omil" sifatida qarash demokratiyaga zid holatdir. Milliy qadriyatlarga tayanish demokratik taraqqiyotga xizmat qiladi.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'ladi. Binobarin, har bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Halqlarning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming-yillar mobaynida sharq halqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib hizmat qildi. Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib shunday deb ta'kidlaganlar: "Uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston halqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga hos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"⁷¹ Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo'lmaydi. qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning obyektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o'tishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo'lgan qadriyatlarga kiradi. Umuminsoniy

⁷¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: "O'zbekiston", 1997, 141 b.

qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir.

Markaziy Osiyo halqlarining milliy qadriyatlardagi o'ziga hos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom;
- b) ajdodlar xotirasiga sadoqat;
- c) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat
- d) insoniy muomalada mulozamat;
- e) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham harakterlanadi.

Ma'lumki, demokratik qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular: mahalliy, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy mazmunda namoyan bo'ladi.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlarning ustuvorlarini o'z darajasiga ko'taradi va ularni voyaga yetkazib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi. Umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishi o'zining boyligiga aylantirgandagina milliy tamoyillar o'z kuchini ko'rsatadi. "Shu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda orqaketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka — hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin"⁷² deb ta'kidlaydi, birinchi Prezident I.A.Karimov. Biz bugungi kunda haqiqiy qadriyatlarimizni:

- tadrijiylik, andishalilik asosida;
- bo'hron paytida sabr-toqat, maromiylilik va vazminlik asosida
- mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat asosida;
- ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik, sipolik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirmoqdamiz.

Milliy qadriyatlar qandaydir o'zgarimas hodisalar emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlar o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon

⁷² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: "O'zbekiston", 1997, 138 b.

yaratiladi. har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. Shu nuqtai nazardan qadriyatlarning demokratik tamoyillar bilan qaror topishidagi o'miga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e'tibor berish kerak: birinchisi— qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi o'sha davrlarga hos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlarni ham bilish kerak. Shuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarmi, mintaqaviy qadriyatlarmi, milliy qadriyatlarmi uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligini, ular o'rtasida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligi, vorisiylik masalalarini ham o'rganish zarur. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir.

Ayni paytda, fikrimizcha, muayyan milliy, sinfiy, mintaqaviy, shaxsiy va boshqa xususiy qadriyatlar tizimi ham umuminsoniy qadriyatlar tizimining o'rini bosa olmaydi.

Demokratik jamiyatini barpo etishda umuminsoniy qadriyatlarining namoyon bo'lish hususiyatlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, uning bu hususiyati har doim ham ko'zga tashlanavermaydi. Shunga ko'ra, demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda uning quyidagi namoyon bo'lish shakllarini alohida ta'kidlash zarur.

a) demokratik jarayonlarning uzviyligi asosida milliy qadriyat sifatida shakllantirish;

b) odamlarning tafakkuri va ijtimoiy-siyosiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasini mutanosib bo'lishiga erishish orqali;

v) jamiyatdagi turli hil guruhlar qarashlarini yagona maqsad – «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan milliy g'oya asosida hamjihatlilik, millatlararo totuvlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosida;

g) demokratik jarayonlar halqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash;

d) siyosiy munosabatlarda ham ahloqiy, ma'naviy, milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish orqali umumbashariy demokratik

tamoyillarni mamlakat fuqarosining turmush ehtiyojiga aylantirish va boshqalar.

Demokratik adolatli jamiyat barpo etishda umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga hos bo'lgan kundalik muloqotlardagi mazmun bilan falsafiy aksiologik ma'no o'rtasidagi farqqa e'tibor berish lozim. Shu nuqtai nazardan bizning fikrimizcha, umuminsoniy qadriyat deganda, eng avvalo, jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrlil va uning ma'naviy kamoloti uchun hizmat qiluvchi umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalarning nomi, ularning ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy aksiologik tushunchalarni nazarda tutiladi. Demak, umuminsoniy qadriyat deganda, jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarining mezoni sifatida baholanadi. Shu bilan ham umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik tamoyillarning o'zi uning shakllanishi uchun keng maydon ochib beradi. Biroq, bundan milliy qadriyatlarining o'rni ana shu tizimda passiv holatda ekan-da degan hulosani chiqarmaslik kerak. Negaki, qadriyatlar tizimida millat, unga hos bo'lgan belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan hudud, makon va u bilan bog'liq tuyg'ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi zanjirning muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shunga ko'ra, millat har qanday milliy qadriyatning obyekt, uni yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turganligi bilan ham yashovchanlik xususiyatiga ega. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ulami doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, birinchidan, milliy qadriyatsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas.

Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir. Ikkinchidan, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib, o'zgarib boradi. Uchinchidan, millat milliy qadriyatning haqiqiy egasi. Demak, millat uning makon va zamondagi harakati ham, o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham, avloddan avlodga yetkazib beruvchisi ham, uning asosiy obyekti hamdir. To'rtinchidan, milliy qadriyatlarning takomillashmaganligi millatning yo'q bo'lib ketishi va ohir oqibatda egasiz bo'lib qolishining boshlanishidir. Sobiq sho'rolar davrida millatga bo'lgan hujum eng avvalo, uning qadriyatlariga bo'lgan hujumdan boshlanganligi tasodifiy hol emas edi. Buning bir qator misollarini ko'hna tarixdan ham, hozirgi davrdan ham ko'plab keltirish mumkin. Beshinchidan, milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi bu faqat ularning o'zini o'zi asrab qolishining asosiy masalasi deb qarash kerak emas. Balki har qanday millatning saqlanib qolishi uchun har bir millatning o'zi javobgar, mas'ul bo'lishi shart. Ana shu javobgarlik, mas'ullik darajasi milliy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda qozog'istonlik professor, faylasuf G'Qodirjonov halqaro konferensiyalarning birida shunday fikrni bildirdi: "qozoq ziyolilarining o'z ona tillarini o'rganishlari, o'zlashtirishi va o'z tillarida ilmiy falsafiy, siyosiy kitoblarni yozishi o'ta mushkul bo'lib qolayotganligining sababi - ular milliy ruhining erkinligiga nisbatan uzoq-yillar hukmron bo'lgan "qizil imperiyaning" mafkuraviy tazyiqining natijasidir. Bunday holatni Qirg'iziston va O'zbekiston ziyolilari o'rtasida ham kuzatish mumkin"⁷³

O'zbekistonda erkin, demokratik jamiyat qurish vazifasini amalga oshirish jarayoni demokratiyaning umuminsoniy va milliy-ma'naviy qadriyatlari uyg'un ekanligi e'tirof etiladi. Demokratiyaning asosiy belgisi u yoki bu mamlakatda halqni oliy hokimiyatning amalga oshiruvchi manbai ekanligini e'tirof etishdir. Ayni paytda turli halqlar halq hokimiyatining shakli va mazmunini turli davrlarda turlicha talqin etishlari mumkin. Masalan, demokratiyaning antik davrdagi talqini bilan Yevropadagi hozirgi zamon talqini ham aynan bir xil emas. Qaysiki, muhim demokratik milliy va umuminsoniy

⁷³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: "O'zbekiston", 1997, 138 b.

qadriyatlar va tamoyillar turli xil siyosiy rejimlarda, unga mos ravishda shu mamlakat va mintaqadagi xalqlarning milliy-madaniy, tarixiy va boshqa an'analarida o'zining hayotiy ifodasini topgan.

Bugun shuni alohida qayd etish mumkinki, demokratiya turli xil milliy-madaniy sharoitlarda yashay olish xususiyatiga ega ekanligini isbotladi. Bu degani bir tomondan, demokratiyaning milliy hususiyatlari mavjudligini ko'rsatsa, ikkinchidan, uni turli halqlar, millatlar hayotida, davlatchilik qurilish an'analarida namoyon bo'lishidan dalolatdir. Shunda o'zining milliy-ma'naviy qadriyatlariga tayanmagan, uni hisobga olib, ayni paytda umuminsoniy qadriyatlar, tamoyillar bilan uyg'un bo'lmagan demokratiyani haqiqiy demokratiya yoki demokratik jamiyat deb bo'lmaydi. Bu sohada hamon ayrim bahslar mavjud. Uni tahlil etish va munosabat bildirish haqiqatni anglashga yordam beradi. Masalan: "Sharq demokratiyasi", "G'arb demokratiyasi"ni tushunish bo'yicha: bir tomondan, demokratiyani umuminsoniy qadriyat ekanligiga tayangan holda uni "Sharq", "G'arb" ko'rinishlariga bo'lib o'rganishga nisbatan e'tirozli fikrlarning mavjudligidir. Yoki, bunday yondashuv bugungi globallashuv jarayoniga to'g'ri kelmaydi, hozir ko'proq globallashuv jarayoni to'g'risida gapirish lozim deyyuvchilar ham borligida ko'rinadi. Sharqona demokratiyani qo'llash orqasida o'zimizning ayrim qusurlarimizni "yashirish" holatlari bor degan nuqtai nazar. Ikkinchidan, Sharqona demokratiya orqali "Sharqni" ulug'lash, faqat yutuqlarni ko'rish, bir tomonlama unga mahliyo bo'lish, o'zini maqtash kayfiyati mavjud. Shuning uchun ham uni bo'lib o'rganish, uning o'rtasida "Hitoy devorini" qo'yish to'g'ri emas, degan nuqtai nazardir. Yana bir qarashda esa "Sharq" va "G'arb"ga hos bo'lgan demokratiyaning o'ziga hos hususiyatlarini e'tirof etish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Avvalo, "Sharq" va "G'arb" atamaları to'g'risida tabiiy yondashganda bu tushuncha umume'tirof etilgan va keng jamoatchilikka yahshi singganligi ma'lum. Ayni paytda u tobora kengroq ma'no-mazmun kasb etib bormoqda. U bugun siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy ma'no kasb etayotganligini ham ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, "Sharqona demokratiya" yoki "G'arbna demokratiya" atamasini alohida-alohida tarzda ishlatilishi demokratiyaning umuminsoniy

ma'no-mazmuniga, umume'tirof etilgan qadriyat sifatida uning umumiy mohiyatiga soya tashlamaydi. Boshqacha aytganda, "Demokratiya" (Sharqda ham G'arbda ham) umume'tirof etilgan tushuncha. Bu sohada o'zaro bahs, keskin ihtiloflar yo'q. Muammo: 1) "Sharqona" yoki "G'arbona" demokratiya o'rtasidagi farqni anglashda kimning qanday tushunib yondoshishi bilan bog'liq. Bunda muammo demokratiyaning umumiy, yagona mohiyatida emas, uning o'ziga xos milliy-ma'naviy xususiyatlarini farqlash, e'tirof etish bilan bog'liq. Albatta "Sharqona" demokratiya to'g'risida fikr yuritib uni "G'arb" demokratiyasidan ustun qo'yishga, yoki G'arb demokratiyasini sharqdan ustun qo'yishga, uni kamsitishga bo'lgan urinishni ham, yoki Sharqona demokratiya to'g'risida gapirganda uni faqat ijobiy jihatlarini bo'rttirib, ayrim nuqson, zararli, zamon ruhiga mos kelmaydigan, bugungi dunyo e'tirof etgan qadriyatlardan orqada qolgan tomonlarini ham hisobga olmaslik mumkin emas. Shuning uchun ham unga qanday ma'no berish, uning mazmun-mohiyatini holisona yondoshib munosabat bildirish bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ta'kidlangan "ommaviy madaniyat" masalasiga diqqatni qaratish lozim. Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming-yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi⁷⁴. Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu

⁷⁴Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: O'zbekiston, 2008. 116 bet

fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'zni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday «madaniyat» namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni ta'qirlash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun avvalambor, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart.

Demokratiyaning biron-bir ko'rinishini mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Demokratiyaning milliy xususiyatini, umumbashariy tamoyillarini tan olishni jamiyat rivoji, davlat va jamiyat qurilishi, uni erkinlashtirish jarayonlari taqozo etadi. O'zbekistonda demokratiyaning Sharqona xususiyatlarining e'tirof etilishining mohiyatini shunda ko'rish mumkin. Shuning uchun ham mamlakatimizda demokratiyaga milliy va umumbashariy qadriyat sifatida qaralmoqda. Aks xolda biron-bir davlat yoki jamiyat qurilishi boshqa davlat yoki xalqlar uchun yagona andoza bo'lib xizmat qilavergan bo'lar edi. Bu esa demokratik taraqqiyotning xilma-xilligiga, rivojlanish modellarining rang-barangligiga to'g'ri kelmaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar inson ma'naviy, ijtimoiy kamolotining qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlari dir.

Bu qadriyatlar butun insoniyat tomonidan qo‘lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ishiga xizmat qiladi. Bu borada biror chekinishlarga, milliy mahdudlikka va kalondimog‘likka yo‘l qo‘yish nihoyatda katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddimasida O‘zbekiston halqi:

– inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalari g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e‘lon qilib,

– hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas‘uliyatini anglagan holda,

– O‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,

– demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,

– xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,

– respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta‘minlashga intilib,

– insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlab,

– fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta‘minlash maqsadida,

– o‘zining muhtor vakillari siyomosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi deyilgan.

O‘zbekiston suveren demokratik davlat bo‘lib, xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Bu haqda Konstitutsiyaning 13-moddasida shunday deyilgan: «O‘zbekiston Respublikasi demokratik umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»⁷⁵. Demak, demokratik davlatda xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai bo‘lib, umuminsoniy tamoyillarni

⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2019. 11-b.

amalga oshirish orqali inson va jamiyatning farovonligini, barcha xalqning turmush darajasini oshirib borishga erishadi.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana biri - jamoatchilik fikridir. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. Shu nuqtai nazardan, tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

Ayni paytda demokratiyaning G'arbna ko'rinishini mutloqlashtirish, uni yagona andoza, model sifatida boshqa xalqlar hayotiga zo'rlik orqali tiqishtirishga urunish – haqiqiy demokratiyaga zid holatdir.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq xalqimizning boy ma'naviy merosini tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, uni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi. Chunonchi, agar istiqlolning dastlabki-yillarida jamiyat ma'naviy hayotidagi eng bosh vazifa fuqarolarda sobiq sho'rolar davriga xos tafakkurni eskicha fikrlash sarqitlaridan bartaraf etish bo'lgan bo'lsa, ikkinchi muhim vazifa sifatida fuqarolik jamiyatini shakllantirish belgilandi. Zero, istiqlol tufayli mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish uchun juda katta va muhim ijtimoiy-siyosiy, huquqiy asos yaratildi.

1995-yilda Amir Temur xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil etilib, Prezident Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur-yili deb e'lon qilindi. Shu-yili Sohibqironning 660-yilligiga bag'ishlangan yubiley mamlakatimizda va jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKONing Parijdagi bosh qarorgohida Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi (1996-yil 20-26-aprel), "Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" mavzuida ilmiy konferensiya va

ko'rgazma bo'lib o'tdi. Amir Temurning shaxsi butun ma'rifiy insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi.

Amir Temur yubileyi munosabati bilan o'nlab tarixiy obidalar ta'mirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi va bog'lar yaratildi. 1996-yil 18-oktyabrda Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida ko'rkam Amir Temur maydoni barpo etildi va buyuk ajdodimizga ulug'vor haykal o'rnatilib, 28-avgustda har ikki shaharga "Amir Temur" ordeni topshirildi. 1996-yil 18-oktyabr – Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi tantanali ravishda ochildi. 1996-yil 23-26-oktyabrda Toshkent shahrida "Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rnini" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Shuningdek, 1999-yil 5-noyabrda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800-yilligi nishonlandi. Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmui barpo etildi. E'tiborli jihati, 1999-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "9-mayni Xotira va qadrlash kuni, deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonning ijrosi sifatida 1999-yil 9-mayda mamlakatimizda birinchi bor 9-may – Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlandi. Mazkur tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotiraning tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000-yil 12-mayda Toshkentning Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv bo'yida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui ochildi. 2001-yil 31-avgust – qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida O'zbekistonda ilk bor o'tkazildi. 2002-yil 31-avgust kuni Toshkentning "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi tashkil qilinib, 2008-yil 31-avgustda uning yangi ekspozitsiyasi ochildi.

Zamonaviy, mustaqil va erkin o'zbek xalqining milliy, ma'naviy jihatdan ko'p qirrali taraqqiyotga erishishida juda qadim zamonlardan beri shakllanib, kamol topib kelayotgan boy madaniy merosi, an'analari, urf-odatlar, qadriyat-udumlarining ahamiyati g'oyat beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan, ushbu bebaho omillar

mustaqil O'zbekistonning kelgusidagi jadal ravnaqini ta'minlashda, jahon hamjamiyatidagi mavqeining yanada yuksalishi uchun xizmat qilishi tabiiy.

Prezidentimizning 1990-yil 2-maydagi Farmoni⁷⁶ bilan Navro'z an'anaviy bayrami qayta tiklanishi natijasida tarixiy o'zlikni anglashdagi haqiqat qaror topdi. Navro'z nafaqat o'zbeklarning, balki diyorimizda yashayotgan jamiki millat va elat vakillarining ham ardoqli va sevimli bayramiga, xalqlar do'stligi va birodarligini mustahkamlashning muhim vositalaridan biriga aylandi. Zotan, Navro'z ezgulikning timsolidir. U shunchaki namoyish emas, balki insoniy tuyg'ularga ma'naviy quvvat beruvchi, ularni yaqinlashtiruvchi, yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlovchi bebaho qadriyatdir.

Ayni paytda Mehrjon, Hosil bayrami, Qovun sayli, xalq bayramlari, sportning milliy turlari hamda turli xalq o'yinlari keng o'rin oluvchi badiiy sport bayramlarining ulkan ko'lamda tiklanishi fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashi – e'tiqodini shakllantirish va mustahkamlashda, ularda ona zaminga mehr-muhabbat bilan qarash, rizq-ro'zimiz asosi bo'lmish suvni tejab-tergab sarflash, tabiatni, yer osti va yer usti boyliklarini asrash, bobodehqon mehnatini e'zozlash, umuman, o'lkamizdagi jamiki jonzod va tabiatni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati bois mo'`tabar Qur'oni Karim va hadislarni chop etish imkoniyati paydo bo'ldi. Jumladan, 1991-yilda Qur'oni Karim ilk bor o'zbek tilida Alouddin Mansur tarjimai va Imom al-Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" – 4 jildlik hadislar to'plami o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. 1991-yil 14-iyulda O'zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach, vijdon erkinligi, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar konstitusion tamoyillar asosida tartibga solindi. 1998-yil 1-may kuni ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

E'tiborli tomoni, 1992-yil 27-mart kunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ro'za hayiti va Qurbon hayitining

⁷⁶ Qarang: "Sovet O'zbekistoni" gazetasi. 1990 yil, 3 may.

birinchi kunlarini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. O'zbekiston Prezidentining 1990-yil 2-iyundagi "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida"gi Farmoniga binoan O'zbekiston xalqi vakillari tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har-yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mustaqillik-yillarida 100 mingdan ortiq o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. "Islom nuri" gazetasi va "Hidoyat" jurnali nashr etilmoqda.

Ma'rifatparvar allomalar Beruniy, ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Nasafiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Mahdumi A'zam va boshqa bobokalonlarimizning boy ma'naviy meroslari, ma'rifat va madaniyat ravnaqi borasidagi dunyoqarashi, nazariy qarashlari, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlari hozirda mustaqil O'zbekistonimizda yashayotgan millat va elat vakillarini ezgu orzular sari yetaklamoqda, xalqlar o'rtasida birodarlik va hamjihatlik ruhini kuchaytirmoqda.

8.3. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni

Uchinchi masala bayoni. Mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ana shu ezgu g'oya Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida boshlanib, qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi. Mazkur hududdagi tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Musiqa va san'at maktablari cholg'u asboblari, sport obyektlari jihozlar bilan ta'minlandi.

Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirilib, "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Ushbu 5 tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Yig'ilishda bu tajribani O'zbekistonning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazi, 312 ta musiqa va san'at maktabiga atigi 130 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olingani, mazkur muassasalarning aksariyati o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi.

Atoqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida birlashtirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi.

Musiqqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, yurtimizda 12 mingdan ziyod sport inshooti borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi etarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha 56 foizni tashkil etgani holda, Surxondaryo viloyatida atigi 12 foiz, Xorazmda 14 va Qoraqalpog'istonda 15 foiz, xolos.

Yig'ilishda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi.

Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o'rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar manbasini aniqlash vazifasi yuklatildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari barpo etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga Milliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga taniqli xalqaro musobaqalar g'oliblarini rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Videselektor yig'ilishida yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha shaharlarda va tumanlar markazida Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovasion ko'nikmalar shakllantiriladi, "startap" loyihalarga yordam ko'rsatiladi.

Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari bo'lishiga qaramasdan, internet xizmatidan etarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021-yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o'yinlari markazlarini tashkil etish, ularda bolalar va yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi. Lekin ko'plab qishloq va mahallalarda

buning uchun zarur sharoit mavjud emas. Ilgarigi kutubxonalar o'zida tashkil etilgan Axborot-resurs markazlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmadi.

Shu holatlarni hisobga olib, yangi tashabbus doirasida yoshlar sonidan kelib chiqqan holda joylarga qo'shimcha kitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va idoralarga "Ma'rifat karvoni" loyihasi doirasida badiiy, ma'rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'lmagan miqdorda yetkazib berish bo'yicha topshiriq berdi.

Yig'ilishda mahalliy hokimliklar har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etishi kerakligi ta'kidlandi. Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligiga barcha shahar va tumanlarda ko'chma kitob pavilonlarini joylashtirish, "Bibliobus"larni yo'lga qo'yish orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish vazifasi yuklatildi.

Yig'ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

Shu maqsadda 2019-2020-yillarda barcha tumanlarda sendvich panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonasi tashkil etish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko'p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz mehnat qilish istagidagi ayollar ish o'rinlari sonidan ancha ko'pligini hisobga olib, korxonalarda ishni 2 smenada tashkil etish, ularda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda qayd etilgan 5 tashabbusni keng joriy qilish maqsadida barcha hududlarga mutasaddi rahbarlar mas'ul qilib birlashtirildi. Shuningdek, bu vazifalarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar hokimlari, "Nuroni", "Mahalla" jamg'armalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi rahbarlari shaxsan mas'ul va javobgar etib belgilandi.

Nazorat savollari

1. Mustaqillik-yillarida ma'naviy va ma'rifiy hayot, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi ahamiyati.
2. Mustaqillik-yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tiborni nimalarda ko'rish mumkin?
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati.
4. Mustaqillik-yillarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlanishi va ma'naviyatning, madaniy qadriyatlarning o'rni.
5. Tarixiy shaxslar va shaharlarimiz yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi.
6. O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan beshta tashabbusning ilgari surishi va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni.

Test savollari

1. **O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov fikricha, mafkuraviy poligonlarda qanday kurash ketmoqda?**
 - A) Doimiy
 - B) Evolyutsion g'oyalar
 - C) Dushman goyalar
 - D) Sakrashsimon.
2. **Mafkuraviy soha:**
 - A) Siyosatga tegishli
 - B) Iqtisodga tegishli
 - C) San'atga tegishli
 - D) Siyosiy hokimiyatning asosiy shartlaridan biri
3. **Demokratiya so'zining ma'nosini ko'rsating.**
 - A) xalq hokimiyati
 - B) erkinlik
 - C) huquqlar tengligi
 - D) odillik
4. **Milliy-ma'naviy tiklanish nima?**

- A) Milliy merosni tiklash
- B) Milliy madaniyatni tiklash
- C) Milliy o'z-o'zini anglash
- D) Milliy iqtisodiyotni tiklash

5. Ma'naviy islohotlar mohiyati:

- A) Xalqning bilimini oshirish
- B) Ma'naviy merosni tiklash va rivojlantirish
- C) Yoshlarning salohiyatini rivojlantirish
- D) Mamlakat infrastrukturasi takomillashtirish.

6. Diniy bag'rikenglik nima?

- A) Turli din vakillarini ma'lum maqsadga birlashtirish
- B) Buddistlar va iudaistlari birligi
- C) Turli diniy e'tiqoddagi kishilar ahilligi
- D) Musulmon va xristianlari ittifoqi

7. Ekstremizm nima?

- A) Ashaddiy fanatik guruhlar faoliyati, mafkurasi
- B) Diniy oqim
- C) Siyosiy oqim
- D) Fundamentalizm ko'rinishi.

8. Aqidaparastlik mohiyati:

- A) Yakka mafkura hukmronligi uchun birlashuv
- B) G'oyaviy – diniy mafkurani kuchaytirish
- C) Ekstremizm ifodasi
- D) O'z dinini ustun qo'yish

9. Vijdon erkinligi nima?

- A) Dinning dastlabki shakllariga e'tiqod
- B) Xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki qilmaslik
- C) Xohlagan ma'lumotni olish va tarqatish
- D) Islom diniga e'tiqod qilish

10. I.A.Karimov fikricha, jamiyatdagi islohotlarning asosiy maqsadi:

- A) Xalq ozodligi va farovonligi
- B) Yakka milliy davlatni yaratish
- C) Inson manfaatlarini ko'zlaydi
- D) Islom modernizatsiyasi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.
2. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. –T.: “O‘zbekiston”, 2005.
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: “O‘zbekiston”, 1996.
5. Karimov I.A. Ma‘naviy yuksalish yo‘lida. –T.: “O‘zbekiston”. 1998.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
9. Erkaev A. O‘zbekiston yo‘li. – T.: “Ma‘naviyat”, 2011.
10. Abdullayev M., va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: “Sharq”, 2006.
11. Sabirov A. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T.: “Akademiya”, 2013.
12. Jurayev N., Fayzullayev T. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. –T.: “Sharq”, 2000.

9-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

- 9.1. Mustaqillik-yillarida ilm-fanning rivojlanishi.
- 9.2. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirishning yangi bosqichi
- 9.3. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning o‘mi va roli.
- 9.4. Yoshlarga oid davlat siyosatini ta’lim sohasida amalga oshirilishi

Tayanch tushunchalar: Xorazm Ma’mun akademiyasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun(1997) «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997) Sh.M.Mirziyoyev “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun(2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi, Jamoatchilik kengashi, Respublika oliy ta’lim kengashi .

9.1. Mustaqillik-yillarida ilm-fanning rivojlanishi

Birinchi masala bayoni. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach dastlab, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov istiqloqlning ilk kunlarida mamlakatda “ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi” – deb belgilab berdi. Mustaqillikning birinchi-yillaridanoq ta’lim tizimini isloh qilishga alohida e’tibor berildi. Chunki, aynan ta’lim milliy davlatchilikni barpo etish, ma’naviy uyg‘onish, iqtisodiy yuksalish yo‘lida paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni engib o‘tishda odamlarga madadkor bo‘ladi”.

Ta’lim sohasida davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri, bu – ma’naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg‘onish g‘oyasi asosida ma’naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazish qat’iy belgilab olindi.

Ta’lim sohasida o‘tish davrida umumiy va kasb ta’limi sifatining davlat standartini, ta’lim sohasida moliyaviy mablag‘lardan samarali

foydalanishni ta'minlash, ta'lim tuzilmalarini rivojlantirish vazifasi birinchi o'ringa chiqdi.

Mustaqillik-yillarida yuzaga kelgan tamomila yangi tarixiy shart-sharoit ilm-fan sohasini tub islohot qilishni taqozo etdi. Zero, dolzarb ilmiy-texnik muammolar hal qilinishi respublikaning rivojlanishini ta'minlaydi.

Avvalo, ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ – Oliy attestatsiya komissiyasi O'zbekistonni birinchi Prezidentining 1992-yil 31-martdagi farmoni bilan tashkil etildi. Prezidentning 1992-yil 8-iyuldagi "Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-iyuldagi qarori asosida Respublika olimlari xorijiy mamlakatlarga tajriba oshirishga yuborilishi yo'lga qo'yildi. Ilmiy natijalarni ichki va tashqi bozorga olib chiqish bilan shug'ullanuvchi Respublika ilmiy ishlanmalarni innovatsiya tijorat markazi Fanlar akademiyasi tarkibida tashkil etildi.

O'zbekistonni birinchi Prezidentining 1997-yil 11-noyabrdagi farmoni bilan Xorazm Ma'mun akademiyasi qayta tiklanib, Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'linmasi sifatida tashkil etildi.

2000-yili Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining (hozirgi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayxon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi) qo'lyozmalar fondi dunyoning eng boy qo'lyozmalar xazinasidan biri sifatida YUNESKO madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

2008-yildan buyon mamlakatimiz poytaxtida innovasion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasini o'tkazib kelmoqda. 2008-2015-yillar davomida o'tkazilgan I – VIII yarmarkalar doirasida jami 4000 dan ortiq ishlanmalar taqdim etildi. 2008-yildan buyon umumiy qiymati 113 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan 3000 dan ziyod shartnomalar tuzildi.

O'zbekiston olimlari demokratik va huquqiy jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy rivojlanishini tadqiq qilish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish, energetika va energiya xom ashyoni tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni, axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya, kimyo, bio

va nanotexnologiyalarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tibbiyot, farmakologiya, geologiya, geofizika, seysmologiya bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishib kelmoqda.

Xususan, 2007-yili oktyabr oyida Maydanak rasadxonasida astronomlar quyosh tizimida yangi kichik sayyorani aniqlashdi, unga 2009-yili Garvard kichik planetalar Markazi 210271 raqamini berdi. 2010-yilda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov taklifiga binoan Mirzo Ulug'bekning butun dunyoga mashhur Samarqand astronomiya maktabi xizmatlari sharafiga "Samarqand" deb nom berildi.

Arxeologlar tomonidan Obirahmat g'oridan neandertal va zamonaviy kishilar qiyofasining aralash tipidagi gominid qoldiqlari topilishi Markaziy Osiyo mintaqasi ham O'rta yer dengizi, Xitoy kabi ilgari ma'lum bo'lgan qadimgi dunyo markazlari qatoriga kirishini isbotladi.

Fanning boshqa yo'nalishlaridagi olimlar ham yirik natijalarni qo'lga kiritishmoqda. Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti tomonidan tayyorlangan 10 jildlik "Tabiiy birikmalar (O'simlik zahiralari, tuzilishi va xossalari)" nomli noyob ma'lumotnoma ingliz tilida Londondagi Shpringer nashriyotida chop etildi. Bu ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlik rivojlanayotganidan ham dalolat beradi.

Mustaqillik-yillarida birgina Fanlar akademiyasining ilmiy mahsulot eksporti 8,2 martaga ko'paydi.

O'zbekiston fani va ta'limi integrasiyasini ta'minlash borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon 2012-yilga qadar Fanlar akademiyasi tizimida ilmiy-o'quv markazlari tashkil etilishi orqali amalga oshirildi. Jumladan, 2011-yili Fanlar akademiyasining Fizika-texnika institutida "Qayta tiklanadigan energiya manbalari" ilmiy-o'quv markazi, 2012-yili Immunologiya institutida "Biotibbiyot" ilmiy-ta'lim innovasion markazi ish boshladi.

2012-yildan esa, oliy ta'lim tizimida ilmiy sektor rivojini ta'minlash maqsadida Fanlar akademiyasining 5 ta ilmiy tadqiqot instituti, 4 ta mintaqaviy ilmiy markazlar ilmiy bo'linma tarzida qayta

tashkil etilib, yoʻnalishi va ixtisosliklariga koʻra ular tegishli oliy taʼlim muassasalariga oʻtkazildi.

2012-yili Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti, Fanlar akademiyasi Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti bilan hamkorlikda Yuqori texnologiyalar oʻquv-tajriba markazini tashkil etdi.

Fanlar akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish va akademik fan va taʼlim integratsiyasini kuchaytirish maqsadida 2014-yilda 2 ta institut va 1 ta boʻlinma oliy taʼlim muassasalari qoshidagi ilmiy-tadqiqot markazlari sifatida tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining 2012-yil 24-iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan oʻtkazish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi farmoniga muvofiq yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishiga sharoit yaratish maqsadida 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab dissertasiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish boʻyicha xalqaro standartlariga mos keluvchi oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlimning bir bosqichli tizimi joriy qilindi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqot bilan shugʻullanuvchi 400 ta muassasa roʻyxatga olingan boʻlib, fan sohasida 35,5 ming mutaxassis, jumladan, 2,5 ming fan doktori va 9,2 ming fan nomzodi faoliyat olib bormoqda.

Taʼlimda milliy modelning shakllanishi va rivojlanishi. Taʼlim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, gʻoyaviy-madaniy hayotining muhim tarmogʻidir. Taʼlim asoslari Oʻzbekistonda uning Konstitutsiyasi va “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun bilan kafolatlangan. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldagi qaroriga asosan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni amalga kirdi.

Mazkur qonunda respublikada taʼlimning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi eʼtirof etildi.

Istiqlolning dastlabki-yillaridayoq taʼlim tizimining yetakchi boʻgʻini hisoblanmish oliy oʻquv yurtlariga alohida eʼtibor qaratildi. Chunki mustaqillikni mustahkamlovchi, milliy boylukning oʻsishiga

imkon yaratuvchi, kuchli, qat'iyatli mutaxassislar ayni shu bo'g'ida tayyorlanadi.

Sho'rolar hukumati davrida hukmron tuzum yuzlab universitet va institutlar, bilim yurtlari, minglab ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatishi asosida o'zining "oliy ma'lumotli mutaxassislar soniga ko'ra dunyodagi birinchi davlat"ligini butun jahonga e'lon qilgan edi. Lekin ushbu ilmiy va o'quv muassasalarining son jihatidan ko'p bo'lgani bilan jahoniy andozalar darajasida emas edi.

Yetakchi o'quv muassasalarining aksariyati Markazda – Rossiyada joylashgan bo'lib, O'rta Osiyo mintaqasidan bu dargohlarga sanoqli vakillargina qabul qilinardi. Natijada milliy respublikalarda noyob ixtisosga ega mutaxassislar yetishmaydi, degan muammo sun'iy ravishda yuzaga keltirilib, Markazdan bu yurtlarga minglab kadrlar jo'natilardi.

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston mavjud muam-molami bartaraf etish maqsadida ta'lim sohasini isloh qilishga kirishdi. Eng zamonaviy, respublika uchun eng zarur ixtisosliklar bo'yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtiso-diyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti kabi o'nlab yangi o'quv muassasalari tashkil etildi.

Viloyatlarda ham yangidan-yangi o'quv yurtlari ochildi. 1992-yilda 8 viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Bunday yangilanish viloyatlarda universitet ta'limini tashkil etish, bu joylarda ilmiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish, eng olis va chekka shaharlarni madaniy-ma'rifiy markazga aylantirish maqsadida amalga oshirildi.

Viloyatlarning kelajak taraqqiyoti ham ana shu hududlardagi oliy ta'lim markazlari bilan bevosita bog'liq. Viloyatlarda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun yangi mutaxassisliklarni tashkil etish, zarur kadrlarni shu joylarda tayyorlash imkoniyati tug'ildi.

Oldindan markazda o'qigan kadrlarni viloyatga yuborish masala-si ancha-muncha muammo edi. Viloyatlarda universitetlar tashkil

etilishi bilan bu muammoning ham yechimi topildi. Yangidan-yangi ilmiy-texnikaviy ishlanmalar, ixtirolar yaratilgan joyida tezroq ishlab chiqarishga joriy etilish imkoni ham vujudga keldi.

Istiqlolning dastlabki-yillarida O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishga ham katta e'tibor berildi. Xalq ta'limi tizimida ilg'or mamlakatlarning tajribalari asosida litsey va gimnaziyalar ochildi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasidan akademiya gacha bo'lgan zamonaviy, yangi ta'lim tizimi vujudga keltirildi.

Birgina ta'lim muassasalar sonini oshirish, ularda yangi mutaxassisliklar ochish bilan malakali kadrlar tayyorlab bo'lmaydi. Buning uchun qabulning yangi tartibi joriy qilinishini taqozo etdi. Shu maqsadda jahonning ilg'or universitetlari tajribalari o'rganilib, test sinovi amalga kiritildi.

Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgust kuni bo'lib o'tgan IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unga binoan ta'limning yangi tizimi joriy etildi. Jumladan, uning 10-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgilab berildi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim. Xuddi shu sessiyada yangi tizimni ro'yobga chiqarish va ta'lim sohasidagi ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ham qabul qilindi.

Oliy ta'lim tizimi kamida 4-yillik bakalavriat va kamida 2-yillik magistratura bosqichlaridan iborat ikki pog'onali tizimga o'tildi. Yetakchi oliy ta'lim muassasasi sanalgan Toshkent davlat universitetining mamlakat, umuman, Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rmini inobatga olib, unga **O'zbekiston Milliy universiteti** maqomi berildi.

Ta'limni davr talablari darajasiga ko'tarish borasida mavjud oliy ta'lim muassasalarning faoliyati takomillashtirildi, bir yo'nalishdagi o'quv yurtlari birlashtirildi, yangi OTMLar ish boshladi. 2005-yili poytaxtimizdagi ikkita tibbiyot oliy o'quv yurti negizida Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2012-yili O'zbekiston davlat san'at va

Toshkent davlat madaniyat institutlari negizida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qayta tashkil etildi.

2002-yili Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster va G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetlarining, 2006-yili M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari, 2007-yili I.M. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, 2008-yili Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2009-yili Italiyaning Turin politexnika va 2014-yili Janubiy Koreyaning Inxa universitetlarining filiallari ochildi.

Shuningdek, O'zbekistonni birinchi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi qarori bilan 2011-2016-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash Dasturi tasdiqlandi, 2013-yil 28-iyundagi "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillash-tirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq yuridik institut universitet maqomida qayta tashkil etildi, 2014-yil 22-iyuldagi qarori asosida Toshkent davlat stomatologiya instituti ta'sis qilindi.

9.2. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarilishi

Ikkinchi masala bayoni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizom"ni tasdiqlash haqida"gi hamda 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari o'qitish tizimini yangi bosqichga ko'tarishga imkon yaratadi.

Ushbu qarorlarga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim tizimiga qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining turlari belgilandi. Davolash-profilaktika maskanlarida stasionar sharoitda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarga bevosita muassasaning o'zida umumiy o'rta ta'lim berish tashkil etiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish belgilangan.

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integrasiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish masalalariga ham katta e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl hamda texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini yanada oshirish, tizimdagi muassasalarning sifatli faoliyat yuritishini ta'minlash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etishga oid qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi Ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Biroq, 2020-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqu tahlil etilganda bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “**Ta’lim to’g’risida**”gi Qonuni tubdan yangi ko’rinishda **2020-yil 23-sentyabrda** imzolaniib, qabul qilindi. Qonunga muvofiq, ta’lim turlari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o’rtava’rtamaksusta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim. Shuningdek, mazkur Qonun bilan, 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to’g’risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi Qonunlar o’z kuchini yo’qotdi.

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirdi.

Maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlar. Bugungi kunda O’zbekistonda 13 ming 500 maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyat ko’rsatmoqda. Bu-yil Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimga bolalar qamrovini 2018-yildagi 37,7 foizdan 52 foizga etkazdi. 2020-yilda bu ko’rsatkich 59,5 foiz bo’lishi kutilmoqda, shuningdek, 85,2 foiz 6 yoshli bolalarni majburiy 1-yillik ta’lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan.

Bu haqda Maktabgacha ta’lim vazirligida tashkil etilgan-yil yakunlari sarhisobiga bag’ishlangan matbuot anjumanida ma’lum qilindi.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo’yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan, taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo’naltirilgan maxsus davlat ta’lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o’rta maxsus ma’lumotga ega bo’lib, bolalarni maktab ta’limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining sifati, samaradorligini baholash zamon talablariga umuman javob bermagan.

Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida Prezidentimizning 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Vazirlik tashkil etilganidan so'ng ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

MTM milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari qayta tayyorlanib, malakasi oshirilmoqda. Buning uchun Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Prezidentimizning 2019-yil 8-maydagi tegishli qarori bilan tizimni yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining

nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi.

2019-yil dekabr oyida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonun bilan 6 yoshli har bir bola maktabgacha 1-yillik majburiy tayyorgarlikdan o'tishi shartligi, jumladan, maktabgacha ta'limning turli shakllari belgilandi. Shuningdek, sudlanganlar yoki turli salbiy sabablar bilan ishdan bo'shatilgan fuqarolarning sohada ishlashi uchun qat'iy taqiqlar o'rnatildi. Bu esa korrupsionerlar yana rahbarlik lavozimiga qaytishi va talon-taroj bilan shug'ullanishining oldini oladi.

Ta'kidlanishicha, vazirlikning 2020-yildagi faoliyati ustuvor yo'nalishlari belgilab olingan. Bunda asosiy e'tibor yangi MTM binolarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, bir paytlar bog'cha bo'lgan binolarni qayta vazirlik hisobiga qaytarish, maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish kabi chora-tadbirlarni bajarishga qaratiladi.

2019-yil manzilli investisiya dasturi 470 obyektini o'z ichiga olgan bo'lib, ulardan 411 tasida qurilish-montaj ishlari yakunlandi. 2019-yilda 12 yangi MTM qurildi, 53 bo'sh turgan bino faoliyati yo'lga qo'yildi, qator MTMlarda rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Bu esa 20 mingta yangi ish o'rni yaratilishiga zamin yaratdi. 2020-yilda 19-yangi MTM qurish va 387 MTMni rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda. 2019-yili vazirlikka 31 binoni qaytarish hamda ularda yangi MTM tashkil etish bo'yicha hukumat qarori qabul qilindi. Ayni kunda respublika bo'yichayana 50 shunday obyekt masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Maktabgacha ta'limning muqobil shakllari MTMlarda o'rin etishmasligi muammosini tez, ortiqcha chiqimlarsiz samarali echish imkoniyatini beradi. Bu shakllar, ayniqsa, MTMlar qurish imkoniyati bo'lmagan chekka va aholi soni kam bo'lgan hududlarda katta samara beradi. Vazirlik tashkil topganidan buyon MTMning oilaviy avtobuslardagi mobil, dengiz konteynerlari asosidagi modul, shuningdek, to'liq kunli bo'lmagan muqobil shakllari joriy etildi.

2019-yilning ikkinchi yarmida “Aqlvoy” loyihasining 16 avtobusi bilan chekka va borish qiyin bo‘lgan hududlardagi 2 ming bola maktabgacha ta’lim bilan qamrab olindi. 2020-yilda ular faoliyati natijasining samaradorligi o‘rganib chiqilgan holda mobil guruhlar uchun yangi yo‘nalishlar belgilandi.

Matbuot anjumanida ma’lum qilinishicha, 2020-yil YUNISEF va Jahon banki bilan hamkorlikda yangi loyihalar ish boshlaydi. “Play” guruhlar, “Uyga tashrif” va nodavlat sektorini rivojlantirish loyihalari shular jumlasidandir.

“Play” guruhlar loyihasi bo‘yicha qishloqlarda turli o‘yinlar, rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar, o‘quv-materiallar va inventarlarga ega binolar tashkil etish ko‘zda tutilgan. Bu yerda turli yoshdagi bolalar uchun tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi bilan 3-4 soat mashg‘ulotlar o‘tiladi. Loyihaning sinov bosqichida Namangan va Xorazm viloyatlarida 240 nafar bola qamrab olinishi rejalashtirilgan.

“Uyga tashrif” loyihasida esa maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning uyiga pedagogning kundalik tashrifi nazarda tutiladi. Bunda oila rivojlantiruvchi to‘plamlar bilan ta’minlanadi. Bolalar bilan mashg‘ulot o‘tishdan tashqari tashrif buyuruvchi pedagog ota-onalarga o‘qitish jarayonida o‘yinchoq va materiallardan qanday foydalanishni tushuntirib beradi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimida nodavlat sektorini rivojlantirish allaqachon boshlab yuborilgan. Ayni kunda O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasalari soni 6 mingtadan oshdi. 2020-yilda yana 2 mingta oilaviy hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi 420 nodavlat MTM ochish rejalashtirilgan. 992 loyihaga ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi 1 trillion 1628 milliard so‘mga etdi.

Bu tizimda ishlayotgan kadrlar bilimi, ularning pedagogik mahorati juda muhim. Vazirlik o‘quv-tarbiyaviy jarayonining sifatini oshirish bo‘yicha muntazam ish olib boradi. O‘tgan 2-yil davomida 7 ming pedagog va 2,8 ming rahbar malaka oshirish kurslarida o‘qidi. YUNISEF bilan hamkorlikda tayyorlangan o‘quv kurslari 38,4 ming mutaxassisni qamrab oldi. 2019-2020-o‘quv-yilida oliy o‘quv yurtlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi qabul kvotalari 2,5 baravar oshirildi. Bundan tashqari, keyingi-yili yuqori malakali

kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkentda Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining filialini ochish rejalashtirilgan. 2020-yildan boshlab MTMlarga xoreograf va ikkinchi til o'qituvchisi, shuningdek, metodistlar uchun qo'shimcha shtatlar kiritilmoqda.

Ta'kidlanishicha, keyingi-yil maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirish miqdori yanada oshadi. Agar 2018-yil davlat MTMlarida 1 bolaga-yiliga o'rtacha 3,8 million so'm ajratilgan bo'lsa, 2019-yilda bu miqdor 4,6 million so'mga oshirildi.

Vazirlik turli imtiyozlar joriy etish yo'li bilan aholini faol ijtimoiy qo'llab kelmoqda. Masalan, 1 oiladan MTMga 2 yoki undan ortiq bola qatnayotgan bo'lsa, ular uchun to'lov 28 foizga kamaytiriladi. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari MTMning tarbiyalanuvchilari umumiy sonining 15 foizigacha hamda ma'lum jismoniy va psixik nuqsonlarga ega tarbiyalanuvchilar davlat MTMlariga bepul qamrab olinadi. Aholining ijtimoiy turmush darajasi nisbatan past bo'lgan 65 tuman va 1 aholi punktida to'lovlar 50 foizga pasaytirilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy huquqbuzarlikka qarshi kurash izchillik bilan amalga oshirilmoqda. 2019-yil vazirlik ichki audit xizmati tomonidan 20 milliard so'mdan ortiqroq hajmdagi moliyaviy huquqbuzarliklar aniqlangan. Bunda noqonuniy xarajatlar va talon-torojlar, davlat xaridlari borasidagi qonun buzilishlari, mablag'larni maosh va unga tenglashtirilgan to'lovlarga noqonuniy sarflash holatlari kuzatilgan. 431 holat bo'yicha materiallar huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etilgan. Aniqlangan qonun buzilish faktlari bo'yicha 3,6 milliard so'm undirilgan.

Toshkent shahrida o'tkazilgan tekshiruvlar maxsus ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'rinlarning 70 foizdan 94 foizgachasi sog'lom bolalar bilan bandligini ko'rsatdi va shu sababli ular qayta tashkil etildi. Natijada barcha reabilitasion muolajalar va kuchaytirilgan korreksion ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi 18 ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTM tashkil etildi. Qolgan MTM quvvati 7 ming 600 o'rinli bo'lgan umumiy tipdagi MTMga aylantirildi. Qayta tashkil etish orqali alohida parvarishga muhtoj bolalarni zarur sharoitlar bilan

ta'minlash, shuningdek, sog'lom bolalar uchun 4 ming 600 o'rinli MTM yaratish imkoniyati tug'ildi.

2019-yil vazirlik maktabgacha ta'lim tizimiga inklyuziya prinsiplarini faol joriy etib bordi. 2019-yil aprel oyida Toshkentda sog'lom va alohida parvarishga muhtoj bolalar birgalikda tarbiyalanishi uchun maxsus MTM o'z faoliyatini boshladi.

2020-yilda reabilitasiya markaziga ega MTM tarmog'i kengayib boradi. Yangi-yilda Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida Nukus shahridagi o'zida ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTM va reabilitasiya markazini mujassamlashtirgan "Imkon" markazi kabi eng ilg'or texnika bilan ta'minlangan obyektlar quriladi.

2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi.

Keyingi bir-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Oliy ta'lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini modernizasiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl hamda texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini yanada oshirish, tizimdagi muassasalarning sifatli faoliyat yuritishini ta'minlash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etishga oid qator farmon va qarorlar qabul qilindi. "Ta'lim

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildiva u 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilindi.

O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, hududlarda yangi, jumladan, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Respublikada 114 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, shundan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi, ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, keyingi uch-yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etildi.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritilgan. Shuningdek, 2019/2020-o'quv-yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etilgan. Natijada respublika bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi uch-yilda 1,7 baravarga oshgan.

Shu bilan birga, 2019/2020-o'quv-yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etib, o'tgan-yilga nisbatan 18 foizga, 2016-yilga nisbatan esa 92 foizga oshgan. Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018/2019-o'quv-yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'limga byudjetdan ajratilayotgan mablag' YaIMga nisbatan 6,5 foiz atrofida bo'lib, ayrim xalqaro hamkorlik davlatlariga (Tojikistonda 5,2 foiz, Belorusiyada 4,8 foiz, Rossiyada 3,8 foiz, Turkmanistonda 3,0 foiz, Qozog'istonda 2,95 foiz) nisbatan ancha yuqori.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrab olinishini ko'paytirish, yoshlarning kasb egallashini ta'minlash borasidagi amaliy sa'y-harakatlarga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Biroq bugun oliy ta'lim tizimida mavjud imkoniyatlar bitiruvchilar ehtiyojlarini qondiryaptimi? Bunday ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni bugungi kun talabiga javob beradimi?

Albatta, yo'q. To'g'ri, oxirgi to'rt-yilda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi sezilarli oshdi. Ammo amaldagi o'quv jarayoni bugungi kun talabiga to'la javob bermaydi.

9.3. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli

Uchinchi masala bayoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2019-yil 8-oktyabrdagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur Konsepsiyada oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari — zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida strategik vazifalar belgilab berildi.

Mazkur vazifalar sohada mavjud muammolarni bartaraf etishga, sohani zamonaviy standartlar darajasida tashkillashtirishga qaratilgan. Jumladan, oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida, 2030-yilgacha oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish ko'zda tutilgan.

Ayni paytda dunyo miqyosida aholining 2 milliardga yaqinini yoshlar tashkil etadi, ularning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyo hissasiga to'g'ri keladi. Tahlilchilarning fikricha, bu ko'rsatkich yaqin o'n-yil ichida yana ko'payada va bunda ham tug'ilishning ortishi mintaqamiz hissasiga to'g'ri keladi. Dunyo aholisining yoshlar hisobiga ko'payishi, o'z navbatida, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish uchun ham imkoniyatdir.

Bunda yoshlarning muayyan kasb yoki hunar egasi bo'lishi muhim o'rin tutadi. Hozirgi tezkor davr talablari asosida yangi kasblar deyarli har kuni paydo bo'ladi, eskilari esa, o'z dolzarbligini

yo'qotadi yoki o'zgaradi. Ma'lumotlarga qaraganda, ayni paytda turli soha va tizimlarda mavjud bo'lgan 57 ta kasb yo'qolish arafasida turgan bo'lsa, 186 ta yangi kasb mehnat bozorida ziddiyatni keltirib chiqarmoqda.

Demak, ta'limni rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, yangi avlod kadrlarini tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Biroq jahonning ilg'or tajribalariga nazar solsak, sifatli ta'lim bepul bo'lishi mumkin emasligini kuzatamiz va ilg'or oliy ta'lim muassasalari bosqichma-bosqich o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tayotganiga amin bo'lamiz.

Bugungi kunda davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kontrakt shaklidan, shu jumladan, oshirilgan to'lov-kontrakt asosida tushgan mablag'lar oliy ta'lim muassasalari xarajatlarining o'rtacha 68 foizini qoplaydi, xolos, qolgan xarajatlar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Ma'lumki, to'lov-kontraktdan tushgan mablag'lar kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarga stipendiyalar to'lash, talabalarni ijtimoiy muhofaza qilish doirasida ularga moddiy yordam ko'rsatishga, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, zamonaviy o'quv, ilmiy-tadqiqot va laboratoriya jihozlari hamda o'quv qurollari bilan ta'minlashga, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi faoliyatini amalga oshirishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa xarajatlarni qoplashga sarflanadi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kontrakt shaklidan, shu jumladan, oshirilgan to'lov-kontrakt asosida tushgan mablag'lar sarflanishi ochiq va shaffof bo'lib, oliy ta'lim muassasalari saytida hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining saytida oyma-oy joylashtirib borilmoqda.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun stipendiya o'rtacha miqdori belgilanayotgani mavjud mablag'larni talabalar o'rtasida taqsimlashdan kelib chiqadi. Bu tabaqalashtirilgan stipendiya yo'q bo'ldi, endi talabalarda hech qanday rag'batlantirish yo'q, degani emas, albatta. O'zlashtirishda yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan, jamoat ishlarida faol talabalar stipendiyalariga ustama foiz qo'shib hisoblanadi.

O'z navbatida, barcha soha va tarmoqlarning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'mini topa oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, alohida iqtidorga ega, faol talabalarni rag'batlantirish bo'yicha iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Zero, mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan islohotlar Vatanimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, yurt ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shuvchi, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, bilimli hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash davr talabidan kelib chiqib, ustuvor vazifalardan biri sifatida muntazam taraqqiy etib borishi uchun hayotiy zaruratdir.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovasiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalarda rajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fantexnologiyalarini jalbetish;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zimoliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash va boshqa vazifalar belgilab qo'yildi;

Konsepsiya tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har-yili alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika **oliy ta'lim kengashi** (keyingi o'rinlarda – Kengash) tashkil etildi. Bugungi kunda unga TIQXMMI rektori professor U.P.Umrzakov raislik qilib kelmoqda.

Kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta'lim berishda qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligiga xolisona baho berish;

ta'lim berishda yuqori sifatni ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot

vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va xolislikni ta'minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovasion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta'lim tizimiga jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida respublika oliy ta'lim muassasalari (O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari bundan mustasno) rahbar xodimlarining xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishini bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idorani xabardor qilgan holda amalga oshirish tartibi joriy qilinsin.

Bunda oliy ta'lim muassasasi rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safari oldidan asosiy ma'lumotlar, jumladan, mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi, safar natijalari yuzasidan esa oliy ta'lim muassasasi kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to'g'risida taqdim etilgan hisobot oliy ta'lim muassasasi veb-saytiga joylashtiriladi.

9.4. Yoshlarga oid davlat siyosatini ta'lim sohasida amalga oshirilishi

To'rtinchi masala bayoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. "Raqamli O'zbekiston – 2030" Dasturida yoshlar uchun:

- yoshlarning bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, oilaning farzand tarbiyasi borasidagi mas'uliyatini oshirish, yoshlar va voyaga etmaganlarning manfaatlarini ta'minlash uchun yetuk va mas'ul mutaxassislarning sayyor qabullarini tashkil qilib, zarur yordamlar ko'rsatish;

- o'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, yoshlarning intellektual va ma'naviy ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, ularning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirish;

- Milliy kontentni rivojlantirish, davlat tilidagi ta'lim, ilmiy-ma'rifiy, yoshlar ehtiyojlariga mos zamonaviy axborot resurslarini, multimedia mahsulotlarini yaratish va targ'ib qilish, mobil internet foydalanuvchilariga mo'ljallangan, yoshlarni yuksak axloqiy tarbiyalash, ularni intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan milliy o'yinlarni tashkil etish;

- ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish, mustahkam mafkuraviy immunitetga ega yoshlarni tarbiyalash, notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ota-onalarning mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasiga oid tadbirlarni tashkil qilish;

- diniy ekstremizm va missionerlik faoliyatiga qarshi kurashish, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustakil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega

yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chukurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” vazifalari belgilab berildi.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq barkamol, sog‘lom avlod tarbiyasi davlatimizning eng ustuvor vazifasiga aylangan edi. Ma‘naviy barkamollik o‘z mohiyati bilan yoshlarning ichki va tashqi dunyosi, irodasini, iymon-e‘tiqodini, vijdonini baquvvat va uyg‘oq qiluvchi barcha ijtimoiy ma‘naviy omillarni o‘z ichiga oluvchi hodisa hi-soblanadi. Zero, yosh avlodning taqdiri uning ma‘naviy kamo-loti bilan o‘lchanadi

2030-yilga qadar respublikadagi kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga kiritishni, bunda mazkur oliy ta‘lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish belgilab qo‘yilgan.

2020-yil nomida belgilangan sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo‘yicha keng quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

➤ Bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda 60 foizga yetkazishi kerak. Ushbu maqsadlarga shu-yilning o‘zida byudjetdan qariyb 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

➤ Tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunga byudjetdan 130 milliard so‘m ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta‘lim muassasalari ham bevosita ishtirok etadi.

➤ 2020-yilda byudjetdan ajratiladigan 1,7 trillion so‘m mablag‘ hisobidan 36 ta yangi maktab qurilib, 211 tasi kapital ta‘mirlanadi. Shuningdek, 55 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkaziladi.

➤ 2021-yilgi xalqaro baholash jarayoniga tayyorgarlik ko'rish uchun 348 ta tayanch maktab belgilanib, 6 mingdan ortiq o'qituvchining malakasi oshiriladi.

➤ 2020-o'quv-yilidan boshlab, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etiladi.

➤ Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmi bo'laman, degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratish shart. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga etkaziladi. Qizlar uchun alohida grantlar ham ajratiladi.

➤ Oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi.

➤ Oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish talab etiladi. Joriy-yildan pedagogik ta'limning 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3-yil qilib belgilanadi.

➤ Oliy o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik beriladi. Joriy-yilda ularning 10 tasi o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tadi. Bundan tashqari, kamida 5 ta oliy ta'lim muassasasini konkurs asosida tanlab, nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda ularni transformatsiya qilishni boshlaymiz.

➤ Joriy-yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 700 dan ziyod olimlar, professor-o'qituvchilar chet elga ilmiy izlanish va malaka oshirish uchun yuboriladi.

➤ Toshkent shahrida zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park" barpo etilmoqda. U hozirdanoq o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi. Bunday "IT-park"lar Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida ham tashkil etiladi.

➤ Hozirgi kungacha 7 mingdan ortiq sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar yuqori tezlikdagi Internetga ulangan bo'lsa, keyingi 2-yilda yana 12 mingta muassasa tezkor Internetga ulanadi. Bu vazifalarni ko'zda tutgan

holda, **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini** ishlab chiqishni ikki oy muddatda yakunlash lozim.

Dastur Bugungi kunda yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan bir qator ta’lim – tarbiyaviy ishlar, islohotlar amalga oshirilib kelinmoqdaki, zero bu albatta tez kunlarda ijobiy samarasini beradi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim va fan sohasini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlarning mamlakatimiz taraqqiyotidagi o‘rni va roli.

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi.

3. 2020-yili 23-sentyabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangidan qabul qilinishining tarixiy ahamiyati.

4. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Dasturining maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari.

5. Ta’limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.

6. O‘zbekistonda yangi avlod kadrlar tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlar.

7. Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.

8. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.

Test savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoni asosida qachon Xorazm Ma‘mun akademiyasi qayta tiklanib, Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘linmasi sifatida tashkil etildi.

A) 1997-yil 11-noyabrdagi farmoni bilan;

V) 1997-yil 29-avgustdagi farmoni bilan;

- S) 2014-yil 22-iyuldagi farmoni bilan;
- D) 1992-yil 8-dekabrda farmoni bilan.

2. Mamlakatimizda qaysi-yildan buyon mamlakatimiz poytaxtida innovasion g'oyalari, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasini o'tkazib kelmoqda

- A) 2010 ; V) 2009; S) 2008; D) 2011.

3 Qaysi-yili Immunologiya institutida "Biotibbiyot" ilmiy-ta'lim innovatsion markazi ish boshladi.

- A) 2014-yili; V) 2012-yili; S) 2010-yili; D) 2009-yili

4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qachon va qaysi sessiyada yangi tahrirda qabul qilindi.

- A) 1997-yil 29 avgust kuni Oliy Majlisning IX sessiyasida
- V) 1991-yil 31 avgust kuni Oliy kengash sessiyasida
- S) 1992-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining XI sessiyasida
- D) 1997-yil 30 avgust kuni Oliy Majlisning IX sessiyasida

5. Qaysi-yili O'zbekiston davlat san'at va Toshkent davlat madaniyat institutlari negizida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qayta tashkil etilgan?

- A) 2008-yil; V) 2012-yil; S) 2011-yil; D) 2009-yil.

6. Toshkent davlat stomatologiya instituti qachon ta'xis qilingan?

- A) 2012-yil 22-iyuldagi qarori asosida;
- V) 2010-yil 22-iyuldagi qarori asosida;
- S) 2014-yil 22-iyuldagi qarori asosida;
- D) 2013-yil 22-iyuldagi qarori asosida

7. Ma'lumki, 2020-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiri tahlil etilganda bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni tubdan yangi ko'rinishda imzolaniib, qabul qilingan sanani ko'rsating.

- A) 2020-yil 13 sentyabrda ; V) 2020-yil 23 avgustda;
- S) 2020-yil 23 sentyabrda; D) 2020-yil 23 oktyabrda

8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1995-yil 14-avgust
- V) 1996-yil 20-sentyabr
- S) 1997-yil 29-avgust
- D) 1998-yil 16-fevral

9. O‘zbekistonda “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” necha bosqichda amalga oshiriladi?

- A) 3
- V) 4
- S) 5
- D) 6

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – T.: «O‘zbekiston», 2017.

3. O‘zbekiston respublikasining qonuni ta’lim to‘g‘risida. 29 avgust, 1997.

4. http://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/94/3277/?sphrase_id=6612991

5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // 29 avgust, 1997-yil
[//http://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/94/3271/?sphrase_id=6612991](http://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/94/3271/?sphrase_id=6612991)

6. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qarori (Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22 oktyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan) // <https://lex.uz/docs/4646908>.

7. “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

//<https://uza.uz/oz/documents/zamonaviy-maktablarni-tashkil-etish-chora-tadbirlari-t-risi-27-11-2019> .

8. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>

9. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/2228> (2018).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/3324> (2020) .

10-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

10.1. Mustaqillik-yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida olib borilgan islohotlar

10.2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida Mustaqillik-yillarida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar

10.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

10.4. Qoraqalpog‘istonda bunyodkorlik ishlari. Madaniyat va sport

Tayanch tushunchalar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qo‘ng‘irot soda zavodi, Xo‘jayli shisha zavodi, “Markaziy Osiyo bezak toshlari” “Elteks”, “Kateks” “Tillali”, “Sayxun”, “In‘om”, “Arslon” “Jel”, “G‘arbiy Orol”, Orol dengizi, sun‘iy o‘rmon, Fermer xo‘jaliklari, Mo‘ynoq, ekologik vaziyat, “Cho‘l malikasi”, dolzarb muammolar, Jamg‘arma mablag‘lari, bunyodkorlik, Nukus, Amudaryo, Ellikqal‘a, Beruniy, Xo‘jayli, ekoturizm.

10.1. Mustaqillik-yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida olib borilgan islohotlar

Birinchi masala bayoni. Mamlakatimizning shimoliy mintaqasi – Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham mustaqillik-yillarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan alohida e‘tibor yuksak samaralar berdi. Puxta o‘ylangan, boqichma-bosqich amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tufayli Qoraqalpog‘iston Respublikasi oddiy agrar o‘lkadan zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, transport-kommunikasiya tarmoqlari rivojlangan mintaqaga aylandi.

Mustaqillik-yillarida bu zaminda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ro‘y bergan o‘zgarish va yangilanishlar haqida uzoq gapirish mumkin. Markaziy Osiyoda yagona, sahro bag‘ridagi

mo‘jiza –Qo‘ng‘irot soda zavodi, Xo‘jayli shisha zavodi, “Markaziy Osiyo bezak toshlari” qo‘shma korxonasi, Qo‘ng‘irot karbid, Nukus marmar va kabel zavodlari, O‘rga gaz koni, “Elteks” va “Kateks” kabi zamonaviy ishlab chiqarish obyektlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus filiali, Olimpiya zaxiralari kolleji binolari, o‘nlab umumta‘lim maktablari, lisey va kollejlari, bolalar sporti, bolalar musiqa va san‘at maktablari... Bunday muhtasham inshootlar istiqloq sharofati tufayli barpo bo‘ldi.

Istiqloqlarning dastlabki-yilidayoq minglab aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlagan 243 kilometrlik Tuyamo‘yin-Nukus-Chimboy-Taxtakopir suv tarmog‘i ishga tushirildi. 1991-2010-yillarda hududda gaz va gaz kondensati, shisha, kungaboqar yog‘i, kalsiylashtirilgan soda, vermikulit konsentrati, talkomagnezit, glitserzin ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Xalqimizning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilish borasida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari eng savobli ishlardan bo‘ldi. Bu sohada ham islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, uning manfaatlari uchun degan ezgu g‘oya doimiy ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda.

2000-yili Nukus shahrini Xo‘jayli tumani bilan bog‘laydigan ulkan ko‘prik, 2001-yilda 345 kilometrlik Nukus-Sultonuvaystog‘-Miskin-Uchquduq-Tinchlik-Navoiy temir yo‘li ishga tushirildi. Yuzlab kilometr avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilindi. Bu ravon yo‘llarning uzunligi 4 ming 100 kilometr dan oshib ketdi. Bu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Yer osti boyliklarini izlash, qazib olish va ulardan samarali foydalanishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xorijlik sheriklar bilan “Jel”, “G‘arbiy Orol” kabi istiqbolli konlar ochildi. “Ustyurt va Orol dengizi atroflarida geofizika ishlarini amalga oshirishni kuchaytirish” dasturi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, Ustyurt kengliklarida seysmik tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Ayniqsa, “O‘zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatining “Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi” filiali jamoasining sa‘y-harakatlari tahsinga munosib. Hozir kunga 45 ming kubometr gaz berayotgan “Tillali”, “Sayxun”,

“In’om”, “Arslon” singari yangi konlar ana shu ekspedisiya izlanishlarining samarasidir.

Bugun dunyo xalqlarining e’tiborini tortayotgan, havasli, hayratli nigohlariga sabab bo’layotgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etildi. Asrlar osha qaqrab yotgan bepoyon dashtda ulkan ishlab chiqarish quvvati qad rostladi. Korxonalar jahonning nufuzli nashrlari tomonidan 2012-yilning eng yaxshi loyihasi, deb topildi.

2014-yili nufuzli “Infrastructure Journal” xalqaro nashri mazkur loyiha qurilishini “2014-yilning neft-gaz sohasidagi eng yirik bitimi”, deb e’lon qildi. Umumiy qiymati 4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bu mashhur loyiha amalga oshirilishi mamlakatimiz sanoati rivojini yangi bosqichga ko’tarishi shubhasiz. Hozir bu erda-yiliga 4,5 milliard kub metr gaz qayta ishlanmoqda. Buning samarasida xalqimiz ehtiyoji va eksport uchun 3,7 milliard kub metr gaz, 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen, 102 ming tonna piroliz distillyati va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Qoraqalpog’iston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish, jumladan, paxta yetishtirishda zamonaviy texnologiyalami, madaniy o’simliklarning yangi navlarini sohaga joriy etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilayotir. 2016-yilda bu yo’nalishda uchta yangi korxonalar tashkil etilib, to’rttasi modernizatsiya qilinadi.

Shu-yilning ikkinchi choragida momiq ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan “Bunyodbek-Xo’jayli” oilaviy korxonasi foydalanihga topshiriladi. Yil oxirigacha “Yoqubova Gavhar” fermer xo’jaligi kalava ip ishlab chiqara boshlaydi. Ellikqal’ada “Global national-tex” sho’ba korxonasida jinsi mato ishlab chiqarish yo’lga qo’yiladi. Amudaryo tumanidagi “Kameks-KK” korxonasida momiq, Kegeyli tumanidagi “Avto Qayip mayshi” mas’uliyati cheklangan jamiyatida oyiga 50 ming juft pypopq ishlab chiqariladi. “To’rtko’l omad tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyatida zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, yangi ish o’rinlari yaratilmoqda. Bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin.

Mustaqillik-yillarida qishloq xo'jaligi sohasida mutlaqo yangi va samarali iqtisodiy munosabatlar joriy etildi. Yer o'z egasini topdi. Bugun Qoraqalpog'iston fermerlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib berish bilan birga, qishloq taraqqiyotida hal qiluvchi ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi Qoraqalpog'iston Respublikasida ham Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilayotgan namunaviy loyihalar asosidagi uy-joylarga talabgorlar tobora ko'paymoqda. Barcha sharoitlarga ega bunday zamonaviy uylarda minglab oilalar baxtli hayot kechirmoqda. Uy to'ylariga kelin to'ylari ulanib ketayotir.

Nukus shahrida ish boshlagan «Samsung» zavodiga kiraverishda tosh lavhaga shunday so'zlar yozilgan: «Ushbu maishiy texnika vositalarini ishlab chiqarish zavodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 21-yanvardagi Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi davomidagi tashabbusi asosida barpo qilindi. 2017-yil 14-oktyabrda zavod dastlabki mahsulotini ishlab chiqardi».

Sobiq «Nukus Remmash» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish va qo'shimcha binolar qurish hisobiga barpo etilgan zavodda televizoming to'rt va changyutgichning o'n uch turi ishlab chiqarilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu zavodni borib ko'rdi. Ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi, mahsulotlar sifati va ko'lami bilan qiziqdi.

Bugun «Samsung» brendi ostida ishlab chiqarilayotgan maishiy texnika vositalari kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. 200 dan ortiq kishi bandligi ta'minlangan yangi korxonaga eng so'nggi rusumdagi uskunalar bilan jihozlangan.

Mustaqillik inshootlaridan yana biri Qo'ng'iro't soda zavodidir. Ko'plab sohalar uchun zarur xom ashyo – kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarayotgan ushbu yirik korxonaga o'z mahsulotining aksariyatini eksportga yo'naltirmoqda. O'tgan-yili korxonaga xorijlik buyurtmachilarga 24 ming tonna mahsulot etkazib berdi. Ichki

bozorda "Kvars", "Asl oyna" aksiyadorlik jamiyatlari, "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati, "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi Qo'ng'irotda soda zavodining asosiy buyurtmachilaridir.

Bugun mamlakatimizda maishiy texnika vositalari ishlab chiqarish hajmi oshdi. Aholining bu boradagi talabi qondirilmoqda. Endi bu sohada eksport hajmini oshiradigan vaqt keldi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan joriy-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida qator yirik loyihalar amalga oshirildi. Birgina «O'zeltexsanoat» AK tomonidan umumiy qiymati 27,5 milliard so'mlik 12 loyiha hayotga tatbiq qilindi.

Prezidentimizga «O'zeltexsanoat» AK tomonidan kelgusida Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi loyihalar taqdim qilindi. Loyihalar yarimavtomat kir yuvish mashinalari, elektr shkaflar va suv isitish moslamalari, isitish moslamalari va radiatorlar, energiya tejankor lampalar ishlab chiqarish, maishiy texnika vositalarini sotish va texnik xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Nukus shahrida ham keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi va bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Temir yo'l vokzali, I.Saviskiy nomidagi san'at muzeyi tanib bo'lmas darajada zamonaviy qiyofa kasb etdi. Shaharning Qoraqalpog'iston, Amir Temur, To'lepbergen Qaipbergenov ko'chalarida qad rostlagan ko'p qavatli zamonaviy uylarga ko'chib o'tgan yuzlab oilalar hayotiga o'zgacha shukuh kirdi. Shahar markazidan oqib o'tuvchi Do'stlik kanalining ikki qirg'og'i bo'ylab 2,5 kilometr masofada ko'plab ko'ngilochar, dam olish obyektlari ishga tushirildi.

– 2015-yilgi investisiya dasturiga ko'ra, yangi uy-joylarga qo'shimcha 117 ijtimoiy obyektida rekonstruksiya va qurilish ishlari amalga oshirildi

O'nlab kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari, tibbiyot muassasalari va boshqa ijtimoiy soha obyektlari qurildi. Ko'plab suv tarmoqlari tortildi.

Mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Xalqaro

Orolni qutqarish jamg'armasi ana shunday olijanob sa'y-harakatlar samarasida tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 2013-2017-yillarga mo'ljallangan dasturi bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Dasturda Orolbo'yini ekologik sog'lomlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, cho'llanishning oldini olish, Orol dengizining qurigan hududlarida sun'iy o'rmonlar barpoetish uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Dasturga ko'ra, mazkur ishlarga 89,39 milliard so'm, 1635,55 million AQSh dollari va 57,63 million yevro mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi Nukus filiali tomonidan 2014-yilda Mo'ynoq tumanida, Orol dengizining Axantay qismida 1500, Oqqum qismida 34 gektarlik saksovulzor – sun'iy o'rmon barpo etildi.

Ayni paytda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 90 million AQSh dollari miqdoridagi loyiha asosida Orol dengizining qurigan qismida cho'llanishdan himoyalovchi mitti o'rmonlar bunyod etishga kirishilayotgani ham hudud aholisi turmush farovonligini yuksaltirish borasidagi ezgu ishlarning davomidir.

2019-yil avgustda Nukus shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishda davlatimiz rahbari mintaqani taraqqiy ettirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi.

Birinchi – sanoatni rivojlantirish, barcha tarmoqlarda yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish.

Ikkinchi – tadbirkorlik gullab yashnashi uchun keng yo'l ochib berish va uni har taraflama qo'llab-quvvatlash.

Uchinchi – qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalarni keng joriy qilgan holda, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va mahsulot turlarini keskin oshirish.

To'rtinchi – ishlab chiqarish va odamlar uchun qulay bo'lgan zamonaviy infratuzilmani yaratish.

Beshinchi – Orolbo'yi aholisining yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash yuzasidan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish.

Har bir tuman va shaharning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni turli sohalarga ixtisoslashtiriladi. Masalan, Qorao'zak tumani - qurilish materiallari, Beruniy, Xo'jayli, Nukus tumanlari - meva-sabzavotchilik, Taxtako'pir - chorvachilik, Shumanay - parrandachilik, Ellikqal'a - uzumchilik va turizm, Mo'ynoq - baliqchilik va chorvachilik, Kegayli - chorvachilik, qizilmiyani qayta ishlash va qog'oz sanoati, Qanliko'l - dukkakli ekinlar va sholi yetishtirishga, Qo'ng'iro't - neft-kimyo sanoati va chorvachilikka, Chimboy - qizilmiya etishtirish va qayta ishlashga, To'rtko'l - shisha, oyna va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, Amudaryo tumani - bog'dorchilik, to'qimachilik va pillachilikka, Nukus shahri - farmasevtika va elektrotexnikaga ixtisoslashtirilib, Taxiato'sh tumani esa sanoat ishlab chiqarish hududiga aylantiriladi.

10.2. Qoraqalpog'iston Respublikasida Mustaqillik-yillarida qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan islohotlar

Ikkinchi masala bayoni. Mustaqillikning ilk-yillaridanoq muhtaram Prezidentimizning fermer xo'jaliklarini tashkillashtirishga e'tibor qaratgani tufayli boshqa sohalar qatori qishloq xo'jaligi sohasida ko'plab ijobiy yutuqlarga erishildi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining uzoq muddatli ijara mulki qilib berilishi va qishloqda bozor munosabatlarining joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini shakllantirish hamda rivojlantirishning eng muhim omil va asosi bo'ldi. Ushbu fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishdagi ulushi 99,5 foyizni tashkil qiladi.

Prezidentimiz tomonidan fermerlarni munosib qo'llab-quvvatlash, ularga afzalliklar yaratib berishda doimiy e'tibor qaratilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan 4-yilda bir marotaba amalga oshirilishi, yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik

faoliyatini ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan etiboran ikki-yil mobaynida rejalı tekshirishlardan o'tkazilishi mumkin emasligi belgilab berildi.

Bundan tashqari, fermer xo'jaliklariga soliq va boshqa imtiyozlarni berish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bunda paxta xom ashyosini yig'ib olish bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishchilarini daromad solig'idan ozod etilishi;

- tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilgan yuridik shaxslar tegishli yer uchastkasiga nisbatan 5-yil muddatga yagona er solig'ini to'lashdan ozod etilishi;

- fermer xo'jaliklari manfaatlarini ko'zlab da'vo arizalarini taqdim etish, sudga davlat boji to'lamasdan shikoyat qilish huquqi berildi.

Bugungi kunda Respublikada 5430 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan paxta-g'allachilikda 3682 ta fermer, sabzavot va polizchilikta 321 ta fermer, chorvachilikta 377 ta fermer, bog' va uzumchilikta 514 ta fermer, g'alla va sabzavotchilikta 326 ta fermer va 210 ta fermer xo'jaliklari boshqa yo'nalishlarda ish bilan band.

Ularga 288 ming 898,4 gektar maydoni ajratilib berilgan, Fermer xo'jaliklarida 12 ming 490 nafar xodimlar ish bilan ta'minlandi.

2016-yil Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha manzilli Dasturi qabul qilindi.

Dasturga asosan Respublika bo'yicha jami 748 ta fermer xo'jaliklarini ko'p tarmoqli fermer xo'jaligiga aylantirish nazarda tutilib, amalda joriy-yilning iyul oyiga qadar tashkil etilgan ko'p sohali fermer xo'jaliklari soni 433 ta hamda ko'p sohali faoliyat uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar soni 429 ta fermer xo'jaliklariga 248 gektar yer maydaniga 2535,0 mln so'm amalda ajratildi.

Yil mobaynida ichki bozorni sabzavot, kartoshka, meva va poliz mahsulotlari bilan doimiy ta'minlash, shuningdek, chet el bozorlarni o'timli va raqobatga chidamli bo'lgan toza meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarin eksport etishning ko'lamini kengaytirish va turlarini ko'paytirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy-yilning 12 aprel kungi "Meva-sabzavot,

kartoshka, va poliz mahsulotlarin sotib olish va ulardan foydalanish tizimini etishtirish to'g'risinda"gi qarori eng muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorning bajarilishin ta'minlash bo'yicha Respublikamizda bir qator ishlar olib borilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi mutaxassislari va Adliya vazirligi xodimlari ta'kidlaganidek, barcha kategoriyadagi xo'jaliklarida 11 ming 111 gektarga sabzavot, 9508 gektarga poliz, 5325 gektarga kartoshka ekilib, to'liq navlar olindi. Bundan tashqari, 247 gektar maydonda yangi intensiv bog'lar, 247 gektarda tokzorlar yaratildi. Ushbu maydonlarga 123,5 ming dona meva, 296,4 ming dona tokzor navlari ekildi. Shu bilan birga 118 gektar maydondagi eski bog'da, 65 gektar tokzorlarning rekonstruksiya ishlarini olib borildi. Bugungi kunga qadar 6778 gektar bog'ning, 1268 gektar tokning qator oralariga sabzavot ekinlari ekilib, oziqlantirish ishlari olib borilmoqda.

Fermer xo'jaliklari ishlarining samaradorligin oshirish va ularga shart-sharaitlar yaratish, ekishlik maydonlardan maqsadli foydalanish bo'yicha barcha tumanlarda yer maydonlarin optimallashtirish ishlari olib borilib, to'liq inventarizasiyadan o'tkazildi. Shuning natijasida meva-sabzavot etishtirishda 321 ta fermer xo'jaligiga 1467 gektar, bog'dorchilik va tokzorchiikka ixtisoslashgan 514 ta fermer xo'jaligiga 1510 gektar, bundan tashqari sabzavot-g'alla etishtirish bo'yicha yangidan tashkil etilgan 326 ta fermer xo'jaliklariga 4532 gektar yer maydonlari ajratilib berildi.

Prezidentimizning yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarori asosida 2016-yilgi hosilidan boshlab toza meva-sabzavot, kartoshka, poliz, mahsulotlari va uzum sotib olish bo'yicha davlat buyurtmalari ehtiyojlari uchun kiritilishi, toza meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari "O'zagroeksport" ixtisoslashgan tashqi savdo kompaniyasi tomonidan tashqi sheriklar bilan to'g'ridan-to'g'ri eksport shartnomalari shuningdek, fermer va dehqon xo'jaliklari, agrofimlar va qayta ishlash korxonalari o'rtasida tuziladigan shartnomalar bo'yicha eksport etilishi keng imkoniyatlar eshiklarini oshib bermoqda. Bugungi kuni meva-sabzavot mahsulotlarin yetishtirishuvchi, tayyorlovchi va eksport etuvchi korxonalar bilan "O'zagroeksport" ixtisoslashgan tashqi savdo kompaniyasi o'rtasida

shartnomalar tuzish ishlari to'liq tamomlandi. Rossiya Federasiya va Qozog'iston Respublikasiga meva-sabzavot mahsulotlar eksport etish bo'yicha shartnomalar tuzildi.

Elimizning tengi yo'q tuproq-iqlim sharoiti yuqori sifatli meva va sabzavotlarni etishtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun mahsulotlarimiz mazasi o'zgacha bo'lib, chet ellardan kelgan mehmonlar qiziqish bilan foydalanadi. Shu nazarda ko'rganimizda, Prezidentimizning bu qarori elimizda toza meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, sotib olish bo'yicha tizim tashkillashtirish bilan bir qatorda sohani jadal rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan chegaralanib qolmasdan, uni qayta ishlashni ham yo'lga qo'yimoqda. Natijada qishloq joylariga sanoatni olib qirishga, aholi bandligini ta'minlashga, eng muhim, ichki iste'mol bozorini sifatli oziqovqat mahsulotlari bilan to'ldirishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

10.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida

Uchinchi masala bayoni. Yaqin o'tmishda eng katta ko'l maqomiga ega bo'lgan Orol dengizi bir avlod ko'z o'ngida yo'qolib boryapti. Uning mavjlanib turgan suvlari chekina-chekina, dengiz tubida yangi sahro — Orolqum paydo bo'ldi. Hozirgi paytda u 5,5 million gektardan ortiq maydonni egallaydi. Bu yerdan-yiliga o'rtacha 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilib, mintaqa davlatlari ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Keyingi paytda Orolqum chang-to'zonlari zarralari Yevropa mamlakatlariga ham etib borgani aytilmoqda. Ayniqsa, 2018-yilning 27-mayida yopirilgan tuz yomg'iri insoniyat uchun bamisoli bong qo'ng'irog'i sifatida yangradi.

To'g'ri, endi dengizni ortga qaytarib bo'lmaydi. Uning havzasini suv bilan to'ldirish ham imkonsiz. Lekin global muammo ta'sirini yumshatish, Orolbo'yi mintaqasida istiqomat qilayotgan aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish o'z qo'limizda. Shu

bois keyingi paytda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilyapti. Xususan, Orolga eng yaqin hududda joylashgan, tabiiyki, dengiz fojiasidan ham eng ko‘p zarar ko‘rgan Mo‘ynoq tumanida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ekologik xavfsizlik masalasiga alohida to‘xtalib, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, Orol dengizining suvsiz hududida 500 ming gektar o‘rmonzor barpo etish yuzasidan aniq choratadbirlar belgilab berildi. Shu bilan birga, Mo‘ynoq tumanida barcha zarur infratuzilmaga ega zamonaviy shaharcha bunyod etish vazifasi ilgari surildi.

Prezidentimizning shu kabi xayrli tashabbuslari Mo‘ynoqqa yana qaynoq hayot sururini olib kiryapti. Tushkun kayfiyatga tushib qolgan aholi ko‘zlarida umid uchqunlarini uyg‘otmoqda. Chunkiyillar davomida faqat halokat oqibatlarini tafsilotlarini tinglab kelgan odamlar ko‘z o‘ngida amaliy ishlarga kirishildi. Natijada oxirgi ikkiyilda mo‘ynoqliklarni qiynab kelgan muammolar sekin-asta o‘z yechimini topa boshladi. Tuman aholisi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlangani, markaziy ko‘chalar ta‘mirlangani, 20 ga yaqin ko‘p xonadonli turarjoylar tubdan rekonstruksiya qilingani, kichik sanoat zonasi tashkil etilgani bunga misol bo‘la oladi.

Endi navbat bostirib kelayotgan sahrani to‘xtatish uchun yashil “qalqon”lar barpo etishga keldi. Ustuvor rejaga ko‘ra, 2019-yilning o‘zida yarim million gektar maydonda yashil o‘rmonzorlar barpo etildi. Vaholonki, mustaqillik-yillarida O‘zbekiston bo‘yicha 1 million 220 ming gektarga yaqin o‘rmonzor yaratilgan bo‘lsa, shundan 400 ming gektardan ortig‘i aynan Orolbo‘yi hududiga to‘g‘ri keladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Fermer xo‘jaliklari tabiiy resurslarga boyligi, geografik joylashuvi, yuksak turizm salohiyati, madaniy meros obyektlari va ulkan mehnat resurslari bilan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi.

Orol dengizi hududida 5,5 million gektardan ortiq Orolqum sahosining paydo bo‘lishi, har-yili 100 million tonna qum va tuzning

atrof-muhitga tarqalishiga qaramasdan aholining barcha qiyinchiliklarni matonat bilan yengib, fojiani omadga, tumanni «Sahro marvaridi»ga aylantirish uchun fidokorona mehnat qilayotgani va vatanparvarligi alohida e'tirofga sazovor.

O'tgan davrda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholiga qulay yashash sharoiti yaratish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018-yilda 12 mlrd. so'mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilishi hisobiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni ko'paytirishga va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda qurilish ishlarining o'sishiga erishildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining "Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zR Vazirlar Mahkamasining Qarorida quyidagi muammolar alohida ta'kidlab o'tilgandi:

Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanini jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga to'siq bo'layotgan va o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar mavjud, xususan:

birinchidan, tumanning bosh rejasi zamonaviy shaharsozlik talablariga javob bermaydi, bu borada istiqbolda bajarilishi rejalashtirilgan tadbirlar ishlab chiqilmagan;

ikkinchidan, aholining munosib turmush sharoitini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya obyektlari, ijtimoiy soha, madaniyat hamda sport inshootlari yetarli darajada barpo etilmagan, mavjudlarini esa rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash bo'yicha zarur choralar ko'rilmagan;

uchinchidan, tumanda turizmni yo'lga qo'yish va rivojlantirish yuzasidan yetarli darajada chora-tadbirlar amalga oshirilmagan, zarur infratuzilma, jumladan, yo'l-transport obyektlari va servis xizmatlari talab darajasida yo'lga qo'yilmagan;

to'rtinchidan, geologiya-qidiruv ishlari tashkil etilmaganligi bois foydali qazilmalarni to'liq o'zlashtirish choralari ko'rilmagan, ushbu sohaga investitsiyalarni jalb etish ishlari amalga oshirilmagan;

beshinchidan, aholining ijtimoiy hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy xizmat

ko'rsatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqa tor sohalardagi ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislar yetarli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanini jadal kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mavjud tabiiy va mehnat resurslaridan to'liq hamda samarali foydalanish, tumanda tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, bu borada to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini keng jalb etish, aholi hayot darajasi va sifatini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan. Bu yerda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Bosh prokuratura, Innovation rivojlanish vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Mo'ynoq tumanini (keyingi o'rinlarda tuman deb ataladi) uning geografik joylashuvi va tabiiy iqlim xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalar, texnologiyalar va investitsiyalar markaziga aylantirishni nazarda tutuvchi, barcha zaruriy infratuzilmaga, shu jumladan, innovatsion maktab, sport obyektlari, davolash-profilaktika muassasalari, zamonaviy aeroport, mehmonxona, savdo va ko'ngilochar dam olish markazlari, «selfi obyektlari, optik tolali Internet tarmog'i, IP-televideniya ega bo'lgan zamonaviy shaharchalar bunyod etiladi.

Tuman hududida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha investitsiya loyihalarining, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalari, shu jumladan, quyosh va shamoldan foydalangan holda elektr energiya ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

tabiiy qamishzorlardan foydalanish, qurilish materiallari ishlab chiqarishni joriy etish orqali sanoatning yangi yo'nalishlarini yo'lga qo'yish;

«Safari trassasi», «Rally Muynak» musobaqalari, xalqaro gastronomik festival, hunarmandlar alleyasi, ziyorat va tibbiy turizm kabi turizmning yangi yo'nalishlarini tashkil etish hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Mo'ynoq Toshkent shahridan qariyb 1,5 ming kilometr, Nukusdan esa salkam 300 kilometr olisda joylashgan. Aniqrog'i, bu joy dengizning 56 metr chuqurlikdagi o'rmida bo'lgan. 90-yillik tarixga ega Mo'ynoq tumanining shakllanishi-yu, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi Orol bilan chambarchas bog'liq. Yaqin-yaqingacha aholining asosiy qismi baliqchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Kemalarda dengizning o'rkach-o'rkach to'liqlari uzra suzib baliq ovlanib, qayta ishlanar, konserva mahsulotlari qo'shni va olis mamlakatlarga jo'natilar edi.

Paxta yakkahokimligi davrida Orol dengizining qurishi oqibatida Mo'ynoqdagi baliqchilik va uni qayta ishlash sanoatiga ham putur etgandi. Ammo izlansa, intilsa, yangi imkoniyatlar o'z eshigini ochaveradi. Masalan, o'tgan-yili tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar tufayli 4 ming tonna baliq etishtirildi. Bu ko'rsatkichni joriy-yilda ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Yana bir xushxabar shuki, zamonaviy konserva zavodiga tamal toshi qo'yildi. 2019-yilning 1-sentyabriga qadar foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan ushbu korxonada-yiliga 9 millionta baliq konservasi tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

Umuman olganda, joriy-yilda Mo'ynoq tumanida yana ko'plab loyihalar amalga oshiriladi. Shundan 12 tasi sanoat sohasi, 5 tasi qishloq xo'jaligi, 14 tasi xizmat ko'rsatish jabhalari hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, ijtimoiy soha obektlari qurish va ta'mirlash, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha loyihalar ishlab chiqilgan.

Bugun Mo'ynoq hayotida tom ma'noda yangi tarix yozilmoqda. Unda nafaqat tuman yoki Orolbo'yi aholisi, balki butun mamlakat ahli o'z hissasini qo'shishga chog'langan.

Gap shundaki, yashil o'rmonlar barpo etish tadbirlariga barcha hududdan yuzlab o'rmonchilar, qishloq xo'jaligi xodimlari, shuningdek, 500 dan ziyod texnikalar jalb etildi.

Tadbirda yashil "qalqon" hosil qilishda nega aynan saksovul urug'lari sepilayotgani to'g'risida savol berildi.

"Cho'l malikasi" deya ta'riflanadigan saksovulni najot daraxti, deyish mumkin. Binobarin, qurg'oqchilikka moslashgan ushbu nabotot namunasining bioxilma-xillikni saqlashdagi roli g'oyat katta.

Garchi uncha baland o'smasa-da, uning tarvaqaylab ketadigan shox-shabbalari cho'l o'simliklari rivojlanishida, jonivorlari chang-to'zonlardan himoyalanişida panoh vazifasini o'taydi. Eng asosiysi, uning bir tupi 10 tonnadan 100 tonnagacha qum ko'chishining oldini oladi. Zamin sho'rini tortib olib, atrofni kislorod bilan boyitadi. Shuning uchun hozirgi paytda kuniga 15 — 20 tonnagacha saksovol urug'lari yig'ilib, ekilmoqda. O'rmonchilar yangi barpo etilayotgan saksovolzorlarda shifobaxsh giyohlarni yetishtirish bo'yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqishmoqda.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi sayyohlarni ko'proq jalb etish maqsadida yangi turistik xizmatlarni joriy qilayotgan bo'lsa, Savdo-sanoat palatasi tadbirkorlik, xususan, hunarmandchilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash sa'y-harakatlarini boshlagan. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan esa umumiy qiymati 50 million AQSh dollarilik 18 ta innovatsion loyihani hayotga tatbiq qilish chora-tadbirlari ko'rilyapti. Bundan tashqari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi shu-yilning o'zida 4 ming kishining bandligini ta'minlash, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini 3 million gektarga yetkazish yuzasidan izchil ishlarni boshlab yuborgan. Mutasaddilar Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ekologik holatini tubdan yaxshilashga qaratilgan shu kabi loyihalar ustida keng miqyosli ishlar olib bormoqdalar. haqida batafsil ma'lumotlar berishdi.

Loyihaning ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyati katta. Ekologik jihati nimada? Birinchidan, o'simliklar, o'z ildizlari bilan tuproqni mahkam ushlab, defolyatsiya (buzilish) jarayonlarini to'xtatadi, kislorod ajratib, karbonat angidridni yutadi. Bir gektar saksovol 1100 kg. kislorod chiqarib, 1050 kg. karbonat angidridni yutadi. Biz mahalliy aholi yashashi uchun o'z o'rmonlarimiz bilan qulay sharoit yaratib beramiz.

Vazirlar Mahkamasining "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Mo'ynoq tumanini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish va mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi.

Qayd etilishicha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashida Mo‘ynoq tumanini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Mo‘ynoq tumanini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish va mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, jamg‘arma yuridik shaxs hisoblanmaydi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzurida tashkil etiladi.

Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi prezidenti va hukumati qarorlari bilan qabul qilingan dastur hamda belgilangan topshiriqlari asosida Mo‘ynoq tumanini rivojlantirish bo‘yicha nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Jamg‘arma uchun shaxsiy g‘azna hisobraqamlari belgilangan tartibda ochiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi jamg‘arma mablag‘larini tasarruf etuvchi hisoblanadi.

Quyidagilar jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining maqsadli mablag‘lari, shu jumladan, markazlashtirilgan investitsiyalar;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti mablag‘lari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining hamda Mo‘ynoq tumani byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘lari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining qo‘shimcha manbalari;

xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari);

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa manbalar.

Markazlashtirilgan manbalar hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan loyihalar O‘zbekiston Respublikasi Davlat

byudjetida ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag'lar doirasida, amaldagi tartib asosida moliyalashtiriladi hamda ularning hisobi Jamg'arma orqali sarflanadigan mablag'lar bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan olib boriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining hamda Mo'ynoq tumani byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'lari va qo'shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag'lar, xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari), jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mablag'lar belgilangan tartibda jamg'armaning shaxsiy g'azna hisobraqamiga tushadi.

Xalqaro moliya institutlarining va boshqa xorijiy donorlarning tartibotlari yoki xorijiy kreditlar va grantlarni berishning shartlarida boshqacha tartib belgilangan holatlar bundan mustasno.

Jamg'arma mablag'lari:

dasturlar asosida Mo'ynoq tumanini rivojlantirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga;

Mo'ynoq tumani infratuzilmasini yaxshilashga, qishloqlarni obodonlashtirishga va ko'kalamzorlashtirish hamda mahalliy ichki yo'llarni ta'mirlashga;

Mo'ynoq tumani uy-joy fondining ko'p kvartirali uylaridagi umumiy foydalaniladigan va uylar ichidagi muhandislik kommunikatsiyalarini ta'mirlashga, shuningdek, bolalar maydonchalari barpo etgan holda uylarga yondosh hududlarni obodonlashtirishga;

mahallalar hududida kutubxonalar tashkil etishga va ularni badiiy adabiyotlar bilan ta'minlashga;

kam ta'minlangan va yosh oilalarga imtiyozli kreditlar olinishida boshlang'ich badalni qisman yoki to'liq qoplashga hamda maishiy texnika vositalariga bo'lgan birlamchi ehtiyojni qondirishga;

qishloq va chekka hududlarda joylashgan ta'lim va tibbiyot muassasalarida ishlash uchun yuborilgan xodimlarni xizmat joylari bilan ta'minlashga;

Mo'ynoq tumani aholisining turmush sharoitlari va sifatini yaxshilash bo'yicha boshqa tadbirlarga sarflanadi.

— Bugun mo‘ynoqliklar katta tarix boshida turibdi. Sababi, bu erda yaqin kelajakda umumiy maydoni 555 gektarni egallagan zamonaviy shahar — Yangi Mo‘ynoq paydo bo‘ladi. Uning 55 gektarida yangi markaz barpo etiladi, 69 ta ko‘p qavatli uy quriladi. Shundan 24 ta to‘rt qavatli turarjoy 2019-yilda foydalanishga topshiriladi. Ayni paytda ularning 7 tasida qurilish ishlari olib borilyapti.

Bundan tashqari, 315 o‘rinli zamonaviy maxsus innovasion maktab, 160 o‘rinli maktabgacha ta‘lim muassasasi, Yoshlar markazi, sport majmuasi, musiqa maktabi, mahalla guzari, turistik obektlar quriladi. Aeroport tubdan rekonstruksiya qilinadi. Bularning barchasi tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ayni muddaodir.

10.4. Qoraqalpog‘istonda bunyodkorlik ishlari. Madaniyat va sport

4-masala bayoni. Shavkat Mirziyoyev Nukus shahar bosh rejasi asosida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik loyihalari bilan tanishdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Nukusning bosh rejasi shaharni 2035-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilma va aholi turar joy sharoitini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik loyihalarini qamrab olgan.

Davlatimiz rahbari joriy-yil yanvar oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi chog‘ida Nukusning Ernazar Olako‘z ko‘chasini rekonstruksiya qilish loyihasi bilan tanishib, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bergan edi. Rejaga ko‘ra, ushbu markaziy ko‘cha kengaytirilib, transport harakati uchun yanada keng qulaylik yaratish, yo‘l bo‘yida ko‘p qavatli uylar, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari qurish belgilangandi.

Ayni paytda bu yerda zamonaviy loyihalar asosida 5 qavatli 30 turar joy binosi qurib bitkazilmoqda. Imtiyozli ipoteka krediti asosida beriladigan ushbu uylarda zamonaviy qulayliklar yaratiladi. Uylar 2018-yilda foydalanishga topshiriladi. Kelasi-yili ushbu ko‘chada yana 20 uy quriladi.

Shaharning Abdambetov ko‘chasida ham arzonlashtirilgan uylardan iborat turar joy massivi barpo etilmoqda. Joriy-yilda qurilgan ko‘p qavatli 7 uy shu kunlarda o‘z egalariga topshirilmoqda.

Massivda zamonaviy mahalla markazi, xizmat ko'rsatish shoxobchalari, «Go'zallik saloni», minibank, bolalar o'yin maydonchalari barpo etiladi, hudud obodonlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari aholining arzonlashtirilgan uy-joylarga qiziqishi ortib borayotganini inobatga olib, kelgusi-yili bu yerda yana 15 ko'p qavatli uy qurish bo'yicha topshiriq berdi.

Shu yerda Prezidentimizning Sergeli tumaniga tashrifi chog'ida bergan ko'rsatmalari asosida ko'p qavatli uylarning 1-qavatida bolalar bog'chasi va oilaviy poliklinikani joylashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan loyiha taqdimoti ham o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev zamonaviy shaharsozlikning ilg'or echimlarini o'zida mujassamlashtiradigan, aholiga har tomonlama qulaylik yaratadigan ushbu uylarning afzalligiga e'tibor qaratdi, loyihani takomillashtirish, ko'p farzandli oilalar va keksalarga qo'shimcha sharoitlar yaratish kerakligini ta'kidladi.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali shifoxonasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va rekonstruksiya ishlari, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining yangi bosh o'quv binosini qurish, «Dianplast» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan yumshoq yuk konteynerlari, polietilen qoplar va sumkalar ishlab chiqarish loyihalari ham muhokama qilinib, bu borada topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Prezidentimiz Nukus shahridagi «Imom eshon Muhammad» jome masjidida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Shavkat Mirziyoyev joriy-yil 20-21-yanvar kunlari Qoraqalpog'istonga qilgan tashrifi davomida Nukus shahridagi «Imom eshon Muhammad» jome masjidida bo'lib, bu yerda imomxatiblar malakasini oshirish o'quv markazi, yotoqxonasi, kutubxonasi barpo etish, masjid hududini obodonlashtirish va atrofiga devor qurish, novvoyxona tashkil qilish, hovuz, favvara va boshqa qulayliklar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi.

Bu erda o'tgan 11 oy davomida keng ko'lamlilik qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Masjid ma'muriy binosining birinchi qavatida O'zbekiston musulmonlari idorasining Qoraqalpog'istondagi vakilligi idorasi joylashgan bo'lib, uning barcha xonalari qayta ta'mirdan chiqarildi. Ikkinchi qavatida axborot-resurs

markazi, kutubxonalar tashkil etildi. Issiq pol qurildi, eshiklari yangisiga almashtirildi. Namoz o'qiydigan maskan rekonstruksiya qilinib, gumbaz qayta ishlandi. Masjid yonida minora, hovuz, novvoyxona, avtomobillar uchun to'xtash joyi va boshqa qulayliklar bunyod etildi. Manzarali daraxt va gullar ekildi.

Shuningdek, masjid yonida imom-xatiblar malakasini oshirish o'quv markazi tashkil etilib, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi.

Buyuk ajdodlarimiz hayoti va ma'naviy merosini chuqur o'rganish uchun barcha sharoitni yaratamiz. Aholi ziyorat qilib, chinakam ma'naviy ozuqa oladigan bunday ma'naviy-ma'rifiy maskanlarni yanada obod qilib, kelajak avlodlar uchun saqlashimiz kerak, dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bugun Qoraqalpog'istonda hayot butunlay o'zgarmoqda. Barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullar yangicha chiroy ochmoqda, zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, sport va ijtimoiy sohaning boshqa maskanlari, kommunikatsiya tarmoqlari barpo etilmoqda. Bu esa Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'mi tobora ortib borayotganidan dalolatdir.

Shavkat Mirziyoyev bu yerni ma'naviyat maskaniga aylantirish, atoqli shoir va yozuvchilarimiz ijodini xalqimizga va butun dunyoga keng targ'ib etish zarurligini ta'kidladi. Buning uchun mamlakatimizda tashkil etilgan Ibrat, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf nomidagi maktablar bilan mustahkam aloqa o'rnatish, ular o'rtasida ijodiy tanlovlar o'tkazish kerak. Jamiyatda kitobsevarlik muhitini shakllantirish, ayniqsa, yoshlarning kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishi har tomonlama rag'batlantirilishi lozim.

Yosh avlodning hech kimdan kam bo'lmagan sharoitlarda ta'lim-tarbiya olishi, iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'tgan davr mobaynida hududda zamonaviy sharoitlar yaratilgan 99 kasb-hunar kolleji, 9 akademik lisey foydalanishga topshirildi. 2015-yilda 9 ming 700 o'rinli 22 ta zamonaviy maktab binosi barpo etildi. Ayni paytda hududdagi 370

umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda 170 mingdan ziyod o'g'il-qizlar zamonaviy bilimlarni o'rganmoqda.

O'tgan-yili Nukus shahri markazida 2,5 milliard so'mlik loyiha asosida bunyod etilgan va barcha qulayliklarga ega "Baxt uyi" foydalanishga topshirildi. Inson baxt uchun dunyoga keladi. Bu borada mamlakatimizda yoshlarga doimiy g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Prezidentimizning 2014-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosi doirasida Nukus shahri, Amudaryo, Ellikqal'a, Beruniy, Xo'jayli tumanlarida ijtimoiy hayotda faol bo'lgan yuzlab yosh oilalarga "Kamolot" uylari topshirildi.

Prezidentimiz maktab-internatda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Maktab jamoasiga avtobus sovg'a qilish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Mamlakatimizning boshqa shaharlari qatori Nukus shahri qiyofasi ham-yildan-yilga go'zallashib, zamonaviy turar joylar, istirohat bog'lari, sport majmualari bunyod etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Nukusda yangidan qurilgan Olimpiya va milliy sport turlariga ixtisoslashtirilgan oliy sport mahorati maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Sportning erkin va yunon-rum kurashi, og'ir atletika, dzyudo, taekvondo, boks, qilichbozlik, badiiy gimnastika singari 11 turi bilan shug'ullanish imkoniyati yaratilgan yangi sport majmuasini bunyod etish uchun 15 milliard so'mlikka yaqin qurilish-montaj ishlari amalga oshirilgan. Zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlangan 7 sport zali, yotoqxonona, oshxonona, mashg'ulotlar uchun sun'iy qoplamali sport maydonchalarida 700 dan ziyod o'g'il-qiz sport bilan muntazam shug'ullanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, ushbu sport kompleksi yuqorida qayd etilgan sport turlari bo'yicha Qoraqalpog'iston terma jamoalari o'quv-yig'in mashg'uloti o'tkazadigan bazaga aylantiriladi. Majmua o'quv-yig'in mashg'ulotlari uchun yaratilgan imkoniyatlari bo'yicha mamlakatimizda yagona hisoblanadi.

Prezidentimiz yosh sportchilar bilan muloqot qildi.

Avvalambor, shunday zamonaviy sport inshooti bilan sizlarni tabriklayman, dedi Shavkat Mirziyoyev. Bu maskanda sport bilan shug'ullanish uchun barcha sharoit yaratilgan. Endi shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, yuksak natijalarga erishish kerak.

Shu yerda Prezidentimiz nomidan og'ir atletika bo'yicha nufuzli turnirlar sovrindori Rustam Jangaboevga uy, dzyudochi Elyor Masharipovga «Malibu» avtomobili, qilichbozlik bo'yicha xalqaro turnirlar sovrindori Zaynab Dayibekovaga «Neksiya» mashinasi berildi. Yosh sportchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Nazorat savollari

1. Qoraqalpog'iston Respublikasida mustaqillik-yillarida qanday islohotlar amalga oshirildi?

2. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasida qanday loyihalar amalga oshirildi?

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavot, kartoshka, va poliz mahsulotlarin sotib olish va ulardan foydalanish tizimini etishtirish to'g'risinda"gi qarorining bajarilishin ta'minlash bo'yicha qanday ishlar olib borilmoqda?

4. Orol dengizining qurishi oqibatida qanday vaziyat yuzaga keldi?

Test savollari

1.2019-yil avgustda Nukus shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishda davlatimiz rahbari mintaqani taraqqiy ettirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Mazur yo'nalishning birinchisi qanday nomlanadi?

A) qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalarni keng joriy qilgan holda, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va mahsulot turlarini keskin oshirish.

V) sanoatni rivojlantirish, barcha tarmoqlarda yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish.

S) tadbirkorlik gullab yashnashi uchun keng yo‘l ochib berish va uni har taraflama qo‘llab-quvvatlash

D) Orolbo‘yi aholisining yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash yuzasidan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish.

2. Mintaqani taraqqiy ettirish bo‘yicha beshinchi ustuvor yo‘nalish qanday nomlanadi?

A) qishloq xo‘jaligida ilg‘or texnologiyalami keng joriy qilgan holda, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va mahsulot turlarini keskin oshirish.

V) Orolbo‘yi aholisining yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash yuzasidan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish.

S) ishlab chiqarish va odamlar uchun qulay bo‘lgan zamonaviy infratuzilmani yaratish.

D) tadbirkorlik gullab yashnashi uchun keng yo‘l ochib berish va uni har taraflama qo‘llab-quvvatlash

3 Mintaqani taraqqiy ettirish bo‘yicha to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishfaeday nomlanadi?

A) Orolbo‘yi aholisining yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash yuzasidan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish.

V) ishlab chiqarish va odamlar uchun qulay bo‘lgan zamonaviy infratuzilmani yaratish.

S) tadbirkorlik gullab yashnashi uchun keng yo‘l ochib berish va uni har taraflama qo‘llab-quvvatlash

D) qishloq xo‘jaligida ilg‘or texnologiyalami keng joriy qilgan holda, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va mahsulot turlarini keskin oshirish.

4. Mintaqani taraqqiy ettirish bo‘yicha uchinchi ustuvor yo‘nalishfaeday nomlanadi?

A) qishloq xo‘jaligida ilg‘or texnologiyalami keng joriy qilgan holda, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va mahsulot turlarini keskin oshirish.

V) ishlab chiqarish va odamlar uchun qulay bo‘lgan zamonaviy infratuzilmani yaratish.

S) tadbirkorlik gullab yashnashi uchun keng yo‘l ochib berish va uni har taraflama qo‘llab-quvvatlash

D) sanoatni rivojlantirish, barcha tarmoqlarda yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish.

5. Mintaqani taraqqiy ettirish bo'yicha ikkinchi ustuvor yo'nalishfaeday nomlanadi?

A) sanoatni rivojlantirish, barcha tarmoqlarda yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish.

V) tadbirkorlik gullab yashnashi uchun keng yo'l ochib berish va uni har taraflama qo'llab-quvvatlash.

S) Orolbo'yi aholisining yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash yuzasidan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish

D) ishlab chiqarish va odamlar uchun qulay bo'lgan zamonaviy infratuzilmani yaratish.

6. Prezidentimiz Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ekologik xavfsizlik masalasiga alohida to'xtalib, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, Orol dengizining suvsiz hududida qancha gektar o'rmonzor barpo etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

A) 750 ming gektar;

V) 500 ming gektar;

S) 550ming gektar;

D) 600 ming gektar

7. 2015-yilda 9 ming 700 o'rinli 22 ta zamonaviy maktab binosi barpo etildi. Ayni paytda hududdagi 370 umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda qancha o'g'il-qizlar zamonaviy bilimlarni o'rganmoqda.

A) 170 mingdan ziyod;

V) 190mingdan ziyod;

S) 160 mingdan ziyod;

D) 180 mingdan ziyod

8. Prezidentimizning 2014-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosi doirasida Nukus shahri, Amudaryo, Ellikqal'a, Beruniy, Xo'jayli tumanlarida ijtimoiy hayotda faol bo'lgan yuzlab yosh oilalarga....

A) Imtiyozoi kreditlar berildi;

V) Yer uchastkalari ajratildi;

S) "Kamolot" uylari topshirildi;

D) Barchasi birgalikda to'g'ri

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston”, 2011.
3. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. – T.: “O‘zbekiston”, 2004.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2015.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’naatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O‘zbekiston”. 2017.
8. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: “Ma’naviyat”, 2017.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir. Xalq so‘zi. 2012, 10-may.
10. Mustakil O‘zbekistan tarixining dastlabki saxifalari. – T., 2000.
11. Sabirov A. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T.: “Akademiya”, 2013.
12. Jurayev N, Fayzullayev T. O‘zbekistonning yangi tarixi. – T.: “Sharq”, 2000.

11-MAVZU: O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

- 11.1. Tashqi siyosat asoslarining yaratilishi. O‘zbekiston - BMT a‘zosi.
- 11.2. MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik.
- 11.3. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qardoshlik aloqalari.

Tayanch tushunchalar: Tashqi siyosat, vakolatxona, elchixonona, faxriy konsulxonona «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturi, savdo-sotiq, eksport, MDH, BMT, NATO, EXHT, SHHT, BMTTD, YUNESKO, YUNFPA, YUNISEF, JSST, YUNDOK, YUNAIDS, YUNIDO, «6+2», TRASEKA loyihasi.

11.1. Tashqi siyosat asoslarining yaratilishi. O‘zbekiston – BMT a‘zosi.

Birinchi masala bayoni. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 2-chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Oliy Kengash Bayonotida respublikaning tashqi siyosatdagi yo‘li aniq qilib belgilandi. I.A.Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida «O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko‘p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir», - deb alohida uqtirdi. O‘zbekistonni xalqaro huquq subyekti sifatida belgilaydigan, davlatimizning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi.

O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida 165 ta davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. O‘zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmokda. 20 dan ortiq davlatda O‘zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

Iqtisodiy islohotlarning 1-bosqichi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish-yillari bo'ldi. Islohotlarning 1-bosqichida tashqi savdo 2 yo'nalishda amalga oshirildi. Birinchidan, mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar asosida. Ikkinchidan, uzoq xorij mamlakatlari bilan erkin muomaladagi valyuta hisob-kitob qilish asosida savdo-sotiq ishlari amalga oshirildi. O'zbekiston dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalarini o'rnatdi. Mamlakatimiz eksportida AQSh, Turkiya, Belgiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiya, Polsha, Janubiy Koreya Respublikasi, Indoneziya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Malayziya kabi davlatlar yetakchi o'rin egallamoqda.

O'zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilindi. 1993-yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va u ish faoliyatini boshladi. I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil sentyabrda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etdi. O'zbekiston nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rta qo'ydi. 1995-yil yanvarda Toshkentda BMT vakolatxonasi bilan hamkorlikda seminar-kengash o'tdi. Unda O'zbekiston taraqqiyotining strategik muammolari, o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish yo'llari muhokama etildi. O'zbekiston tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995-yil 15-16-sentyabr kunlari Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengash bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muhtor vakillar mintaqa xavfsizligini ta'minlash, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan takliflarini aytdilar.

O'zbekiston BMTning 50-yilligiga bag'ishlangan tantanalarda faol qatnashdi. I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995-yil 22-24-oktyabrda bo'lgan yubiley sessiyasida nutq so'zlad. U nufuzli xalqaro tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir takliflarni bayon etdi.

Umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan boshlanadigan jarayon ekanligi, mintaqalar xavfsizligini ta'minlash yo'li bilangina jahon xavfsizligini ta'minlash mumkinligi alohida ta'kidlandi. Afg'onistondagi urushga barham berish uchun unga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish, qurol olib kirishni ta'qiqlash takliflari ilgari surildi. Ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, qurol savdosini cheklash to'g'risida, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik muammoni hal etishga halqaro moliya tuzilmalarini va rivojlangan mamlakatlarni jalb qilish, BMTning tashkilotchilik ishini faollashtirish to'g'risida bir qator takliflarni ilgari surdi. 1997-yil 15-16-sentyabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo yadro qurolidan holi zona» mavzuida xalqaro konferensiya bo'ldi. Unda 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari, barcha davlatlar Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi zonani barpo etish tashabbusini qo'llab-quvvatlashga va uni barpo etishga ko'maklashishga chaqirildi. 1999-yilning 19-20-iyul kunlarida Toshkentda BMT homiyligida Afg'oniston bo'yicha «6+2» guruhining navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda guruhga a'zo mamlakatlarning Tashqi ishlar vazirlari o'rinbosarlari darajasidagi delegatsiyalari, BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus elchisi Laxdar Braximiy ishtirok etdi. Uchrashuv yakunida Afg'onistondagi mojaroni hal etishning asosiy tamoyillari to'g'risida Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi. 2000-yil 8-sentabrida I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining sessiyasida qatnashdi. 150 dan ko'proq mamlakatning davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etgan ushbu sessiyada I.Karimov nutq so'zladi. 2002-yilning 18-20-oktyabr kunlari BMTning bosh kotibi Kofi Annanning yurtimizda bo'lishi O'zbekistonning bu tashkilotga a'zo bo'lgandan keyingi va I.Karimovning BMTda so'zlagan nutqidan keyingi eng e'tiborli voqealardan biri bo'ldi.

Mustaqillik-yillaridagi xalqaro aloqalar

O'zbekiston 1992-yil fevral oyida tinchlikni mustahkamlash, Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot - Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (EXHT) a'zo bo'lib kirdi. I.Karimov 1992-

yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etib, 10-iyulda bo'lgan majlisida raislik qildi. 1994-yil 28-30-sentyabrda Toshkentda EXHTning xalqaro anjumani o'tkazildi. EXHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo'yicha seminarlar o'tkazdi. Mazkur xalqaro tashkilot Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda. 1995-yil iyulda Toshkentda EXHTning mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. 1995-yil iyul oyida O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga qo'shildi. «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida 1995-yilda AQShda, 1997-yili Qozog'iston va O'zbekistonda o'tkazilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko'tarishga xizmat qildi. O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatining a'zosi.

BMT homiyligida ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot - YUNESKO bilan aloqalari mustahkamlandi. 183 davlat a'zo bo'lgan YUNESKOning bosh maqsadi - barcha xalqlar kelajagining umumiyligi asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish, hozirgi zamon muammolarini yanada chuqurroq o'rnatishga ko'maklashishdir. 1993-yil 29 oktabrda YUNESKOning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKO a'zoliciga qabul qilish marosimi bo'ldi.

1992-yil 15-16-fevral kunlari AQSh davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992-yilda Toshkentda birinchi bo'lib AQShning O'zbekistondagi elchixonasi ochildi.

O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgan dastlabki kunlaridan xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli, suveren hamkorlik olib borish yo'lidan bordi. Qisqa tarixiy davr mobaynida mamlakat jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega davlatga aylandi. O'zbekiston jahonning ko'plab mamlakatlari va yirik xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarida hamkorlik qilib kelmoqda hamda uning geografiyasi, ko'lami yanada kengayib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay

hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol munosabatlar va hamkorlik olib borish O'zbekistonning milliy manfaatlariga xizmat qiladi".

2018-yil holatiga ko'ra O'zbekistonni 180 ga yaqin davlat tan olgan. Ularning 134 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 45 ta davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilot, 5 ta xalqaro moliyaviy, 3 ta diplomatik mavqedagi savdo vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart kuni jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida BMTga a'zo bo'ldi. O'zbekistonni tashkilotga qabul qilish to'g'risidagi qaror BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida ovozga qo'yilmagan holda qabul qilindi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Oliy Kengashi Hay'ati o'z bayonotida "Bizning avlodlar 1992-yil 2-mart bahor kunini tarixiy kun deb ataydilar O'zbekiston BMTga a'zo qilindi va BMT binosi oldida yosh mustaqil respublikaning bayrog'i ko'tarildi" deb ta'kidladi. O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi muhim siyosiy ahamiyatga ega tarixiy voqea bo'ldi. Shu munosabat bilan 1992-yil 6-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon Millatlar hamjamiyatiga a'zo bo'lganlik munosabati bilan amnistiya to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

Bundan tashqari bu tarixiy voqea nafaqat O'zbekistonda balki, xorijdagi o'zbeklar tomonidan ham keng nishonlandi. 1992-yil 2 mart kuni Nyu-Yorkda BMT shtab-kvartirasi oldida mustaqil O'zbekiston bayrog'i ko'tariladi. Ushbu bayroqni ko'rish uchun AQShdagi o'nlab shahar va turli shtatlardan ming-minglab o'zbeklar (turkistonliklar) Nyu-Yorkka keldilar. BMT binosi oldida O'zbekiston bayrog'iga ta'zim bajo keltirish uchun erkaklar o'zbek milliy kiyimlarida, ya'ni chopon va do'ppilarda bo'lsalar, ayollar atlas ko'ylaklarda markaziy ko'chalarda bayram qilib borishgan. Shundan so'ng, 1993-yil 24-oktyabrda Toshkentda Xolid Malik boshchiligida BMTning vakolatxonasi ish boshladi.

O'zbekistonda BMTning o'ndan ortiq dasturlari, jamg'armalari va agentliklari, jumladan, BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD),

Ta'lim, fan va madaniyat muassasalari bo'yicha tashkiloti, (YuNESKO), Aholi qatlamlari fondi (YuNFPA), Xalqaro Bolalar tashkiloti (YuNISEF), Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST), BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (YuNDOK), BMTning OIV/OITS bo'yicha qo'shma dasturi (YuNAIDS) BMTning Axborot va ijtimoiy aloqalar bo'yicha bo'limi, Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy Komissar boshqarmasi, Sanoat Taraqqiyoti Tashkiloti (YuNIDO), BMTning Ko'ngillilar Dasturi (YuNV) faoliyat olib boradi. Shuningdek, BMTning Bretton-Vud muassasalari Jahon Banki, Xalqaro Valyuta fondi singari bir qator ixtisoslashgan muassasalari hamda O'zbekistonda vakolatxonasi bo'lmagan agentliklari, jumladan, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT EIK) bilan hamkorlik aloqalari mavjud. O'z navbatida Nyu-York shahridagi BMT qarorgohida va Jeneva shahridagi BMT qarorgohida O'zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonalari faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov 1993, 1995, 2000 va 2010-yillarda, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil BMT Bosh Assambleyasida nutq so'zladi. 2002-yil BMT sobiq Bosh Kotiblari Kofi Annan, 2010 va 2015-yil Pan Gi Mun, 2017-amaldagi Bosh Kotib Antoniu Guterrish O'zbekistonga tashrif buyurdi.

O'zbekiston Respublikasining BMT bilan o'zaro ko'p tomonlama hamkorligining ustuvor yo'nalishlari bu-xavfsizlik, tahdidlarga qarshi kurashish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, Afg'oniston masalasini tinch yo'l bilan hal etish, bu mamlakatni qayta tiklash, ekologik muammolarni bartaraf etish, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hudud sifatida e'tirof etish, Orol fojeasi oqibatlarini bartaraf etish, ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish, tarixiy an'analar, tarixiy shaxslar va me'moriy yodgorliklarni asrash, qayta tiklash, ularni umumbashariy obidalar sifatida jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini e'tirof etish va boshqalardir. Bu borada O'zbekiston BMT doirasida ko'plab tashabbuslarni ilgari surdi. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT doirasida 1997-yilda Afg'oniston muammosi yuzasidan "6+2 guruhi" muloqot guruhini tashkil etildi, Markaziy Osiyo Markaziy Osiyoda yadro qurolidan

xoli hudud, deb e'lon qilindi, Orol muammosi va mintaqaviy ekologik masalalar yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda BMTning 2000-2015-yillarga mo'ljallangan Mingyillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals) amalga oshirildi hamda 2015–2030-yillarga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) global dasturi yuzasidan turli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi-yillarda BMT va O'zbekiston hamkorligi yangi bosqichiga ko'tarilgan. Xususan, 2017-yil 19-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev AQShda bo'lib, BMTning 72-sessiyasida nutq so'zladi. Mazkur nutq O'zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi. O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar hamda aniq va asosli manbalarga ega bir nechta tashabbuslarni ilgari surdi.

Ya'ni globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, BMT Bosh Assambleyasining “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, BMT Xavfsizlik Kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish kabi global xarakterdagi takliflari jahon jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mazkur nutqi mavjud muammolarga mahalliy, mintaqaviy va global darajada ahamiyat qaratib, ularning yechimiga pragmatik yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu tashabbuslar xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanib, 2018-yil 22-iyun kuni “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” va 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyalari qabul qilindi. Shuningdek, 2017-yil noyabr oyida BMT shafeligida Samarqandda “Markaziy Osiyo: yagona tarix va

umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yoʻlidagi hamkorlik”, 2018-yil 27 mart kuni Toshkentda “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida xalqaro anjumanlar tashkil etildi.

Oʻzbekiston Respublikasining jahondagi yirik xalqaro tashkilot BMT bilan hamkorligi masalalari va bu boradagi yutuqlar Oʻzbekistonning eng yangi tarixi sahifalarida muhim ahamiyatga ega boʻlib, uni yanada boyitdi.

11.2. MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik

Ikkinchi masala bayoni. 1991-yilning avgust-sentyabr oylariga kelib sobiq SSSR tarkibidagi barcha 15 ta Respublika oʻzini mustaqil davlat deb eʼlon qilingan boʻlsa-da, SSSR Prezidenti, parlamenti, hukumati oʻz faoliyatini tugatmagan edi. 1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Ukraina va Belarus rahbarlari Belovejskoe Pushcheda (Minsk, Belarus) mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH)ni tuzish toʻgʻrisidagi Bitim imzoladilar. 1991-yil 21-dekabrda Almatida MDHni tuzish toʻgʻrisidagi Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston va Oʻzbekiston ham imzo qoʻydilar. Shu kuni ushbu davlatlar rahbarlari Rossiya, Ukraina va Belarus rahbarlari bilan birgalikda «Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligining maqsad va tamoyillari toʻgʻrisidagi Shartnoma»ni imzoladilar. Mazkur hujjatda SSSR davlatining faoliyati va SSSR Konsitusiyasi toʻxtatiladi deb eʼlon qilindi. Kengashda Almati Deklarasiyasi qabul qilindi. 1993-yil MDHga Gruziya qoʻshildi. Bu bilan MDHga aʼzo boʻlgan davlatlar soni 12 taga yetdi.

MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik.

Soʻnggi-yillarda Oʻzbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faollashtirishi natijasida xorijiy mamlakatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan oʻzaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash boʻyicha ulkan natijalarga erishilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarildi. Muntazam ravishda dolzarb xalqaro va

mintaqaviy muammolar bo'yicha tashabbuslar ro'yobga chiqarilmoqda, chet davlatlardagi vatandoshlar bilan muloqot mustahkamlanyapti, yurtimizning xalqaro hamjamiyatdagi obro'si yuksalmoqda. Eng asosiysi, yangilanishlar mamlakat taraqqiyoti, odamlar baxtu – iqboli yo'lida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan faol muloqotni yo'lga qo'yish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan faol hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va rivojlantirishda MDH alohida o'ringa ega.

Mamlakatimiz jahonda jadal o'zgarishlar ro'y berayotgan, xatar va tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi zarur hamda ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim maydon bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

O'z navbatida, ushbu tuzilmaning paydo bo'lishi va faoliyati haqida qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlararo tashkilot hisoblanib, u 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi.

1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston qo'shildi, ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzo chekdi.

1993-yil MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi.

MDHda haqiqiy a'zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a'zolar bo'lishi ham mumkin.

MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat rahbarlari kengashi, Hukumat rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo'mita, markazi Sankt-Peterburgda joylashgan Parlamentlararo assambleya va boshqalar.

MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiqlashtiruvchi-maslahat qo'mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1-yilda kamida 2 marta o'tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda faol ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi. Shu-yilning martida O'zbekiston MDH parlamentlararo Assambleyasiga a'zo bo'ldi.

MDH dunyoda o'ziga xos yagona tashkilot. U a'zolaridan hech qanday katta majburiyatlar yoki chuqur iqtisodiy integratsiya talab qilmaydi. Tuzilma asosan gumanitar sohada o'z o'rnini oqladi. Hamkorlik mamlakatlari orasida chegaralarni vizasiz kesib o'tish juda muhim. Umumiy ta'lim sohasida ham ma'lum hamkorlik imkoniyatlari bor.

MDH gumanitar asoslardan tashqari yana bir o'ta muhim masalani hal qiladi — hamdo'stlik sobiq Ittifoq ichida fikr almashiladigan norasmiy maydon vazifasini o'tamoqda va har qanday mojarolarni paydo bo'lish jarayonida hal qilish imkonini bermoqda.

2019-yilning 11-oktyabr kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi Sammiti Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida bo'lib o'tdi.

Unda davlat rahbarlari mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks mavzularni muhokama qilib, tomonlarni

qiziqtirgan xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Sammitdagi eng muhim voqealardan biri 2020-yilda MDHga raislik qilish O'zbekiston tomoniga o'tgani va barcha ishtirokchi davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangani bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz MDHga raisligi davomida tashkilot doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va samaradorligini oshirishga ustuvor e'tibor qaratiladi.

Bunda a'zo davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, erkin savdo zonasi to'liq ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, agrar soha, energetika va telekommunikatsiyalar tarmog'idagi hamkorlikni kengaytirish, ilmiy, innovasion va ta'lim dasturlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, o'n-yilga mo'ljallangan Transport va tranzit yo'laklarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini va Hududlararo hamkorlik konsepsiyasini ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Bu esa mintaqa savdo-iqtisodiy salohiyatini yanada ortishiga turtki bo'ladi.

O'zbekiston raisligida o'tishi rejalashtirilayotgan 2020-yil bir qator muhim tadbirlar o'tishi bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, kelgusi-yili yurtimizda birinchi MDH hududlararo forumi bo'lib o'tishini ta'kidlash joiz. Shuningdek, MDH savdo-sanoat palatalari rahbarlari kengashi majlisini o'tkaziladi. Uning doirasida Hamdo'stlikning ishbilarmonlik tashabbuslari haftaligi tashkil etiladi. Bundan tashqari, axborot xavfsizligi, madaniy-gumanitar hamkorlik bo'yicha ham qator tadbirlar rejalashtirilgan.

Shu o'rinda O'zbekiston raisligida o'tadigan-yilda o'zining MDHdagi bir qator tashabbuslarini ya'ni mamlakatlarimizda navbati bilan turizm yarmarkalari va MDH madaniyati kunlarini, Hamdo'stlikning ijodkor yoshlari o'rtasida muntazam uchrashuvlarni o'tkazish g'oyasini hayotga tatbiq etish uchun imkoniyat beradi.

Umuman olganda, 2020-yilda MDHga mamlakatimizning raislik qilishi mintaqada o'zaro hamkorlik uchun qulay muhit shakllanishi, mintaqaviy xavfsizlikning ta'minlanishi bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi va eng asosiysi O'zbekiston

tashabbuslarining xalqaro maydonda yana bir karra e'tirof etilishiga zamin yaratadi.

Ta'kidlash joizki, o'z nizomiga ko'ra a'zo mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ekologik, tinchlik va xavfsizlik kabi yo'nalishlarda yaqin hamkorlik qilishi, davlatlararo sherikchilik va integratsiyani rivojlantirishi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdek, muhim vazifalar qat'iy belgilab qo'yilgan MDHning navbatdagi raisligi mamlakatimizning xalqaro obro'-e'tiborida ahamiyati katta bo'ladi.

11.3. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qardoshlik aloqalari

Uchinchi masala bayoni. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi uchrashuvi 1990-yil iyun oyida Almati shahrida bo'lib o'tdi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi 1991-yil 13-15-avgust kunlari Toshkent shahrida bo'ldi. Undagi eng muhim hujjat - O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalararo maslahat Kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Maslahat Kengashining vazifasi beshta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishdan, bozor munosabatlariga o'tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan iborat. 1991-yil 13-dekabrda Ashgabadda Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Tajan-Seraxs yo'l qurilishi bo'yicha bitim imzolandi. Uni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston Prezidentlari imzoladilar. Besh davlat boshliqlari Chemobil halokati, Orol fojeasi oqibatlarini tugatish masalasida birgalikda harakat qilish haqida qaror qabul qildilar. 1993-yilning 4-yanvarida I.Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat rahbarlari hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi.

1993-yil 26-martda Qizil O'rdada Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida birinchi anjumani bo'lib o'tdi. 1993-yil 28-iyulda Almatida Qozg'iston va O'zbekiston o'rtasida 1994-2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani

chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi. 1994-yil 11-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari boshliqlarining Rossiya Federatsiyasi davlat delegatsiyasi ishtirokida ikkinchi konferensiyasi bo'lib o'tdi. Anjumanda Orol dengizi havzasidagi hozirgi ahvol bilan bog'liq masalalar, Orolni qutqarish xalqaro jang'armasi mablag'lari qanday to'planayotganligi muhokama qilindi, ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin 5-yil ichida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilandi. Orolni qutqarish bo'yicha davlatlararo Kengash Nizomi tasdiqlandi. 1994-yil 16-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida yagona iqtisodiy makon to'g'risida shartnoma imzolandi. 1994-yil 30-aprelda Cho'lponota shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida Yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi. 1994-yil 8 iyul Almati shahrida uchrashuv bo'lib o'tdi. 1995-yil yanvarida Qozog'iston Prezidenti Toshkentga keldi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka doir bitim va qator hujjatlarga imzo chekildi. Bitimga Qirg'iziston ham qo'shildi. Natijada uch mamlakat o'rtasida yagona bozorni vujudga keltirish, mahsulot ayriboshlash imkoniyati yaratildi. Toshhovuz uchrashuvida Markaziy Osiyo Respublikalari Prezidentlari Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini chuqurlashtirish masalalarini ko'rib chiqdilar va qo'shma Bayonot imzoladilar. 1995-yil 3-martda Toshhovuzda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. 1995-yil 14-aprel kuni Chimkentda O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi. Tojikiston va Afg'oniston chegarasidagi vaziyat haqida maslahatlashib olindi. Qabul qilingan Bayonotda Tojikiston muxolifat kuchlari tomonidan 1995-yil 7-aprelda qilingan qon to'kishga olib kelgan hujum qoralandi. 2000-yilgacha dastur ma'qullandi. 1995-yil 15 dekabrda Jambulda o'tkazilgan davlatlararo Kengash majlisida, 1997-yil 9-10-yanvar kunlari Bishkekda va 1997-yil 12-dekabr kuni Qozg'istonning yangi poytaxti Ostana (Oqmola) shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlari uchrashdilar. 1998-yil 5-6-yanvarda Ashgabadida Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Beshala davlatning milliy manfaatlariga, mintaqadagi xavfsizlik va

barqarorlikka mos keladigan do'stona, teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni chuqurlashtirishga sodiq ekanligi tasdiqlandi. Tojikiston Prezidenti I. Rahmonov mazkur yagona iqtisodiy hududga Tojikiston ham qo'shilishini bildirdi.

I. Karimov tashabbusi bilan 2000-yil 20-21-aprelda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda 1999-yildagi Qirg'iziston bilan bog'liq fojialar ko'rib chiqildi. Sammit qatnashchilari xalqaro terrorchilik, diniy va siyosiy ekstremizm, mintaqa barqarorligiga tahdid soluvchi omillarga qarshi kurash to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdilar. 2001-yilning 1-haftasida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlari Almati shahrida uchrashdilar. Majlisda I. Karimov Markaziy Osiyo Respublikalari Iqtisodiy Hamjamiyati Forumini chaqirish to'g'risida taklif kiritdi. 2002-2003-yillarda ushbu Sammit o'z ishini davom ettirdi. I. Karimov «Turkiston umumiy uyimiz» degan g'oyani ilgari surdi. 1-navbatda, ijodkor ziyolilar-yozuvchilar, tarixchilar va boshqalarning e'tiborini Turkiston tarixiy birlik tuyg'usini qaytadan tiklashga qaratdi. I. Karimov tomonidan 1995-yil 5-mayda Oliy Majlis 2-sessiyasida «Turkiston – umumiy uyimiz» shiorining ilgari surilishi, uning mazmuni va ko'zlangan maqsad mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdir. Toshkentda 29-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi.

2017-yili noyabr oyida Samarqandda BMT shafeligida o'tkazilgan «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusidagi xalqaro anjumanda Prezidentimiz Markaziy Osiyoga oid dolzarb masalalar bo'yicha mintaqa mamlakatlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, buning uchun Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini muntazam yo'lga qo'yishni taklif etdi.

Bu tashabbusni mintaqadagi barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar qo'llab-quvvatladi. Elboshi Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan, birinchi Maslahat uchrashuvi 2018-yil 15-martda Qozog'istonda bo'lib o'tdi. Unda mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog'

kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari taklifining ijobati sifatida 2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus rezolyusiya qabul qilangani mintaqaviy hamkorlik rivojiga mustahkam zamin yaratadigan yana bir tarixiy voqea bo'ldi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekiston tashqi siyosatida "Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo'nalish" tamoyili amalda tatbiq etila boshladi. Barcha qo'shnilarimiz bilan do'stona va o'zaro ishonch ruhidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash asosiy vazifalardan biriga aylandi.

Qozog'iston O'zbekistonning asosiy savdo sheriklaridan sanaladi. 2018-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 50 foiz o'sib, 3 milliard dollardan oshgan. Joriy-yilning yanvar-oktyabr oylarida bu ko'rsatkich 2,9 milliard dollarni tashkil etdi.

Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya samarali faoliyat olib bormoqda. Yurtimizda Qozog'iston kapitali ishtirokida 766 ta, Qozog'istonda esa O'zbekiston rezidentlari ishtirokida qariyb 200 korxonalar ochilgan. Avtomobil va temir yo'llar orqali yuk tashish hajmi ham o'sgan. Mamlakatlarimizning yirik shaharlari o'rtasida avtobus va samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Qirg'iziston bilan aloqalar ham kengaymoqda. Xususan, 2018-yilda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 481 million dollardan oshgan bo'lsa, joriy-yilning yanvar-oktyabr oylaridayoq keskin o'sib, 703 million dollarga etgan.

Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya ishlamoqda. O'zbekistonda Qirg'iziston vakillari ishtirokida 150 ta, Qirg'izistonda esa yurtimiz kapitali ishtirokida 51 korxonalar ochilgan. Hududlararo aloqalar, sanoat kooperatsiyasi ham izchil rivojlanmoqda.

Keyingi-yillarda Tojikiston bilan hamkorlik ham faollashdi. Masalan, 2018-yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 389 million dollardan oshgan bo'lsa, joriy-yilning yanvar-oktyabr

oylarida bu ko'rsatkich qariyb 30 foiz o'sib, 408 million dollarga etgan.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya tuzilgan. Ikki mamlakatda o'zaro hamkorlikda tuzilgan o'nlab korxonalar ishlab turibdi. Madaniy-gumanitar va turizm sohasidagi aloqalar ham kengaymoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari sammitining asosiy voqealari 29-noyabr kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dastlab sammit mehmonlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Qozog'iston Respublikasining birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, unga O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari yetakchilari uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatlagani uchun yana bir bor minnatdorlik bildirdi.

Birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli keyingi-yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi an'anaviy yaqin munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, aniq amaliy mazmun bilan boyidi.

Elboshi Nursulton Nazarboyev, o'z navbatida, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilk bor 2018-yili Nur-Sulton shahrida o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mintaqada ko'p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgani hamda sheriklikning amaliy loyihalarini ilgari surish uchun samarali maydon vazifasini o'tayotganini ta'kidladi.

Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarga oid, shuningdek, global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan uchrashuvda davlat rahbarlari O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Turli darajalardagi aloqalar faollashgani, tovar ayirboshlash ortayotgani, gumanitar almashinuvlar jadallashgani alohida ta'kidlandi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Tomonlar Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Toshkentdagi Maslahat uchrashuvi mintqa mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni yanada faollashtirish hamda do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shishiga ishonch bildirdilar.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan muloqotda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan ko'p qirrali O'zbekiston – Tojikiston hamkorligi rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar tufayli bugun savdo-iqtisodiy munosabatlar faol rivojlanmoqda. O'zaro savdo hajmi ortmoqda, turli tarmoqlardagi kooperasiya kuchaymoqda, madaniy-gumanitar almashinuv kengaymoqda.

Uchrashuvda qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash borasida intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladilar.

Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashuvda tomonlar mamlakatlarimiz hamkorligining dolzarb masalalari va ulami kengaytirish istiqbollarini muhokama qildilar. Davlat rahbarlari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Shundan so'ng Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi boshlandi.

Suratga tushish marosimidan so'ng delegatsiyalar rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov ishtirok etdi.

Sammitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari majlis ishtirokchilarini samimiy qutlab, ushbu uchrashuv hayot talabi, tomonlarning do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, sheriklikni kengaytirishga intilishi ifodasi ekanini ta'kidladi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli oxirgi-yillarda ko'plab murakkab masalalarga yechim topildi. Bu ijobiy o'zgarishlar xalqlarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlandi hamda butun dunyoda yuqori baholandi.

Shu bilan birga, tez o'zgarayotgan dunyoda yangidan-yangi masalalar kun tartibiga chiqmoqda. Mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar, barqaror rivojlanishga halal beruvchi omillar paydo bo'layotir. Bu o'zaro ishonchga asoslangan sheriklikni mustahkamlashni, sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishni talab etmoqda.

Yetakchilarning mazkur uchrashuvi oliy darajadagi mintaqaviy muloqotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

– Yaratganning inoyati bilan biz qo'shnilarmiz. Xalqlarimizning tarixi va taqdiri, kelajagi chambarchas bog'liq. Bu esa mintaqamizni birlashtiruvchi katta kuchdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda ko'p tomonlama hamkorlik bo'yicha yagona nuqtai nazarni kelishish zarurligini ta'kidlab, uning asosiy yo'nalishlari haqida o'z fikrlarini bildirdi, qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Bu, avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalami rivojlantirishdir. Katta bozorga ega, tabiiy xom ashyo va inson resurslari salmoqli bo'lgan mintaqamizning raqobatdosh ustunliklarini imkon qadar to'liq ishga solish muhim. Qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish, mintaqa ichida savdoni kengaytirish, ish o'rinlari yaratish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi imkoniyatlarni aniqlash va kooperasiya loyihalarini amalga oshirish lozim.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik sanoati, agrar tarmoqda faol hamkorlik qilishga tayyor ekani bildirildi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – mintaqaning transport jihatidan o'zaro bog'liqligini mustahkamlash va tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish.

Markaziy Osiyoning transport tizimi yaratilayotgan zamonaviy logistika infratuzilmasidan foydalangan holda mintaqa ichida uzluksiz kommunikatsiyani ta'minlashi, shuningdek, tobora ortib borayotgan tranzit oqimlariga samarali xizmat qilishi lozimligi ta'kidlandi.

Uchinchidan, mintaqamizning uzoq muddatli manfaatlarini hisobga olgan holda, energetika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish zarurligi, O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish, zamonaviy energetika infratuzilmasini yaratish borasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirishga tayyor ekani ta'kidlandi.

Mamlakatlarimizning ulkan turizm salohiyatini amalga oshirish yana bir istiqbolli yo'nalishdir. Davlatimiz rahbari buning uchun Markaziy Osiyoning yagona, ko'pchilik taniydigan turizm brendi, mintaqa uchun umumiy bo'lgan jozibador turizm mahsulotlarini shakllantirish lozimligiga e'tibor qaratdi.

Shavkat Mirziyoyev suvdan foydalanish borasidagi muammolarni hal etishga doir o'zaro kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqishni taklif etdi, Afg'onistonda tinchlik, milliy murosa va iqtisodiy tiklanishga erishishga ko'maklashish yo'lida mintaqa mamlakatlarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish muhim ekanini ta'kidladi.

Markaziy Osiyo davlatlari delegasiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokalarida xavfsizlikni mustahkamlash, davlatlarimiz o'rtasidagi savdo to'siqlarini bartaraf etish, mintaqaning mavjud ulkan iqtisodiy salohiyatidan foydalangan holda sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish, energetika infratuzilmalarini modernizasiya qilish va hududning tranzit imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yirik loyihalarni ro'yobga chiqarish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ikkinchi Maslahat uchrashuvining o'tkazilishi manfaatlarining o'zaro mushtarakligi, mamlakatlarimiz mintaqaviy taraqqiyotning eng dolzarb masalalari bo'yicha ochiq muloqot va birgalikda qarorlar qabul qilishga tayyor ekanini yana bir bor yaqqol tasdiqlashini ta'kidladi.

Uchrashuvda tomonlar hududlar darajasida faol almashinuvlar va muloqotni qo'llab-quvvatlash, ilm-fan, ta'lim, turizm, madaniyat va sport sohalarida qo'shma tadbirlarni muntazam o'tkazishga kelishib oldilar.

Markaziy Osiyo asrlar davomida qardosh xalqlar tinch va totuv yashab kelayotgan jahondagi kam sonli mintaqalardan biridir.

Sammitda mintaqa davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi formatidagi har-yillik sammitlar shu jihatdan g'oyat muhim ekani ta'kidlandi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo davlatlari bugunga kelib oliy darajadagi mintaqaviy muloqotni rivojlantirishning sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichiga ko'tarildi.

Sammit yakunida Qo'shma bayonot qabul qilindi hamda Maslahat uchrashuvlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish reglamenti ma'qullandi.

Turkmaniston Prezidentining taklifiga binoan davlat rahbarlari Qozog'istonning birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyevni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvining Faxriy raisi etib bir ovozdan sayladilar.

Ommaviy axborot vositalari vakillari uchun brifingda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev muzokaralar an'anaviy do'stlik va o'zaro anglashuv ruhida o'tgani, davlat rahbarlarining mintaqada ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini yanada mustahkamlashga bo'lgan intilishi va qat'iy siyosiy irodasining yaqqol ifodasi bo'lganini ta'kidladi.

Samarali muzokaralardan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Ko'ksaroy qarorgohidagi Faxriy mehmonlar xiyoboniga ko'chatlar o'tqazdi. Bu daraxtlar O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning mustahkam do'stligi va hamkorligi ramzi sifatida yonma-yon o'sadi.

Markaziy Osiyo xalqlarini ko'p asrlik qardoshlik rishtalari, mushtarak tarix, ma'naviy va madaniy qadriyatlar, o'xshash til va mentalitet birlashtirib turadi. Ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bir qo'lning besh barmog'idek hamisha bir-biriga suyangan, yelkadosh bo'lgan. Umumiy tarixiy merosga ega xalqlarimizning barqaror rivojlanishi va farovon kelajagini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev saylovoldi dasturidayoq tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratgan edi.

Bu maqsadlar 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'z ifodasini topdi. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat yuritish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilishni hal etish kabi masalalar ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi.

O'tgan qisqa vaqtda bu borada tarixiy qadamlar qo'yildi. Chegaradan o'tish, suvdan foydalanish kabi o'tkir muammolar hal etildi. Chegaralar ochildi, o'zaro bordi-keldi ko'paydi.

Prezidentimiz ilk davlat tashriflarini qo'shni mamlakatlarga amalga oshirdi. Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan strategik sheriklik munosabatlari o'rnatildi. Qozog'iston bilan strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish borasida muhim hujjatlar imzolandi.

Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega O'zbekistonning bu sa'y-harakatlari butun mintaqadagi muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi ana shunday yaxshi qo'shnichilik muhiti, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan ezgu tashabbusdir.

Mazkur anjuman tarixiga nazar tashlasak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqda ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan turib aytgan edi. 2017-yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida davlatimiz rahbari "Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O'zbekiston o'zaro muloqot,

amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdori dir”, deya ta’kidladi.



Buyuk Ipak yo‘li - taraqqiyot yo‘li.

Birinchi marta Bryussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bog‘laydigan «Yevropa-Kavkaz-Osiyo» transport yo‘lagi - TRASEKAni barpo etish masalasi ko‘rildi va Deklarasiya qabul qilindi. «Lazuriyo‘li», keyinroq «Shohyo‘li», «Buyuk Ipak yo‘li»...Bugunesa - TRASEKA. I.Karimov 1998-yil 8-sentabr kuni Ozarbayjon poytaxtida ish boshlagan BuyukIpak yo‘lini tiklashga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. Bu anjumanda jahonning 32 mamlakati hamda BMT, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etdi. 1996-yili Seraxsda Markaziy Osiyo bilan eron temir yo‘l tarmoqlarning tutashtirilgani TRASEKA loyihasini amalga oshirishda dastlabki katta ishlardan biri bo‘lgan edi. Xuddio‘sha, 1996-yil 13-may kuni O‘zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston o‘rtasida o‘zaro erkin tranzit to‘g‘risidagi shartnoma

imzolandi. Buyog'i Yaponiyadan to Adriatika dengiziga qadar cho'zilgan yo'ldan foydalanishni boshlagan respublikalarning sarfxarajati kamayadi. O'zbekiston uchunmazkur shartnoma kuchga kiringach, paxta tashishga ketadigan harajatning 12 million dollari iqtisod qilinadi. Chunki, TRASEKA shimoliy yo'nalishga nisbatan 2 ming kilometr qisqadir. O'zbekiston o'z paxtasini, Qozog'iston va Rossiya orqali Ukraina portlariga yetkazish uchun tonnasiga 100 dollardan ziyod mablag' sarflaydi. TRASEKA orqali tashilganda esa ushbu ko'rsatkich 55 dollarni tashkil etadi, xolos. Hozirga qadar jahonning 50 ta mamlakati TRASEKA yo'lagi orqali o'z yuklarini manzillariga etkazmoqda. TRASEKA dasturini amalga oshirishda Yevropadagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar yaqindan yordam ko'rsatyapti. Boku konferensiyasida TRASEKA loyihasini amalga oshirish bo'yicha hukumatlararo komissiyani tashkil etish, uning doimiy kotibiyatini ta'sis etish va bosh qarorgohni Bokuda joylashtirish bo'yicha o'rtaga tashlangan taklif ishtirokchilar tomonidan ma'qullandi. Anjuman nihoyasida Evropa-Kavkaz-Osiyo yo'lagini rivojlantirish bo'yicha xalqaro transport to'g'risidagi ko'p tomonlama Bitim imzolandi. Mazkur hujjat xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni rivojlantirish va boshqarish transport sohasidagi huquqiy mezonlarni o'zaro muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Anjumanda Boku Deklaratsiyasi qabul qilindi. TRASEKA dasturi bo'yicha ishlarni amalga oshirish jarayonida bu dastur ishtirokchilari bo'lgan davlat orasidagi hamkorliklarni yanada kuchaytirdi.

Harakatlar strategiyasining chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarida belgilangan vazifalar O'zbekistonning taraqqiyotga erishish yo'lida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ma'lumki, mamlakatimiz o'zining tashqi siyosat faoliyatida barcha xorijiy mamlakatlar va jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorlikni xalqimiz va yurtimiz manfaatlaridan kelib chiqib, ochiq, do'stona va pragmatik tamoyillarga asoslangan holda olib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida O'zbekistonning tashqi siyosati bundan buyon ham ana shu prinsiplardan chekinmagan holda izchil davom ettirilishini ta'kidladi. Shu bilan birga, dunyoning rivojlangan

davlatlari bo'lmish AQSH, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy, investisiyaviy, moliyaviy, madaniy-gumanitar va xavfsizlik sohasidagi aloqalarni yangicha mazmun-mohiyat bilan boyitgan holda yanada mustahkamlash va rivojlantirish zarurligiga alohida urg'u berildi.

O'zbekiston Respublikasi "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi"ga muvofiq, respublika tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri AQSH bilan hamkorlik hisoblanadi. O'zbekiston-AQSH munosabatlari o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini inobatga olishga asoslangan bo'lib, tomonlar bir qator xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha yaqin pozitsiyaga ega, jumladan, Markaziy Osiyo va Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash o'zaro hamkorlikning eng asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning AQSH bilan savdo-iqtisodiy aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda AQShning "General Motors Powertrain Uzbekistan", "Exxon Mobil", "CNH Industrial", "Coca-Cola", "Hyatt", "Hilton", "John Deere", "Honeywell", "Caterpillar" va boshqa qator dunyoga tanikli yirik kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Rossiya Federatsiyasi bilan keng ko'lamlı hamkorlik esa, har ikki davlat o'rtasida imzolangan Strategik hamkorlik va Ittifoqdoshlik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar asosiga qurilgan. Shuningdek, hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Shu o'rinda tashqi savdo hamkorlarimiz orasida Rossiya Federatsiyasi yetakchi o'rinlarni egallab kelayotganini e'tirof etish lozim.

Xitoy bilan o'zaro manfaatli hamkorlik ham tomonlarning terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo'yicha qarashlarning yaqinligi asosida olib borilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Xitoy bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash, keng savdo-iqtisodiy, investision va moliyaviy hamkorlikni kengaytirishda o'zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Bugun O'zbekiston va Xitoy turli loyihalar, avvalambor, yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni hayotga tatbiq etish borasidagi hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Bir qator Xitoy kompaniyalari respublikamiz hududida uglevodorod konlarini qidirish va qazish ishlarida faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, yurtimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi ko'plab korxonalar samarali faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblangan Turkiya davlati bilan ham iqtisodiy va siyosiy aloqalar mustahkamlanishda davom etmoqda. Har ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazib borilmoqda. Shu bilan birga, ikki davlat o'rtasidagi madaniy-gumanitar, ta'lim va turizm sohalaridagi aloqalar ham izchil rivojlanib bormoqda.

Yaponiya bilan hamkorlik esa, O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida imzolangan do'stlik, strategik sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot va strategik sheriklikni chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risidagi qo'shma bayonot huquqiy negizi asosida olib borilmoqda. Qolaversa, ikki davlatning tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida doimiy ravishda siyosiy maslahatlashuvlar samarador natijalarni bermoqda.

Bundan tashqari, Yaponiya doimiy ravishda O'zbekistonga moliyaviy-texnik yordam ko'rsatib keladi. Ushbu yordam tufayli O'zbekistonda sog'liqni saqlash, maorif, transport, telekommunikatsiya va boshqa sohalarda qator ijtimoiy ahamiyatli va infratuzilma loyihalari amalga oshirildi.

Shuningdek, mamlakatimizda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO) ning mintaqaviy vakolatxonalarini samarali faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning "UzAuto" va Yaponiyaning "Isuzu" kompaniyasi hamkorligida avtobuslar va yuk mashinalari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan.

Janubiy Koreya bilan hamkorligimiz O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 22-25-noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifi natijalari bo'yicha qabul qilingan Strategik hamkorlikni har tomonlama kengaytirish to'g'risidagi bayonoti

asosida davom ettirilmoqda. Shuningdek, ushbu tashrif doirasida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajadagi 20 dan ziyod kelishuvlar imzolandi. Bundan tashqari, qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan savdo-iqtisodiy, moliyaviy-texnikaviy va boshqa sohalarda jami 64 ta hujjat imzolandi, ulardan 4 milliard dollari O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri koreys investitsiyalarini tashkil etadi.

Shuningdek, ikki davlat o'rtasida parlamentlararo almashuv muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasida "Koreya-O'zbekiston" do'stlik Assosiasiyasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Koreya bilan hamkorlik bo'yicha maxsus guruh faoliyat yuritib kelmoqda. Ikki davlat tashqi ishlar idoralari o'rtasida doimiy ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda.

Bundan tashqari, Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi savdo sheriklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydigan davlat hisoblanadi. Shu bilan birga, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'shma Hukumatlararo qo'mita muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, O'zbekistondagi "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasi tashkil etilishida Janubiy Koreya ishbilarmon doiralarining faol ishtirok etgani taqsinga loyiqdir.

Evropa ittifoqi bilan samarali hamkorligimizning mustahkam huquqiy negizini Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim tashkil etib, ushbu hujjat asosida ko'p qirrali munosabatlarning ta'sirchan mexanizmlari – Hamkorlik kengashi va qo'mitasi, Parlamentlararo hamkorlik qo'mitasi va boshqa tuzilmalar samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Qolaversa, mamlakatimiz O'zbekiston-Evropa sherikligining keng ko'lamli investisiya dasturi doirasida Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

O'zbekiston dunyodagi barcha davlatlar, avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga ham alohida etibor qaratmoqda. O'zbek xalqida "Qo'shning tinch – sen tinch", degan naql bor.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari bilan aloqalarni yangi bo‘lqichga ko‘tarishni muhim vazifa, deb biladi.

Qolaversa, xalqlarimiz o‘rtasidagi uzoq tarixga ega qardoshlik rishtalari o‘zaro hurmat va do‘stlik munosabatlari, mushtarak madaniy qadriyatlar orqali uzviy bog‘langan bo‘lib, mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hurmat, bir-birining manfaatlarini tan olish asosida va xalqaro huquq me‘yorlariga muvofiq tarzda yanada samarali hamkorlik qilishni o‘zining asosiy vazifalaridan deb biladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan rivojlangan davlatlarning barcha sohalardagi tajribasini o‘zlashtirish va ulardan mamlakat taraqqiyoti yo‘lida samarali foydalanish O‘zbekiston uchun hozirgi islohotlar va yuksalish davrida eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu davlatlar bilan muvaffaqiyatli savdo-iqtisodiy, siyosiy, investitsiyaviy va moliyaviy aloqaralarni rivojlantirgan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ko‘tarish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilgan holda mikro va makro iqtisodiyotimizni rivojlantirish hamda xalqimiz hayotini yuskalishiga erishishimiz mumkin.

Davlat rahbarining Murojaatnomasida e‘tirof etilganidek: “Biz O‘zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko‘lamli ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat yo‘lini davom ettiramiz. O‘lis va yaqindagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko‘p qirrali sheriklikni yanada kuchaytiramiz”.

Nazorat savollari

1. Prezidentimiz tomonidan jafokash afg‘on zaminida tinchlikni tezroq qaror toptirish uchun qanday taklif ilgari so‘rildi?
2. O‘tgan-yillar davomida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot o‘sishi qanchani tashkil yetadi?
3. Bugungi kunda aholini toza ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta‘minlash nechii foizga yetdi?
4. O‘zbekistonda oxirgi 30-yil mobaynida odamlarning o‘rtacha umr kechirishi qanchaga etdi?

5. Mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining necha foizini xotin-qizlar tashkil etadi?

6. Bugungi kunda O'zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning nechi foizini tashkil etadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2019.

2. Karimov I.A. BMT assambelyasining 48-sessiyasida qilgan ma'ruzasi.1993yil 18-sentyabr, // Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –T.: “O'zbekiston”, 1993.

3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O'zbekiston”, 1997.

4. Karimov I.A. Savdo uyidan ipak yo'lini tiklash sari. Asarlar,2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.

7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.

8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – Kelajagi Buyuk davlat. –Toshkent: “O'zbekiston”. 2019.

9. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: “Ma'naviyat”, 2017.

10. Abdullayev M., va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. to'ldirilgan uchinchi nashr. – T.: “Sharq”, 2006.

11. Рахимов М.А. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: - T.: “Адабиёт учкунлари”, 2018.

12. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. –T.: “O'zbekiston”, 2001.

13. Musayev Odil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – T.: ”Istiqlol nuri”, 2016. 232 bet.

12-MAVZU: YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI

12.1. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.

12.2. Mustaqil O‘zbekiston milliy taraqqiyot modelining ishlab chiqilishi.

12.3. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning maqsad va vazifalari, yo‘nalishlari hamda asosiy konseptual g‘oyalari.

12.4. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi

Tayanch tushunchalar: Yangilanayotgan O‘zbekiston, milliy tiklanish, milliy yuksalish, ilm-fan, san’at, madaniyat, madaniy-ma’naviy meros, Milliy g‘oya, Vatan tuyg‘usi, ijtimoiy rivojlanish, Harakatlar strategiyasi

12.1. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari

Birinchi masala bayoni. Dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq davlat, minglab xalq va elat bor. Ular orasida O‘zbekiston deya atalmish go‘zal va betakror mamlakatning o‘z o‘mi va nufuzi, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li borligi qalbimizga iftixor bag‘ishlaydi. Shu bois ham Mustaqillik biz uchunbenihoya qadrlidir. Qadrlı narsa esa osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Vatanimiz tarixi bir necha ming-yillar bilan bo‘ylashadi. Bu diyord jahon tamaddunining tamal toshini qo‘ygan, ilm-fani, san’ati, madaniyati, ulkan madaniy-ma’naviy merosi, olimu fuzalolari bilan dong taratgan. Shu bois yaqin o‘tmishda qariyb bir asr davomidagi mustamlaka davri, ungacha ham haq-huquqlari poymol etib kelingan xalqimiz ruhini hech qanday kuch so‘ndirolmagan. Shu nuqtai nazardan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani, 1990-1991-yillarda Navro‘z bayrami qayta tiklangani, Ramazon va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e‘lon qilingani xalqimizning asriy orzu va armonlari ro‘yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo‘lidagi dastlabki yirik qadamlar bo‘ldi.

Jahon geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlar, globalashuv jarayonlarining quchayishi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi er yuzidagi davlatlar tarixida keskin burilish yasadi. Insoniyat mutlaqo o'zgacha muhit, yangicha talab va ilgari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar quchaygan bir sharoitda yashashiga to'g'ri kelmoqda.

Dunyo miqiyosida shiddat bilan qechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda.

Shuningdeq, so'nggi-yillarda dunyoning turli mintaqa va davlatlarida sodir bo'layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar emirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga, odamzotning o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo'lmoqda va jahondagi ko'plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda.

Bunday murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zero, o'zgarib borayotgan dunyo manzarasi va uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, vujudga qelayotgan siyosiy voqelik va o'zgarishlarni milliy va umuminsoniy manfaatlar asosida tahlil etish, mavjud tahdid va xavf-xatarlar kelib chiqish sabablarini idrok etgan holda ularga qarshi kurashda butun jamiyatni safarbar etish mamlakat kelajagi va barqaror taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatni safarbar etuvchi kuch sifatida esa bu jarayonda azaldan xalqning ma'naviy-ruhiy tayanchi bo'lgan milliy g'oya muhim o'rin tutgan. Milliy g'oya barcha zamonlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etadigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, jamiyat

a'zolarining ezgu orzu-intilishlari, tub manfaatlarini o'zida aks ettiradigan va shu yo'lda birlashtiradigan, safarbar etadigan, muttasil rivojlanib boradigan eng muhim tushuncha va tamoyillar tizimidir.

Milliy g'oya sog'lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g'urur-iftixor, or-nomusni uyg'otadigan, o'zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlari ro'yobga chiqishiga kuch-qudrat beradigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omildir.

Milliy g'oyani Vatan tuyg'usidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Aynan shuning uchun ham muayyan bir mamlakatda yashayotgan xalqning taqdiri va kelajagi shu davlat va jamiyat rivojiga bog'liq ekanini chuqur anglatish, bu tuyg'uni ularda amaliy harakatga, hayot tarziga aylantirish milliy g'oyaning eng muhim xususiyatidir.

Jahon tarixida xalqlarning yuksalishi ularning ma'naviy, g'oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g'oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan. Milliy g'oya ularni Vatanga bo'lgan sadoqati, ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda milliy g'oya taraqqiyotga undovchi quch sifatida xalqlarning azaliy milliy qadriyat va xususiyatlariga bog'lab singdirilgan. Uning qudratli mafquraviy ta'siri mamlakat aholisini umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirgan.

Shu bois ham, O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ko'p millatli xalqimizning yagona milliy g'oyasi dunyo ijobiy tajribasining nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy-axloqiy jihatlari, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi, jumladan shaxsning intellektual salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq muhim yutuqlarini ham o'zida mujassam etadi.

Milliy g'oya O'zbekistonning tarixiy, madaniy, ilmiy va falsafiy manbalaridan oziqlanadi hamda bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoga mos ravishda o'sib, takomillashib boradi.

Xalqning buyuk mutafakkir va allomalari, davlat va jamoat arboblari, atoqli ijodqor va ziyolilarining qarashlari, boy ma'naviy-ma'rifiy merosi milliy g'oyaning ana shunday negizlarini tashkil etadi.

O'z navbatida milliy g'oya xalqning dunyoqarashi, tarixiy o'zligi va milliy tarbiyasining ma'naviy manbai sifatida yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib boradi.

Mustaqillikning dastlabki-yillarida milliy istiqlol g'oyasining ishlab chiqilishi O'zbekistonda mustaqillikni asrash, mamlakat xavfsizligini saqlash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda xalqni birlashtirishga xizmat qildi.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi kabi tamoyillar murakkab o'tish davrida mamlakatimiz hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini saqlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlik muhitini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Milliy davlatchiligimizning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini yaratishda milliy g'oya bunyodkor manba bo'lib xizmat qildi. Shu tariqa xalqimiz milliy tiklanish davridagi vazifalarni amalga oshirishga erishdi.

O'zbekiston tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli mamlakatimiz o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, **milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari** dadil ilgari lab bormoqda.

Mustaqillik deganda, uning ma'no-mazmunini biz avvalo huquq deb qabul qilamiz. Mustaqillikka erishish – bu o'z taqdirimizni qo'limizga olib, yurtimizning yer osti va yer usti boyliklariga ega bo'lish, biz qanday ulug' tarix, madaniyat va ma'naviyatga ega ekanimizni, o'zligimizni chuqur anglab, beqiyos salohiyatimizni ishga solish, qadriyatlarimizni, dinu diyonatimizni tiklash kabi buyuk va muqaddas burchimizni amalga oshirishdir. Mustaqillik:

➤ o'zaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish, keng dunyoqarash va erkin tafakkur asosida yashash, fikrlash, o'z hayotini o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi.

➤ har bir xalqning, millatning, har bir fuqaroning o'z iste'dodini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'l ochadi.

➤ bizni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallashga, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqaroviy jamiyat barpo etishga, xalqimiz salohiyatini mustahkamlashga, yurtimiz shon-shuhratini dunyoga yoyishga da'vat etadi.

➤ xalqimizning irodasi, o'zbek millatining haq-huquqini, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan va qo'shayotgan betakror hissasini jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi vositasi.

Biz oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarni amalga oshirishda o'tgan yigirma sakkiz-yil davomida erishgan va jahon tan olgan yutuq va marralar – milliy demokratik davlat qurish, iqtisodiyotimizni yangi asosda tashkil etish, hayotimiz darajasi va sifatini oshirish borasidagi keng ko'lamli ishlarimizni, shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimizning qiyofasi tobora ochilib, obod bo'lib borayotganini ko'z o'ngimizdan o'tkazadigan bo'lsak, qani, ayting, aziz do'stlarim, qadrdonlarim, istiqloлга erishmasdan turib, bunday yuksak natijalarga etib borishimiz mumkinmidi?

Bunga javob bitta: Yo'q va aslo yo'q.

Faqatgina mustaqillik va yana bir bor mustaqillik bu yo'lda tog'dek mustahkam asos va qudratli zamin bo'ldi.

Istiqlol – xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish yo'lidagi buyuk imkoniyat

1 • O'z taqdirini o'zi belgilash

2 • Moddiy va ma'naviy, tabiiy boyliklarga to'la egalik qilish va ulardan mamlakat manfaatlarini yo'lida foydalanish

3 • Taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlash

4 • Yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash, zamonaviy bilim va kasbni o'rgatish

5 • Milliy va diniy qadriyatlarimizni qaytadan tiklash

6 • Inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini to'la shakllantirish

7 • Shaxsning iste'dod va qobiliyatlarini to'la namoyon etish

8 • Yurtimiz xavfsizligi, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash

9 • Xalqaro munosabatlarda teng huquqlilik asosida ishtirok etish

Kecha O'zbekistonimiz o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobida qolib ketgani, qoloq, faqatgina paxta xom ashyosi yetishtiradigan mintaqaga aylanib qolgani, xalqimizning hayot darajasi va sotsial ahvoli qanday ayanchli holatda bo'lgani va bularning barchasi respublikamizni jar yoqasiga olib kelgani, o'ylaymanki, hali-beri ko'pchilik yurtdoshlarimizning yodidan chiqqan emas.

Mamlakatimizning tarixan qisqa davrda o'zini o'zi boqishga qurbi etmagan nochor o'lkadan o'z kuchi va salohiyatiga tayangan, o'z sarhaglari, o'zining tinch va osuda hayotini himoyalashga qodir bo'lgan, bugun izchil va barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy, mustaqil va suveren davlatga aylangani barchamizga g'urur-iftixor bag'ishlamoqda va aksariyat xalqaro kuzatuvchilarning havasini tortmoqda.

El-yurtimiz qanday katta yutuq va marralarga erishganining tasdig'ini anglash uchun oxirgi-yillar davomida biz qo'lga kiritgan natijalarni, Vatanimizning bugungi salohiyati va o'sish sur'atlarini o'zida yaqqol ifoda etadigan ko'rsatkichlarga e'tibor qaratishni o'rinli deb bilamiz.

Milliy davlatchiligimizni barpo etish yo'lidagi zalvorli qadam sifatida Mustaqillikning dastlabki-yillarida dastlab uning kafolati bo'lmish Konstitutsiya qabul qilinganini alohida ta'kidlash joiz. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh vazifa etib belgilanib, mamlakat siyosiy hayotida ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topdi, nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati takomillashtirildi, sud-huquq tizimida, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqloq tufayli O'zbekiston o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi bu o'zgarishlarni yanada teranroq anglashimiz, idrok etishimizda muhim

ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbarining har bir soʻzlari xalqimiz qalbida iftixor tuygʻularini yanada joʻsh urdirdi. Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri boʻlishi uchun azmu qaror qilmoqdalar.

Muhtaram Yurtboshimiz nutqida taʼkidlaganidek, Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga koʻtarishni tushunamiz. Ilm-fan, taʼlim-tarbiya, sogʻliqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida boʻlayotgan katta oʻzgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish boʻyicha oʻziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirib, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobiy tashabbus” kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol oʻynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham meʼmoriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltirilmoqda.

Sogʻliqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ayniqsa, taʼlim-tarbiya sohalarida boʻlayotgan ulkan oʻzgarishlarning barchamiz guvohi boʻlib turibmiz.

Shu oʻrinda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda umumtaʼlim maktablarida 11-yillik tizim tiklanganini, maktab taʼlimini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanayotganini alohida taʼkidlash joiz. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda oliy taʼlim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Soʻnggi uch-yilda 35 ta yangi oliy oʻquv yurti tashkil qilingani, ularning umumiy soni 112 taga yetgani, eʼtiborlisi, bularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ekani sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin isbotidir.

Maqsadimiz: Biz bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish, dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga koʻtarilishdek oliy maqsadni oʻz oldimizga qoʻydik va bu yoʻldan bizni hech qanday kuch qaytara olmaydi.

12.2. Mustaqil O'zbekiston milliy taraqqiyot modelining ishlab chiqilishi

Ikkinchi masala bayoni. O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar jarayonida milliy g'oyani rivojlantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko'lamining kengayib borayotgani mazkur masalaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu jarayonda quyidagilarga alohida ahamiyat berish talab etilmoqda:

birinchidan, mamlakatimizni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish yo'lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e'tibor qaratish;

ikkinchidan, mamlakat tinchligi, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlariga asoslangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan g'oyaviy-mafkuraviy taxdidlarga qarshi kurashda sinovdan o'tgan milliy va jahon tajribasining samarali usullaridan keng foydalanish;

uchinchidan, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, xalqaro terrorism va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi, narkobiznes, "ommaviy madaniyat" kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish;

to'rtinchidan, dunyoviylik va diniylikning sog'lom muvozanatini ta'minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirish;

beshinchidan, O'zbekiston ko'p millatli bag'rikeng diyor ekanini inobatga olgan holda, "Milliy g'oya-bizning g'oya" degan tushunchani barcha millat va elat vakillari o'rtasida keng targ'ib etish;

oltinchidan, vatanparvarlik tuyg'usini quchaytirish, aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish;

yettinchidan, inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va tarbiyani milliy g'oya qadriyatlarini darajasiga ko'tarish, ta'lim olishga bo'lgan intilishni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Milliy g'oya inson, xalq va jamiyat hayotiga chuqur kirib boradigan ta'sirchan omil sifatida jamiyatning bosh maqsadini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida **milliy tiklanishdan—milliy yuksalish** sari degan ulug' maqsad bosh g'oya sifatida maydonga chiqmoqda.

Milliy yuksalish g'oyasining asosiy vazifalari:

O'zbekistonni 2030-yilgacha dunyodagi 50 ta rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishiga erishish;

- hayot sifatining yuqori darajasini ta'minlashga qodir iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish orqali odamlarning hayot darajasini tubdan oshirishga erishish;

- xalq manfaatlarini va adolat tamoyillari ustunligini ta'minlashda **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”** degan g'oyaga qat'iy amal qilish;

- jamiyatda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikning g'oyaviy asoslarini mustahkamlash, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, dini, milliy urf-odat va qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, onalik va bolalikni, oilani, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish;

- buyuk allomalar, aziz-avliyolar bebaho merosini, atoqli davlat va jamoat arboblari, yengilmas sarkardalar, zamondoshlarimiz jasoratini yoshlarga yetkazish, ularning qalbida vatanga sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini quchaytirish;

- xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan, milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas boyligi bo'lgan o'zbek tilini hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish;

- yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, yuqori malakali, halol va sadoqatli kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratish;

- ta'lim-tarbiya jarayonlarini taraqqiyotning bosh omili darajasiga qo'tarish, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini milliy g'oyaga muvofiq takomillashtirib borish, tarbiyaning ta'lim standartlarini yaratish;

- ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yuksak salohiyatli, yangicha va mustaqil fikrlaydigan, O'zbekistonning ertangi taqdirini o'z qo'lga olishga qodir yoshlarni tarbiyalash, bu borada innovasion yondashuvni keng joriy etish;

- xorijda yashab tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan vatan-doshlar bilan muntazam aloqa o'rnatish, ularning o'z bilim va tajribasi, aql- zakovatini O'zbekiston ravnaqi yulida ishlatishi uchun zarur shart- sharoitlar yaratish;

- O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirish.

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi. Milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning bosh g'oyasidan kelib chiqadi va uni to'ldirib, boyitib boradi hamda xalqimiz qalbi va ongiga yanada chuqur singdirishga xizmat qiladi.

1. Yagona Vatan tuyg'usi. Inson qaerda yashamasin, yagona Vatan tuyg'usi uni o'z muqaddas zamini bilan bog'lab turadi. Ma'naviy barkamol inson doimo yurtining bugungi va ertangi taraqqiyoti haqida o'ylaydi, uning oldidagi farzandlik burchini ado etishga intiladi.

Shu bois ham O'zbekistonliklarning bilim va tajribasi, aql-zakovati, iste'dodini Vatan ravnaqi yo'lida birlashtirish, ularning orzu umidlari ro'yobi sanalgan milliy g'oyani amalga oshirish yo'lidagi intilishlarni umummilliy harakatga aylantirish dolzarb vazifa sanaladi.

Bu jarayonda Vatan ravnaqining muhim manbai bo'lgan millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash asosida mamlakatdagi 130 dan ziyod turli millat va elat vakillari o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish muhim o'rin tutadi.

2. Adolat – qonun ustuvorligida. Barcha sohada adolat va qonun ustuvor bo‘lsagina jamiyatda tom ma’nodagi erkinlik hamda demokratiya, yuksak ma’naviyat, sog‘lom turmush tarzi qaror topadi. Shu bois, ulug‘ ajdodlarimiz adolatli davlat va jamiyat qurishni orzu qilib, uning huquqiy va ilmiy-falsafiy asoslariga doir ta’limotlar yaratgan.

Jamiyat hayotida adolatni qaror toptirishda “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi **kerak**” degan g‘oyaga qat’iy amal qilib, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo‘lish, og‘irini yengil qilishga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu muloqotlar orqali oddiy fuqarolarda davlatga, uning idoralariga bo‘lgan ishonch mustahkamlanadi, ular o‘zlarining davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etayotganini, huquqiy-demokratik davlatda yashayotganligini chuqur his etib, ulkan bunyodkor kuchga aylanadi.

3. Xalq roziligi. Inson qadr-qimmatini ko‘tarish, uning o‘z hayoti va taqdirining haqiqiy egasi deb his etishi, moddiy va ma’naviy jihatdan to‘kis yashashi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, xalqning roziligiga erishish milliy g‘oyaning muhim vazifasi hisoblanadi. Yurtimizda qabul qilinayotgan qo‘plab ijtimoiy dasturlardan ko‘zda tutilgan maqsad ham shunda.

O‘zbekistonning zamonaviy qiyofasi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy-gumanitar taraqqiyoti, bir so‘z bilan aytganda, milliy yuksalish darajasi avvalo, xalqimizning o‘z bunyodkorlik salohiyati, orzu-umidlarini ruyobga chiqarish uchun yaratib beriladigan shart-sharoit va imkoniyatlarga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan xalqchil va insonparvar siyosat bu borada oldimizda turgan ylyg‘vop vazifalarni amalga oshirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

4. Jaholatga qarshi ma’rifat. Jaholat nafaqat diniy shaqlda, balki dunyoviy, dahriylik ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Milliy g‘oya bunday jaholat ko‘rinishlariga qarshi ma’rifat asosida kurash olib boradi, ma’naviyat va ma’rifat masalasini O‘zbekistonlik barcha sog‘lom fikrli, mas’uliyatli kishilarning vijdon ishiga aylanishiga da’vat etadi.

Bunda avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga bahdam berish maqsadida qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiya asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois inson ma'naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir. Bu borada milliy g'oya yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarimizning bebaho ilmiy-ma'naviy merosiga, xalqimizning boy tarixi va madaniyatiga, jahon ilm-fani yutuqlari va umumbashariy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi.

5. Innovasion taraqqiyot. O'zbekiston – ulkan tabiiy zaxiralar, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Shuning uchun **milliy tiklanishdan – milliy yuksalish** sari borishda iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovasion asosda rivojlantirish muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

O'rta asrlar oralig'ida yurtimiz hududidan yetishib chiqqan ulug' alloma va mutafakkirlar jahon ilm-faniga, butun insoniyat tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan.

Xususan, **IX-XII** va **XIV-XV** asrlarda ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq Uyg'onish davri –Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Shu bois ham, innovasion taraqqiyot bilan xalqimizning an'anaviy milliy turmush tarzi o'rtasida o'ziga xos uyg'unlikni ta'minlash orqali O'zbekistonga xos milliy taraqqiyot modelini yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Milliy yuksalish g'oyasi xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarib, O'zbekistonning yangi tarixida uchinchi renessans davrining boshlanishiga xizmat qiladi.

12.3. O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlarstrategiyasi" ning maqsad va vazifalari, yo'nalishlari hamda asosiy konseptual g'oyalar

Uchinchi masala bayoni. Har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablariva hayotiy tamoyillari bo'ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma'no-mazmun bag'ishlashga, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealar bo'ladi. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017-yil 7-fevralda imzolangan Farmoniga** muvofiq uni hayotga joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o'rinlarda Harakatlar strategiyasi deb yuritiladi) o'рта muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

2017-yilda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda alohida e'tibor «Inson manfaatlarini – hamma narsadan ustun» degan tamoyil va «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g'oyaning, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali hayotga amaliy tatbiq etilishiga qaratildi.

Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini-yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida 30 dan ortiq qonunlar hamda 900 dan ortiq qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qildi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganilmokda. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko'zga ko'ringan rahbarlar o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar. Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo'nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

HARAKATLAR STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI:

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan;

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan;

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan;

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan.

Birinchi yo'nalishda davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida belgilab beriladi.

Unda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, shu orqali qonun ustuvorligiga erishish asnosida jamiyatda boshqaruvning erkin va xalq hokimiyatchiligi tamoyillarini chuqurlashtirishga erishiladi. Davlat boshqaruvi tizimini liberallashtirish, turli byurokratik to'siqlarni kamaytirish, davlat boshqaruvida keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash choralari bo'yicha aniq g'oyalar ilgari suriladi. Ochiq jamiyat qurish, davlat va fuqaro munosabatlarini mustahkamlash va natijada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muhrlab qo'yilganidek, davlatning yagona va birdan-bir manbai xalq ekani, davlat xalq manfaatlarini himoya qilishi, ayni paytda xalq o'z maqsad

va intilishlarini, orzu-umidlarini davlat timsolida ko'rish kabi prinsip va qoidalarni to'liq amalga oshirishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Bu yo'nalish bo'yicha o'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari, shuningdek, har bir davlat organida tashkil etilgan fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalar aholi bilan ishlashning sifat jihatidan yangi samarali tizimini shakllantirishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi davlat boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, «Elektron hukumat» va davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotga ma'muriy ta'sirni qisqartirish hamda boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish, sog'lom raqobat muhiti va qulay investitsiya iqlimini yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Ikkinchi yo'nalish qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat. Bunda sud hokimiyatining chinakam samaradorligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish ustuvor vazifa qilib qo'yildi.

Mazkur yo'nalishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, qonun ustuvorligiga erishish orqali inson manfaatlarini himoya qilish, qabul qilingan barcha qonunlarning to'la va samarali ishlashi bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga jiddiy e'tibor beriladi. Oliy sud faoliyatini isloh qilish, uning zamonaviy, hozirgi kun talablari asosida ishlaydigan tizimini vujudga keltirish borasida yangi g'oyalar ilgari surildi. Jumladan, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish orqali adolatli, xalqchil, fuqarolar manfaatlarini to'la himoya qila oladigan, ularning muammolarini o'z vaqtida hal qilib beradigan sud tizimini vujudga keltirish talab etiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, eng muhimi, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilmasligi choralari ko'rish, profilaktika tizimini yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash, qonunga rioya qilish va qonun

ustuvorligiga erishish orqali sud va sudlovning yuksak madaniyatiga erishish yo‘l-yo‘riqlari aniq-ravshan aks ettiriladi.

Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish orqali sud-huquq organlarini «jazolovchi organdan fuqarolar manfaatini himoya qiladigan, ularning kundalik yumushlariga yordam beradigan, har qanday muammolarini qonun doirasida xalqilib beradigan xizmatlar organiga aylantirish» mexanizmining yuqori saviyada ishlashini ta‘minlash bo‘yicha amaliy yechim va takliflar ilgari suriladi.

O‘tgan davr mobaynida Sud-huquq tizimida sudlarning haqqoniy mustaqilligini ta‘minlash, sud kadrlarini tanlab olishning demokratik va shaffof mexanizmini shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Joylarda ma‘muriy va iqtisodiy sudlarning tashkil etilganligi odil sudlovga erishish darajasini oshirish imkonini berdi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini isloh qilish, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatda jinoyatchilikning umumiy ko‘rsatkichi 15,7 foizga kamayishiga erishildi, 1,2 ming mahallalarda birorta jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Ilgari, asosan xavfsizlikka xavf-xatar va tahdidlar oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklangan terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yondashuvlar konseptual qayta ko‘rib chiqildi. Mazkur muammolarni hal qilishda, birinchi navbatda, yoshlarning huquqiy madaniyati va ma‘naviyatini yuksaltirish orqali odamlarning ongi uchun kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi.

O‘z taqdirini O‘zbekiston bilan bog‘lagan, mamlakatimiz farovonligi yo‘lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e‘tibor qarlatildi. O‘tgan davrda 1 243 nafar shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

Uchinchi yo‘nalish iqtisodiyotni rivojlantirish valiberallash-tirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi. Bunda

makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatdoshligini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini kuchaytirish bosh vazifa qilib qo'yilgan.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, tuproq unumdorligini va ekinlar xosildorligini oshirish, yangi va xaridorgir mahsulotlar etishtirish orqali jahon bozoriga chiqishning yangi yo'nalishlarini joriy etish nazarda tutiladi.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish, mulkka ega lik qilish va uning hajmini oshirish orqali yuqori samaradorlikka erishish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, uni rag'batlantirish mo'ljallanmoqda. Viloyat, tuman va shaharlarni ularning tabiiy-geografik imkoniyatlari, yer sharoiti va dehqonchilik madaniyatini nazarda tutgan holda, hududiy ehtiyoj va manfaatlar nuqtai nazaridan iqtisodiy rivojlantirish choralari ko'rish belgilangan.

2017-yilda mamlakatimizda iqtisodiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi, eng avvalo, O'zbekistonning o'z majburiyatlarini bajarish va chet el hamkorlarining daromadlarini repatriatsiya qilish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi milliy valyuta erkin konvertatsiyasining joriy etilganligi bu borada muhim qadam bo'ldi.

Davlat byudjetini shakllantirishning tamomila yangi prinsiplari va mexanizmlari joriy etildi, uning daromad va xarajatlari shaffofligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat aktivlarini boshqarishning samaradorligini oshirish va byudjetning daromad qismini ko'paytirishga qaratilgan ishga solinmagan zahiralardan foydalanish choralari ko'rildi.

Birinchi bosqichda — uzoq muddatli (10-15-yilga mo'ljallangan) tarmoq, hududiy va maqsadli rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash, ikkinchi bosqichda — tarmoq, hududiy va maqsadli loyihalar portfellarini tuzish, uchinchi bosqichda — rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishning mutlaqo yangi tartibi tasdiqlandi.

To'rtinchi vo'nalishda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor vo'nalishlari o'z ifodasini topgan. Bunda aholi bandligi va uning real daromadlarini izchil oshirish, jumladan, mehnatga layoqatli aholi qatlami uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat faoliyatining yangi shakl va turlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash, hayot sharoitlarini yaxshilash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orqali uzoq istiqbolga mo'ljallangan va munosib turmush darajasini ta'minlaydigan yuksak madaniyatli yashash sharoitiga erishish chora-tadbirlarini ko'rish eng muhim vazifa qilib qo'yilgan.

Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirishga, har tomonlama barkamol, yetuk inson - yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini butun choralalar bilan takomillashtirishni taqozo etadi.

O'tgan davr mobaynida ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

2017-yilda shaharlar va qishloqlarda umumiy turar-joy maydoni 3,5 million kvadrat metrdan ortiq bo'lgan namunaviy va ko'p qavatli uylar qurildi. Turar joy qurilishi hajmlari 2010-yilga nisbatan 3,5 baravarga oshdi.

Xalq bilan muloqot natijalari bo'yicha 11-yillik umumiy o'rta ta'limni qayta tiklash haqida qaror qabul qilindi, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning shaffof mexanizmlari joriy etildi va

kvotalar jiddiy ravishda oshirildi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Beshinchi yo'nalish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chukur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor vazifalar bilan bog'liq bo'lib, bunda dunyo qalqib turgan, turli mintaqalarda urush davom etayotgan, qon to'kilayotgan bir sharoitda milliy xavfsizlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. O'ndan ortiq diniy konfessiyalar, 130dan ziyod millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, o'zaro ishonch, bir-birini tushunish, turli e'tiqod va madaniyatlarni hurmat qilish singari bag'rikenglik fazilatlarini yanada chuqurlashtirishning ahamiyati beqiyos ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekiston deb atalgan umumiy xonadonimiz, 32 millionli oilamiz istiqboli uchun diniy e'tiqodi, milliy mansubligi, kasbu kori va yoshidan qat'i nazar, har bir fuqaro mas'ul ekanini anglash, farzandlarimizni shu ruhda tarbiyalash asosiy vazifa etib belgilangan.

O'zbekistonning tashqi siyosatida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, davlatlarning suverenitetini, hududiy yaxlitligini hurmat qilish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligini saqlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoida va normalariga asoslanib, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat olib borish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifa qilib qo'yilgan.

O'tgan davr davomida Millatlararo tinchlik va totuvlikni, puxta o'ylangan va o'zaro manfaatli tashqi siyosat amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilganligi natijasida qo'shni davlatlar bilan ishonchli munosabatlar yo'lga qo'yildi, Markaziy Osiyo hududida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Aytish mumkinki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'tgan 29-yil davomida mamlakatimiz erishgan

ulkan yutuqlar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi kunda davrning o'zi oldimizga qo'yayotgan dolzarb masalalarni hisobga olib, keyingi besh-yilga va undan keyingi davrga mo'ljallangan tarixiy taraqqiyotning yangi ufqlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, u o'zining mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishni ta'minlaydigan strategik dasturdir.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi

To'rtinchi masala bayoni. Mustaqillik-yillarida milliy yuksalish g'oyasining asosiy tamoyillaridan keli chiqib Respublikamizning barcha joylarida shahar va qishloqlarida, turli sohalarda ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Milliy yuqsalish g'oyasining asosiy tamoyillari uning ilmiy jihatdan asoslangani va muntazamligi, ochiqlik va bag'rikenglik, tarixiylik va zamonaviylik, universallik va moslashuvchanlik qabi xususiyatlarga ega ekanligi bilan ifodalanadi va quyidagilarda o'z aksini topadi:

millati, tili va dinidan qat'i nazar, O'zbekistonning barcha fuqarolari manfaatlarini va orzu-intilishlarini aks ettirish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash;

qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarish;

oshkoralik va fikrlar xilma-xilligiga rioya etish;

shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini hamda mas'uliyati uyg'unligiga erishish;

farovon hayot barpo etishga qaratilgan iqtisodiy omillar samaradorligini oshirish;

milliy yuksalish g'oyasini umummilliy harakatga aylantirish ustuvor vazifaga aylandi.

Har jihatdan o'zini anglayotgan millat ulug' bunyodkorliklar qilishga kirishib ketdi. O'tgan 30-yil ichida O'zbekiston tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Nafaqat ko'chalar va xiyobonlar, bu davrda jamiyat va odamlar ham o'zgarib, yurtdoshlarimiz erkin fikrlay boshladilar. Har kimning o'z vazifasiga nisbatan mas'uliyati

ham ortdi. Shu bilan birga yoshlarda Vatanga sadoqat hissi kuchaydi. Inson uchun ozodlikdan qadrlı ne'mat yo'q.

Dunyodagi jamiki bunyodkorlik va yaratuvchanlikning asosi – ozodlikdir. Tarixan qisqa bir davrda, avvalo, el-yurtimizning xohish-irodasi, kuch-qudrati, mashaqqatli va bunyodkorona mehnati evaziga jahon xaritasida yangi, o'z kuchi va salohiyatiga tayangan, bugun taraqqiyot yo'lidan barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mustaqil, suveren O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi, hech shubhasiz, xalqimizning tarixiy g'alabasidir.

Bugun xalqimiz, Vatanimiz intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, maqsad va vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hujjatlarda aniq belgilab berildi. Ularda jahondagi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, rivojlanish tendensiyalari, istiqboldagi taraqqiyot yo'llari chuqur tahlil etilgan.

O'zbekistonda ayni shu asosda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada liberallashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani haqidagi Konstitutsiyaviy tamoyil asosida xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatni innovasion rivojlantirish, odamlarda faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirish, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, jamiyatda adolat ustuvorligini ta'minlash, huquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

Jamiyat hayotining barcha bo'g'inlarida xalq bilan muloqotning turli shakl va vositalari, jumladan, Xalq qabulxonalari, Virtual qabulxonalar, Bosh vazir qabulxonasi, mas'ul va mutasaddi rahbarlarning xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi hisobotlari, sayyor qabullar, ijtimoiy muammolarni, odamlarning yashash sharoitlarini bevosita joylarga chiqib o'rganish kabi usullar keng qo'llanayotgani milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash orqali

milliy g'oya tamoyillarini takomillashtirishga, pirovard natijada aholi manfaatlari va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, bozor munosabatlariga to'liq o'tish, xususiy mulk, xususiy tadbirkorlik erkinligiga yanada keng yo'l ochish, barcha sohalarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini faol qo'llashga alohida e'tibor berilmoqda. Yer osti va yer usti boyliklaridan, inson resurslaridan to'la foydalanish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolar qalbi va ongidagi yangi sifat o'zgarishlari hayot darajasining yuqsalishi bilan uyg'un holda kechmoqda.

O'zbekiston fuqarolarining xuquq va manfaatlarini ular dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, davlat tomonidan ishonchli himoya qilish reallikka aylanib borayotgani, bu borada barcha zarur mexanizmlar ishga solinayotgani jamiyat a'zolarining o'z xalqi va Vatanidan faxrlanish tuyg'usini, davlatning adolat va qonuniy huquqlar kafolati sifatidagi salohiyatiga bo'lgan ishonchini oshirmoqda.

Harakatlar strategiyasi asosida kechayotgan shiddatli islo-hotlar xalqning kelajakka ishonchini mustahkamlash, uni bunyodkorlik ishlariga safarbar qilish, jamiyatda uchrayotgan illatlar, xususan, loqaydlik, boqimandalik va korrupsiya kabi holatlarga qarshi faol kurashishga da'vat etmoqda.

"Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak". "Inson manfaatlari hamma narsadan ulug'", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi". "Xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi", "Adolat-qonun ustuvorligida", "Ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi!", "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash-odamiylikning eng oliy mezonidir" singari tamoyillar hayotga joriy qilinmoqda. Bu esa milliy g'oyaning xalq irodasi sifatidagi maqomini oshirishga xizmat qiladi.

Istiqolol tufayli o'zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning bor bo'y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni ochildi. Ozodlik bois bizni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g'ayrati,

azmu shijoati ila vatanimizning shon-shuhrati olam uzra yanada kengroq yoyilmoqda. Hurriyat bergan beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz – erkin va farovon kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan bunyod etmoqdamiz. Eng muhimi, bugun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan, jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilayotgan demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan muqarrar tus olgani xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida ertangi kunga mustahqam ishonch uyg‘otmoqda.

Nazorat savollari

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

2. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

3. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.

4. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

5. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.

6. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

Test savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni qabul qilingan sanani aniqlang.

A) 2016-yil 4-dekabr

V 2017-yil 17-yanvar

S) 2016-yil 8-dekabr

D) 2017-yil 7-fevral

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da nechta ustuvor yo‘nalish belgilangan?

- A) 4 ta
- V) 7 ta
- S) 5ta
- D) 6 ta

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari nechanchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan?

- A) ikkinchi ustuvor yo‘nalish
- V) uchunchi ustuvor yo‘nalish
- S) birinchi ustuvor yo‘nalish
- D) beshinchi ustuvor yo‘nalish

4. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

A) Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash
V) Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish

- S) Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish
- D) Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish

5. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish qaysi ustuvor yo‘nalishda mustahkamlangan?

A) Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari

V) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

- S) Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

D) Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari

6. "2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi"da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlariga nechta band kiritilgan?

- A) 4 ta
- V) 3 ta
- S) 5ta
- D) 6 ta

7. 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasiga koʻra, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy taʼminlash qaysi organ tasarrufiga oʻtkazilishi rejalashtirilgan?

- A) Adliya vazirligiga
- V) Oliy sudga
- S) Oliy xoʻjalik sudiga
- D) Sud departamentiga

8. Sud hokimiyatining mustaqilligini taʼminlash prinsipi Konstitutsiyaning nechinchi moddasida oʻz ifodasini topgan?

- A) 110-moddasida
- V) 111-moddasida
- S) 112-moddasida
- D) 107-moddasida

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qanday tuzilma tashkil etildi?

A) Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha respublika idoralararo komissiyasi

V) Korrupsiyani oldini olish boʻyicha respublika idoralararo komissiyasi

S) Bosh prokuratura huzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha departament

D) barcha javoblar toʻgʻri

10. Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan birini ko'rsating.

A) jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi

V) aholini islohotlardan habardor ekanligi

S) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunning mavjudligi

D) aholini huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2019.

2. Karimov I.A. Milliy davlatchilik, istiqloq mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. –T.: “O'zbekiston”, 1999.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O'zbekiston”, 2015.

5. Mirizyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.

6. Mirizyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.

7. Mirizyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning-ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: “O'zbekiston”, 2019.

8. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: “Ma'naviyat”, 2017.

9. Nazarov Q., Ochildiyev A. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2002.

10. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. –T.: “Akademiya”, 2011.

11. Ergashev I. Milliy istiqloq g'oyasi. –T.: “Akademiya”, 2005.

12. Turayev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g'oya. –T.: “Ma'naviyat”, 2008.

13-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNI VA NUFUZINI ORTIB BORISHI

13.1. Xalqaro reyting va indekslar jahon miqyosida O‘zbekiston nufuzini oshirish va mavqeini mustahkamlash.

13.2. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi-ning xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining tarixiy ahamiyati.

13.3. O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyalari va ularni yaxshilashda parlament vazifalari.

Tayanch so‘zlar: tadbirkorlik, xorijiy investorlar qulay muhit, barqaror iqtisodiy o‘shish, raqobatbardoshlik, xalqaro reyting, indekslar, BMT, YuNIDO, MDH, “Transparency International”, “World Justice Project”, «Doing Business» “Biznes yuritish”, «Iqtisodiy erkinlik» indeksi, IHTT, “Elektron hukumat, INSEAD, Economist Intelligence Unit xalqaro reyting agentliklari

13.1. Xalqaro reyting va indekslar jahon miqyosida O‘zbekiston nufuzini oshirish va mavqeini mustahkamlash

Birinchi masalda bayoni. Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o‘zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o‘sha mamlakatning jahon miqyosidagi o‘rni, xalqaro reyting va ko‘rsatkichlarda tutgan mavqei bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur‘atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilashlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko‘rsatkichlarida ham o‘z ifodasini topayotir.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o‘zida namoyon etib, davlat boshqaruvi

sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zgidir. Bu jihatlar mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug'lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo'lib yashashini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rinni yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi farmoni yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturilamal bo'ldi.

Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o'rnatildi. Unga binoan:

— Ilgari ustuvor xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ishlarni hukumatning maxsus komissiyasi muvofiqlashtirib kelar edi. Prezidentimiz farmoni bilan bu borada respublika kengashi tuzilishiga nima sabab bo'ldi?

— Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezoni sifatida qo'llanib kelinadi.

Keyingi-yillarda mamlakatimiz ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir.

Masalan, BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining -(YuNIDO) "Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi" bo'yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o'rinni, MDHga a'zo davlatlar orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo'naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zahirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo'lsa, turli reyting va indekslardagi o'rnimiz o'z-o'zidan oshib boraveradi.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020-yilda Jahon bankining "Biznes yuritish" indeksida 76-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilishimizga, "Transparency International"ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi hamda "World Justice Project"ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o'rni yaxshilanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, bu yo'nalishda hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina. Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya'ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad — bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas'uliyatini oshirishdir. Shu bois, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o'rnatilganligini anglatadi.

Endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o'zlari mas'ul bo'lgan reyting va indekslarda ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan respublika kengashida hisobot berib boradilar.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o'rining yaxshilanishi ko'p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog'liq. Shuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Shu orqali bu yo'nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi, sansalorlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

— Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash mamlakatimiz uchun butkul yangi yoʻnalish hisoblanadi. Shu maʼnoda vazirlik va idoralar, sud va prokuratura organlari, mahalliy hokimliklar bunga qay darajada tayyor?

— Albatta, bu koʻp vaqt sarflanadigan, progressiv bilimlarni talab etuvchi yangi jarayonlardan biri. Bu, shubhasiz, masʼul davlat organlarining oʻzlariga birlashtirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan oʻrganish, uni toʻgʻri talqin qila olgan holda amaliyotga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni oʻrnatish bilan bogʻliqdir.

Ochigʻi, barcha vazirlik va idoralar, ayniqsa, joylardagi hokimliklar yoki parlament aʼzolarining barchasi ham masalaning tub mohiyatini toʻla anglab etdi, deb aytish mushkul. Yuqorida aytganidek, reyting va indekslar joylardagi vaziyatga bogʻliq, qonunlarning ijrosiga bogʻliq. Ming afsuski, joylardagi hokimliklar yoki davlat organlari vakillarining baʼzida bilib-bilmay aytgan gap-soʻzlari yoki xatti-harakatlari reyting va indekslardagi oʻrnimizga salbiy taʼsir qiladi.

Shu oʻrinda barcha rahbarlar, ular qaysi darajadagi rahbar boʻlishidan qatʼi nazar, oʻz harakatlarini qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshirishlari zarur ekanini yana bir karra taʼkidlamochim. Odamlar bilan muloqotlarda esa inson shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi shart.

Har bir tizimda ishlarimizni samarali tashkil etish maqsadida barcha vazirlik va idoralarda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boʻyicha tarkibiy boʻlinmalar tashkil etilishiga erishdik. Bu esa ishimizni ancha osonlashtiradi. Ajratilgan alohida xodimlar doimiy ravishda oʻzlarining vazirligi yoki idorasi masʼul boʻlgan xalqaro reyting va indeks boʻyicha ish olib boradi.

Xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati, oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilash, reyting agentliklarining metodologiyalarini oʻrganish maqsadida mahalliy hokimliklar hamda vazirlik va idoralar masʼullari uchun maxsus treninglarni boshladik.

Shu bilan birga, eng asosiy ishimiz qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir soʻz bilan aytganda, qonun ustuvorligini taʼminlashdir. Bu borada biz parlament

va jamoatchilik nazoratini qat'iy yo'lga qo'yishga kirishdik va, albatta, ijobiy natijalarga erishamiz.

— Bugungi kunda xalqaro miqyosda ustuvor hisoblangan to'rtta xalqaro reyting va indeksda O'zbekiston hali e'tirof etilmagan. Buning sababi nimada? Ushbu reytinglarda mamlakatimiz o'rni aks ettirish bo'yicha qanday choralar ko'rilmogda?

— O'zbekistonning ushbu xalqaro indekslarda e'tirof etilmaganiga bir necha sabablar bor. Masalan, Jahon iqtisodiy forumining "Global raqobatbardoshlik indeksi"ga mamlakatimizni kiritish masalasi yuzasidan Moliya vazirligi olib borgan muzokaralar natijasida indeksga kirish jarayoni 2-yil muddatni talab etishi ma'lum bo'ldi.

Birinchi-yilda tashkilot tomonidan O'zbekistonda rasmiy so'rovnoma o'tkazish uchun hamkor, ya'ni nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari tanlab olinadi va so'rovnoma o'tkaziladi. Ikkinchi-yilda so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonning indeksdagi norasmiy o'rni belgilanadi hamda ularning O'zbekiston ko'rsatkichlarining haqiqiy tendensiyalari bilan qay darajada mos kelishi tekshirib ko'riladi. Tendensiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2-yil mobaynida muntazam kuzatilib boriladi va tahlil qilinadi.

Xalqaro byudjet hamjamiyatining "Byudjet ochiqligi indeksi"ga kirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, indeks bo'yicha mamlakatda tadqiqot o'tkazish uchun zarur resurslar (jumladan, mablag'lar) faqatgina xalqaro nodavlat tashkilotlar va institutlar (donorlar) hisobidan amalga oshiriladi.

Hamjamiyatning asosiy talablaridan biri — tadqiqot o'tkazishdagi mahalliy hamkor sifatida mustaqil fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bo'lishi zarur. Mazkur indeks hisobotida mamlakatimizni aks ettirish bo'yicha yakuniy qaror tashkilotning joriy-yil avgust oyidagi yig'ilishida ko'rib chiqilishiga kelishilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni tartibga solish cheklovlari indeksi"da O'zbekistonni e'tirof etish maqsadida tuzilma mas'ul rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazildi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot

tashkiloti bilan birgalikda “Investision siyosat sharhi — O‘zbekiston” nomli hisobotni ishlab chiqish va bu orqali indeksda mamlakat o‘mini aks ettirish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Komell universiteti, Xalqaro intellektual mulk tashkilotining “Global innovasiyalar indeksi”da mamlakatimiz o‘mini aks ettirish masalasida Innovasion rivojlanish vazirligi muzokaralar o‘tkazmoqda. Hozir ushbu indeksda talab etilgan zarur statistik ma‘lumotlarni jamlash bo‘yicha hamkorlikda ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

— Xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlarni mamlakatimizdagi islohotlar bo‘yicha xolis va zarur ma‘lumotlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash masalasi o‘z echimini topganmi?

— Albatta, bunday ma‘lumotlar turli axborotnomalar shaklida tegishli tashkilotlar, xususiy investorlar hamda xalqaro ekspertlarga jo‘natilmoqda. Shuningdek, ular vazirliklarning rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida ham keng jamoatchilik e‘tiboriga havola etib borilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim reyting va indekslarda talab etilgan statistik ma‘lumotlar respublikamizning davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan shakllantirilgan statistik ma‘lumotlar bazasiga asoslanadi.

Masalan, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da jami 206 ta milliy indikator tasdiqlangan. Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan yaratilgan maxsus saytga bu boradagi zarur ma‘lumotlar doimiy ravishda joylashtiriladi. Shuningdek, xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma‘lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi.

Misol uchun, hukumat portali doirasida “Ochiq ma‘lumotlar portali” ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo‘mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma‘lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o‘z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtirib kelmoqda.

Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma‘lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o‘z

navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekanini ko'rsatib beradi.

— Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyi pog'onalarda qolmoqda va buning asosiy sabablari nimalardan iborat?

— Asosan, siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rinlari nisbatan quyi pog'onalarda. Masalan, So'z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191-o'rinda, Normativ sifat indeksida 184-o'rinda, Korrupsiyani nazorat qilish indeksida 183-o'rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182-o'rinda, Jahon matbuot erkinligi indeksida 156-o'rinda turibmiz. Albatta, so'nggi 3-4-yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o'zgarishlar ro'y berdi.

Xususan, mamlakatimizda so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to'siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-media qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi.

Qator sohalardagi o'zgarishlar bilan bog'liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan ko'plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko'rib chiqish, uni tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini

takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Biroq shuncha ishlarga qaramay, indekslardagi ko'rsatkichlar bu borada hali kamchiliklarimiz borligini ko'rsatib turibdi. Shu bois, qator muhim vazifalarni belgilab olganmiz. Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishimiz zarur bo'ladi.

Shuningdek, davlat organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy baholash tartibini belgilash va davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha reytingini shakllantirishni yo'lga qo'ymoqchimiz.

Shu bilan birga, mamlakatimizning Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GREKO) xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lishi va bu tashkilotning korrupsiyaga qarshi tegishli konvensiyalari talablarini milliy qonunchiligimizga implementasiya qilish masalasini ham o'rganib chiqishimiz lozim.

Ommaviy axborot vositalari, fikrlar xilma-xilligi va so'z erkinligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, jurnalistning qonuniy professional faoliyatiga to'sqinlik qilishga oid huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlikni belgilashimiz kerak.

Respublikaning siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda quyi pog'onalardan joy olganligining sabablaridan yana biri mazkur reyting va indekslar, asosan, jamoatchilik fikri va xalq-aro ekspertlar xulosasi asosida shakllantirilishidadir. Qolaversa, indeks yurituvchi tashkilotlar so'rovnomalari faqatgina mustaqil fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bilan hamkorlikda o'tkazilishini inobatga olib, respublika miqyosida bunday tashkilotlar kamligi hamda ular tomonidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish salohiyati cheklanganligi kabi omillar ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda alohida qayd etishimiz zarur, har bir davlat organi, ayniqsa, respublika darajasidagi vazirlik, idora, tashkilotlar huzurida nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilib, ular bilan yaqin hamkorlik o'rnatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

— Yaqinda BMTning “Raqamli hukumatni barqaror rivojlantirishi yo‘lidagi o‘n-yillik harakat” nomli hisoboti e‘lon qilindi. 2020-yil uchun dunyoda elektron hukumat rivojlanishi natijalari taqdim qilingan ushbu reytingda O‘zbekiston 6 ta pog‘onaga tushib, 87-o‘rinni egalladi. Nima deb o‘ylaysiz, nima sababdan mamlakatimiz avvalgi o‘rnini yo‘qotdi?

— Albatta, O‘zbekiston umumiy reytingda 6 ta pog‘onaga pasaydi. Lekin reytingni shakllantiruvchi komponentlar bo‘yicha birmuncha o‘sish kuzatilgan. Masalan, ushbu reytingning “Inson kapitali”, “Elektron ishtirok” va “Telekommunikasiya infratuzilmasi” indeklari bo‘yicha ko‘rsatkichlar 0,01 dan 0,14 punktgacha oshgan.

“Elektron ishtirok” indeksi bo‘yicha respublikamiz o‘zining ko‘rsatkichini 0,80 punktgacha oshirib, umumiy reytingdagi o‘rnini 13 pog‘onaga ko‘tardi va 46-o‘rinni egallab, elektron ishtirok indeksining juda yuqori rivojlanish darajasiga ega mamlakatlar ro‘yxatiga kirdi. Vaholanki, 2018-yilda ushbu indeks bo‘yicha mamlakatimiz 59-o‘rinda edi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonga ochiq ma‘lumotlar bo‘yicha eng yuqori ball berildi. Albatta, “Elektron hukumatni rivojlantirish” reytingidagi o‘nimiz pasayishiga ayrim omillar ta‘sir qildi. Eng avvalo, ta‘kidlash joizki, 2018-yildan joriy-yilning aprel oyiga qadar respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va “Elektron hukumat” tizimini joriy etishda yagona muvofiqlashtiruvchi organ mavjud bo‘lmagan. Natijada reytingni oshirish bo‘yicha aniq belgilangan chora-tadbirlar rejasi qabul qilinmagan va tegishli ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Hozir Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ushbu ishga mas‘ul etib belgilangan.

Shuningdek, milliy elektron xizmatlar portali hamda ta‘lim, mehnat, ijtimoiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash, moliya va atrof-muhit sohalaridagi tegishli vazirlik va idoralarning veb-saytlari ham talabga to‘liq javob beradi, deb ayta olmaymiz. Ushbu saytlar reytingning “Elektron xizmatlar” komponentida 148 ta jihat bo‘yicha baholab boriladi. Milliy onlayn xizmatlar portali va rasmiy veb-saytlarning

mobil -qurilmalardan foydalanish uchun moslashgan shakllari etarli darajada joriy etilmagan.

Shuningdek, tranzaksiya xizmatlari darajasining pastligi, davlat bojlari, turli yig'img'lar va jarimalarni to'liq elektron tarzda to'lash ham oxiriga etmaganligi reytingdagi o'mimizga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Reytingning "Inson kapitali" komponenti bo'yicha ham ishla-shimiz kerak bo'lgan ayrim kamchiliklar bor. Masalan, masofaviy o'qitish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, oliy ma'lumotga ega aholi qatlami bo'yicha aniq ma'lumotlar etarli emasligi reytingdagi o'mimizga ta'sir qilmoqda.

Mobil aloqa abonentlari, internet foydalanuvchilari ulushini begilaydigan "Telekommunikasiya infratuzilmasi" komponentida esa respublikaning uzoq hududlariga yuqori tezlikdagi simli internet tarmog'i etib bormaganligi ham reytingdagi o'mimizga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Bu kamchiliklarni to'g'rilash bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab olganmiz. Umid qilamizki, navbatdagi hisobotlarda ushbu yo'nalishda mamlakatimiz o'rni yanada yaxshilanishiga erishiladi.

— Koronavirus pandemiyasi ko'p islohotlarimizga salbiy ta'sir qildi. Iqtisod deysizmi, sanoatmi, ta'lim va boshqa sohalar qiyin raqobat muhitida qoldi. Nima deb o'ylaysiz, bu holat reyting va indekslarda qanday baholanadi?

— Darhaqiqat, bugungi kunda koronavirus pandemiyasi global miqyosda butun insoniyatga xavf solayotganiga, barcha sohalarda turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Pandemiya sharoitida, albatta, birinchi zarba iqtisodiyotga tushadi, rejalashtirilgan ko'plab islohotlar ijrosi ortga suriladi, asosiy e'tibor sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, uning turmush darajasini yaxshilashga qaratiladi.

Xalqaro reyting agentliklari indekslarni hisoblab chiqishda yoki reytinglarni tuzishda, asosan, mamlakatning turli statistik ko'rsatkichlariga tayanadi. Tan olish lozim, pandemiya sababli statistik ko'rsatkichlarning yaxshi tomonga o'zgarishiga nisbatan ularning yomonlashish ehtimoli yuqoriroq.

Shu sababli keyingi-yillarda xalqaro reyting va indekslardagi o'rnimizning joriy holatida saqlab qolinishi yoki pastlashishi ehtimolini nazardan qochirib bo'lmaydi. Biroq unutmazlik kerakki, pandemiya bitta yoki bir nechta davlatda emas, balki butun dunyo mamlakatlariga bevosita salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Shu bois, balki boshqa davlatlarning ham reytinglardagi o'rni pastlashishi sabab mamlakatimizning o'rni tom ma'noda ko'tarilishi yoki joriy holatda saqlanib qolishi ham ehtimoldan xoli emas.

Har qanday vaziyatda ham xalqimizning azaliy qadriyatlaridan kelib chiqib hamisha yaxshi niyat qilish, ertangi kunga umid bilan boqish tuyg'usi dilimizda yashamoqda. Ishonchimiz komilki, bar-chamiz, butun xalqimiz bir jon, bir tan bo'lib bahamjihatlikda harakat qilsak, bu sinovlarni albatta engamiz. Pandemiya taraq-qiyotimizning ertangi yo'nalishlarini belgilaydigan yangi xulosalar, yangi g'oyalar, yangi kuch bilan chiqib, rivojlanish yo'lini izchil davom ettiramiz.

13.2. O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining tarixiy ahamiyati

Ikkinchi masala bayoni. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro'sini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rni xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo'nalishlar bo'yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas.

Mazkur holat xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan tizimli hamkorlik aloqalarini o'rnatish, mas'ul vazirlik va idoralarda baholanayotgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar va boshqa

davlatlarning ijobiy tajribasini o'z ichiga olgan tegishli ma'lumotlar bazasini, xodimlarda esa xalqaro reytinglar metodologiyasini qo'llash bo'yicha dunyoqarashni shakllantirish imkonini bermayapti.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilashni ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi va Adliya vazirligining O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rni monitoring qilish va baholash milliy tizimini (keyingi o'rinlarda — Milliy monitoring tizimi) yaratish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi.

Boshqaruv sifati va siyosatning samaradorligini o'lchash, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonini baholash, tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beruvchi ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari Milliy monitoring tizimining tarkibiy qismi etib belgilandi.

2. Milliy monitoring tizimi faoliyatini tashkil etishning dastlabki bosqichi sifatida respublikadagi tadqiqot institutlariga alohida xalqaro reytinglar ilovaga muvofiq birlashtirilsin va ularga quyidagi vazifalar yuklandi:

xalqaro reytinglarning metodologik va boshqa tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi past ko'rsatkichlariga sabab bo'layotgan asosiy omillarni aniqlash;

o'rni o'zi baholash uchun ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari asosida milliy indekslarni ishlab chiqish;

loyiha va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rni yuksaltirishga to'sqinlik qilayotgan normalarni aniqlash nuqtai nazaridan ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko'ra tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasining tegishli reytinglardagi rivojlanish jarayoni to'g'risidagi axborotlarni, shuningdek, baholanayotgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'z ichiga olgan axborotlar ma'lumot bazasini yaratish;

O'zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga to'sqinlik qilayotgan mavjud haqiqiy muammolarning tizimli tahlilini olib borish, ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

xalqaro tashkilotlar, reyting agentliklari va ilmiy muassasalarning ekspertlari bilan hamkorlik o'rnatish va konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish;

tegishli tarmoqlardagi muammolarni aniqlash va ahvolni o'rganish uchun ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, shuningdek, mamlakatda keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish doirasida turli sohalarda yuz berayotgan tub o'zgarishlar to'g'risida jamoatchilik va xalqaro reyting agentliklarini xabardor qilish.

3. Ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash, aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqishi darajasini hamda ularning xodimlari kasbiy mahoratini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasining «davlat xizmatlarining sirli mijozi» institutini joriy etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi va quyida ishlar amalga oshirilishi belgilandi:

- «davlat xizmatlarining sirli mijozi» institutidan foydalanish doirasidagi chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etiladi;

- «davlat xizmatlarining sirli mijozi» institutidan foydalanishda huquqbuzarliklar va vakolatni suiste'mol qilishga undovchi usullarni qo'llash taqiqlanadi;

- «davlat xizmatlarining sirli mijozi» instituti ma'muriy tartib-qoidalar amalga oshirilishi qulayligi va davlat organlari, shuningdek, ularning xodimlari tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatishda normativ-huquqiy hujjatlar talablari, xodimlarning professionalligi va tezkorligi, ularning aholi bilan muomala qilish etiketi darajasini baholaydi;

- ma'lumotlarni yig'ish uchun haqiqiy «mijoz» ko'rinishida monitoringni amalga oshiruvchi xodimlar va boshqa shaxslar («sirli mijozlar»)dan foydalaniladi;

- «sirli mijoz» tomonidan monitoring nafaqat bevosita obyektlarga tashrif buyurishlar, balki monitoring amalga oshirilayotgan davlat xizmatlariga qarab boshqa vositalar (telefon qo'ng'iroqlari, elektron pochta orqali murojaat qilish va boshqalar) orqali ham amalga oshirilishi mumkin;

- «davlat xizmatlarining sirli mijozi» monitoringi natijalari shaxsiy bo'lmagan shaklda rasmiylashtiriladi hamda qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish uchun tegishli davlat xizmatlarini ko'rsatadigan vazirlik va idoralarga majburiy tartibda ko'rib chiqish uchun taqdimnomalar yuboriladi;

- «davlat xizmatlarining sirli mijozi» monitoringi natijalari tegishli davlat xizmatlarini ko'rsatadigan vazirlik hamda idoralar xodimlarini javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi va tavsiyaviy ko'rinishga ega bo'ladi;

- «davlat xizmatlarining sirli mijozi» instituti faoliyatini yuritish bilan bog'liq xarajatlar Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'rni yaxshilash uchun mas'ul bo'lgan boshqa vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari bilan birgalikda 2019-yil 1-aprelga qadar Internet tarmog'ida quyidagilarni o'z ichiga olgan «O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» yagona portali yaratildi:

- xalqaro reytinglar bo'yicha-yillik hisobotlar, shuningdek, hisobotlarni o'rganish va e'lon qilish muddatlarini ko'rsatgan holda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning tavsiyalari;

- xalqaro reytinglar indikatorlari bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasiga oid axborotlar;

- tegishli reytinglar yo'nalishlari bo'yicha jamoatchilik fikri so'rovnomalari, shuningdek, ijtimoiy va ilmiy tadqiqotlar natijalari;

- xalqaro reytinglar savolnomalari shaklida har bir indikator kesimida to'liq va aniq ma'lumotlar, shu jumladan, statistik ma'lumotlar;

- tegishli reytinglar bo'yicha turli ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish imkoniyati;

- tegishli xalqaro reyting metodologiyasi bo'yicha onlayn o'qitish resursi;

- respondentlar tomonidan joylarda qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni taqdim etish imkoniyati.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi «O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» yagona portali faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangilash bo'yicha mas'ul organ etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'mini yaxshilash uchun mas'ul vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15 sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, zarur statistik axborotlar va boshqa materiallarni taqdim etish ta'minlanadi.

Bunda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'mini yaxshilash uchun mas'ul vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari rahbarlari «O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» yagona portalida e'lon qilinadigan axborotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

6. Alohida reytinglar uchun mas'ul bo'lgan tadqiqot institutlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmonida belgilangan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'mini yaxshilash uchun mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2019-yil 1-aprelga qadar O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va qonunchilik talablarini hisobga olgan holda xorijiy

davlatlarning ijobiy tajribasiga asoslangan tegishli reytinglar metodologiyasini ishlab chiqish va tasdiqlashni ta'minlash;

2019-yil 1-mayga qadar tegishli reytingda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishi tendensiyalari haqidagi ma'lumotlarni, baholanayotgan yo'nalish bo'yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'z ichiga olgan axborotlar ma'lumot bazasini shakllantirish;

2019-yil 1-iyungacha qadar vazirlik va idoralar xodimlarini baholash metodologiyasi bilan tanishtirish, ularda reytinglar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha seminar-treninglarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda tashkil qilish;

ikki oy muddatda xalqaro reytinglarni tuzuvchilar, shuningdek, xalqaro reytinglarga aloqador boshqa xalqaro, ilmiy-tadqiqot, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni o'rnatish masalasini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'rni yaxshilash uchun mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda tadqiqot institutlariga hamkorlikni yo'lga qo'yishda va grantlar, shu jumladan, xorijiy grantlarni jalb etishda har tomonlama ko'maklashish.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmonida belgilangan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'rni yaxshilash uchun mas'ul vazirlik va idoralar:

O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro reytinglardagi o'rni, shu jumladan tadqiqot institutlarining ma'lumotlari va o'rganish natijalarini hisobga olgan holda yaxshilash bo'yicha har yili «yo'l xaritalari» ishlab chiqilishini ta'minlasin;

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilash bo'yicha «yo'l xaritalari» loyihalarini kiritisin.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda «Yuksalish» umummilliy

harakati O'zbekiston Respublikasining asosiy xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni tizimli tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning natijalari to'g'risidagi axborotni, jumladan subsidiyalar, grantlar ajratish hamda ijtimoiy buyurtmalar berish orqali xalqaro reytinglarni tuzuvchilarga etkazish borasidagi ishlarga fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb etishni ta'minlash.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda bir oy muddatda «davlat xizmatlarining sirli mijosi» tomonidan monitoringni o'tkazishning aniq maqsadlari, parametrlari, obyektlari va mezonlarini nazarda tutuvchi tartibni ishlab chiqish.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda xalqaro reytinglar indikatorlari doirasida o'tkazilayotgan islohotlar to'g'risidagi axborotlarning ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida keng yoritilishini, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub'ektlari orasida tushuntirilishini ta'minlash.

Inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta'minlash, sud-huquq sohasidagi moddiy va prosessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlari oshishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, so'nggi to'rt-yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg'armasining "Iqtisodiy erkinlik" indeksida 52 pog'onaga, Jahon bankining "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'onaga, "Biznes yuritish" indeksida 18 pog'onaga ko'tarildi.

O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash" tizimidagi 6-guruh mamlakatlari qatoridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko'tarildi.

Shu bilan birga, ayrim rahbarlar reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratmayotganligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda aksariyat islohotlar o'z aksini

topmayotganligi oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasi quyi pog'onalarda qolmoqda.

13.3. O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyalari va ularni yaxshilashda parlament vazifalari

Uchinchi masala bayoni. O'zbekiston har ikki-yilda nashr etiladigan Jahon Banklarining logistik faoliyat ko'rsatkichi nashrida 2018-yilda 2016-yildagi 118-o'rimdan 19 pog'ona yuqorilab oldi. Logistik faoliyat ko'rsatkichi uchun asosiy mezonlar bojxona, infrastruktura, xalqaro yuk tashish, logistik mahorat, harakatlanish, kuzatish hamda davriylikni o'z ichiga oladi.

Bugun O'zbekiston mintaqada barcha sohalarda jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakat – bu xalqaro ekspertlar tomonidan bildirilayotgan e'tirof. Rivojlanish, taraqqiyot esa o'z-o'zdan bo'lmaydi. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda kuzatilayotgan hozirgi o'zgarish va yutuqlar mamlakat rahbari tomonidan ko'tarilgan keng qamrovli chora-tadbirlar hamda ijrochilarning mashaqqatli mehnat mahsuli ekanligi shubhasiz. Bu e'tiroflar, dastlabki yutuqlar o'zimizniki albatta. Lekin ularni yanada yaxshilash mamlakat siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Davlatimiz rahbarining «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi Farmoni ana shu sa'y-harakatlarni yangi pog'onaga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Oqibat natijada mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardagi jozibadorligini oshirish mezonini bo'lib xizmat qiladigan xalqaro reyting va indekslarni oshirish jarayonida parlamentning o'rini qanday bo'ladi? Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 4-iyun kuni «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash borasida parlamentning, xususan, Qonunchilik palatasining roli» mavzusida o'tkazilgan seminar ana shu mavzuga qaratildi va Prezident farmoni mazmuni va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda parlament oldida turgan masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Jahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro byudjet hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlari bilan rasmiy aloqalar yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida xalqaro reyting agentliklarining 2019-2020-yillarda chop etilgan hisobotlariga binoan respublikaning iqtisodiy reytinglardagi o'rni sezilarli darajada o'sdi. Xususan "Fitch Ratings" va "S&P Global Ratings" xalqaro reyting agentliklarining bahosiga ko'ra 2019-yilda mamlakatning suveren kredit reytingi «BB-» barqaror darajada saqlanib qolmoqda.

Jahon banki «Biznes yuritish 2020» yangi-yillik hisobotida (Doing Business 2020) so'nggi bir-yilda O'zbekiston Respublikasi biznes islohotini amalga oshirishda eng katta yutuqlarga erishgan 20 ta mamlakat qatoriga kirishga imkon bergan to'rtta islohotni amalga oshirgani to'g'risidagi axborotni tarqatdi. Shuningdek, 2019-yilda O'zbekiston ushbu reyting hisobotida dunyoning 190 mamlakati orasida 69-o'rinni egallab, 7 pog'onaga ko'tarildi.

2019-yilning sentyabr oyida Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorlarining 2018-yil uchun e'lon qilgan hisobotida O'zbekiston Respublikasi bir qator indikatorlardan yaxshilanganligini ma'lum bo'ldi. Xususan, «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida 1 pog'onaga, «Hukumat samaradorligi» indeksida 3 pog'onaga, «Normativ sifat» indeksida 7 pog'onaga, «Qonun ustuvorligi» indeksida 4 pog'onaga, «So'z erkinligi va hisobdorlik» indeksida 5 pog'onaga ko'tarildi.

Prezidentimizning 2020-yil 2-iyundagi Farmoni bilan xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etilayotgani, davlat organlarining birinchi rahbarlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash uchun mas'ul qilib belgilangani alohida qayd etib o'tildi.

Shuningdek, mazkur hujjat bilan Adliya vazirligi markaziy apparati tuzilmasida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasining tashkil etilishi mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borish imkoniyatini yaratishi, bu

esa o'z navbatida ko'zlangan natijaga erishishda ayni muddao bo'lishi qayd etildi.

So'nggi to'rt-yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg'ar-masining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52 pog'onaga, Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida 19 pog'onaga, «Biznes yuritish» indeksida 18 pog'onaga ko'tarilganligi e'tirof etilib, ushbu yo'nalishdagi ishlarning natijasini aks ettirishga mo'ljallangan 2020-yil 1-oktyabrga qadar Internet tarmog'ida ishga tushirilishi belgilangan «O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» yagona portali haqida ma'lumot berildi.

Bu borada mamlakatimizda reytinglar bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi va mazkur sohada so'nggi-yillarda 10 ga yaqin qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilingani, biroq mazkur yo'nalishning ahamiyatini hisobga olgan holda parlamentning shu maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyatini sezilarli darajada takomillashtirish lozimligi qayd etildi.

Xalqaro reyting va indekslarni belgilashda qanday faktorlar, ko'rsatgichlar mezon bo'lib xizmat qiladi? Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat o'rtasidagi imidjini yaxshilash uchun, investorlar uchun jozibadorlikni ko'tarish uchun qanday omillarga e'tiborni kuchaytirish kerak? Aynan shunday maqsadlarga erishilishini huquqiy jihatdan to'liq ta'minlash uchun parlament qanday hujjatlar qabul qilinishiga e'tiborni oshirishi talab etiladi? Seminarda tegishli mas'ul vazirlik va idoralarning mutaxassislari deputatlar tomonidan ko'tarilgan shunday masalalarni atroflicha va to'liq yoritganliklari iliq qabul qilindi. Parlament a'zolari o'zlarining qimmatli takliflarini bildirish barobarida ushbu yo'nalish uchun xos bo'lgan o'ta nozik jihatlarni, ko'nikmalarni o'rganganliklarini e'tirof etdilar.

Shu bilan birga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilishini ta'minlashda parlamentning nazorat va qonun ijodkorligi funksiyalarini takomillashtirish lozimligi ta'kidlandi.

Deputatlar xalqaro reytinglar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki muayyan mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik

islohotlar, jumladan, inson huquqlarini, siyosiy hayotda jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash sohasidagi amaliy ishlarga ham baho berishi haqida to'xtalib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish-yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 4-bandida belgilangan «qonun loyihalarining O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyotini yo'lga qo'yish» bo'yicha parlament tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtaldilar.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rini yaxshilashda parlamentning rolini yanada oshirishga qaratilgan zarur vazifa va chora-tadbirlar belgilab olingan.

Dunyodagi Doing Business reytingi kichik va o'rta biznes yuritish osonligi darajasini ifodalaydi. Hozirgi paytda bunda jami 11 indikator baholanadi: yangi ishni tashkil qilish, qurilishga oid ruxsatnomalar olish, elektroenergiyaga ulanish, mol-mulkni ro'yxatdan o'tkazish, kredit olish, minoritar investorlarni himoyalash, soliqlarni to'lash, transchegaraviy savdo, shartnomalarga rioya qilish mexanizmlari, bankrotlik, shuningdek, mehnat bozorini tartibga solish osonligi.

Doing Business — mamlakatlar investisiyaviy iqlim holatini tavsiflovchi eng ommaviy reytinglardan biri. 2019-yilda O'zbekistonga 76 -o'rin berilgan edi. 2012-yilga taqqoslaganda O'zbekiston 78 pozitsiyaga ko'tarildi.

Iqtisodiy erkinlik ko'rsatkichi

O'zbekistonning iqtisodiy erkinligi 53,3 ballga teng bo'lib, 2019-yilgi ko'rsatkichga binoan 140-o'rinda. Biznes erkinligi, mehnat erkinligi hamda investisiya erkinligi yuqorilab, O'zbekiston iqtisodiy erkinligi umumiy hisobda 1,8 ballga o'sgan. O'zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 43 mamlakat orasida 36-o'rinni egallab turibdi va uning umumiy reytingi mintaqaviy va jahon o'rtacha ko'rsatkichlaridan past.

So'nggi 4-yil mobaynida mamlakat «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52, «Logistika samaradorligi» indeksida – 19, «Doing

Business» indeksida – 18 pogʻonaga, IHTTning «Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash» tizimida 6-guruhdan 5-guruhga koʻtarildi.

Inson taraqqiyot indeksi

Oʻzbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi qiymati 2017-yil uchun 0,710 ni tashkil etdi, bu mamlakat inson taraqqiyotining yuqori toifasiga kirib, 189 ta mamlakat va hudud ichida 105-oʻrinni band etdi deganidir. 2000-2007-yillar oraligʻida Oʻzbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi qiymati 19,3 foizga oshgan holda 0,595dan 0,710 ga koʻtarildi.

endilikda “Global raqobatbardoshlik” indeksi, “Iqtisodiy erkinlik” indeksi, “Logistika samaradorligi” indeksi, “Biznes yuritish” indeksida Oʻzbekiston xalqaro maydonda oʻz nufuzini yuksaltirish yoʻlidan bormoqda. Mamlakatimiz izchillik bilan islohotlarni amalga oshirar ekan, milliy reytingimizni belgilayotgan agentliklar ularni munosib baholamoqda.

Avvalo, reyting nima uchun kerak, degan tabiiy savol tugʻiladi. Reyting turlicha boʻlishi mumkin, biznes reytingi, investisiyaviy jozibadorlik reytingi va boshqalar. Har qanday davlat reytinglarda ishtirok etsa va u yuqori oʻrinda boʻlsa, bu ushbu davlatning ochiqligi, shaffofligi hamda iqtisodiy salohiyatini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlash uchun keng koʻlamli islohotlar olib borayotgan va rivojlanish pallasida boʻlgan davlatlar, albatta, reytinglarda munosib oʻrinlarni egallashga intilishi tabiiy. Negaki, bugungi zamonaviy dunyoda hamkorlik oʻrnatish istagida boʻlgan davlatlar va tashkilotlar umumeʼtirof etilgan reytinglarga, albatta, eʼtibor qaratadi.

Bugun Oʻzbekiston ochiqlik siyosatini olib borishi natijasida xalqaro maydonda oʻz obroʻ-eʼtiborini mustahkamlab bormoqda. Bu, avvalo, qoʻshni davlatlar va nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyati, shuningdek, davlat organlarining xalq manfaatlarini toʻla ifoda etishiga qaratilayotgan eʼtiborning samarasidir.

Soʻnggi qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizda amalga oshirilgan inson huquqlarini taʼminlash, soʻz erkinligi, biznes yuritishda yengillik va imtiyozlar berish, korrupsiyani batamom tugatish borasidagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan keng eʼtirof etildi. Natijada Oʻzbekiston xalqaro reytinglarda yuqori oʻrinlarga

ko'tarilib, o'z ijobiy imijini yaxshilab bormoqda. Dunyo mamlakatlari, xalqaro tashkilotlar va investorlar mamlakatimizga istiqbolli hamkor sifatida munosabat bildirmoqda. Oddiy aytganda, O'zbekiston xorijiy arenada ishonchli hamkor qiyofasida namoyon bo'lyapti. Lekin, ishonch bilan aytish kerakki, mamlakatimiz bundanda yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishga qodir.

Kuni kecha qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi Prezident Farmoni mazkur ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu Farmon bilan endilikda "Global raqobatbardoshlik" indeksi, "Iqtisodiy erkinlik" indeksi, "Logistika samaradorligi" indeksi, "Biznes yuritish" indeksida munosib o'rinni egallash bo'yicha alohida organ faoliyat yuritadi. Davlat organlari birinchi rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholashning bosh mezoni xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rini yaxshilashga qaratiladi. Natijada rahbar o'zi boshqarayotgan sohaning rivojlanishi, uning ichki va tashqi reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi uchun samaradorlikni oshirish masalalariga e'tibor qaratadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, davlatlar mavqeini belgilab beradigan 100 dan ortiq xalqaro reyting va indekslar bor. Ming afsuski, ba'zi bir reytinglarda umuman o'ringa ega emasmiz yoki quyi pog'onalardan o'rin olganmiz. Sabab esa bu borada tizim va faoliyat olib boruvchi organ bo'lmagan. Aslida o'sha reytingda bizning real holatimiz yuqori o'rinni egallashga munosib bo'lishi mumkin.

Aytish kerakki, davlat imijini xalqaro darajada oshirishga bel bog'lagan va xalq taqdirini o'ylagan liderlarning o'z imkoniyatlarini namoyon etish fursati keldi.

Muxtasar aytganda, endilikda davlat organlari faoliyatining mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardagi aksini shaffof kuzatish imkoniga ega bo'lamiz. Bu jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayonlarida muhim omildir.

Nazorat savollari

1. Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash mamlakatimiz uchun butkul yangi yoʻnalish hisoblanadi. Shu maʼnoda vazirlik va idoralar, sud va prokuratura organlari, mahalliy hokimliklar bunga qay darajada tayyor. Fikringizni bayon eting.

2. Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyi pogʻonalarda qolmoqda va buning asosiy sabablari nimalardan iborat?

3. Milliy monitoring tizimining tarkibiy qismlarini izohlab bering.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmonida qanday vazifalar belgilangan?

5. Oʻzbekiston Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi oʻrni yaxshilash chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorining tarixiy ahamiyatini sharhlab bering.

6. “Global raqobatbardoshlik” indeksi, “Iqtisodiy erkinlik” indeksi, “Logistika samaradorligi” indeksi, “Biznes yuritish” indeksi va ularning mazmun-mohiyatini izohlab bering.

Test savollari

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi oʻrnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish toʻgʻrisida”gi farmoni qachon qabul qilingan?

- A) 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan
- V) 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan
- S) 2019-yil 17-yanvarda qabul qilingan
- D) 2018-yil 29-dekabrda qabul qilingan

2. Doing Business — mamlakatlar investisiyaviy iqlim holatini tavsiflovchi eng ommaviy reytinglardan biri. 2019-yilda Oʻzbekistonga 76 -oʻrin berilgan edi. 2012-yilga taqqoslaganda Oʻzbekiston qaysi pozitsiyaga koʻtarildi?

- A) 80 pozitsiyaga koʻtarildi.

V) 78 pozitsiyaga ko'tarildi.

S) 82 pozitsiyaga ko'tarildi.

D) 79 pozitsiyaga ko'tarildi.

3. 2019-yilning sentyabr oyida Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorlarining 2018-yil uchun e'lon qilgan hisobotida O'zbekiston Respublikasi bir qator indikatorlardan yaxshilanganligini ma'lum bo'ldi. Xususan,

A) «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida 5 pog'onaga, «Hukumat samaradorligi» indeksida 3 pog'onaga ko'tarildi;

V) «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida 1 pog'onaga, «Hukumat samaradorligi» indeksida 3 pog'onaga, «Normativ sifat» indeksida 7 pog'onaga, «Qonun ustuvorligi» indeksida 4 pog'onaga, «So'z erkinligi va hisobdorlik» indeksida 5 pog'onaga ko'tarildi;

S) «Normativ sifat» indeksida 7 pog'onaga, «Qonun ustuvorligi» indeksida 2 pog'onaga, «So'z erkinligi va hisobdorlik» indeksida 7 pog'onaga ko'tarildi;

D) A va S javoblar to'g'ri.

4. So'nggi 4-yil mobaynida mamlakat «Iqtisodiy erkinlik» indeksida nechanchi o'rinni ko'tarilganligini aniqlang.

A) 37 o'rin

V) 52 o'rin

S) 40 o'rin

D) 59 o'rin

5. 2019-yilda Jahon banki «Biznes yuritish 2020» yangi-yillik hisobotida O'zbekiston 190 mamlakati orasida....

A) 69-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi

V) 69-o'rinni egallab, 9 pog'onaga ko'tarildi

S) 69-o'rinni egallab, 7 pog'onaga ko'tarildi

D) 69-o'rinni egallab, 8 pog'onaga ko'tarildi

6. Jahonning qaysi indeksi bo'yicha O'zbekiston davlati 18 pog'onaga ko'tarilganligi e'tirof etilgan?

A). Meros jamg'armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida

V). «Doing Business» indeksida

S). Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida

D). Inson taraqqiyot indeksi

7. Jahonning qaysi indeksi bo'yicha O'zbekiston davlati 19 pog'onaga ko'tarilganligi e'tirof etilgan?

- A). Meros jamg'armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida
- V). «Biznes yuritish» indeksida
- S). Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida
- D). Inson taraqqiyot indeksi

8. O'zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 43 mamlakat orasida nechinchi o'rinni egallab turibdi?

- A). 33 o'rinni
- V). 36 o'rinni
- S). 31 o'rinni
- D). 19 o'rinni

9. Ma'lumki, O'zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi qiymati 2017-yil uchun 0,710 ni tashkil etdi, bu mamlakat inson taraqqiyotining yuqori toifasiga kirib, 189 ta mamlakat va hudud ichida..... -o'rinni band etdi deganidir. Natijaga ko'ra O'zbekiston nechinchi o'rinni band etgan?

- A). 100-o'rinni
- V). 107-o'rinni
- S). 105-o'rinni
- D). 98-o'rinni

10. Jahonning qaysi indeksi bo'yicha O'zbekiston davlati 18 pog'onaga ko'tarilganligi e'tirof etilgan?

- A). Meros jamg'armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida
- V). «Biznes yuritish» indeksida
- S). Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida
- D). Inson taraqqiyot indeksi

10. O'zbekistonning iqtisodiy erkinligi 53,3 ballga teng bo'lib, 2019-yilgi ko'rsatkichga binoan nechinchi o'rinni egallagan?

- A) 141- o'rinni egallagan
- V) 140- o'rinni egallagan
- S) 136- o'rinni egallagan
- D) 144- o'rinni egallagan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
5. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: “Ma’naviyat”, 2017.
7. <https://yuz.uz/news/xalqaro-reyting-va-indekslar>
8. <https://invest.gov.uz/uz/investor/uzbekistan-v-mezhdunarodnyh-rejtingah/>
9. <https://kun.uz/news/2020/06/05/xalqaro-reyting-va-indekslar-davlat-organlari-rahbarlariga-kpi-belgilandi>
10. <https://lex.uz/docs/4215422>
11. <https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/31227/>
12. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonning-khalqaro-reyting-va-indekslardagi-ornini-yakhshilashda-parlament-qandaj-iol-tutadi>

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANI BO‘YICHA TESTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi qaysi sanada bo‘lib o‘tgan KPSS MQ sining plenumida so‘zlagan nutqida respublikalar bilan Ittifoq o‘rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo‘yishni ko‘zda tutadigan yangi shartnoma ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risida o‘z fikrini bildirdi?

- A) 1989-yil 20-sentyabr
- B) 1989-yil 21-oktyabr
- V) 1990-yil 24-mart
- G) 1990-yil 25-avgust

2. SSSRning parchalanishi bilan Ittifoq bo‘yicha o‘z milliy davlat tuzilmalaridan tashqarida yashayotgan qancha aholi milliy-etnik muammolarga duchor bo‘ldi?

- A) 15 mln.
- B) 20 mln.
- V) 50 mln.
- G) 60 mln.

3. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami – bu...

A) 1989-yil 21-oktyabrda “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi bo‘ldi.

B) 1990-yil 24-martda I.A.Karimovning O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylanishi bo‘ldi.

V) 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik Deklarasiyasi”ning qabul qilinishi bo‘ldi.

G) 1990-yilda muqobillik asosida o‘tkazilgan saylovlar edi.

4. 1990-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida...

A) Mustaqillik Deklorasiyasi qabul qilindi

B) O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi

V) «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida» qonun qabul qilindi

G) «O‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’ sis qilish haqida» qaror qabul qilindi

5. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimini ta’ sis etish to‘g‘risidagi qaror qachon qabul qilingan?

- A) 1990-yil 24-mart
- B) 1990-yil 15-fevral
- V) 1991-yil 19-avgust
- G) 1989-yil 20-mart

6. Qachondan boshlab mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Farmoniga ko‘ra, 21 mart – “Navro‘z” umumxalq milliy bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi?

- A) 1990-yildan
- B) 1991-yildan
- V) 1992-yildan
- G) 1993-yildan

7. O‘zbekiston Respublikasining “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qachon qabul qilingan?

- A) 1990-yil 18-iyun
- B) 1990-yil 20-iyun
- V) 1991-yil 17-mart
- G) 1991-yil 31-avgust

8. O‘zbekistonning “Mustaqillik Deklaratsiyasi” nechta moddadan iborat?

- A) 12
- B) 13
- V) 14
- G) 15

9. 1991-yil 3-iyunda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o‘rtasida uchrashuv qayerda bo‘lib o‘tgan?

- A) Belovejskaya Pushcha
- B) Moskva
- VC) Almati
- G) Novo-Ogoryovo

10. "Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma" loyihasi qachon O'zbekiston Oliy Kengashida muhokama qilindi?

- A) 1991-yil 3-iyun
- B) 1991-yil 14-iyun
- V) 1991-yil 18-iyun
- G) 1991-yil 21-avgust

11. "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'ri-sida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1991-yil 1-iyunda
- B) 1991-yil 30-iyulda
- V) 1991-yil 31-avgustda
- G) 1991-yil 1-sentyabrda

12. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun nechta moddadan iborat?

- A) 12 ta
- B) 14 ta
- V) 17 ta
- G) 19 ta

13 "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi qarorga ko'ra 1-sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi. Ushbu qarorda qachondan 1 sentyabrni bayram qilinishi aytilgan?

- A) 1991-yil 1-sentyabrdan
- B) 1991-yil 2-sentyabrdan
- V) 1992-yila 1-sentyabrdan
- G) Konstitutsiya qabul qilingan-yildan

14. O'zbekiston Respublikasining boshqaruvga ko'ra shakli...

- A) Respublika
- B) Monarxiya
- V) Konstitutsion monarxiya
- G) Parlamentar Respublika

15. Quyidagi davlatlardan qaysi biri O'zbekistonning mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan?

- A) AQSH
- B) Turkiya

- V) Eron
- G) Xitoy

16. 1992-yilning 8-dekabrigacha Mustaqil O'zbekiston Respublikasining vaqtinchalik Konstitutsiyasi vazifasini bajargan hujjatni aniqlang.

- A) "O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi"
- B) "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonuni
- V) "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Oliy Kengash bayonoti
- G) "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi VIII sessiyasida qaysi qonun qabul qilingan?

- A) "Davlat gerbi to'g'risida"
- B) "Davlat madhiyasi to'g'risida"
- V) "Davlat bayrog'i to'g'risida"
- G) "Milliy pul birligi to'g'risida"

18. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri bu...

- A) O'zbekistonning ma'muriy bo'linishiga ishora
- B) Mukammallik, barkamollik timsoli
- V) 12 muchalning timsoli
- G) Musaffo osmon va tinchlikning ifodasidir

19. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'idagi moviy rang nimaning ramzidir.

- A) Tinchlik va poklik
- B) mangu osmon va musaffo suv
- V) Har bir tirik jonning qon tomiri, unda jo'sh urib turgan hayotiy kuch
- G) Tiriklik ramzi

20. O'zbekiston Respublikasida Vise-Prezident lavozimi qachon tugatildi?

- A) 1991-yil 18-noyabr
- B) 1991-yil 29-dekabr
- V) 1992-yil 4-yanvar

G) 1992-yil 8-dekabr

21. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat gerbi to‘g‘ri-sida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1992-yil 2-iyul

B) 1992-yil 2-iyun

V) 1992-yil 20-iyul

G) 1992-yil 20-iyun

22. O‘zbekiston Respublikasining “Bayram kunlari haqida” gi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1992-yil 1-iyun

B) 1992-yil 2-iyun

V) 1993-yil 1-iyun

G) 1993-yil 2-iyul

23. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi?

A) 1992-yil 21-martda

B) 1992-yil 9-mayda

V) 1992-yil 31-avgustda

G) 1992-yil 8-dekabrda

24. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi to‘g‘ri-sida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

A) 1991-yil 8-dekabr

B) 1991-yil 10-dekabr

V) 1992-yil 20-iyul

G) 1992-yil 10-dekabr

25. Konstitutsiyaga ko‘ra qonunlar kim tomonidan imzolandi.

A) Prezident tomonidan

B) Qonunchilik palatasi raisi tomonidan

C) Senat raisi tomonidan

L) Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan.

26. Qonun ustuvorligi qaysi holatda o‘zining to‘liq ifodasini topadi.

A) Konstitutsiya, qonunlar va boshqa barcha normativ huquqiy hujjatlar davlat organlari, mansabdor shaxslar va fukarolar tomonidan bajarilsa.

B) Qabul qilinayotgan qonunlar inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lsa.

V) Barcha normativ huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lsa.

G) Hammasi noto'g'ri

27. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

I.A.Karimov qachon O'zbekiston Qahramoni unvonini olgan?

A) 1994-yil

B) 1995-yil

V) 1996-yil

G) 1997-yil

28. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

I.A.Karimov qaysi-yillarda Qashqadaryo viloyati Partiya komitetining birinchi kotibi lavozimida ishlagan?

A) 1986-1988-yillar

B) 1986-1989-yillar

V) 1987-1989-yillar

G) 1961-1966-yillar

29. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

I.A.Karimov qaysi davlat jamoatchiligi tomonidan "Xalqaro miqyosdagi lider" mukofoti bilan taqdirlangan?

A) Fransiya

B) Germaniya

V) Yaponiya

G) AQSH

30 O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

I.A.Karimov 1998-yilda qaysi orden bilan mukofotlangan?

A) Mustaqillik

B) Amir Temur

V) Buyuk xizmatlari uchun

G) Do'stlik

31. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

I.A.Karimovga "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"ning tashabbuskori sifatida qaysi Akademiya- ning fahriy a'zosi diplomi berilgan?

A) O'zFA

- B) Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro FA
- V) RFA
- G) Londondagi Kembrij FA

32 O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarining 4-jildi qanday nomlanadi?

- A) Bunyodkorlik yo'lidan
- B) Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir
- V) O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura
- G) Bizdan ozod va obod Vatan qolsin

33 O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li" nomli asari qachon nashr qilindi?

- A) 2000-yilda
- B) 2002-yilda
- V) 2003-yilda
- G) 2005-yilda

34. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida" asari qachon nashr qilindi?

- A) 2008-yilda
- B) 2009-yilda
- V) 2010-yilda
- G) 2011-yilda

35. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai" asari qachon nashr etilgan?

- A) 1998-yilda
- B) 1997-yilda
- V) 1999-yilda
- G) 2000-yilda

36. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" kitobi qachon nashr etilgan?

- A) 1992-yilda
- B) 1993-yilda

V) 1994-yilda

G) 1995-yilda

37. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” asari qachon nashr etilgan?

A) 1996-yil

B) 1997-yil

V) 1998-yil

G) 1999-yil

38 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga O‘zbekiston hududida saylovgacha kamida necha-yil yashagan kishi saylanishi mumkin?

A) 5-yil

B) 8-yil

V) 10-yil

G) 15-yil

39 “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”ga o‘tishda qanday omillar asos qilib olindi?

A) Iqtisodning siyosatdan ustuvorligi va kuchli ijtimoiy himoya

B) Qonunning ustuvorligi va davlatning bosh islohotchiligi

V) Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish

G) Xalqaro tajriba va xo‘jalik imkoniyatlari *

40 O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar nechta yo‘nalishda olib boriladi?

A) 4

B) 5

V) 6

G) 7

41. Qaysi qo‘mita 1994-yildan Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasiga aylantirilgan?

A) Mulk qo‘mitasi

B) Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish qo‘mitasi

V) Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish davlat qo‘mitasi

G) Davlat mulkini asrash va uni hisobga olish qo‘mitasi

42. Bugungi kunda O‘zbekiston ...?

A) Agrar industrial davlat

B) Industrial agrar davlat

V) To‘la agrar davlat

G) To‘la industrial davlat

43 O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O‘zbekistonda qanday kreditlar uchun sharoitlar yaratish kerakligi ta’kidlangan edi?

A) Kam foizli

B) Spekulyativ

V) Uzoq muddatli

G) Kreditlarni olmaslik ta’kidlangan

44. O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘m qachon muomalaga kiritildi?

A) 1993-yil 21-mart

B) 1993-yil 18-noyabr

V) 1994-yil 1-oktyabr

G) 1994-yil 1-iyul

45 1998-yil 30-aprelda ...?

A) “Vijdon erkinligi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

B) “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonun qabul qilindi.

V) “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

G) “Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

46. 2000-yilning 9-yanvarida.....

A) O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov o‘tkazildi.

B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov o‘tkazildi.

V) Abdulxoliq G‘ijduvoniylar tavalludining 900-yilligi nishonlandi.

G) Qatag‘on qurbonlari muzeyi tashkil etildi.

47. 1992-yil 10 dekabrda.....

A) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha Vakili saylandi.

B) O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

V) O‘zbekiston Respublikasida “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

G) O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

48 “Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma‘nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya‘ni o‘zini o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”. Ushbu jumlar qaysi asardan olingan?

A) O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari

B) “O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li”

V) “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”

G) “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat”

49 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bobida fuqaro- larning shaxsiy huquq va erkinliklariga ta‘riflab berilgan?

A) 4-bobida

B) 5-bobida

V) 6-bobida

G) 7-bobida

50. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarini fuqaro- larning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan?

A) 18-52-moddalar

B) 24-52-moddalar

V) 18-41-moddalar

G) 32-52-moddalar

51. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida diniy qarashlarning majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi aytilgan?

- A) 29-moddasida
- B) 31-moddasida
- V) 32-moddasida
- G) 34-moddasida

52. Quyidagi qaysi xususiyatlar o‘zbek xalqiga xos xususiyat sifatida o‘zga xalqlar tomonidan e’tirof etilgan?

- A) Mehmondo‘stlik, bolajonlik, kamtarlik, ma’naviyat-axloq-odob-ma’rifat, mulozamat
- B) Andishalik, hayo, og‘ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat
- V) Ona yurtiga ehtirom, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat
- G) Barcha javoblar to‘g‘ri

53. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida “Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega” ekanligi qayd etilgan?

- A) 40-moddasida
- B) 25-moddasida
- V) 32-moddasida
- G) 68-moddasida

57. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida xalq hokimiyatchiligi tamoyili keltirilgan?

- A) 1-6-moddalarida
- B) 7-14-moddalarida
- V) 15-16-moddalarida
- G) 8-10-moddalarida

55. O‘zbekistonda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilindi?

- A) 1994-yil
- B) 1995-yil
- V) 1996-yil
- G) 1998-yil

56. O‘zbekiston Xalq Demokratik Partiyasining qanday matbuot nashrlari bo‘lgan?

- A) “O‘zbekiston ovozi”, “Adolat” gazetolari
- B) “XXI asr” gazetasi, “Muloqot” jurnali
- V) “O‘zbekiston ovozi” va “Golos Uzbekistana” gazetolari, “Muloqot” jurnali
- G) Barcha javoblar to‘g‘ri

57. Quyidagi javoblardan qaysi biri O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra siyosiy partiyalarning huquqlariga kirmaydi?

- A) Boshqa siyosiy partiyalar yoki jamoat tashkilotlari bilan aloqalar o‘rnatish
- B) Partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, tadbirlarni o‘tkazish
- V) Qabul qilinayotgan qonunlarni amaldagi qonunlarga mos kelishini nazorda qilish
- G) O‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni erkin tarqatish *

58. “Muloqot” jurnali qaysi partiyaning matbuot organi hisoblanadi?

- A) O‘zXDP
- B) Adolat SDP
- V) O‘zLiDep
- G) O‘zMilliy tiklanish DP

59. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalari Oliy Majlisga bag‘ishlangan?

- A) 76-88-moddalar
- B) 89-98-moddalar
- V) 68-72-moddalar
- G) 68-75-moddalar

60. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Yuqori palatasi qanday ataladi?

- A) Senat
- B) Yuqori palata
- V) Deputatlar palatasi
- G) Oliy Majlis

61. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1994-yil 30-avgust
- B) 1994-yil 10-sentyabr
- V) 1994-yil 22-sentyabr
- G) 1994-yil 30-sentyabr

62. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida jamoat tashkilotlarining e‘tirof etilishi haqida aytilgan?

- A) 45-modda
- B) 47-modda
- V) 56-modda
- G) 58-modda

63. Ma‘naviy barkamol inson deganda qanday odamni tushunasiz?

A) Milliy va umuminsoniy ma‘naviy qadriyatlarni chuqur egallagan va unga amal qilgan ziyoli shaxs;

B) Adabiyot, sanat, falsafa, huquqqa doir chuqur bilimga ega bo‘lgan kishilar;

V) Jamiyatda mavjud barcha qonun-qoidalarni, axloq normalarini mukammal o‘zlashtirgan shaxslar;

G) O‘z kasbini yaxshi egallagan, ma‘naviy jihatdan etuk shaxs.

64. Milliy manaviy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?

A) O‘zbek millatiga tegishli barcha og‘zaki va yozma badiiy ilmiy, falsafiy ta‘limotlar;

B) Muayyan millatga tegishli bo‘lgan barcha axloqiy, diniy badiiy, huquqiy, siyosiy, ma‘naviy meros;

V) Faqat bir millat tomonidan yaratilgan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, barcha moddiy meros;

G) Badiiy adabiyot, teatr, musiqa, me‘morchilik sohasida yaratilgan, barcha yodgorliklar;

65. Huquqiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?

A) Davlat tomonidan belgilangan huquqiy normalar va munosabatlarga, qonunlarga, sud, prokuratura organlariga nisbatan bo‘lgan qarashlar;

B) Jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladigan barcha qonun-qoidalar va unga tegishli bo'lgan adabiyotlarning o'zlashtirilishi;

V) Muayyan jamiyatda mavjud huquq normalariga, qonun-qoidalariga, tartibga bo'lgan munosabat va unga amal qilinishi;

G) Huquq sohasida chiqarilgan adabiyotlarni muntazam o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilimlar

66. Bugungi kunda O'zbekistonda ... hukumatlararo va ... nohukumat tashkilotlarning nechta vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda?

A) 13/24

B) 24/13

V) 88/13

G) 88/24

67. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1993-yil 2-sentyabr

B) 1992-yil 10-dekabr

V) 1993-yil 1-avgust

G) 1998-yil 30-aprel

68. 1992-yil 4 yanvarda.....

A) O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Mahalla" hayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi Farmoni e'lon qilingan.

B) "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

V) "Aholining bandligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

G) "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida" Qonun qabul qilingan. *

69. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra mahalla oqsoqoli qancha muddatga saylanadi?

A) 2-yil

B) 2,5-yil

V) 3-yil

G) 5-yil

70. Mahalla soʻzi qaysi soʻzdan olingan?

- A) arabcha “mahallun”
- B) forscha “mahallun”
- V) turkcha “mehalla”
- G) tojikcha “mahal”

71. Mahallalar faoliyatini yorituvchi gazeta qanday nomlanadi?

- A) “Xalq soʻzi”
- B) “Mahalla”
- V) “XXI asr”
- G) “Toshkent oqshomi”

72. Qaysi-yili “Obod mahalla-yili” deb eʼlon qilingan?

- A) 2001-yil
- B) 2002-yil
- V) 2003-yil
- G) 2004-yil

73. Bobokalonimiz Amir Temurning 660-yillik yubileyi, mustaqilligi- mizning necha-yillik bayrami bilan ulanib ketdi?

- A) 5-yillik
- B) 6-yillik
- V) 7-yillik
- G) 8-yillik

74. Mamlakatimizda Amir Temur tavalludining 660-yilligi qachon nishonlangan?

- A) 1995-yil
- B) 1996-yil
- V) 1997-yil
- G) 1999-yil

75. Quyidagi qaysi allomaning 525-yillik yubileyi nishonlangan?

- A) Kamoliddin Behzod
- B) Boborahim Mashrab
- V) Margʻinoniy
- G) Mirzo Ulugʻbek

76. 1996-yilda qaysi buyuk shaxsning yubileyi nishonlandi?

- A) Bobur

- B) Amir Temur
- V) Alisher Navoiy
- G) Kamoliddin Behzod

77. 1994-yil 24 oktyabrda Parijda YuNESKOning qanday mavzuda konferensiyasi o‘tkazildi?

- A) “Ulug‘bek va uning ijodi”
- B) “Ulug‘bek an‘anaviy san‘at”
- V) “Ulug‘bek va Temuriylar davri”
- G) “Ulug‘bek – Sharq namoyondasi”

78. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi qachon foydalanishga topshirildi?

- A) 2000-yil 12 may
- B) 2001-yil 31 avgust
- V) 2002-yil 27 avgust
- G) 2002-yil 31 avgust

79. Mustaqillik-yillarida Qur‘oni Karim necha marta nashrdan chiqdi?

- A) 4
- B) 8
- V) 12
- G) 16

80. Ahmad al-Farg‘oniyning 1200-yilligiga bag‘ishlab sahnalashtirilgan “Al-Farg‘oniy” asari muallifi kim?

- A) A.Nazarov
- B) A.Oripov
- V) S.Rahmatov
- G) M.Vafoev

81. Qaysi xorijiy teatr sahnasida o‘zbek san‘at ustalari Amir Temur tavalludining 660-yilligiga bag‘ishlangan konsert dasturini namoyish etdilar?

- A) “Beatris”
- B) “La Skala”
- V) “Odson”
- G) “Feniks”

82. Amir Temur yodi xotirasiga atab bunyod etilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi qachon bo‘lib o‘tdi?

- A) 1996-yil 18-oktyabr
- B) 1996-yil 9-aprel
- V) 1997-yil 21-aprel
- G) 1997-yil 18-oktyabr

83. “O‘zbekdavlati” birlashmasiga kimning nomi berilgan?

- A) Boqivoy polvon Oripov
- B) Karima Zaripova
- V) Toshkentboy Egamberdiyev
- G) Sora Eshonto‘rayeva

84. O‘zbekiston Respublikasining birinchi ordenini aniqlang?

- A) “Sog‘lom avlod uchun”
- B) “Shon-sharaf” ordeni
- V) “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni
- G) “Amir Temur” ordeni

85. 1996-yil 27-dekabrda ta‘sis etilgan faxriy unvonni belgilang?

- A) “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan me‘mor”
- B) “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviasiyasi xodimi”
- V) “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist”
- G) “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist”

86. Qachon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti ta‘sis etildi?

- A) 1999-yil 10 iyun
- B) 1996-yil 26 aprel
- V) 1995-yil 22 dekabr
- G) 1995-yil may

87. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ining ochilish marosimi qachon bo‘lib o‘tgan?

- A) 1991-yil 28-sentyabr
- B) 1991-yil 18-noyabr
- V) 1992-yil 4 -yanvar

G) 1992-yil 28-yanvar

88. Oltin Meros xalqaro xayriya jamg'armasi qachon tashkil etilgan?

A) 1995-yil yanvar

B) 1996-yil yanvar

V) 1997-yil dekabr

G) 1998-yil yanvar

89. Toshkent Islom universiteti qachon tashkil etilgan?

A) 1997-yil

B) 1998-yil

V) 1999-yil

G) 2000-yil

90. "Moziydan sado" jurnali qachondan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi?

A) 1998-yil

B) 1999-yil

V) 2000-yil

G) 2001-yil

91. 2001-yil qanday nomlangan?

A) "Oila-yili"

B) "Obod mahalla-yili"

V) "Qariyalarni qadrlash-yili"

G) "Onalar va bolalar-yili"

92. 2015-yil qanday-yil deb e'lon qilindi?

A) "Keksalarni e'zozlash-yili"

B) "Sog'lom bola-yili"

V) "Keksalar va tadbirkorlar-yili"

G) "Keksalarga yordam ko'rsatish-yili"

93. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1995-yil 14-avgust

B) 1996-yil 20-sentyabr

V) 1997-yil 29-avgust

G) 1998-yil 16-fevral

94. O‘zbekistonda “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” necha bosqichda amalga oshiriladi?

- A) 3
- B) 4
- V) 5
- G) 6

95. “Ustoz” jamg‘armasi orqali kimlar chet elning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida o‘z malakasini oshirib keladilar?

- A) maktab o‘qituvchilari
- B) litsey va kollej o‘quvchilari
- V) oliy o‘quv yurti talabalari
- G) kollej va litsey o‘qituvchilari

96. “Shanxay forumi” SHHHTga o‘zgartirilmasdan oldin qanday nomlangan?

- A) “Shanxay beshligi”
- B) “Shanxay do‘stligi”
- V) “Shanxay ittifoqi”
- G) “Shanxay sammiti”

97. MDH a‘zolari tomonidan “Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar” maqomida qanday Deklaratsiya qabul qilingan?

- A) Toshkent Deklaratsiyasi
- B) Moskva Deklaratsiyasi
- V) Kishinyov Deklaratsiyasi
- G) Almati Deklaratsiyasi

98. “Kobul-O‘zbek Ko” qo‘shma korxonasi qaysi davlat bilan hamkorlikda qurilgan?

- A) Janubiy Koreya
- B) Yaponiya
- V) Xitoy
- G) Singapur

99. 2004-yil 17-iyun kungi SHHT sammiti qaerda bo‘lgan?

- A) Ashxabad
- B) Toshkent
- V) Ostona
- G) Bishkek

100. 1995-yil O‘zbekistonga tashrif buyurgan Benazir Bxutto qaysi davlat bosh vaziri?

- A) Eron
- B) Iroq
- V) Hindiston
- G) Pokiston

101. “Shanxay beshligi” tashkilotiga dastlab qaysi davlatlar kirgan?

- A) Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston
- B) Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston
- V) Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston
- G) Rossiya, Xitoy, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston

102. Afg‘oniston muammosini hal qilish bo‘yicha tashkil etilgan “6+2” guruhining 1997-yil 16-oktyabrdagi birinchi uchrashuvi qaerda bo‘lib o‘tdi?

- A) Pekinda
- B) Almatida
- V) Nyu-Yorkda
- G) Toshkentda

103. 1992-yil fevralda O‘zbekiston tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan qaysi nufuzli tashkilotga a‘zo bo‘ldi?

- A) YUNESKOga a‘zo bo‘ldi.
- B) EXHTga a‘zo bo‘ldi.
- V) GUAMga a‘zo bo‘ldi.
- G) Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘ldi.

104. Qachon BMT xavfsizlik kengashining terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha maxsus qo‘mitasi tashkil etilgan?

- A) 1999-yil
- B) 2000-yil
- V) 2001-yil
- G) 2002-yil

105. Nechanchi-yilda Turkiyaning O‘zbekistonda elchixonasi ochilgan?

- A) 1992-yil 28-aprelda
- B) 1992-yil 27-iyunda

- V) 1992-yil 3-iyulda
- G) 1992-yil 18-oktyabrda

106. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” asari qachon nashr etilgan?

- A) 2014-yilda
- B) 2015-yilda
- V) 2016-yilda
- G) 2017-yilda

107. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz” asari qachon nashr etilgan?

- A) 2014-yilda
- B) 2015-yilda
- V) 2016-yilda
- G) 2017-yilda

108. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Qonun ustuvorligi va inson ma’nfatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma’ruzasi.....

- A) 2015-yil
- B) 2016-yil
- V) 2017-yil
- G) 2018-yil

109. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asari qachon nashr etilgan?

- A) 2015-yilda
- B) 2016-yilda
- V) 2017-yilda
- G) 2018-yilda

110. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qachon e‘lon qilindi?

- A) 2017-yil 2-fevral

- B) 2017-yil 7-fevral
- V) 2017-yil 17-fevral
- G) 2017-yil 27-fevra

111. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo'nalishdan iborat?

- A) 10 ta
- B) 7 ta
- V) 5 ta
- G) 4 ta

112. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari nechanchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan?

- A) ikkinchi ustuvor yo'nalish
- B) uchunchi ustuvor yo'nalish
- V) birinchi ustuvor yo'nalish
- G) beshinchi ustuvor yo'nalish

113. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A) Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash
- B) Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish
- V) Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish
- G) Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish

114. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish qaysi ustuvor yo'nalishda mustahkamlangan?

- A) Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

B) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari

V) Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari

G) Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari

115. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlariga nechta band kiritilgan?

A) 4 ta

B) 3 ta

V) 5 ta

G) 6 ta

116. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlariga ko‘ra «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyahasini ishlab chiqish muddati qachonga belgilangan?

A) 2017-yil I chorak

B) 2017-yil III chorak

V) 2017-yil IV chorak

G) 2017-yil II chorak

117. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da Aholining senatorlar va deputatlar bilan o‘zaro munosabatlarini, Oliy Majlisning xalq bilan muloqotini takomillashtirish maqsadida «Elektron parlament» tizimini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish muddati qachonga belgilangan?

A) 2017-yil I chorak

B) 2017-yil III chorak

V) 2017-yil IV chorak

G) 2017-yil II chorak

118. «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» da O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining joylarda ishlarning holatini o‘rganish va xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo‘shma qarori loyihasini ishlab chiqish muddati qachonga belgilangan?

- A) 2017-yil I chorak
- B) 2017-yil III chorak
- V) 2017-yil IV chorak
- G) 2017-yil II chorak

119. «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» da «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish muddati qachonga belgilangan?

- A) 2017-yil I chorak
- B) 2017-yil III chorak
- V) 2017-yil IV chorak
- G) 2017-yil II chorak

120. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga ko‘ra, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo‘jalik sudlari sudya lavozimlarini nech yoshgacha belgilash ko‘zda tutilgan?

- A) 60
- B) 65
- V) 70
- G) 75

121. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga ko‘ra, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash qaysi organ tasarrufiga o‘tkazilishi rejalashtirilgan?

- A) Adliya vazirligiga

- B) Oliy sudga
- V) Oliy xo'jalik sudiga
- G) Sud departamentiga

122. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash prinsipi Konstitutsiyaning nechinchi moddasida o'z ifodasini topgan?

- A) 110-moddasida
- B) 111-moddasida
- V) 112-moddasida
- G) 107-moddasida

123. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi?

- A) 2016-yil 21-dekabrda
- B) 2016-yil 21-oktyabr
- V) 2017-yil 7-fevral
- G) 2017-yil 21-fevral

124. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-2682-son Farmoniga muvofiq sudlar qachondan boshlab ixtisoslashtirildi?

- A) 2001-yil 1-apreldan
- B) 2001-yil 1-yanvardan
- V) 2001-yil 1-sentyabrdan
- G) 2001-yil 31-avgustdan

125. Sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:

A) sudyalarni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, sudyalarning daxlsizligi, odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy taomil, qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi, sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashganlik, sudyalar daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik, sudyalarga davlat hisobidan ularning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot;

B) berish sudyalarning daxlsizligi, sudyalarga davlat hisobidan ularning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot

berish, sudyalar maslahatining sir tutilishi, ishlarni ko'rib chiqishda sudyalarning mustaqilligi;

V) qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, deklaratsiya bilan, ishlarni ko'rib chiqishda sudyalarning mustaqilligi;

G) sudyalarning daxlsizligi, sudyalar maslahatining sir tutilishi, sudyalarni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, sudga hurmatsizlik uchun javobgarlik, aybsizlik prezumpsiyasi.

126. "Xabeas korpus" instituti qachon va qayerda paydo bo'lgan?

A) XV asrda Buyuk Britaniyada;

B) XVII asrda AQSHda;

V) XVI asrda Angliyada;

G) XIII asrda Fransiyada.

127. Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini-yili" Davlat dasturiga ko'ra, 2017-yil 3-chorakda amalga oshiriladigan ishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) elektron tartibda sudga murojaat qilish;

B) videokonferensaloqa rejimida sud jarayoni o'tkazish;

V) sudyalar o'rtasida ishlarni avtomatik ravishda taqsimlash;

G) da'vo arizani elektron yuborish.

128. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qachondan joriy etildi?

A) 2012-yildan;

B) 2013-yildan;

V) 2014-yildan;

G) 2015-yildan.

129. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini-yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq Toshkent shahri va viloyatida yangi qurilgan ko'chmas mulkni O'zbekiston

Respublikasi rezidentlari va norezidentlari tomonidan sotib olish uchun necha foiz miqdorda davlat boji to'lash nazarda tutilgan?

- A) 10-15%
- B) 5-10%
- V) 15-20%
- G) 20-25%

130. 2017-2021-yillar mobaynida qaysi mutasaddi idoralar ishtirokida diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish amaliyotini o'rganish nazarda tutilgan?

A) O'zbekiston Respublikasining IIV, Mudofaa vazirligi, MXX, DBQ, Bosh prokuratura, OO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, MTRK, «Mahalla» jamg'armasi, «Kamolot» YoIH

B) Axborot texnologiyalari vazirligi, Mehnat vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, vazirlikvaidoralar

V) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Ijtimoiy tadqiqotlar instituti, DBA, SMTI, FJShMQMI, «Ijtimoiy fikr» markazi

G) Mehnatvazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Adliyavazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi

131. O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qachon qo'shilgan?

- A) 2017-yil
- B) 2001-yil
- V) 2003-yil
- G) 2008-yil

132. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qanday tuzilma tashkil etildi?

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi

b) Korrupsiyani oldini olish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi

V) Bosh prokuratura huzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha departament

G) barcha javoblar to'g'ri

133. Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan birini ko'rsating.

a) jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi

b) aholini islohotlardan habardor ekanligi

v) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunning mavjudligi

G) aholini huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi

134. 2017-2021-yillarda qabul qilingan qonun hujjatlarini aholi va ijrochilarga o'z vaqtida etkazishning samarali tizimini yaratish maqsadida qanday huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish nazarda tutilgan?

a) Jumalistning kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risidagi qonun

b) Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun

s) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun

d) Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun

135. 2017-2021-yillarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari hamda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularga qabul qilingan yangi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida mahallalarda qanday ishlar amalga oshirish ko'zda tutilgan?

A) haftada uch marta «Jinoyatdan saqlaning!» o'quv mashg'uloti joriy etish va doimiy o'tkazib borish

B) haftada bir marta "Huquqiy bilimlar" o'quv mashg'uloti joriy etish va doimiy o'tkazib borish

V) haftada ikki marta «Diniy ekstremizm va terrorizm — yoshlar kelajagiga tahdid» mavzularida uchrashuv va davra suhbatlarini tashkil etish

G) haftada bir marta «Mahallamiz jinoyatchilikka qarshi turadi» aksiyalarini o'tkazish

136. Yuridik xizmatning shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan ta'minlanishini tashkil etish sohasidagi vazifalari va huquqlarini tartibga soluvchi hujjatni tanlang.

A) "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun

B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati to'g'risida"gi qarori

V) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida"gi qarori

G) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

137. 2017-yil 19-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-son Qarorida yuridik xizmat xodimlariga qanday imtiyozlar berildi ?

A) davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarining mazkur mutaxassislik bo'yicha uch-yillik stajiga ega bo'lgan xodimlari, lisenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs sifatida malaka imtihonida tegishli stajirovka o'tmasdan ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi

B) yuridik xizmat xodimi sifatidagi mehnat staji xodim boshqa davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga ishga o'tganda martaba darajalari va ko'p-yillik xizmat ustamalarini to'lash uchun mo'ljallangan mehnat staji hisobiga olinadigan bo'ldi

V) yuridik xizmat xodimlari har chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 50 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofotlanadigan bo'ldi

G) barcha javoblar to'g'ri

138. Nikohdan ajralishni qayd etish qaysi organlariga taalluqli ?

A) faqat FHDYO organida amalga oshiriladi

B) faqat sud tartibida amalga oshiriladi

VS) qonun hujjatlarida belgilangan hollarda FHDYO organida hamda sud tartibida amalga oshirilishi mumkin

G) diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi

139. Nikohni qayd etish vakolatiga ega bo'lgan organni tanlang.

- A) faqat FHDYO organida amalga oshiriladi
- B) faqat sud orqali qayd qilinadi
- V) qonun hujjatlarida belgilangan hollarda FHDYO organida hamda sud tomonidan qayd etilishi mumkin
- G) diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi

140. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari-yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturiga ko'ra notarial idoralar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan ?

- A) notarial idoralar faoliyatini avtomatlashtirish
- B) barcha notarial bitimlar hisobini markazlashgan holda yuritish
- V) idoralararo elektron hamkorlikni hisobga olgan holda, aholi va tadbirkorlarga notariat sohasida interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yish
- G) barcha javoblar to'g'ri

141. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi farmoni qachon qabul qilingan?

- A) 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan
- B) 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan
- V) 2019-yil 17-yanvarda qabul qilingan
- G) 2018-yil 29-dekabrda qabul qilingan

142. Doing Business — mamlakatlar investitsiyaviy iqlim holatini tavsiflovchi eng ommaviy reytinglardan biri. 2019-yilda O'zbekistonga 76 -o'rin berilgan edi. 2012-yilga taqqoslaganda O'zbekiston qaysi pozitsiyaga ko'tarildi?

- A) 80 pozitsiyaga ko'tarildi.
- B) 78 pozitsiyaga ko'tarildi.
- V) 82 pozitsiyaga ko'tarildi.

G) 79 pozitsiyaga ko‘tarildi.

143. Jahonning qaysi indeksi bo‘yicha O‘zbekiston davlati 19 pog‘onaga ko‘tarilganligi e‘tirof etilgan ?

A) Meros jamg‘armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida

B) «Biznes yuritish» indeksida

V) Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida

G) Inson taraqqiyot indeksi

144. O‘zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 43 mamlakat orasida nechanchi o‘rinni egallab turibdi

A) 33 o‘rinni

B) 36 o‘rinni

V) 31 o‘rinni

G) 19 o‘rinni

145. Ma‘lumki, O‘zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi qiymati 2017-yil uchun 0,710 ni tashkil etdi, bu mamlakat inson taraqqiyotining yuqori toifasiga kirib, 189 ta mamlakat va hudud ichida..... -o‘rinni band etdi deganidir. Natijaga ko‘ra O‘zbekiston nechanchi o‘rinni band etgan?

A) 100-o‘rinni

B) 107-o‘rinni

V) 105-o‘rinni

G) 98-o‘rinni

146. Jahonning qaysi indeksi bo‘yicha O‘zbekiston davlati 18 pog‘onaga ko‘tarilganligi e‘tirof etilgan?

A) Meros jamg‘armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida

B) «Biznes yuritish» indeksida

V) Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida

G) Inson taraqqiyot indeksida

147. O‘zbekistonning iqtisodiy erkinligi 53,3 ballga teng bo‘lib, 2019-yilgi ko‘rsatkichga binoan nechanchi o‘rinni egallagan?

A) 141- o‘rinni egallagan

B) 140- o‘rinni egallagan

V) 136- o‘rinni egallagan

G) 144- o‘rinni egallagan

148. 2019-yilning sentyabr oyida Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorlarining 2018-yil uchun e'lon qilgan hisobotida O'zbekiston Respublikasi bir qator indikatorlardan yaxshilanganligini ma'lum bo'ldi. Xususan,

A) «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida 5 pog'onaga, «Hukumat samaradorligi» indeksida 3 pog'onaga ko'tarildi;

B) «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida 1 pog'onaga, «Hukumat samaradorligi» indeksida 3 pog'onaga, «Normativ sifat» indeksida 7 pog'onaga, «Qonun ustuvorligi» indeksida 4 pog'onaga, «So'z erkinligi va hisobdorlik» indeksida 5 pog'onaga ko'tarildi;

V) «Normativ sifat» indeksida 7 pog'onaga, «Qonun ustuvorligi» indeksida 2 pog'onaga, «So'z erkinligi va hisobdorlik» indeksida 7 pog'onaga ko'tarildi;

G) A va V javoblar to'g'ri.

149. So'nggi 4-yil mobaynida mamlakat «Iqtisodiy erkinlik» indeksida nechanchi o'rinna ko'tarilganligini aniqlang?

A) 37 o'rin

B) 52 o'rin

V) 40 o'rin

G) 59 o'rin

150. 2019-yilda Jahon banki «Biznes yuritish 2020» yangi-yillik hisobotida O'zbekiston 190 mamlakati orasida....

A) 69-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi

B) 69-o'rinni egallab, 9 pog'onaga ko'tarildi

V) 69-o'rinni egallab, 7 pog'onaga ko'tarildi

G) 69-o'rinni egallab, 8 pog'onaga ko'tarildi

IZOHLI LUG'AT (GLOSSARIY)

An'analar – jamiyat hayoti turli sohalarining moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi, dunyoda an'analar va urf-odatlariga ega bo'lmagan millat yoki elat yo'q.

BMT – dunyodagi tinchlikni va xavfsizlikni taminlash, millatlar va davlatlarning o'zaro xamkorligini mustaxkamlash maqsadida 1945-yil 24-oktyabrda tashkil topdi.

Bunyodkor g'oya — jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oya.

Vayronkor (buzg'unchi) g'oya — yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o'rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo'lgan g'oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

BOZOR IQTISODIYOTI – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan iqtisodiy tizim.

Vatan – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati.

Vatanparvarlik – kishining o'zi, tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy hissiyotlari, fazilatlaridir.

Vatan ravnaqi – milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g'oyalardan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g'oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir deb ta'riflaydi. Zero, u milliy istiqlolning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Vijdon erkinligi – fuqarolarning istagan dinga eʼtiqod qilish yoki hech qanday dinga eʼtiqod qilmaslik huquqi.

DAVLAT SUBSIDIIYASI – sosial va ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlari hisobidan beriladigan hamda aniq loyihalar bilan bogʻliq boʻlmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy koʻmak. Davlat subsidiyalaridan faqat nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy foydali maqsadlarga erishish uchungina foydalaniladi.

DAVLAT GRANTI – ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablagʻlari, shuningdek, jamoat fondlarining mablagʻlari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari boʻyicha tanlov asosida beriladigan pul mablagʻlari va moddiy resurslar. Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi.

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI – investisiya, innovasiya, infratuzilma va boshqa loyiha hamda muhim boʻlgan davlat, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ahamiyatga ega dasturlarni koʻzda tutuvchi chora-tadbirlar majmui. Bunda davlat boshqaruvi, hududiy hukumat organlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolatlangan boshqa davlat tashkilotlari davlat sherigi boʻla oladi.

Xususiy sherik – Oʻzbekistondagi yuridik yoki jismoniy shaxs, xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs, davlat-xususiy sherikligini tuzgan yoki tuzish istagida boʻlgan xalqaro tashkilot. Ular faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir. Davlat-xususiy sherikligi quyidagi sohalarda amalga oshiriladi: fan, texnika va innovatsiyalar, tibbiyot; taʼlim, madaniyat va ijtimoiy xizmatlar; telekommunikatsiya; transport xizmatlari; yoʻl sektori; uy-joy va kommunal xizmatlar; qurilish

materiallari ishlab chiqarish; yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati; energiyaning qayta tiklanuvchi manbalari; mexanik muhandislik; metallurgiya; qishloq va suv xo'jaligi; tabiatni muhofaza qilish.

Demokratiya – "xalq hokimiyati" ma'nosini angatadi

DEMOKRATIK INSTITUTLAR – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror toptirishga xizmat qiladigan tashkilot va tuzilmalar majmuasi, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchi demokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari.

JAMOAT BIRLASHMALARI – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlar jamiyatlari, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi. *J.b.* – ma'naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyoj-larni qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolar ixtiyoriy birlashmasi.

Jamoat birlashmasi qatnashchilari mazkur birlashmaga mulk qilib bergan mol-mulklariga, shu jumladan, a'zolik badallariga bo'lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a'zo sifatida qatnashayotgan jamoat birlashmasining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, mazkur birlashma esa o'z a'zolari majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

JAMOAT FONDI – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoli bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

IJTIMOIIY ADOLAT – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyat-da o'z o'rni mavjudligi va qonun oldida ularning o'zaro teng huquqlarga ega ekanligini e'tirof etish.

IJTIMOIIY HAMKORLIK – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi. Shuningdek, jamiyat barcha a'zolari va ijtimoiy guruhlarining umumiy maqsad yo'lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifoda etadi. U jamiyatning bosh strategik maqsadi, rivojlanish g'oyasi va maqsadi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tub manfaatlari yo'lida aholi hamda ijtimoiy guruhlarining taraqqiyotini ta'minlash uchun keng miqyosda olib boriladigan birgalikdagi faoliyat.

IJTIMOIIY SHERIKLIK – fuqarolar, ijtimoiy sub'ektlar va muassasalar jamiyat hayotining muayyan bir sohasidagi o'zaro birgalikdagi harakatlari majmui. *I.sh.* fuqarolik jamiyatiga xos, davlat va

fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi uchun eng qulay muvozanatni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning alohida turi hisoblanadi. Bunday munosabatlarda ijtimoiy sheriklik – davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi bo'lib, unda manfaatlar qarama-qarshiligi va uni hal etish yo'llari ko'zda tutiladi. Ijtimoiy sheriklik boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liq.

Ijtimoiy sherikchilik – ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish-ning muhim mexanizmi bo'lib, bu davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda biznes vakillarining ijtimoiy hamkorlik asosidagi tarmoqlararo, sohalararo, idoralararo faoliyati.

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

Iqtisod – muloqot, gaplashish, kelishish, savdolashish, ikki tomonga to'g'ri keladigan umumiy narxni, raqamni, xulosani topish demakdir.

IXTILOF (arab. qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, nizo) – odamlarning birgalikda harakat qilish usuli bo'lib, bunda qarama-qarshilik, g'animlik, erishilgan yakdillik, kelishuv va hamkorlikni buzish tamoyillari ustun turadi.

KASABA UYUShMALARI – korxonalar, muassasa, o'quv yurti va boshqa mehnat jamoalarida ishlayotgan ishchi va xodimlarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti.

Ko'ppartiyaviylik–mamlakat parlamentida ko'pchilik o'rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo'lgan siyosiy tizim.

Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

Kuchli jamiyat-mustahkam negizning barqaroligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

KUCHLI DAVLATDAN – KUCHLI JAMIYAT SARI – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalar nufuzi va mavqeining oshishi.

KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat hamda jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat.

MODERNIZASIYALASH – (fran. Modernizer – zamonaviy) zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishda o'zgarishlarni amalga oshirish.

Madaniyat – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, asori-atiqalar yig'indisi.

Ma'naviy meros – Qadim zamonlardan beri ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar-siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir.

Ma'naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratuvchi ijtimoiy xodisa.

Ma'rifat – bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shumazmuni yoyish kurash, vositasidir.

Meros – insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingi avlodga etib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir.

Millat – «millat» so'zi «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma'noni bildiradi.

Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g'oya.

Milliy qariyatlar – milliy mafkuraning tarbiyaviy elementi.

Milliy mafkura – o'zligimizni, muqaddas an'analimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizni ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va oliy g'oyadir.

Milliy ma'naviyat – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Milliy tarbiya – u yoki bu millatni, elatni tashkil etuvchi kishilarni milliy madaniyatini meros, qadriyatlarni, urf-odatlarini, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatni rivojlantirishdir, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning sub'ektidir.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromad (foйда) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Ommaviy axborot vositalari – keng ko'lamda axborotni yig'ish, ishlash va tarqatishni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televidenie va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 3-son, 20-modda)

Parlament – ingl. parlament, frans. parlergapirmoq va so'zlamoc; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Parlamentdagi ko'pchilik – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi.

Parlamentdagi muxolifat – yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek, O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi.

Partiya – lot. pars (partis)-qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruhmanfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni koʻzlovchi tashkilot.

Prezident – lot. praesidens (praesidentis) – oldinda oʻtiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi soʻzlaridan olingan boʻlib, koʻpchilik Prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda maʼlum bir muddatga saylangan davlat boshligʻi.

Reformatsiya – oʻzgarish, qayta qurish maʼnolarini anglatadi.

Siyosiy partiya – ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oʻzaro bogʻliq holda jamiyatning siyosiy hayotini tashkil qiladi. Siyosiy partiyalarning birdan bir asosiy davlatningi konstitutsiyaviy meʼyorini hurmat qilish. Lotincha “nars”, “pants”- qism, guruh.

Siyosat – yunoncha soʻz boʻlib, mazmuni davlat yoki jamoat ishlarini anglatadi. Siyosat – katta ijtimoiy guruhlar, millatlar, davlatlar ichki va tashqi munosabatlari sohasidagi faoliyatni anglatadi.

Strategiya – Bosh yoʻl, oʻzoq muddatga muljallangan u yoki bu sohadagi katta vazifalar.

Senat – parlament palatasi huquqiy vakillik palatasi.

Tarix – “arabcha” soʻz boʻlib, oʻtgan voqealar haqida hikoya degan maʼnoni bildiradi.

Tashabbus- lot. inisiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

Tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omili.

Totalitar – lot. totalis-butun, toʻla, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitusion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qoʻlida toʻplanib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar boʻlmaydi.

Transformatsiya – lot. transformatio – oʻzgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni oʻzgartirish, faroliyatning maqsadli yoʻnalishini oʻzgartirish.

Tripartizm – ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari oʻrtasidagi kelishuv.

Umumbashariy qadriyat – dunyo xalqlarining koʻpchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy meʼyorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, anʼana va

mas'uliyatiga aylangan, voqe'lik vayohud munosabatlar tizimiga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha.

Fikr erkinligi – bu jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo'lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

Fraksiya – lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish; parlament a'zolariga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy asosi – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o'rnatish va o'zgartirish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning tashkiliy asosi – o'zini o'zi boshqarish huquqining instituti sifatida o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishi, faoliyat tartibi, shakli va prinsiplarini, faoliyat doirasini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolarning o'zini o'ziboshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'laridan, ushbu organlarga xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari belgilangan tartibda ajratgan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy hayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

Fuqarolik – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog'liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

Fuqarolik jamiyati – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta'minlangan ijtimoiy makondir.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.

XALQARO MEHNAT TASHKILOTI (XMT) – Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining ixtisoslashgan muassasi bo'lib, u ijtimoiy adolat tamoyillarini, xalqaro tan olingan inson huquqlari va mehnat sohasidagi huquqlarni ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 1919-yilda tashkil topgan XMT 1946-yilda BMT tizimiga kirgan birinchi ixtisoslashgan muassasa bo'lgan.

Xalqaro tizim – xalqlar, davlatlar, iqtisodiy siyosiy tashkilotlar o'rtasidagi xalqaro darajadagi munosabatlar.

Xususiylashtirish – mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

Hamkorlik siyosati – xalqaro siyosat subyektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

Huquq – davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

Huquqiy davlat – huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z ma'suliyatlarini his qilishlari, o'z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma'suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma'suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

Huquqiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta – sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo'lib, hozirgi davrda ilg'or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Nazariy-metodologik adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson maʼnfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yiligiga bagʻishlangan tantanali marosimidagi maʼruzasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017.

5. Karimov I.A. Oʻzbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: “Oʻzbekiston”, 1996.

6. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz oʻz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qatʼiy irodamizga bogʻliq. T. 12. – T.: “Oʻzbekiston”, 2004.

7. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. – T.: “Oʻzbekiston”, 2006.

8. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat-engilmas kuch. –T.: «Maʼnaviyat», 2008.

9. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – T.: Oʻzbekiston, 2011.

10. Karimov I.A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «Oʻzbekiston», 2011.

11. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir. Xalq soʻzi. 2012, 10-may.

12. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yoʻlida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: «Oʻzbekiston», 2015.

2. Normativ-huquqiy adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublieasining Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2019
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2014-yil 28-dekabr.

3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2017, 8-fevral.

5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. /O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, №1. 2017.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. /O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, №6. 2017.

3. Asosiy adabiyotlar

1. Mustakil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – To., 2000.

2. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. – T.: Akademiya, 2013.

3. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // M.Abdullaev va boshqalar: to'ldirilgan uchinchi nashr. – T.: "Sharq", 2006.

4. Narzulla Jo'rayev O'zbekiston tarixi:(Milliy istiqlol davri) 3-kitob/Mas'ul muharrir N.Abdualazizova. – T.: "Sharq", 2011. – 736 b.

5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018.

6. Erkayev A. O'zbekiston yo'li. – T.: "Ma'naviyat", 2011.

7. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: "Ma'naviyat", 2017.

4. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – T., 2001.

2. Azizxo'jayev A.A. Chin o'zbek ishi. – T., 2003.

3. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik-yillarida. – T.: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.

4. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70 80-yillar misolida). Qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 1999.

5. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – T.: "O'zbekiston", 2005.

6. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida. – T.: "O'zbekiston", 2005.

7. Murtazaeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2019.

8. Musayev Odil. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – T.: ”Istiqlol nuri”, 2016, 232 bet.

9. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi. –T.: “Moliya”, 2003.

10. Yunusova X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). – T.: Abu matbuot-konsalt, 2009.

11. O‘zbekiston mustaqillik-yillarida. – T.: “O‘zbekiston”, 1996.

12. O‘zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – T., 2005.

13. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlar: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.

14. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: “Sharq”, 2006. 14. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas‘ul muharrir R.H.Murtazaeva. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2010.

15. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). 2 tom. Mas‘ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. – T.: “O‘zbekiston”, 2019.

16. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.

17. G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. O‘zbekiston. – T.: “Mehnat”, 2001.

18. Hasanov R. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ” O‘zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida” –nomli kitobini o‘rganish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: MRDI, 2012.

19. Hasanov R, Utamuradov, Qirg‘izboyev M, Inoyatov Q.Fuqarolik jamiyati: ma‘ruzalar kursi . – T.: “Navro‘z”, 2018 , 332 bet.

20. Hasanov R, Utamuradov, Qirg‘izboyev. Fuqarolik jamiyati //O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiyalar Markazi“, 2019, 400 bet.

Elektron ta’lim resurslari Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz.

2. www.edu.uz.

3. www.google.uz.

4. www.gov.uz.

5. www.press-service.uz
6. www.xs.uz
7. www.nimfogo.uz
8. www.xdp.uz/
9. www.adolat.uz/
10. www.uzlidep.uz/
11. www.millivtiklanish.uz/
12. www.ngo.uz
13. www.mahalla.uz

MUNDARIJA

| | |
|-------------|---|
| KIRISH..... | 3 |
|-------------|---|

1-MAVZU: “O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI” O‘QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

| | |
|---|----|
| 1.1. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari..... | 6 |
| 1.2. Yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni. | 16 |
| 1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari..... | 19 |

2-MAVZU: MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDA YUZ BERGAN IJTIMOYIY-SIYOSIY JARAYONLAR

| | |
|---|----|
| 2.1. Mustaqillik arafasidagi siyosiy vaziyat..... | 28 |
| 2.2. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli..... | 31 |
| 2.3. Mustaqillik arafasida «paxta ishi» va uning oqibatlarini bartaraf etish borasidagi harakatlar..... | 33 |
| 2.4. 1990-yil 24-mart kuni bo‘lib o‘tgan respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi tarixi..... | 45 |
| 2.5. Milliy armiya va ichki ishlar tarkibini shakllanishi..... | 52 |

3-MAVZU: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

| | |
|---|----|
| 3.1. Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati..... | 62 |
| 3.2. Mustaqillik arafasidagi murakkab siyosiy jarayonlar..... | 66 |
| 3.3. Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati..... | 71 |

4-MAVZU: O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO'LI

| | |
|--|----|
| 4.1. Istiqlolning dastlabki kunlari va sinovlari..... | 79 |
| 4.2. Jamiyatning bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishidagi muammolar va uning yechimlarida shaxsning roli..... | 84 |
| 4.3. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki-yillaridagi parlament islohotlari | 97 |

5-MAVZU: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR

| | |
|---|-----|
| 5.1. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi. Ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati..... | 104 |
| 5.2. Sud hokimiyati va huquq tartibot organlari fuqarolar haq-huquqlarini ta'minlashning muhim omili..... | 113 |
| 5.3. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari va o'zini o'zi boshqarish organlari..... | 117 |

6-MAVZU: IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI

| | |
|---|-----|
| 6.1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning "besh tamoyili"..... | 135 |
| 6.2. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi..... | 139 |
| 6.3. Avtomobilsozlik sohasidagi islohotlar | 146 |
| 6.4. Bank-moliya sohasidagi islohotlar va ularning mazmun-mohiyati..... | 150 |
| 6.5. Soliq sohasidagi islohotlar | 158 |
| 6.6. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va unda belgilangan dolzarb vazifalar..... | 160 |

7-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTI- MOIY O'ZGARISHLAR

| | |
|--|-----|
| 7.1. Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat..... | 167 |
| 7.2. Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy himoya..... | 175 |

| | |
|--|-----|
| 7.3. Hozirgi bosqichda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va uning o'ziga xosligi..... | 195 |
|--|-----|

8-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MA'NAViy VA MADANIY TARAQQIYOT

| | |
|--|-----|
| 8.1. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi..... | 211 |
| 8.2. Milliy va diniy qadriyatlarga tayanish demokratik jamiyat qurishning muhim sharti | 218 |
| 8.3. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni..... | 232 |

9-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

| | |
|---|-----|
| 9.1. Mustaqillik-yillarida ilm-fanning rivojlanishi..... | 240 |
| 9.2. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishning yangi bosqichi..... | 246 |
| 9.3. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli..... | 255 |
| 9.4. Yoshlarga oid davlat siyosatini ta'lim sohasida amalga oshirilishi | 261 |

10-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

| | |
|--|-----|
| 10.1. Mustaqillik-yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida olib borilgan islohotlar..... | 268 |
| 10.2. Qoraqalpog'iston Respublikasida Mustaqillik-yillarida qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan islohotlar..... | 274 |
| 10.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida | 277 |
| 10.4. Qoraqalpog'istonda bunyodkorlik ishlari. Madaniyat va sport..... | 285 |

11-MAVZU: O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

| | |
|--|-----|
| 11.1. Tashqi siyosat asoslarining yaratilishi. O'zbekiston – BMT a'zosi..... | 293 |
|--|-----|

| | |
|---|-----|
| 11.2. MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik..... | 300 |
| 11.3. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qardoshlik aloqalari..... | 304 |

| | |
|--|-----|
| 12-MAVZU: YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI | |
| 12.1. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari..... | 321 |
| 12.2. Mustaqil O‘zbekiston milliy taraqqiyot modelining ishlab chiqilishi..... | 328 |
| 12.3. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning maqsad va vazifalari, yo‘nalishlari hamda asosiy konseptual g‘oyalari | 333 |

| | |
|--|-----|
| 13-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNI VA NUFUZINI ORTIB BORISHI | |
| 13.1. Xalqaro reyting va indekslar jahon miqyosida O‘zbekiston nufuzini oshiradi va mavqeini mustahkamlash..... | 347 |
| 13.2. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining tarixiy ahamiyati..... | 357 |
| 13.3. O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyalari va ularni yaxshilashda parlament vazifalari..... | 364 |

| | |
|--|------------|
| O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANI BO‘YICHA TESTLAR..... | 374 |
|--|------------|

| | |
|---------------------------------------|------------|
| IZOHLI LUG‘AT (GLOSSARIY)..... | 406 |
|---------------------------------------|------------|

| | |
|--|------------|
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | 417 |
|--|------------|

**RAHMONALI HASANOV, SHOXISTA O' LJAYEVA,
ODIL MUSAYEV**

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

O'quv qo'llanma

Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2022

| | |
|------------------------------|----------------|
| Muharrir: | Sh.Kusherbaeva |
| Rassom: | U.Ortiqov |
| Kompyuterda sahifalovchi: | Sh.Mirqosimova |



E-mail: tipografiyact@mail.ru Tel: 97-450-11-14, 93-381-22-07.

Bosishga ruxsat etildi 25.01.2022.

Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 26,50. Nashriyot bosma tabog'i 26,25.

Tiraji 500. Buyurtma № 4.

**«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Foziltepa ko'chasi, 22 b uy.**

ISBN 978-9943-7435-3-3



9 789943 743533